



O'ktam ABDINAZAROV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

E-mail: abdinazarov@mail.ru

P.f.n., professor S.Aliqulov taqrizi asosida

EMERGENCE STAGES AND DERIVATIVE CHARACTERISTICS OF HIPPOLOGICAL TERMS USED IN THE FIELD OF HOLIDAYS IN UZBEKI

Annotation

In this article, thoughts and opinions about the emergence, formation, study and lexicographical analysis of the terms related to hunting in the Uzbek language are highlighted, terms related to the field are analyzed.

Key words: Hippologic, argumoq, chura bedov, duldu, yabi, partal, chobir, pocket, jugruk horse.

ЭТАПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПРОИЗВОДНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИППОЛОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В СФЕРЕ ПРАЗДНИКОВ В УЗБЕКИ

Аннотация

В данной статье освещены мысли и мнения по поводу возникновения, формирования, изучения и лексикографического анализа терминов, связанных с охотой, в узбекском языке, анализируются термины, относящиеся к данной сфере.

Ключевые слова: Иппологика, аргумок, чура бедов, дулдул, яби, партал, чобир, карман, джугрук конь.

O'ZBEK TILIDA YILQICHILIK SOHASIDA QO'LLANADIGAN GIPPOLOGIK TERMINLARNING VUJUDGA KELISH BOSQICHLARI VA DERIVATSION O'ZIGA XOSLIKALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilida yilqichilikka oid terminlarning vujudga kelishi, shakllanishi, o'rganilishi va lug'atshunoslikdagi tahlili haqida fikr va mulohazalar yoritilgan, sohaga oid terminlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Gippologik, arg'umoq, churra bedov, duldu, yabi, partal, cho'bir, cho'ntoq, jugruk ot.

Tilning tarixiy taraqqiyoti to'g'risida so'z borganda umumxalq tili va adabiy til tushunchalari amal qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rinni va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mayjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'lomtoga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alovida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi.

Onomastika (onomastike - nomlash, nom qo'yish san'ati) - barcha atoqli nomlar yig'indisi, tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning o'zgarish tarixini, shuningdek, paydo bo'lishini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarda Onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. Onomastika mayjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quydagi bo'limlardan iborat: antroponimika - kishilarning atoqli nomlarini; toponimika - geografik joy nomlarini; teonimika - turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarni; zoonimika - hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlarni; kosmonimika - fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarining ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarni; astronomika - ayrim osmon jismilari (planetva yulduzlar)ning nomlarni o'rganadi. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot davridagi leksik xususiyatlar, ayniqsa, zoonimlar tarkibida saqlanib qolgan. Hayvon nomlari turkiy tillarning leksik taraqqiyoti, so'zlarning funktsional semantik xususiyatlari, tushuncha ifodalovchi nom sifatida shakllanishi haqida qimmatli va muhim ma'lumot beradi. Bugungi kunda lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika va boshqa yo'nalishlar doirasida zoonimlar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, ular zoologik terminlar misolida muayyan xalqqa xos xususiyatlarni o'rganishga xizmat qiladi. Turkiy tillarda ham hayvon nomlari bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari ham mayjud. Zoonimlar tadqiqi dastlab, Mahmud Koshg'ariydan boshlangan. Devonda

400 ga yaqin zoonimlar lug'ati keltirilgan bo'lib, jumladan 100dan ortiq qush nomi qayd etilgan. "Devonu lug otit turk" asarida turli sohalarga doir so'zlar bilan bir qatorda zoonimlar ham ifodalangan. Ma'lumki, zoonim yunoncha so'z bo'lib, hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar ma'nosini ifodalaydi. "Devon"dagi zoonimlarni hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan ikkita guruhga ajratish mumkin: hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan qadimgi turkiy zoonimlar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar jumlasiga echku (echki), tuyu, ayig', it, ilon, qo'y kabilarni aytilib o'tish mumkin. Ushbu so'zlarning til va lahjalarda turlicha ifodalishinini olim aniq ko'rsatib o'tadi. Turkiy tillardagi zoonimlarning leksik-grammatik xususiyatlari tadqiq qilingan. Xonaki hayvonlar leksikasini aks ettiruvchi chorvachilik, ovchilik terminlari o'rganilgan. Turkiy tillar leksikasi tadqiqi zoonimlar tahlili misolida olib borilgan. O'zbek tilidagi "hayvon" arxisemali so'zlar semantik maydon asosida tasniflangan.

Eski o'zbek tili davriga kelib yangi zoonimlar shakllana boshladi: topchoq//tupuchaq "chopqir ot"; kokavyan "so'na". Topchaq zoonimi ma'nosida qadimgi manbalarda agyatad so'zi qayd etilgan. Bu so'z hozirgi qirg'iz va tuva tillarida keng qo'llanadigan "katta tezlikda yugurmoq" ma'nosidagi argi= // argu= fe'l asosidan shakllangan. Hozirgi qozoq tili dialektlarida tobisaq "arg'umoq zotiga mansub uchqur ot"; qirg'iz tilida toburcak "yaxshi, katta tulpor, jangovar ot" ma'nolarida qo'llanadi. Manbalarda tobicag "g'arbiy mamlakatlarga xos ot"; topcaq at "arabi ot" ma'nolarida ham ishlataligan. Quyida birgina ot uvadoshligiga mansub so'zlarning turkiy tillardagi shakllari va ma'nolari borasida fikr yuritiladi. At (at) "ot", mo'g'ul mori(n); manchj. morin; tung. morin, murin, murgan, murgon, xelge; hozirgi turkiy tillarda at, merina - ayg'ir, yoq. emak (ot); turkman tilida col ati (cho'l oti), ala-bula at "ola ot". At (at) turkiy tillarda unli harflari bilan farqlanadi. Ozarbayjon, oltoy, balqar, boshqird, gagauz, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, qumiq, no'g'ay, tatar, turk, turkman, uyg'ur, xakas, yoqut tillarida - at, tuva tilida a'; o'zbek tilida of, chuvash tilida ul: At so'zidan tashqari turkiy tillarda "ot" (hayvon) ma'nosida beygir "ayg'ir", lasa jilki "yilki" va yont

“yond” so‘zlari ham qo‘llanadi. O ‘g‘uz tilidagi baytal va biya so‘zlari “urg‘ochi ot” ma’nosini bildiradi. Qisraq zoonimi o‘zbek tili shevalari, ozarbayjon tili va bir qator turkiy tillar shevalarida kuzatiladi. Qisraq so‘zining tuzilishi ikkita qismidan iborat: qsr / qisir va aq. Bu so‘z nafaqat ot, balki boshqa hayvonlarni ham bildiradi. Masalan, ozarb., turkm. gisir ; boshqa qozoq, tatar, o‘zbek tillarida qisir; xakas tilida xizir; chuvash xiser, gagauz tilida kisir; no‘g‘ay tilida kisir; qisir//qisraq “qisir” shaklida qo‘llaniladi. Qulun, tan “toychoq” - mo‘g‘. unaga(n), manchj., unaxan; tung, marikan, cader, muron , xnten, muran, enkecenni. Qulun, tay so‘zlari turkiy tillarda, umuman, har xil yoshdagi otlar guruhini anglatadi, hozirgi turk tilida umumiy holda “toychoq” ma’nosini bildiradi. Bu so‘z turkiy tillarda har xil fonetik ko‘rinishlarda uchraydi. Masalan, ozarb. gay, gayca, gulun; boshqi., gag., q.-qalp., qum., turk, turkm. tay, taycik, kolin; o‘zb. qulun, toy; uyg‘. tay taycak, chuv. tixa. xulun. Qulun (qulunak, quluncak, qulunagas) “bir yil lik toychoq” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda yosh otlar taycaq va qulun zoonimi bilan nomlangan. Ko‘pincha toy so‘zi bilan yoshi katta ot guruhlari atalgan. Hozirgi o‘zbek tilida toy uch yoshgacha bo‘lgan barcha otlarga, toychoq bir yoshgacha bo‘lgan otlarga nisbatan ishlataladi. Turkiy tillardagi ayrim zoonimlar taraqqiyotida funksional-semantic o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, yilqi Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida “hayvonlar to‘dasi” ma’nosida izohlangan. “Boburnoma”da “otlar to‘dasi” ma’nosini bildirgan. Yilqi terminining etimologiyasi (“yig‘moq”, “birlashtirmoq” so‘zidan - G.Vamberi) ham so‘z semanticasidagi umumlashtiruvchi semaga asoslanadi. Yilqi “bir joyga to‘pla” ma’nosidagi yil- fe‘lidan -qi affiksini qo‘shish orqali yasalgan(yil+qi = yilqi). Bu aslida “keng o‘tloqda erkin harakatlaniy yuruvchi hayvonlar to‘dasi”ni anglatgan. Eng qadimgi manbalarda, asosan, “qoramol” tushunchasini ifodalagan. Hozirda so‘z semantic strukturasida ma’no torayishi yuz bergan, faqat “otlar to‘dasi” ma’nosı anglashiladi. So‘zlashuv uslubida metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi natijasida “ot” tushunchasini ham bildiradi. Hozirgi turkiy tillarda ozarbayjon ilgi; tuva, xakas tilida cilgi “hali yogurtirilmagan ot” so‘zlari uchraydi.

Chorvachilik, ovchilik turkiy xalqlarda eng qadimiy soha hisoblanadi. Ayni paytda ular uchun hunarmandchilik, dehqonchilik kabi sohalar ham begona bo‘lmagan. Turkiy tillarning umumtaraqqiyot davridagi leksik xususiyatlar, ayniqsa, zoonimlar tarkibida saqlanib qolgan. Hayvon nomlari turkiy tillarning leksik taraqqiyoti, so‘zlarining funksional-semantic xususiyatlari, tushuncha ifodalovchi nom sifatida shakllanishi haqida qimmatli va muhim ma’lumot beradi. Bunday ma’lumotlarni ko‘plab tilshunoslar nazariyasida ko‘rishimiz mumkin. N.Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning lug‘aviy qatlarni mavzuviy jihaddon o‘n ikki guruhsiga ajratib talqin etadi. Tadqiqotlarda berilgan ma’lumotlarni umumlashtirigan holda, qadimgi turkiy til taraqqiyototining asosiy bosqichlarida keng iste’molda bo‘lgan so‘zlarni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratish mumkin : 1. Joy nomlari; 2.Etnik nomlar (urug‘ va qabila nomlari); 3. Kishi ismlari; 4. Gidrotoponimlar (daryo va ko‘llar nomi); 5. Zoonimlar (hayvon va parranda nomlari) quruqlik va suv hayvonlari nomlari kabi guruhlarga bo‘lgan. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birlıklar jismoniy sifat, tashqi ko‘rinish, karakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”. Ot, tuya, qo‘y, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobjiy ma’no belgilarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birlıklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil bo‘ldi. O‘zbekiston diyorida Yilqichilik an‘analari va madaniyati minglab yillar bilan o‘lchanadi. O‘zbeklar avlodи qadimdan otdan tushmagan. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Boburlar umri “ot ust”da o‘tgani. Yilqichilik – chorvachilikning kattagina bir tarmog‘i sanaladi. Boshqa xalqlar singari o‘zbek xalqi ham qadimdan yilqichilikni maxsus kasb etib kelgan. Natijada o‘zbek tilida yilqi boquvchilar, otlarni parvarish qiluvchilar, ularni o‘rgatuvchilar, ot bilan savdo qiluvchilar, ot abzallarini yasovchilarining o‘ziga xos atamalari paydo bo‘lgan. Gippologik (gippologiya – grek. hippo – ot+logiya, ya’ni ot haqidagi fan) terminologiyaning qarab chiqilayotgan tematik gruppasida asli o‘zbek (umumturkiy) qatlam mavjudki, bu yilqichilikka oid terminlarning qadimdan mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Xalq dostonlarida ko‘pgina zoonimlar bilan bir qatorda ot nomlari ham anchagina miqdorda uchraydi. Xalq dostonlarida otlarning o‘ttizdan ortiq turlari uchraydi. Bu nomlar o‘zining leksik-semantic xususiyatlariga semantic xususiyatlariga ko‘ra otlarning quyidagi belgilarini ifodalashga xizmat qiladi.

1. Otlarning jismoniy qobiliyatiga ko‘ra tasnifi:

a) Chopqir va chaqqon zotdar otlar: arg‘umoq (20, III), aspi, tozi (53, III), arabi ot (243, III), bedov ot (20, III), churra bedov (332, III), beli do‘ng ot (122, III), duldul ot (22, III), yugurik ot (67, III), so‘poq ot (264, III), to‘riq ot (158, III), tulpor ot (233, III);

b) Zoti past, yaroqsiz otlar: yobi ot (280, III), partal ot (39, III), cho‘mmoq ot (351, III), cho‘ntoq ot (242, III), cho‘bir ot (265, III).

Jismoniy qobiliyatiga ko‘ra farqlanuvchi bu ot turlarini ajralishiga quyidagi so‘zlar asos ajralishiga qo‘yidagi so‘zlar asos bo‘lib xizmat qiladi:

1. Tozi - manbalarda qayd etilishicha, tozi so‘zi arab xalqiga nisbatan ishlatalgan. Shuningdek, qadimgi turkiy manbalarda tozi terisi yo‘l-yo‘l, ola-bula otlarga nisbatan ham qo‘llangan. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”asarida “taz at” ana shunday izohlangan: taz at tafarchi bo‘lmas - terisi yo‘l-yo‘l olacha ot yuk tashiydigan bo‘lmaydi. Chunki uning tirnog‘i yomondir. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da tozi - arabcha chopag‘on ov iti; uchqur arabiy ot; chopqir ot, tulpor ma’nolarida izohlangan. Nazarimda, bu otning nomlanishi Mahmud Qoshg‘ariy qayd etib o‘tganidek, ot terisidagi belgi asos bo‘lib xizmat qilgan.

tasdiqlaydi. Xalq dostonlarida ko‘pgina zoonimlar bilan bir qatorda ot nomlari ham anchagina miqdorda uchraydi. Xalq dostonlarida otlarning o‘ttizdan ortiq turlari uchraydi.

Bugungi kunda tilshunoslikning barcha jabhalarida yangilik va o‘zgarishlar mayjud. Yilqichilikka oid terminlarning o‘rnii va ahamiyati borasida ham ilmiy va dunyoviy qarashlar mavjud. Yilqichilik - chorvachilikning yirik bir tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu soha otlarni urchitish, ko‘paytirish, zotini takomillashtirish va naslchilik ishlari bilan shug‘ullanadi. Yilqichilik ishchi hayvon tariqasida arzon, samarali energiya manbaidir. Yilqichilik Osiyo va Yevropada mil. av. 4-ming yillikda paydo bo‘lgan. Ko‘hna Yilqichilik markazlaridan biri, shubhasiz, O‘rtta Osiyo kengliklari hisoblanadi. Otlar mil. av. 2-ming yillikda O‘rtta Osiyodan Kichik Osiyoga, undan Afrikaga tarqalgan. Amerikaga otlar yevropaliklar tomonidan XVI asrda, Avstraliyaga XVII asrda keltirilgan. Otlar qo‘lga o‘rgatilganidan va xonakilashirilganidan keyin insонning ko‘pgina ishlarni bajarishda doimiy yordamchisiga aylandi, armiyada alohida otliq qo‘shinlar tuzildi. Ayrim xalqlarda yilqichilik oziq-ovqat mahsulotlari — go‘sht va sut olinadigan xo‘jalik tarmog‘i bo‘lib qoldi. Qadimgi turkiy tilda yosh otlar qadimgi Xitoy asfasonasidan “Bu otlarga minib, o‘lim bilmas mamlakatlarga yetib olsa bo‘ladi” jumlasini keltirib o‘tish mumkin. O‘zbek xalq dostonlari “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li”dagi Boychibor va G‘irotlar obrazlari bunga misoldir.

O‘zbekiston diyorida yilqichilik an‘analari va madaniyati minglab yillar bilan o‘lchanadi. O‘zbeklar avlodи qadimdan otdan tushmagan. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Boburlar umri “ot ust”da o‘tgani. Yilqichilik – chorvachilikning kattagina bir tarmog‘i sanaladi. Boshqa xalqlar singari o‘zbek xalqi ham qadimdan yilqichilikni maxsus kasb etib kelgan. Natijada o‘zbek tilida yilqi boquvchilar, otlarni parvarish qiluvchilar, ularni o‘rgatuvchilar, ot bilan savdo qiluvchilar, ot abzallarini yasovchilarining o‘ziga xos atamalari paydo bo‘lgan. Gippologik (gippologiya – grek. hippo – ot+logiya, ya’ni ot haqidagi fan) terminologiyaning qarab chiqilayotgan tematik gruppasida asli o‘zbek (umumturkiy) qatlam mavjudki, bu yilqichilikka oid terminlarning qadimdan mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Xalq dostonlarida ko‘pgina zoonimlar bilan bir qatorda ot nomlari ham anchagina miqdorda uchraydi. Xalq dostonlarida otlarning o‘ttizdan ortiq turlari uchraydi. Bu nomlar o‘zining leksik-semantic xususiyatlariga semantic xususiyatlariga ko‘ra otlarning quyidagi belgilarini ifodalashga xizmat qiladi.

2. Arabi, bedov - tarixda ajdodlarimiz tomonidan arab zotli otlarga alohida e'tibor berilgan. Dostonlarda uchraydigan bedov - arabcha, cho'lda yashovchi sahroyi ma'nosidagi badaviy so'zi bilan bog'liq bo'lib, mazkur so'zning ma'no ko'chishi natijasida arab oti, chopqir, uchqur singari sifatlarga ega bo'lgan ot ma'nosi yuzaga kelgan. O'zbek tilining izohli lug'ati»da bedav (forscha) - yugurik, uchqur yoki arabcha sahroyi ot ma'nolarida izohlangan. Dostonlarda chopqir arabi otlarni tavsiflashda churra so'zi ham ishlatiladi. Churra so'zi Radlovning qayd etishicha, turkiy tillarda mehnatkash ma'nosini ifodalaydi. Shunday qilib, churra bedov - chopqir, epchil, mehnatkash zotdor ot ma'nolaririni ifoda etadi.

3. Otlarning ijobjiy xususiyatlarini ko'rsatilishida beli do'ng epiteti ham ishlatiladi. Bu epitetning yuzaga kelishida klassik manbalarda qo'llangan dol so'zi (dol - arab alibosidagi ↗ ni ifodalovchi harf) asos bo'lib xizmat qilgan. Qiyoslang: M.Qoshg'ariya shunday izohlangan: jugruk at - yugruk ot. Poygada o'zib ketadigan chopqir ot.

4. Zoti past, chopish uchun yaroqsiz bo'lgan otlar uchun emotsional bo'yog'iga ko'ra salbiy so'zlar sifatlovchi (epitet) sifatida qo'llaniladi. Masalan, yobi so'zi qadimgi turkiy manbalarda va turkiy tillarda oriq, makkor, jahldor, yaramas, och hayvonlarga va shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida (forscha) - yuk tashuvchi, nasli past, xashaki ot ma'nosida ma'nosida izohlangan.

5. G'o'nan - ikki yoshli toy; mo'g'ul tilida uch yoshli ho'kiz (g'o'//du) yoki har qanday erkak hayvon. O'zbek tilining izohli lug'atida g'o'non - ikki yashar ayg'ir yoki qo'chqor tarzida izohlangan.

6. Do'nан - to'rt yoshli ot, shuningdek, to'rt yoshga kirgan har qanday uy hayvoni. O'zbek tilining izohli lug'ati do'non (mo'g'ulcha - to'rt yoshli) 1.Uch yoshga to'lib, to'rt yoshga o'tgan ot yoki tuya. 2. Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yan yoki echki tarzida izohlangan.

7. Qulun - bir bahorni ko'rgan toycha. Shuningdek, bir yoshga kirgan ot. Bulardan tashqari to'bichoq, toy, toyloq singari so'zlar ham otlarning yoshiga ishora sifatida qo'llaniladi. Masalan, O'TELda toy - otning ikki yashardan kichik bolasi tarzida qo'llangan bo'lsa, qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli tay tarzida talaffuz qilinganligi «Devon»dan ma'lum. O'zbek adabiyotida yilqichilik bilan bog'liq sinchi termini ham juda ko'p qo'llanilishi sir emas. Sinchi - otlarning (hayvonlarning) zotini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. "Algomish" dostonida otlarni ta'rifini, tavsifini aniqlaydigan Ko'sa sinchi, "Go'ro'g'li" dostonida To'liboy sinchi, "Ravshan" dostonida Tersak sinchi nomlari keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida o'z aksini topgan ot nomlari va boshqa yilqichilik bilan bog'liq terminlarning ko'pchiligi tilmiz tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab asrimiz boshlariga qadar bo'lgan katta tarixiy davrda faol iste'mol qilib kelingan lug'avyi birlıklarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan boshqa leksik birlıklar bilan bir qatorda bilan bir qatorda, yilqichilik terminlarining leksik-semantic tahlili tarixiy leksikografiya, leksikologiya, til tarixi, etimologiya singari sohalarni chuqur o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek milliy ensiklopediya Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 198-b
2. <https://uz.wikidea.ru/wiki/Hippology>
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 133-b
4. Древний тюркских словарь. – Ленинград: Наука, 1969
5. Mahmud Koshg'ariy.Devonu lug'otit turk. Uch tomlik.III tom.Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – Toshkent: O'zFA, 1963. 163-b
6. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 78-105-b
7. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Санктпетербург, 1905.219-c
8. Mannop Egamberdiyev. Sariq ajdar hamlasi: Tarixiy roman; (Rus tilidan tarjima). –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988-yil.



Nargiza ABDULLAYEVA,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,
E-mail:nargiza3967757@gmail.com

NamDChTI professori, f.f.d. N.Dosbayeva taqrizi asosida.

LEXICAL-SEMANTIC PROBLEMS OF ACHIEVING AN ALTERNATIVE IN THE TRANSLATION OF GENDER LEXICON

Annotation

In this article, the lexical-semantic problems in the representation of gender lexicon in language, its use in works of art and their translation in an alternative form are highlighted. Alternative translations of gender lexical units have been analyzed with practical examples.

Key words: Gender component lexicon, lexical-semantic field, generalization, antonomasia, gender units.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ АЛЬТЕРНАТИВНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКИ

Аннотация

В данной статье рассмотрены лексико-семантические проблемы языкового происхождения гендерной лексики, ее использования в художественных произведениях и их альтернативной формы переводчиками. На практических примерах были проанализированы соответствующие переводные соответствия гендерных лексических единиц.

Ключевые слова: Лексика с гендерным компонентом, лексико-семантическое поле, обобщенность, антономазия, гидрологические единицы.

GENDER LEKSİKASI TARJIMASIDA MUQOBILLIKKA ERISHISHNING LEKSİK-SEMANTIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada gender leksikasining tilda yuzagi chiqishi, badiiy asarlarda qo'llanilishi hamda tarjimonlar tomonidan ularni muqobil shaklini topib qayta yaratilishidagi leksik-semantik muammolar ko'rib chiqilgan. Gender leksik birliklarining mos tarjima muvofiqliklari amaliy misollar bilan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Gender komponentli leksika, leksik-semantik maydon, generalizatsiya, antonomaziya, gendrologik birliklar.

Kirish. Tilda so'zlar doimo bir- birini taqozo etadi va sintagmatik tarzda ya'ni so'z birikmasi yoki gap shaklida, paradigmatic holatda esa ma'lum leksik-semantik assotsiatsiyalar shaklida qo'shilib ketadi. Tilning leksik-semantik sohasining muhim xususiyati so'zlarni semantik o'xshashligi bo'yicha guruflashtirishdir. Bu tamoyil tilning leksik-semantik tuzilishini ta'riflash asosida so'zlar o'rtasidagi munosabatni aniq ifodalaydi[1]. Bundan tashqarsi tilshunoslikda leksik-semantik maydon tushunchasi ham mavjud bo'lib, semantik maydon nazariyasini asosida sohalararo alohida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, asosan, XX asrning 70-80 yillardan boshlandi. Gender tadqiqotlari esa leksik-semantik maydon bilan uzviy ravishda asosan feministlik harakatlar ta'sirida va ular bilan yaqin hamkorlikda shakllangan fanlararo o'rganish sohasi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek tilshunosligida ham gender masalasiga qiziqishlar natijasida qator tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

Gender leksikasining tilda yuzagi chiqishi, mualliflar tomonidan badiiy asarlarda qo'llanilishi hamda tarjimonlar tomonidan ularni muqobil shaklini topib qayta yaratilishida ham, o'z aksini topadi. Tarjima nazariyasida muvofiqlik uch turga bo'linadi va ular vazifaviy muvofiqlik, mazmuniy muvofiqlik hamda strukturaviy muvofiqliklardir[2]. Aynan shu muvofiqlikning mazmuniy turiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u tarjima va asliyatning mazmun va ma'no jihatdan to'liq mos kelishimi bildiradi. Tarjimada muvofiq matnlarning yaratilishi ikki matndagi o'zaro aloqada bo'lgan til muvofiqligini keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gender leksikasini badiiy asar tarjimasida muqobillik masalalari borasida rus tarjimashunoslida N.Komissarov, L.S.Baxrudarov, A.V.Fyodorov, Yu.S.Kulikova, E.Xabibulina, A.V. Vandalisheva, I.V.Zikova kabi olimlar gender leksikasini tarjimada aks etishi haqida teran fikrlar bildirganlar. O'zbek tarjimashunsoligida G'.Salomov J. Bo'ronov, Z. Sodiqov, M.Abduraxmanov,

N.Nasrullayeva, Sh.Gulyamova, G. Ergasheva, M.To'xtasinov, D.Quronov, Sh.Ulug'ova, Sh.Sobirova, M.Bahromova, N.Umarova va boshqalarining bir qator ilmiy izlanishlari, risololari gender leksikasini badiiy asar tarjimasida qayta yaratish masalalarini keng o'rganilishi va tadqiqiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar natijalari quydagi metodlardan foydalaniib, asosiy tahlillar olib borildi. Ta'riflash va analitik metod bu o'zbek va ingliz tillarini batatsil va tizimli o'rganishda tilshunoslarining nazariy asarlari o'rganish; o'rganilayotgan mavzularidan til (nutq) materialini doimiy ravishda tanlash metodi (ingliz yozuvchilarining asarlari va ularning o'zbek tiliga tarjimalari talqinida); qiyosiy-solishtirma metod (manba tili matnlari va tarjima matnlarining farqli jihatlari); gender komponentli birliklarni semantik tahlil qilish metodi va tarjimada ularning o'zgarish xususiyatlari.

Tahlil va natijalar. Har qanday tarjimada bir-birining o'rnini bosuvchi aynan bir xil yoki o'xshash juft birliklar mavjud. Til birliklarining muloqot qiymati uning semantikasi ya'ni ma'no mohiyatiga bog'liq. Shuning uchun tarjima muvofiqligi (teng ma'nolilik) tegishli til tizimida birliklarning o'zaro o'xshamagan joylarni egallashi bilan yaratiladi[3]. Fikrlarimizni amaliy tahlili sifatida ingliz adabiyoti feminist yozuvchilarini Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" hamda Sharlotte Brontening "Jeyn Eyr" romanlaridagi gender leksikasini tarjimonlar Rohila Axtamova va Fozil Tilovatovlar tomonidan berilgan o'zbek tilidagi talqinlari misolida qiyoslab, tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Oila a'zolari hamda qarindoshchilik munosabatlarini bildiruvchi gender leksikasi bilan badiiy asarlarda inson jinsini aniqlash.

Jamiyatning eng kichik yecheykasi hisoblangan oila va uning a'zolari hamma vaqt ikki jins vakillaridan tashkil topgan bo'lib, ularning oiladagi maqomlariga ko'ra har bir tilda o'ziga xos tarzda lisoniy birliklar mavjud. O'zbek tili lingvistikasida

“oila shajarası” iborasi bilan ingliz tilida esa “family tree” turg‘un birikmasi ostida jamlangan oila a’zolari hamda qarindoshchilik munosabatlarni bildiruvchi, genderlikni ifodalovchi leksika amal qiladi. Bu turkum leksemalarning xususiyatlarini o’rganish bilan bog‘liq muammolar, biringchi navbatda, fanlararo ahamiyatga ega va ular u yoki bu tarzda tilshunoslik, etnografiya, sotsiologiya kabi fan sohalarini qamrab oladi[4]. Bu guruhga tegishli gender komponentli leksikani tarjima qilishda tarjimon ko’p hollarda gender leksemalaring to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlaridan foydalanadi. Buning sababi ikki tilda, ya’ni o‘zbek va ingliz tillarida shu turkum leksemalarning aksariyatida bir-biriga mos keluvchi lug‘aviy so‘zlarning mayjudligidir. Albatta ba’zi bir farqlar bundan mustasno va bu kabi alohida holatlarda, ushbu leksik birlilik guruhini tarjima qilishda biz generalizatsiya (umumlashtirish) va qisman almashtirish hodisasini kuzatamiz. Fikrlarimizni Charlotte Brontening “Jeyn Eyr” asaridan olingan quyidagi misollar tahlili bilan davom ettiramiz. “Meantime, Mr. Rochester had again summoned the ladies round him, and was selecting certain of their number to be of his party. “Miss Ingram is mine, of course,” said he: afterwards he named the two Misses Eshton, and Mrs. Dent.”[5]. Tarjimon Fozil Tilovatov talqinida ushbu parcha o‘zbek tilida quyidagicha berilgan. “Shu orada mister Rochester yana xonimlarni xuzuriga chorlab, ularndan ba’zilarini o‘z guruhiga tanlab oldi. – Miss Ingram, albatta, mening yonimda bo‘ladi. – Shundan keyin u opa-singil Eshtonlar va missis Dentni tanladi.”[6] Ko‘rinib turganidek, asliyatda shu birligina kichik parchada genderlikni ifodalovchi o‘nlab leksik birliklar mavjud va ular tarjimon mahorati bilan turli usullarda o‘zbek kitobxonlariga yetkazishga harakat qilingan. Shulardan biz fikr yuritayotgan oila a’zolari va qarindoshlik munosabatlarni bildiruvchi leksemalarni asliyatda uchratmadik, lekin “two Misses Eshton” iborasisini tarjimon “opa-singil Eshtonlar” tarzida tarjima qilish bilan, ma’no jihatdan bir oilaning ikki qiziga murojaat qiladi. Tarjimon so‘zma-so‘z tarjima qilishdan voz kechgan holda, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qisman almashtirish usuliga yuzlanadi va buning natijasida yuqori muvofiqlikka erishgan deyish mumkin xuddi shu asarning oilaviy meros masalalarini tasvirlovchi qismiga nazar tashlaymiz. “Jane, you will wonder at us and our mysteries,’ she said, ‘and think us hard-hearted beings not to be more moved at the death of so near a relation as an uncle; but we have never seen him or known him. He was my mother’s brother. My father and he quarrelled long ago.” “Jeyn, bularning baridan taajjubda bo‘lsangiz kerak, judayam sirli so‘zlashdik,- dedi u- Ehtimol, bizni qalbi qo‘tir, mehrsiz deb o‘ylagandirsiz. Yaqin bir qarindoshimiz olamdan o‘tsa-yu, bu xabarni biz shu alpozda qarshilasak, buni yana qanday izohlash mumkin, lekin uni biz umuman bilmaymiz. U onamizning akasi bo‘ladi. Otam uzoq vaqt u bilan chaplashib yurgan.” Har ikki parchada, asliyatda ham tarjimada ham ifodalananayotgan gender komponentli leksemalar, jumladan ingliz tilidagi “mother’s brother, father” o‘zbek tiliga o‘z lug‘aviy ma’nosini bilan ya’ni “onamizning akasi, otam” tarzida tarjima qilingan. Faqat “uncle” leksemasi tarjimada tushurib qoldirilgan va buning sababi sifatida asliyatda izoh sifatida berilgan “He was my mother’s brother” gapining tarjimasi yetarli deb o‘ylaymiz, chunki semantik jihatdan ingliz tilidagi “uncle” leksemasi o‘zbek tilida “tog‘a”(onaning akasi yoki ukasi) hamda “amaki”(otaning akasi yoki ukasi) leksemalariga ekvivalent hisoblanadi. Tarjimonning bu o‘rindagi yutug‘i takroriylikdan voz kechgan holda umumilashtirishni ma’qul ko‘rganligini e’tirof etamiz, bu esa uni asar tarjimasidagi gender leksikasi muvofiqligiga erishishda to‘g‘ri yo‘ldan borganligini ko‘rsatadi.

Kasbiy faoliyat turlarining gender leksikasiga bog‘liqlik jihatlari.

Kasb-hunarni bildiruvchi jinsga xos leksemalar ham tadqiqot uchun maxsus qatlama hisoblanadi. Kasbiy faoliyat turlarini ifodalovchi lisoniy birliklarni ikki turga bo‘lish mumkin. Ular har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlari natijasida shakllangan leksemalar hamda insonlarning kasbiy vazifalari orqali paydo bo‘lgan leksemalardir. Ijtimoiy hayotda asosan erkaklar kasbiy faoliyat bilan ko‘proq shug‘ullanganliklari sababli lingvistikada kasb-hunar nomlarining ko‘pchiligidagi erkaklik konsepti turg‘unlashuviga olib kelgan, albatta ayollar uchun xos bo‘lgan kasblarni bu o‘rinda mustasno qilib o‘tish lozim. Masalan, o‘zbek tilida dehqon, savdogar, tadbirkor kabi so‘zlar bilan ayol

kishini nomlash odatda ushbu so‘zlarini ayol so‘zi bilan bog‘lashni taqazo qiladi: tadbirkor ayol, savdogar ayol. Bundan tashqari, jins kategoriyasi mavjud bo‘lgan tillarda ham ayollik jinsini bildiruvchi kasbga oid so‘zlar odatda erkaklik jinsini anglatuvchi so‘zdan hosil qilinadi. Ushbu holat uchun rus tilidagi учитель-учителница, ingliz tilidagi steward-stewardess leksemalarini misol tariqasida olishimiz mumkin[7]. O.Xamzayevning ta’kidlashicha, har bir tilda gender farqlarni yaqqol namoyon qiluvchi kasb-hunar nomlari o‘z ma’no xususiyatiga ko‘ra shaxs nomlari semantik maydoniga mansub bo‘lib, ular ham o‘z o‘rnida mavzuviy guruhlarda birlashadilar. Jumladan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, savdo-sotiq, hunarmadchilik, dehqonchilik va bog‘dorchilik, sport hamda ijtimoiy sohalar bilan bog‘liq kasb-hunar nomlarni alohida guruhlarda turkumlashimiz mumkin[8]. Bu kabi kasblar nomlarni ko‘rsatuvchi umumiyligi gender komponentli leksikani tarjima qilishda, aksariyat hollarda, biz yuqorida ta’kidlab o‘tilgan insonlarning kasbiy vazifalari orqali paydo bo‘lgan leksemalarda, asliyat va tarjima orasidagi ekvivalentikrning to‘liq mos kelishini kuzatamiz va millatning madaniyatida va urf-odatlari natijasida paydo bo‘lgan leksemalarda tavsiflovchi tarjima yoki qisman almashtirish kabi tarjima o‘zgarishlariga duch kelamiz. Misollarga yuzlanadigan bo‘lsak, “Wade could have nourishing food to fill out his thin cheeks and warm clothes and a governess and afterward go to the university ... and not grow up barefooted and ignorant like a Cracker”[9]. “Do‘mboqqina bo‘lishi uchun Ueydni ham yaxshilab boqishi va kiyintirishi, unga muallim yollashi, keyin esa qashshoq singari yalandoyq va savodsiz bo‘lib o‘smasligi uchun universitetga o‘qishga jo‘natishi...mumkin bo‘ladi.” [10] asliyatda kasbga oid leksik birlilik sifatida “governess” so‘zi (rus tilida -губернантка, воспитательница tarjimasida keladi) [11] qo‘llanilgan va genderlik nuqtai nazardan u ayol jinsini ifodalaydi, chunki tarkibida “ess” suffaksi mavjud bo‘lib, ma’no jihatdan ingliz madaniyatida uyga yollanib bilim beruvchi ayolni tushuniladi. Tarjimon Roxila Axtamova yaxshi reseptor sifatida, ushbu gender leksikasini “muallim yollash” iborasi orqali ochib bergen va qisman muqobillikka ega bo‘lgan so‘z bilan yondosh tavsiflovchi leksemani birkirish natijasida to‘liq muvofiqlikka erishgan deyish mumkin. Fozil Tilovatovning kasbiy faoliyatga oid genderlikni ko‘rsatuvchi lisoniy birliklar tarjimasiga yondashuvini quyidagi misollar bilan izohlaymiz. “I was glad of it: I never liked long walks, especially on chilly afternoons: dreadful to me was the coming home in the raw twilight, with nipped fingers and toes, and a heart saddened by the chidings of Bessie, the nurse, and humbled by the consciousness of my physical inferiority to Eliza, John, and Georgiana Reed.” “Menga qolsa, xuddi ko‘nglimdagisi bo‘ldi: tabiatian havoning sovug‘ida, boz ustiga kechki payt uzoq sayr qilishni xush ko‘rmasdim. To‘g‘risi, qahratonda qo‘l oyoqlaring muzlab, bor-yo‘qligini sezmay qolgan chog‘ing enaga Bessining yurakni uvishadiragan ming‘irlashlarini eshitish, Eliza, Jon va Jorjiana Ridlarning haqoratomuz nigohlariga dosh berish uchun sayrdan uyga qaytishdan azobliroq narsa yo‘q edi.” Asliyatda berilgan kasbiylikni bildiruvchi leksema “nurse” tarjimon tomonidan “enaga” tarzida o‘girilgan va ushbu so‘zni ingliz tilida quyidagi ta’riflari mavjud: a person whose job is to take care of sick or injured people, usually in a hospital; a woman or girl whose job was to take care of babies or small children in the children’s own home[12]. Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tarjimon ushbu gender leksemasining ikkinchi ma’nosini ifoda etuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos o‘zbekcha muqobilini topa olgan va samarali natijaga erishgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadi, ushbu guruhdagi gendrologik birliklar tarjimada o‘z ekvivalentligiga ega bo‘ladi yoki jinsni belgilash uchun yondosh leksika yordanga keladi.

Antonomaziyalar bilan genderlikni aks ettirish.

Jamiyatning rivojlanishi va undagi erkak va ayol rollarining o‘zgarishi boshqa fanlar qatorida lingvistikada ham o‘z aksini topib boradi va bu badiiy asarlarda genderlikni namoyon bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadi, tilning turli davrlarida gendrologik tushunchalardan foydalilanigan va ular doimiy rivojlanishda bo‘lganlar.[13] Buning oqibatida tarixiy shaxslarning nomlari, qahramonlar ismlari, muqaddas avliyolar va ins-jinslarning atamatlari hozirgi kunda ham badiiy adabiyotlarda gender

leksikasining bir bo'lagi sifatida qo'llanilib kelinadi. Tilshunoslikda antonomaziya hodisasi aynan yuqoridagi fikrlarimizga mutanosib holda hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan badiiy asar qahramonlariga, tarixiy voqe va afsonalarga ishora qilishdir va bu tushuncha o'zbek adabiyotshunosligida "talmeh" ba'zan "talmih" shakllarida ham uchraydi.[14] Antonomaziyalar badiiy adabiyotda ijodkorming subjektiv munosabatini ifodalab, matnni shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ular badiiy asarlarda metaforik ma'noda qo'llanilib, badiiy san'at va uslubiy figuralar yaratishga asos bo'ladi.[15] Masalan o'zbek adabiyotida "To'maris, Barchinoy" kabi xalq qahramonlari ayol jinsimi ko'rsatsa, "Alpomish, Go'ro'g'li" nomlari erkaklarni yodga soladi. Bundan tashqari turli xalqlarning diniy e'tiqodini ko'rsatuvchi muqaddas kitoblarda yozilgan avliyo-anbiyolarning ismlari (ilk Odam Ato bilan Momo Havvo nomlari ila bosqlangan), ins-jinslarning (farishta, iblis kabilar) nomlari tez-tez badiiy asarlarda uchrab turadiki, bularning ma'nolari ortida albatta erkak va ayol jins vakillari tushuniladi. Murakkab tarjima jarayonida bu kabi gender ifodalovchilarini tarjimonlar asosan lug'aviy ma'nolariga yuzlangan holda tarjima qiladilar, chunki diniy qarashlar ortida doimo millat ruhi, e'tiqodi, qadr-qimmati yotadi va har qaysi tarjimon bu masalada ehtiyyotkor bo'lishga intiladi. Fikrlarimizni misollarda ko'rib chiqamiz. "Wicked and cruel boy! I said. 'You are like a murderer-you are like a slave-driver-you are like the Roman emperors!' I had read Goldsmith's History of Rome, and had formed my opinion of Nero, Caligula, &c. Also I had drawn parallels in silence, which I never thought thus to have declared aloud." "-Ha, yashshamagur, yovuz qonxo'r!- qichqirdim men. -Sen xuddiki qashqirsan,

qullarning nazoratchisiday shafqatsizsan. Sen Rim imperatori Kaligulaga o'xshagan yirtqichsan! Men Goldsmitning "Rim tarixi" kitobini o'qigandim. Undan, Neron, Kaligula singari turanlar haqida muayyan bir tasavvurga ega edim.Ularni anchadan buyon Jon Rid bilan qiyoslab ham yurardim, ammo uni baralla, yana uning o'ziga aytaman deb o'ylamagandim." Ushbu parchada Charlotte Bronte tonomidan tilga olingan "Goldsmith, Nero, Caligula" tarixiy shaxslar nomlari bizga genderlikdan xabar beradi va kontekst orqali ularning biri yozuvchi yana boshqalar esa imperator bo'lganliklari va ular asarda erkak jins vakillari sifatida namoyon bo'lishlarini anglab olishimiz tayin. Lekin tarjimon Fozil Tilovatov talqinida bu kabi shaxs nomlari bilan ularning vazifaviy yondosh leksemalari "Rim imperatori Kaligula, Goldsmitning kitobi, Nero, Kaligula singari turanlar" tarzida berilgan, bundan tashqari izoh sifatida "Oliver Goldsmit(1730-1774) "Rim tarixi" asarida quadratl rim imperiyasining taskil topishidan G'arbiy Rim saltanatining qulashigacha bo'lgan voqealarni bayon qilgan" jumlalari qoldirilgan. Ushbu turkuma kiruvchi gender leksikasini transformatsiyasida transliteratsiya hamda izohlash usullaridan foydalish ko'proq natija berishini mutarjimining tarjimasi orqali ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqorida sanab o'tilgan gender leksikasining leksik-semantik jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda so'zlarning jinsi belgilari yordamchi leksemalar tonomidan ta'minlanadi yoki kontekst orqali anglashiladi. Ushbu guruh leksemalar tarjimasi muvofiqligiga erishishda transliteratsiya, konkretlashtirish, izohlash, generalizatsiya va sinonimlar bilan almashtirish kabi transformatsiya turlari qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Axmedova M. Zamonaviy tilshunoslikda semantic maydon tushunchasi va uning o'rganilishi//Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar , № 10. 2023.- B. 26
2. Sirojiddinov.Sh. Odilova.G. Badiiy tarjima asoslari.-Toshkent: Mumto`z so`z, 2011.-B.16
3. Раҳимов. Ф. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик мажмуа.- Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2016. – B.16
4. Хабибуллина. Э. Языковые трансформации при переводе татарской литературы на турецкий язык: кан. фил. наук.....автореф.- . Казань, 2016.-C.19
5. Bronte. Ch. Jane Eyre.- Free eBooks at Planet eBook.com. -P.277
6. Бронте.Ш. Жейн Эйр.-Таржимон Фозил Тиловатов.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.-Б. 291
7. Abdulimova. M. O'zbek tilining o'ziga xos genderga ehtiyoji//Magistrlar. Google scholar, 2023.-B 117
8. Xamzayev. O. O'zbek tilida kasb-hunarga oid leksikaning semantic tasnifi//Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. To'plam 20, 2023.-B 102
9. Mitchell.M. Gone with the wind. –USA: Warner books edition,1993.-P.470
10. Митчелл.М. Шамолларда колган хисларим: роман (II китоб)/-Тошкент:Pravo-press,2020.-Б. 78
11. Англо-русский словарь. Издательство "Советская Энциклопедия". Москва, 1967.- C.324
12. https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/nurse_1
13. Schmitova.M. Semantics of gender marked nominations of person in English//Journal of interdisciplinary research, 2020.- B 62-65
14. Saidov Yo. Antonomaziya va metaforalarning o'zaro munosabati// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. Volume 1 Issue 3, 2021.- B.472
15. Achilova R. O'zbek tilidagi antonomaziyalarning ma'nosi// International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages". Volume . Special issue 20, 2022.- B.524



Madina ABDULLAZODA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E-mail:madinaabdullazoda0828@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

POLITENESS AS A SOCIAL-CULTURAL PHENOMENON

Annotation

This article explores the relationship of politeness and society. Society plays a significant role in shaping politeness in various cultures and languages. Understanding the social peculiarities that influence politeness is crucial for effective communication in diverse cultural contexts. This article aims to explore the relationship of society and politeness in various cultures.

Key words: Politeness, society, cultural differences, politeness theories, politeness markers

ВЕЛИЧНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЙ ФЕНОМЕН

Аннотация

В данной статье исследуется взаимосвязь вежливости и общества. Общество играет значительную роль в формировании вежливости в различных культурах и языках. Понимание социальных особенностей, влияющих на вежливость, имеет решающее значение для эффективного общения в различных культурных контекстах. Целью данной статьи является исследование взаимоотношений общества и вежливости в различных культурах.

Ключевые слова: Вежливость, общество, культурные различия, теории вежливости, маркеры вежливости.

XUSHMUOMALALIK - IJTIMOIY-MADANIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola xushmuomalalik va jamiyat munosabatlarini o'rganadi. Jamiyat turli madaniyatlar va tillarda xushmuomalalikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xushmuomalalikka ta'sir qiluvchi ijtimoiy xususiyatlarni tushunish turli xil madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola turli madaniyatlarda jamiyat va xushmuomalalik munosabatlarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: odob, jamiyat, madaniy farqlar, xushmuomalalik nazariyalari, xushmuomalalik belgilari

XX asrning 70-80 yillarda ilk sotsiolingvistik tadqiqotlar olib bora boshlangan. Bu yo'nalishdagi izlanishlar inson va jamiyat o'rtaida o'zaro bog'liqlik va zamon talabiga ko'ra o'zgarishlar asosida shakllangan. Xushmuomalalik hodisasi ham inson va uning atrofidagi sotsiumda shakllangani bois ilmiy izlanishlar mavzusiga aylandi. Xushmuomalalik hodisasini o'rganish uchun ilk qadamlar XX asrning 60-oxiri 70-yillarda boshida boshlangan. Insomning qay darajada xushmuomalalik bilan munosabatga kirishining turli xil ijtimoiy sabablari bor. Bu turfa xillik albatta so'zlovchining nutqida til vositada namoyon bo'ladi.

Xushmuomalalik hodisasini tadqiq qilgan mashhur olimlar Braun va Levinson bu hodisani quydagicha tariflaydi: "Xushmuomalalik, bu keng ma'noda, inson tili va madaniyatida juda keng tarqagan kommunikativ xatti-harakatlar shaklidir; shuningdek, u insoniyat jamiyatining universal hodisasi sifatida tasdiqlangan"[1] Anglashiladiki, xushmuomalalik insomning muloqotga kirishida muhim ahamiyat kasb etadi va u inson va u yashab turgan jamiyat madaniyatini bilan chambarchas bog'liqdir.

Xushmuomalalik hodisasingin lingvistik tadqiqi tarixini davrashtirish[2] quydagicha:

Grays yoki klassik yondashuv bosqichi.

Diskursiv (postmodern) yondashuv bosqichi.

Sotsiologik yondashuv bosqichi.

Birinchi bosqich Grays bosqichi yoki klassik yondashuv deb nomlanadi. Bu bosqich dastlab P.Grays, J.Lich va J.Ostin lingvistik falsafasining asosiy qoidalariiga asoslangan asarlarni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqich XX asrning ikkinchi yarimida tadqiqot ishlarini olib borgan R.Lakof[3], P.Braun va S.Levinson[4]larning davriga mos keladi. Ular xushmuomalalikni "jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq-atvor ko'rinishi" sifatida ta'riflaydi hamda xushmuomalalikni insonlar o'zaro muloqotidagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida ham o'rganishi zarurligini ta'kidlashadi. Bu yondashuv vakillari xushmuomalalik kategoriyasini pragmatik jihatdan tahlil qilishga harakat qilgan.

P.Grays xushmuomalalik kategoriyasini nutqda qo'llanishi borasida quyidagi to'rtta qoidani taklif qiladi:
1) sifat qoidasi (rostgo'y bo'ling) – Maxim of Quality (Be true);

2) miqdor qoidasi (qisqaroq so'zlang) – Maxim of quantity (Be brief);

3) munosabat qoidasi (muvofig/aloqador bo'ling) – Maxim of Relation (Be relevant);

4) odob qoidasi (aniq bo'ling) – Maxim of Manner (Be clear)[5].

Yuqorida nomi zikr etilgan qoida turlari "Xushmuomalalik kategoriysi qoidalari" mavzusi doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, olim bu qoidalarni o'z jamiyatni tamoyillaridan kelib chiqqan holda yoritganligini va bu tushuncha universal xushmuomalalikni nazarda tutganligini aniq isbotlay olmagan. Lekin inglez olimi Robin Lakoff "What you can do with words: politeness, pragmatics and performatives" ("So'z nimalarga qodir: xushmuomalalik, pragmatika va uning ijomchilarini") asarida yuqorida ko'rsatilgan to'rt qoidani izhil tahlil qilib, unga asoslangan holda xushmuomalalik tadqiqi uchun uch tamoyilni tavsija etadi:

1) muloqotda bosim o'tkazmang va masofa saqlang;

2) muloqotda suhbатdoshga tanlov imkoniyatini bering va hurmat ko'rsating;

3) muloqotda tinglovchilarining o'zlarini erkin his qilishlarini ta'minlang va do'stona kayfiyat bering[6].

Ikkinci bosqich lisoniy xushmuomalalik fenomenini o'rganishning diskursiv (postmodern) yo'nalishi bosqichi deb ataladi. Bu bosqich asosi P.Braun va S.Levinson[7]J.Lich[8]kabi olimlarning nazariyalarini qamrab oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, xushmuomalalikka diskursiv (postmodern) nuqtayi nazardan yondashuv XX asrning 90-yillarda boshida P.Braun va S.Levinsonlar tomonidan aniqlangan "Universal xushmuomalalik nazariyasi"ning turli kamchiliklariiga ko'plab tilshunoslarning munosabati ko'rinishida vujudga kelgan.

Uchinchil bosqich so'nggi bir necha yil ichida tom ma'noda kuzatilgan sotsiologik (o'zaro) yondashuvda lingvistik xushmuomalalikni o'rganishdagi burilish bilan bog'liq.

Klassik xushmuomalalik nazariyalarini va diskursiv yondashuvdan farqli o'laroq, sotsiologik (interaktiv) yondashuv xushmuomalalikni ijtimoiy amaliyot (social practice) sifatida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Xushmuomalalik nafaqat tilshunoslar balki sotsiologlar, psixologlar tomonidan turli maqsadlarda tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib kelinmoqda. Turli soha olimlar tomonidan "xushmuomalalik" tushunchasi o'rganilan, qilingan izlanishlar natijasiga ko'ra, "xushmuomalalik" ga turlicha tariflar berilgan. Quyida tilshunoslar tomonidan berilgan izohlar beriladi.

Ilk marotaba xushmuomalalikni lingvistik nuqtai nazardan izohlagan olim Robin Lakof hisoblanadi. Uning fikricha: " Xushmuomalalik turli jamiyatlar tomonidan ishlab chiqilgan tushunchadir, uning vazifasi shaxsiy muloqotda kelishmovchiliklarni kamaytirishdan iboratdir"[9].

Braun va Levinson tilshunoslikda xushmuomalalikni ikki turga ajratgan holda tahlil qilgan olimlar sifatida tarixda qolgan. Ularning fikricha, xushmuomalalik yuz tahdidlarini yumshatish uchun foydalilanidigan murakkab tizimdir va u o'z navbatida ikkiga bo'linadi; salbiy xushmuomalalik va ijobjiy xushmuomalalik[10].

Tilshunoslar xushmuomalalikning ikki turini farqlaydilar: mos ravishda birinchi darajali (Xushmuomalalik1) va ikkinchi darajali (Xushmuomalalik2). Bu farq lingvistik xushmuomalalik adabiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu sohadagi eng asosiy va uzoq davom etganlardan biri hisoblanadi. Boshqa tomonдан, Freyzer xushmuomalalikning to'rtta tasnifini taklif qiladi: ijtimoiy-me'yor ko'rinish, suhbat-maksimal ko'rinish, yuzni saqlaydigan ko'rinish va suhbat-shartnomasi ko'rinishi[11]. Xuddi shu to'rttalik tasnifni quyida muhokama qilinadigan birinchi va ikkinchi darajali xushmuomalalik asosida ikki toifaga bo'lish mumkin.

I. Birinchi darajali xushmuomalalik

Birinchi darajali xushmuomalalik ijtimoiy xushmuomalalik deb ataladi, bu Kasper so'zlariga ko'ra, "to'g'ri

ijtimoiy xulq-atvori va boshqalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishni" anglatadi[12]. Freyzer birinchi darajali xushmuomalalikni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy moslik (o'z terminologiyasida ijtimoiy norma ko'rinishi va suhbat shartnomasi ko'rinishi) deb biladi. Uotts birinchi darajali xushmuomalalik uchun muloyim xattiharakatlar atamasini taklif qiladi. U xulq-atvorning ikkita aniq shaklini ajratib beradi: muloqotning buzilishiga olib keladigan odobsiz xatti-harakatlar va "boshqalar oldida shaxsning obro'sini oshiradigan" muloyim xatti-harakatlar[13].

II. Ikkinci darajali xushmuomalalik

Ikkinci darajali xushmuomalalikni Kasper "til harakatda ratsional funktsiyani ifodalash usullari"ning pragmatik tushunchasi sifatida ko'radi. Freyzerga kelsak, ikkinchi darajali xushmuomalalik lingvistik nuqtai nazardan (so'zlashuv-maksimal ko'rinish va yuzni tejash ko'rinishi) ko'rildi. Uotts fikricha, siyosiy xulq atamasi ikkinchi darajali xushmuomalalikni anglatadi. U siyosiy xulq-atvoni "ijtimoiy guruh shaxslari o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarni o'rnatish va muvozanat holatida saqlash maqsadiga qaratilgan ijtimoiy-madaniy jihatdan aniqlangan xatti-harakatlar" deb ta'riflaydi, boshqacha qilib aytganda, Uottsning siyosiy xulq-atvori ijtimoiy muvofiqlikning kengroq kontseptsiyasi bo'lib, undan tor odoblilik tushunchasi kelib chiqishi mumkin.

Lich ikkinchi darajali xushmuomalalikni "strategik nizolardan qochish" deb ta'riflaydi, u "mojaroli vaziyatdan qochish uchun sarflangan sa'y-harakatlar darajasi" va "hamjihatlikni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash" bilan o'chanishi mumkin. Bu strategik ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, mojarodan qochish insoning xushmuomalalik bo'lishining ongli harakatlarini sifatida ko'rildi[14].

Xushmuomalalik tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda keng ko'lamma o'rganilayotgan masalalardandir. Shu kungacha turli nazariyalar, yondashuvlar, qarashlar orqali tadqiq qilingan va davom etmoqda. Xushmuomalalik inson yashab turgan jamiyatda o'z hayotiy ehtiyojlarini yetarli darajada qondirish uchun muhimligi bois va uning ijrosi til va nutq orqali namoyon bo'lganligi bois tadqiqotlar obyetki bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Brown P.,&Levinson S. Politeness Universal in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987
2. Леонтьев В.В. Лингвистическая (не)вежливость: к проблеме содержания категории. Экология языка и коммуникативная практика. 2016. № 1. С.73
3. Lakoff R.T. The logic of politeness or minding your P's and Q's. Papers from the Ninth Regional Meeting of Chicago Linguistic Society. – Chicago: Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. 2nd ed. – Cambridge: CUP, 1987. – 213 p. (P.345)
5. Grice P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole, & J. L. Morgan. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3, Speech Acts. – New York: Academic Press. pp. 41-58.
Uzbek: Gender-specific terms of address are common in Uzbek culture, such as "Aka" for males and "Opa" for females in informal contexts. In formal settings, gender-neutral terms like "Usta" (master) or "Muallim" (teacher) may be used to address individuals respectfully.

3. Social Status:

English: Social status influences addressing norms in English, with formal titles used for individuals of higher status or authority, such as "Dr." for doctors, "Professor" for educators, or "Honorable" for dignitaries and officials.

Uzbek: Social status is highly regarded in Uzbek culture, and individuals of higher status are addressed with appropriate honorifics and titles. For example, addressing a respected professional or elder with terms like "Usta" or "Shayx" (scholar) reflects deference and recognition of their status.

4. Nationality:

English: Addressing individuals based on nationality may involve using nationality-specific titles or terms of respect, such as "Ambassador" for diplomatic representatives or "Your Excellency" for foreign dignitaries.

Uzbek: Nationality may not play a significant role in addressing norms in Uzbek culture unless addressing foreign dignitaries or guests, where respectful titles like "Sayyid" (lord) or "Aristocrat" may be used to acknowledge their nationality and status.

Direct vs. Indirect Communication:

In English communication, directness is highly valued, particularly in professional settings, where clarity, efficiency, and precision are paramount. This preference for direct communication is evident in various linguistic strategies and conversational norms.

1. Clear and Concise Language:

- Example: "Please send the report by Friday."

- Analysis: Direct and to-the-point sentences like this prioritize clarity and convey the intended message without ambiguity or unnecessary details.

2. Active Voice and Specificity:

- Example: "I completed the project on time."

- Analysis: Using the active voice and specific details in statements helps in clearly attributing actions and responsibilities, avoiding confusion or misunderstandings.

3. Direct Questions and Requests:

- Example: "Can you provide more details about this issue?"

- Analysis: Direct questions and requests facilitate efficient communication by seeking specific information or actions directly, without beating around the bush.

4. Elimination of Ambiguity:

- Example: "The meeting starts at 9 a.m."

- Analysis: Statements like this leave no room for misinterpretation, ensuring that the message is understood clearly and accurately.

5. Professional Jargon and Terminology:

- Example: Using industry-specific terms and terminology relevant to the context.

- Analysis: In professional settings, the use of specialized vocabulary and jargon contributes to precise and effective communication among professionals who share a common understanding of technical terms.

6. Feedback and Critique:

- Example: "Your presentation lacked detailed analysis. Please include more data next time."

- Analysis: Providing direct feedback and constructive criticism helps in improving performance and clarifying expectations, promoting continuous improvement and growth.

7. Clarity in Written Communication:

- Example: Using bullet points, headings, and subheadings in reports or emails to organize information logically and enhance readability.

- Analysis: Structuring written communication clearly and logically aids in conveying complex information effectively, ensuring that the reader can easily grasp key points and details.

Direct communication in English prioritizes clarity, efficiency, and precision through the use of clear and concise language, active voice, specific details, direct questions and requests, elimination of ambiguity, professional terminology, direct feedback, and clarity in written communication. These strategies contribute to effective communication, especially in professional and business contexts, where clarity and understanding are essential for successful collaboration and decision-making.

In Uzbek communication, especially in sensitive matters, indirect communication and circumlocution are often employed to maintain harmony, avoid causing offense, and preserve face. These linguistic strategies reflect cultural values such as politeness, respect, and the avoidance of confrontation.

1. Indirect Requests and Suggestions:

- Example: "It would be nice if we could discuss this further."

- Analysis: Indirect requests like this are used to suggest a course of action without directly commanding or imposing, allowing the recipient to respond without feeling pressured.

2. Softening Statements:

- Example: "Perhaps we could explore alternative solutions."

- Analysis: Softening language with words like "perhaps" or "maybe" cushions the impact of a suggestion or critique, making it less direct and potentially less confrontational.

3. Circumlocution and Polite Phrasing:

- Example: "I wonder if it might be possible to reconsider our approach."

- Analysis: Circumlocution involves expressing ideas in a roundabout way to convey a message indirectly, often using polite phrasing to mitigate any potential negative reactions.

4. Non-Verbal Cues and Indirect Communication:

- Example: Using facial expressions, gestures, or tone of voice to convey meaning indirectly or to express agreement or disagreement without explicit words.

- Analysis: Non-verbal cues play a significant role in Uzbek communication, allowing individuals to convey nuanced messages or emotions without relying solely on verbal communication.

5. Expressing Concerns or Disagreements Indirectly:

- Example: "I understand your point, but have we considered other perspectives?"

- Analysis: Indirectly expressing concerns or disagreements by acknowledging the other person's viewpoint first can help maintain a respectful and harmonious conversation while still addressing differing opinions.

6. Avoiding Direct Criticism or Blame:

- Example: "There may have been a misunderstanding that led to this issue."
- Analysis: Rather than directly assigning blame or criticism, using phrases that suggest a shared responsibility or external factors can soften the impact of negative feedback.

7. Using Euphemisms or Polite Phrases:

- Example: "It's a challenging situation" instead of "It's a problem."

- Analysis: Euphemisms and polite phrases are often used to discuss sensitive or difficult topics in a more tactful and considerate manner, minimizing potential discomfort or offense.

Conclusion. The linguistic analysis of addressing in different communication conditions in English and Uzbek

languages underscores the importance of cultural context, social norms, and emotional expression in language use:

1. Addressing norms are deeply rooted in cultural values, social hierarchies, and relationship dynamics, influencing the choice of titles, honorifics, and expressions of affection.

2. Cultural sensitivity and awareness are crucial for effective communication, as addressing norms vary widely across languages and cultures.

3. Language learners and communicators benefit from understanding the nuances of addressing in different contexts to navigate diverse linguistic and cultural interactions successfully.

REFERENCES

1. Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. - P. 292-305.
2. D.Ashurova, N. Salomov, 2015 The national specificity of speech etiquette Science. Education. Personality 3, 22-25 (2015)
3. House J., & Kasper, G. (1981). Politeness markers in English and German. Theoretical linguistics, 9(1-3), 199-221.
4. Fraser, B. (1980). Conversational mitigation. Journal of Pragmatics, 4(4), 341-350.
5. Brown P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.



Irodaxon ANARBOYEVA,

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti v.b., PhD

E-mail: iroda_an70@mail.ru

Farg'onan davlat universiteti dotsenti, PhD Sh.Yusufjonova taqrizi asosida

TAKRORIY NOMINATSIYALAR PARADIGMATIK MUNOSABATLARINING VARIATIVLIK ASOSIDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillarida takroriy nominatsiyalar paradigmatic munosabatlarining variativlik asosida shakllanishi hususida so'z boradi

Kalit so'zlar: Takroriy nominatsiya, variativlik, paradigmatic, semantema, semantik, sintagmatik.

ФОРМИРОВАНИЕ ПАРАДИГМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ПОВТОРНЫХ НОМИНАЦИЙ НА ОСНОВЕ ВАРИАБИЛЬНОСТИ

Annotation

В данной статье речь идет о формировании paradigmatischenkx отношений повторяющихся имён во французском и узбекском языках на основе вариации.

Ключевые слова: Повторная номинация, вариация, paradigmatica, семантическая, семантика, синтагматика.

FORMATION OF PARADIGMATIC RELATIONSHIPS OF REPEATED NOMINATIONS BASED ON VARIABILITY

Annotation

This article deals with the formation of paradigmatic relations of repeated names in the French and Uzbek languages on the basis of variation.

Key words: Repeated nomination, variation, paradigmatic, semantheme, semantic, syntagmatic

Kirish. Takroriy nominatsiya nutqda turli munosabatlarda ifodalanib, nutq me'yori hamda ifoda qonuniyatlari talablariga ko'ra kommunikatsiyani shakllantiradi. Takroriy nominatsiya vazifasida uchraydigan turli ifoda vositalari harakatni nomlash jarayonida muayyan semantema doirasida yoxud jarayon ifodasidagi koreferent bog'lanishda o'ziga xos paradigmatic uyg'unlik yaratadi. Bunda barcha ma'no jihatdan o'zaro muvofiqlik hosil qiluvchi birlklar bir semantik maydonda birlashtiriladi.

Nominativ birlklarning semantik maydonda mujassam-lashuvi nominativ ifodalarining variativligini hosil qiladi. Til ifoda birlklarining xilma-xillashuvi asosida nutqda variativlik yaratish til ifoda qudratini, salohiyatini, imkoniyatlarini belgilaydi. Takroriy nominatsiya nutqda ifoda variativligini vujudga keltiruvchi manbalardan biridir.

Tilning funksional-kommunikativ, dinamik aspektini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borishi munosabati bilan hozirgi zamon tilshunosligida til ifodasi, kommunikatsiya jarayonida nutq mexanizmlarining ifodalanishi masalalarini tilshunoslar diqqat markazida bo'lib, bu vaziyat til vositalari xilma-xillashuvi, variatsiyalari muammolarini tadqiqotning asosiy planiga olib chiqishi tabiiydir.

Til birlklari xilma-xillashuvi, variativligi ularning ifoda jarayonida, aktuallashuvida, ya'ni ularning semantik imkoniyatini konkret muloqot jarayonida ifodasini topishida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til semantik imkoniyatining aktuallashuvi masalasi dastlab G.Paul tomonidan o'rganila boshlangan[1]. Mazkur masala leksik sathda uzial va okkazional tushunchalar bilan bog'langan holda tadqiq etiladi. Olim uzial ma'noga ijtimoiy jihatdan shakllangan, ya'ni til tizimiga mansub lug'aviy ma'no sifatida ta'rif beradi. Okkazional ma'no esa uzial ma'noning individual nutq jarayonidagi konkret aktuallashuvini aks ettiradi.

Aktuallashuv masalasi Sh.Ballining virtual va aktual belgi nazariyasida ham ko'tarilgan bo'lib, aktual va virtual tushunchalar olim tasavvurida til tizimidan joy olgan til imkoniyatlari va ushbu imkoniyatlarining borliqqa aylanib, ro'yobga chiqishi, uning nutq faoliyatidagi ifodasi, ya'ni umumiy tushunchalarining real borliqdagi konkret vaziyatlar, faktlar, predmetlar bilan bog'lanishi

hamda ushbu tushunchalarning zamon va makondan joy olishidir[2]. Aktuallashuv jarayonida tushunchalar hajmi aniqlashadi, ularning mazmuni konkret ko'rinish kasb etadi.

Til leksik imkoniyatlarining aktuallashuvi R.Galisson tadqiqotlarida kuzatiladi[3]. Olim ma'no komponenti tarkibida sodir bo'ladigan jarayonlarga ko'ra aktuallashuvning uch tipini farqlaydi. V.Schmidt esa ushbu jarayonni kontekst vositasida polisemyani olib tashlash nuqtai nazaridan o'rganadi[4].

O'zbek tilshunosligida N.Djusupov aktuallashuv nazariyasini kognitiv-uslubiy[5], Z.Rasulov kontekstda ellipsis hodisisi asosida tadqiq etganlar[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Aktuallashuv jarayonlari tadqiqi semantik sintagmatika planida ifoda vositalarini muloqot jarayonida tanlab qo'llash muammosi bilan uzviy bog'lanadi. Nominatsiya nazariyasini ochib berishda til birlklarining onomasiologik xususiyatlari tadqiqot jarayonining yetakchi aspektlarini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. V.G.Gak nomlovchi birlklarning mos tarzda tanlab olinishi va voqelikdag'i aksi bilan o'zaro bog'lanishi hamda ularning semantik vaziyatga ko'ra ifoda etilish tamoyillarini keng tahlil etgan. Olim izlanishlarida avtonom (asos nominatsiya), noavtonom (takroriy nominatsiya) kabi nomlash turlarini ajratadi[7]. Nomlashning ikkinchi turi takroriy nominatsiya, asosan, matnda yoki nutq vaziyatida qo'llanishi bilan xarakterlanadi.

A.F.Losev struktur tilshunoslikni o'rganar ekan, shakl va mazmun tushunchalariga to'xtaladi. An'anaviy lingvistikada mazmunga, struktur tilshunoslikda shaklga asoslanilganini ta'kidlaydi[8]. Strukturalizm yo'nalishi vakillari tilning sintagmatik munosabatlarini sintaksisiga tayanib ochib beradilar. Lekin tilda shaklni mazmunsiz yoki mazmunnini shaklsiz o'rganib bo'lmaydi. Bunda shakldan mazmunga yo'naltirilgan tadqiqotlar sintaktik strukturalar o'rtasidagi paradigmatic aloqalar tadqiqoti uchun zamin hozirladi. Leksika sohasida strukturalizm, eng avvalo, paradigmatic munosabatlar tahlili bilan shug'ullanadi. Semantik maydonlarni o'rganish, til leksik tarkibini leksik-semantik guruhlar sifatida ochib berish paradigmatic izlanish mahsulidir. Semantikada ob'yekt tashqi ko'rinish simvollarini munosabati nazarda tutilsa, sintaksisda gapda o'rinn olgan

simvollar o'rtasidagi munosabat e'tiborga olinadi, bu holda sintaksis va leksika sohalari tahlili jarayonidagi strukturaviy metodlarning paradigmatic tahlili bejiz emasligini e'tirof etish lozim.

Semantika va sintaksisning shu xildagi tavsifi, umumiy semiotika uchun monand kelsa-da, U.Veynreyx o'rni izohlab o'tganidek, tabiiy tillar uchun uncha mos kelmaydi[9].

Tabiiy fanlarda belgining tashqi ob'yektlar bilan bog'liqligi kuzatiladi. Semantikada, belgilarning tashqi ob'yektlar bilan aloqasi sintaktik xususiyatida namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda MDH, AQSh, Fransiya kabi mamlakatlardan tilshunoslarining semantik sintagmatikani o'rganishiga qiziqishi ortdi. Xususan, semantik ko'lamdag'i gap elementlarining o'zaro aloqasini ochib berish, N.Xomskiyning hosislaviy grammatikasini semantik tahlil bilan to'ldirmoqchi bo'lgan Dj.Kats, Y.Fodor, P.Postal kabi tilshunoslarining ishlarida ko'zga tashlanadi[10].

Sintaksis bilan semantika o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish hamda semantikani tilning hosislaviy tasviri doirosiga kiritish yuzasidan qilingan harakat ushbu nazariyaning ijobiy qirrasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur nazariya bir qator salmoqli e'tirozlar uyg'otadi. Kats va Fodor o'z nazariyalarini ko'proq passiv planda rivojlantiradi[11]. Ular semantik nazariyani til jumlalarini bayon etish jarayonida so'zlovchi qobiliyati nazariysi sifatida talqin etadilar va, asosan, ma'nuning ikki xilligi yo'llarini bartaraf etish bilangina qiziqadilar. Semantik sintezni o'rganishda bunday yondashuv o'zini oqlamaydi. Kats va Fodoring ishlarida semantik sintagmatikaga yo'naliш beruvchi "tasvir qoidasi" yetarli tarzda chuqur ishlanmaganligini U.Veynreyx qayta-qayta ta'kidlaydi. Olim o'zi avvalroq ishlab chiqilgan g'oyasini rivojlantirib, "yangi semantik nazariya"[12] ni taklif etadi. Semantik nazariya nutqda gap bo'laklarining joylashuvini ham ma'noga ta'sir etishi, jumlaning semantik tuzilishida semantik komponentlari uyg'unlashuvini qonuniyatlarining ahamiyatini o'rganadi. J.A.Fodor nazariyasiga nisbatan Veynreyx nazariysi ko'proq kodlashtirishga (aktiv plan) yo'naltirilgan. Veynreyx semantik nazariyaning bevosita sintagmatik aspektini ancha chuqurlashtiradi va semantik ko'lamda gap komponentlарining o'zaro aloqasini aks ettiruvchi bir qator qoidalarni ajratib ko'rsatadi[13].

Kats va Fodoring "sintaksis tugagan joyda semantika boshlanadi", degan qarashlariga, Veynreyx o'z e'tirozlarini bildiradi va u tilda sintaksis bilan semantikaning o'zaro bir-biriga aylana olish jarayonini ishonchli tarzda ko'rsatib bera oldi. Lekin, olim leksik nominatsiyaning sintagmatikadan tashqarida yotgan tomoniga yetarli darajada baho bermaydi hamda semantikani sintaktik hosislaviy modelning qismigagina aylantirib, qaramaqshari yo'naliшdagi xatoga yo'l qo'yadi. Veynreyx bir ma'noni yaratish yo'llari va zaruriyatini inobatga olmay, nominatsiya qonuniyatlarining chetlab o'tadi. Mohiyatiga ko'ra uning "hosislaviy semantika"si ham Kats-Fodor nazariyasi kabi situatsiyadan, nomlanadigan ob'yektdan ajratib qo'yilgan.

Xulosa va takliflar. Amerika strukturalistlarining semantik sintagmatika sohasidagi nazariy kashfiyotlarida asosiy kamchilik semantemalar o'rtasidagi munosabatlarni "o'zida", monand so'zlar bilan nomlanadigan ekstralangivistik elementlar o'rtasidagi aloqalardan ajratilgan holda tadqiq qilish hisoblanadi.

Gapda so'zlar birikuvi qonuniyatini ochib berish uchun leksemalarning formal distributsiyasini o'rganish kifoya, deb hisoblovchi so'z birikmalarini an'anaviy nazariyasi ham xuddi shunday xatoga yo'l qo'yagan. Til hech qachon "o'zi uchun" yoki

"o'zidagina" ifodalananmaydi. U so'zlovchilar ongida aks etuvchi ekstralangivistik borliqni nomlash uchun xizmat qiladi.

Taniqli olim Sh.Safarov zamonaliv qarashlar negizida semantikaning integratsion mohiyatiga e'tibor qaratib, "ma'no shakllanishi va idroki kognitiv faoliyat bo'lib, ular tafakkur va lisoniy amallarning omuxtalashuvi sharoitida yuzaga keladigan hodisalardir"[14] – deb tavsiflaydi. Olim ma'no hodisasiqa qanday aspektida yondashuvdan qat'iy nazar, ma'noning paydo bo'lishi zamirida lisoniy belgining ifodalanyotgan (atalayotgan) predmet-hodisa bilan bog'liqligi va bu bog'liqlik ong, tafakkur shakllari vositasida kechishi bilan xarakterlanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Sh.Safarov A.N.Smirnitskiyning so'z ma'nosining ongdagi aksi uning ichki tomoni va unga nisbatan so'z talaffuzi material, qobiq vazifasini o'tovchi fonetik shakl ekanligi borasidagi ta'rifи tobora o'z isbotini topayotganligiga ishora qiladi[15].

Darhaqiqat, barchaga ma'lum semantik uchburchak til ifodasidagi uchta tomonni namoyon qiladi: til formalari, ong va borliq. So'zlar birikuvini anglab yetmoq uchun uch sathning o'zaro qanday bog'lanishini tahlil etish lozim: borliq sathi, ong sathi (L.Yelmslev terminologiyasiga ko'ra mazmun plani) va til sathi (ifoda plani).

Birinchi sathda nomlashga mansub situativ elementlar ajratilib, ular muayyan aspektlarga bo'linadi. Har qaysi aspekt bir-biridan o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Nomlovchi atamada axborot va ma'lumot uzatish imkoniyatiga qodir bir va bir necha aspektlar o'z aksini topadi. Masalan, qatnov harakating yo'naliшi yoki yurish vositasini kabi bir paytda ikki aspekt bo'yicha aniqlash mumkin. Kundalik muloqotda ushbu nomlanish ongsiz tarzda sodir bo'ladi. V.G.Gak mazmun planida situativ elementning aksi semantemani hosil etishi, aspektning aksi - semantik kategoriyanı, semantik komponentni yoki sema esa aspektning farqlovchi tomonlarini aks ettirishi, ifoda planida bo'lsa semantema leksemaga monand kelishi, shuningdek, sema morfema vositasida ifoda etishini ta'kidlaydi[16]. Olimning fikri quyidagi misolda o'z tahliliga ega bo'ladi: rus tilida приходить fe'lidagi при- old qo'shimchasi qatnov yo'naliш semantik kategoriyasi hamda "yaqinlashuv" semasini aks ettirsa, ход- o'zak morfema yurish vositasini semantik kategoriyasi, ya'ni "yayov" semasini ifodalandi. Bunda ushbu semalar ma'lum jarayonning monand bo'lgan aspektlarini aks ettirishi kuzatiladi. Semantik kategoriya semaga nisbatan "yirik sema" yoki "arxisema"[17] sifatida namoyon bo'ladi. Bir morfemada ikki semanening sinkretik nomlanishi ham sodir bo'lishi mumkin. Ushbu holat fransuz tilida ham kuzatiladi. Venir-revenir harakat fe'llarida ikkinchi fe'ldagi - re qo'shimchasi yangi sema hosil qiladi. O'zbek tilida bu holat qo'shma fe'llarda hosil bo'ladi: keldi - borib keldi kabi.

Agar turli tizimdagi tillarda so'z turkumlarini amalgalashiruvchi tuzilmalarning mavjudligi, maxsus morfologik belgilari, morfologik ko'sratkichlarning o'zgarishi bilan tafsiflansa, bunda so'z yasash maxsus texnika emasligi, boshqacha grammatik kategoriyalarning ham o'mni muhimligini unutmashlik kerak[18]. O'z navbatida, kategoriyalar so'z turkumlarini yanada kengroq tushunishni ta'minlovchi subkategoriyalarga ajratiladi.

Misol uchun, fe'l shaxs, daraja, zamon va boshqa kategoriyalar bilan tafsiflanadi. Ushbu kategoriyalar bir qator subkategoriyalarga ega bo'lib, ularning ichida ma'lum ma'nolar farqlanadi. Har qaysi fe'l formasi ma'nosini turli subkategoriyalar va kategoriyalarga mansub komponentlar birikuvi sifatida tasvirlash mumkin.

ADABIYOTLAR

- Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: 1960.
- Балли III. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: 1955.
- Galisson R. Analyse semique, actualisation semique, et approche du sens en methodologie//Langue fransaise, N 8, 1970.
- Schmidt W. Lexikalische und aktuelle Bedeutung. Ein Beitrag zur Theorie der Wortbedeutung. – Berlin, 1965.
- <https://journal.fledu.uz/ru/teoriya-vydvizheniya-kognitiv>
- https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/836
- Гак В.Г. Беседы о французском слове. – М.: 1966. Сопоставительная лексикология. – М.: 1977. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация (Общие вопросы). – М.: 1977. – С.287-293
- Лосев А.Ф. О возможности сближения лингвистики классической и лингвистики структуральной // Вопросы языкознания. 1968. № 1. – С.50
- Weinreich U. Explorations in Semantics Theory//Current Trends in Linguistics. vol. III, The Hague, 1966. – P.468.

10. Katz J.J., Fodor J.A. The Structure of a Semantic Theory // Langages. 39, 2, 1963; J.J.Katz, J.A.Fodor. Structure d'une theorie semantique avec applications au francais// Cahires de lexicologie. 1966, II, – Paris, 1966. J.J Katz, P.M. Postal. An Integrated Theory of Linguistic Description. –Cambridge (Mass), 1964; J.J. Katz. The Philosophy of Language. N.Y – London, 1966.
11. Тодоров Т. Recherches semantiques//Langages, – Paris, 1966, N1, – P.34-37.
12. Weinreich U. On the Semantic Structure of Language//Universals of Language, – Cambridge (Mass), 1963.
13. Weinreich U. Explorations in Semantic Theory//Current Trends in Linguistics, v. III. – The tsague, 1966
14. Сафаров Ш. Семантика. Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 8
15. Сафаров Ш. Семантика. Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 29
16. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. – М.,1977. – С.12-14
17. Pottier B. La definition semantique dans les dictionnaires//Travaux de linguistique et de Litterature. IX, 1. – Strasbourg, 1965.
18. Гак В. Языковая номинация. – М.: Наука, 1977. – С.64.



Maftuna AHMADJONOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: maftuna.ahmadjonoova96@gmail.com

F.f.d B.Abdishukurov taqrizi asosida

THE STUDY OF THE "DIVAN LUGHAT AL-TURK" LEXICON IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Mahmud Kashgari's work "Devonu Lugatit-Turk" is extremely valuable in researching, collecting and passing down the pre-Islamic and early Islamic monuments of Turkish culture. His extensive knowledge of history, ethnography, geography, encyclopedic potential in the field of language and literature, and his research power are amazing even today. The article talks about the study of Devon by a number of Uzbek scientists. The historical development of Devon is discussed and comments are made.

Key words: devon, research, article, Uzbek scientists, Kashgar studies.

ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИКИ "ДЕВОНУ ЛУГОТИТ-ТУРК" НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Труд Махмуда Кашигари «Девону Лугатит-Тюрк» чрезвычайно ценен для исследования, сбора и передачи доисламских и раннеисламских памятников турецкой культуры. Его обширные познания в области истории, этнографии, географии, энциклопедический потенциал в области языка и литературы, исследовательская мощь поражают и сегодня. В статье говорится об изучении Девана рядом узбекских учёных. Обсуждается историческое развитие Девона и даются комментарии.

Ключевые слова: деван, исследование, статья, узбекские учёные, кашгароведение.

"DEVONU LUG'OTIT-TURK" LEKSİKASINING O'ZBEK TILIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya

Mahmud Qoshg'ariyining "Devonu lug'atit-turk" asari islomdan ilgarigi va ilk islam davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, toplash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda ulkandir. Uning tarix, etnografiya, geografiya xususidagi keng bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajadadir. Maqolada devonning bir qator o'zbek olimlari tomonidan o'r ganilishi haqida so'z boradi. Devonning tarixiy taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi hamda fikrmulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: devon, tadqiqot, maqola, o'zbek olimlari, qoshg'ariyshunoslik.

Kirish. "Devonu lug'atit-turk" nafaqat birinchi turkcha lug'at, balki turk tilining birinchi grammatica kitobi, turli turk qabilalarining tillari haqida ma'lumot beruvchi birinchi dialektologik tadqiqot, turk geografiysi haqida ma'lumot beruvchi birinchi turk qomusidir. Mahmud Qoshg'ariyining kitobida jamlangan aniq-ravshan ma'lumotlar VIII–XI asrlar ham turkiy adapbiy til va badiiy adabiyotning, ham og'zaki xalq ijodi va turli lahjalarning boy manbai sanaladi. "Devonu lug'atit-turk"ni o'sha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin.

XI asrdagi turkiy tilning leksik-semantik, fonetik-fonologik, sintaktik, morfologik mohiyatini ochib beruvchi mana shunday asarlardan biri – Mahmud Qoshg'ariyining "Devonu lug'otit turk" asaridir. Mazkur asar arab tili va arab tilshunosligi an'analarini asosida yozilgan bo'lsada, unda turkiy tildagi so'zlarning ma'nolari izohlangan.

Odamlarda nimagadir ishqibozlik bo'ladi. Kimdir marka yig'adi, kimdir samovarlardan kolleksiya to'playdi, yana kimdir butun umri davomida turli soatlarni yig'ishdan zavq oladi. Asli Turkiyaning Diyorbakr shahridan bo'lgan Ali Amiriya esa turkiy xalqlar tarixi, adapbiyoti, tili va madaniyatiga oid eski kitoblarni yig'ishdan zavq olar edi. Yaxshi kitobni qo'liga kiritish uchun dunyoning xohlagan tomoniga borib kelishga, bor budini berishga tayyor bu ziyyoli Istanbuldagi eski kitoblar sotiladigan bozorga har haftada ikki-uch marta chiqib kitoblarni ko'rар, o'ziga ma'qul bo'lganini sotib olardi va bir kuni 33 liraga barchamizga qadrli bo'lgan devoni sotib oladi [J.Xudoiberdiyev ,2010:5].

Mahmud Qoshg'ariyining "Devonu lug'otit-turk" asari nafaqat lug'at, balki o'rta asr turkiy tillarining fonetika, morfologiya, leksika va dialektologiyasini mukammal izohlab bergan to'la ma'nodagi filologik asardir. Bu usul bir tarafdan o'sha davr tilidagi butun so'zlarni va har qanday so'z turlarini mukammal qamrab olishga imkon bergan bo'lsa, ayni paytda

to'plangan materiallar tilning har bir sohasiga doir boy namunalar to'plami bo'lib ham xizmat qilgan [Salimova, 2019:170].

Asar topilganidan keyin qisqa vaqtida chop etildi, uni ilmiy asosda o'r ganish boslandi, turk, o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qozoq, ingliz, nemis, xitoy, rus va eron tillariga tarjima qilindi. Markaziy Osiyo xalqlarining XI asrdagi hayoti bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni keng qamrab olgan ushbu bebabu manba fanda alohida ahamiyatga ega ekanligi tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib berildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbeklardan "Devon"ni tarjima qilishga dastlab Fitrat 1927-1928 yillarda kirishgan [Fitrat, 2008]. U asardagi bir qancha she'riy parchalarni o'zbekchaga uyg'unlashtirган. Ushbu namunalar "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi" (1940), "O'zbek poeziyasining antologiyasi" (1948), "O'zbek adabiyoti" (1-jild, 1960) to'plamlarida qayta chop etilgan. Fitrat tomonidan tuzilgan "so'zlik" (indeks) haqida olimning zamondoshlari xabar beradi. Ma'lum bo'lishicha, bu so'zlik O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi [Fitrat, 2008: 116]. Prof. H.Hasanov yozishicha, bu ko'rsatkich 1924-1925 yillarda tuzilgan. Akad. A.Rustamov esa uning muallifi Fitrat ekanini qayd etgan [H.Boltaboyev, 2016: 10].

XX asrning qirqinchı yillari boshlaridan "Devon"ni o'zbek tiliga tarjima etish ustida S. Mutallibov ishlay boshlaydi. Olimming tarjimasini 1960-1963 yillar orasida Toshkentda "Fan" nashriyotida chop etildi [S.Mutallibov, 1960]. Bu tilshunos olim, filol. fanlari dri, prof. Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Asar A.K.Borovkov, G.A. Abdurahmonov, O. Usmonov, T. Salimov, X. Komilova, J. Tojiboev, U. Karimovlarning katta yordam va maslahatlari, Til va adabiyot institutning direktori lavozimida ishlagan A. Qayumovning g'amxo'rligi, shuningdek, institut til tarixi bo'limining xodimlari I. Qo'chqortoev, H. Nizomov, M. Turobova, G. Karimov, R. Baxtiyorova, G. Salomov, S. Nizomiddinova, S. Ferdouslarning

nashrga tayyorlashda qunt bilan ishlaganliklari, H.S. Sulaymonovning arabcha matnlar ustiga zeru zabar qo'yishdagi xizmatlari bilan chop etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Asarning birinchi jildida S. Mutallibovning "XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari" nomli katta hajmli maqolasi berilgan [S.Mutallibov, 1960:7-39]. Unda "Yusuf Xos Hojib va uning didaktik asari "Qutadg'u bilik" haqida" [S.Mutallibov, 1960: 8-15], "XI asrning ulug' tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy" [S.Mutallibov, 1960: 15-27], "XI asrning qimmatli yozma yodgorligi "Devonu lug'otit turk" [S.Mutallibov, 1960: 27-34], "Devonu lug'otit turk"ning o'zbek tiliga munosabati masalasi" [S.Mutallibov, 1960: 35-37], "Devon tarjimasi va transkripsyasi haqida" [S.Mutallibov, 1960: 37-43] kabi masalalar tahlil qilingan. Keyin "Devon"ning muqaddimasi [S.Mutallibov, 1960: 43-69], lug'at [S.Mutallibov, 1960: 70-484], qabilalari joy olgan [S.Mutallibov, 1961: 422-427].

2-jildda S. Mutallibovning "So'z boshi o'rnida" nomli ixchamgina maqolasi, so'ng lug'at, jildning oxirida esa "Devon"da qabilalari masalasi", "Jikil (chigil – J.X.) qabilasi", "Tot" maqolachalari joy olgan [S.Mutallibov, 1961: 422-427].

"Devon"ning 3-jildida "Bir necha so'z", lug'at, oxirida esa "Izohlar", "Qabilalar haqida" gi ma'lumotlar keltirilgan [S.Mutallibov, 1963].

Shunisi e'tiborlikli, S. Mutallibov "Devon"dagi ko'pgina so'zlarni izohlashda o'zbek tilida yaratilgan tarixiy asarlar, xususan, Alisher Navoiy asarları, shuningdek, o'zbek shevalaridagi so'zlar bilan qiyoslaydi. Lug'atdan o'rın oлган so'zlarining hozirgi o'zbek tilidagi qo'llanishi, uning fonetik va semantik jihatdan o'zgarishini ko'rsatib beradi. "Devon"ning boshqa tillarga qilingan tarjimalarda deyarli bunday holat kuzatilmaydi.

S. Mutallibov G. Abdurahmonov bilan birgalikda "Devon"ning indeks-lug'atini tuzib, 1967 yilda nashr ettirgan [DLT indeks lug'at, 1967].

Abdurauf Fitrat ham she'riy parchalarni tarjima qilib, ularning lug'atini tuzgan va 1930 yilda Samarqandda nashr ettirgan. N.M. Mallayev "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligiga "Devonu lug'atit-turk"dagi qo'shiq va maqollarni kiritib, ularni tahlil etadi. A. Qayumov esa noyob qadimgi yodgorliklarimiz - qo'shiqlar (she'riy parchalar)ni birinchi marta nasrdan nazmgaga o'girib, "Qadimiyat obidalari" nomli asariga kiritgan.

"Devon"ning bibliografiyasi ozarboyjon olimi R.Askar va o'zbek olimi J.Xudoyberdiyev tomonidan tuzilgan bo'lib, bu biblioko'rsatkichlarda uning o'rganilishiga doir ma'lumotlar to'la als etgan.



O'zbek tilshunosligida XX asrning 60-yillardan boshlab so'z ma'nolarini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Mahmud Qoshg'ariy hayoti va uning "Devonu lug'otit-turk" asarining o'rganilishi bo'yicha O'zbekistonda muhim ishlardan amalga oshirilganligi xorijiy davlatlardagi tadqiqotlarda e'tirof etib kelinmoqda. Ayniqsa keyingi davrlarda "Devonu lug'otit-turk"ning A.Rustamov tomonidan qilingan rus tilidagi tarjimasining Moskvada chop etilishi, H.Boltaboyevning 2016-yilda 3 jild, Q.Sodiqovning 2017-yilda 1 jild shaklida asarni nashrga tayyorlab qayta chop ettirishlari, taniqli olim H.Dadaboyevning yangicha qarashlar asosida yaratilgan "Devonu lug'otit-turk"ka oid monografiyasining yaratilishi o'zbek qoshg'ariyshunosligidagi muhim ishlardan bo'ldi.

Aziz Qayumovning "Qadimiyat obidalari" nomli asaridagi pand-nasihatga oid o'gitlar bilan sug'orilgan she'riy parchalar tarjimasi mazmuni orqali ularda ilgari surilgan ma'rifiy g'oyalilar asosida o'sha davrda olib borilgan tarbiya mazmuni haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarini o'zbek tiliga tarjima

qilishda arab xatida bitilgan turkiy so'zlarni transkripsiyada ifodalash uchun

tarjimonlar tarafidan qo'llanilgan belgilarning alifbosi quyidagicha:

ب - б; ت - т; ر - р; ج - з; د - д; ظ - ظ; خ - خ;
ج - ج; ص - س; ش - ش; غ - ف; ل - ل; م - م; ن - ن;
ك - ك; ق - ك; ف - ف; و - و; ي، ى - ي؛
ه - ه; ل - ل; ا - ا، ئ - ئ؛ ئ - ئ، ئ.

Unililar ustida ham shu xilda noaniq belgililar qo'llash mumkin edi. Chunki,

asardagi unlilarni aniqlash ham ayrim undoshlar kabi qiyinchilik tug'dirardi. Lekin,

tarjimonlar guruhi unlilalar masalasida o'zlaridan avvalgi ikki tarjimon qo'llagan

metodni optimal deya hisoblab, o'sha metodni afzal ko'rdilar. Ular qo'llagan

unlilar asosida ish ko'rdilar. Faqat, Mahmud Qoshg'ariy tomonidan aniq

ko'rsatilgan arab tilidagi cho'ziq "ا" harfi o'rnida "ا:" shaklini qo'shdilar.

Kitobdan foydalanuvchilar ayrim so'zlar imlosidan qanoatlanmasalar, yonidagi

arabchasiqa muvofiq mulohaza yurutishlari mumkin bo'ladi. Arab yozuviga xos

diakritik belgi (zer-u zabar)lar qo'yishda asosiy nusxaga asoslanilgan.

Asarning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi manbalarning aksariyatida Mahmud Qoshg'ariyning qo'shiqlarini xalq orasidan yiqqanligi ta'kidlanadi. Aziz Qayumov esa bu she'riy parchalarining asl nusxasida o'sha davrda mayjud bo'lgan badiiy ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turishi, she'rlarni yaratgan shoirlarning juda ma'lumotli ekani, chuqr bilim va nafis badiiy didga ega ekani xususidagi fikrlarni qayd etadi va pand-nasihatga oid qo'shiqlarni alohida guruhga ajratib, ularni tarjima qilib, mazmunini tahlil etadi.

O'zbekistonda Fitrat, S.Mutallibov, Q.Karimov, A.Rustamov, H.Hasanov, A.Qayumov, G'. Abdurahmonov, E. Umarov, A.Abdurahmonov, S.Rustamiy v.b. ning tadqiqotlari orqali ushbu qomusiy asar jiddiy tadqiqot obyektiiga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda Mahmud Qoshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk"ning xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishi, "Devonu lug'otit turk"ning turli tarjimalari qiyosisi tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarga katta ehtiyoj bor.

"Devon" orqali XI asrdagi so'z ma'nolari, imlosi, talaffuzi, iboralari, xalq maqollari, xullas, til birliklari va filologik tushunchalarga oid ma'lumotlar beriladi. O'zbek tilshunosligida H.Dadaboyevning "Devonu lug'otit-turk"ning til xususiyatlari", "Devonu lug'otit-turk"dagi sinonimiya", "Devonu lug'otit-turk"dagi omonimiya xususida", "Devonu lug'otit-turk"dagi turkiy tillarga xos fonetik va leksik-semantik xususiyatlar haqida, A.Nurmonovning "M.Qoshg'ariyning lingvistik qarashlari. O'zbek til tarixi", H.S.Mutallibovning "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. XI asr yodgorliklari asosida" tadqiqot

ishlarida XI asrdagi so‘zlarning leksik-semantic xususiyatlari tahlil qilingan.

Shuningdek, G.Roziqovaning “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi ot leksemalarning semantic, funksional va uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasining IV bobi “Devonu lug‘otit-turk”dagi ot leksemalarning polisemantik xususiyatlariiga bag‘ishlangan. Ushbu bobda ot turkumiga oid bir qancha polisemantik so‘zlar ma’no munosabatlariga ko‘ra tahlil qilingan.

XI asrda ajodolarimiz tomonidan turli ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llangan polisemantik so‘zlar ma’nolari orasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Tahlil XI asrdagi so‘zlarning ma’no qirralari haqidada ma’lumot berishi bilan birga, XI asrda yashagan ajodolarimizning obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, belgi, harakat va holatlarni bir-biri bilan aloqador holda qanday qiyoqlab idrok qilganligi, ularni tilda qay darajada aks ettira olganligini ham ko‘rsatadi.

Demak, o‘zbek ma’noshunosligi dastlab o‘z ishini leksikografiya tarkibida “Devonu lug‘otit-turk” kabi lug‘atlar tuzilishida boshlagan deyish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak oradan deyarli ming yil o‘tgan bo‘lishiga qaramay, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida uchrab, kundalik turmushda ko‘p qo‘llaniladigan ko‘plab so‘zlarning o‘zbek tilida

deyarli qanday bo‘lsa, shunday ko‘rinishda saqlanib qolgani olqishlarga arzigulik. To‘g‘ri, ayrim so‘zlar bugun kundalik turmushda qo‘llanilmasligi yoki ularning o‘rnida yot so‘zlarning ishlatalayotgani hollari ko‘p. Shunga qaramay “Devon”da keltirilgan bir necha minglab so‘zlar bugungacha yetib kelgangan turkiy tillarning, ayniqsa, o‘zbek tilining qanchalik kuchga, teran ildiziga ega til ekanini ko‘rsatadi. Ming yillardan beri turli tillarda so‘zlashuvchi el-uluslar bilan qo‘shti yoki aralash yashab, ularning tillaridan ko‘plab so‘zlar o‘zlashtirganiga qaramay o‘zbek tilining “Devon”dagi so‘zlarini eng ko‘p saqlagan turkiy tillardan biri o‘laroq bilinishi o‘z-o‘zidan bo‘lmay, bu tutum ming yillar kesimida elimizdan Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari til jonkuyarlar chiqqanligi va chiqayotganligi bilan ochiqlanadi. Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari shu kungacha juda ko‘p yevropa va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganildi. Undagi yangidan-yangi qiziqarli ma’lumotlar haligacha “qaynar buloq” kabi toshib chiqmoqda. Bu asar qancha ko‘p o‘rganilgani sari shuncha qiymati oshib bormoqda. O‘zbek olimlari tomonidan haligacha o‘rganilmoqda bir qator maqolalar yozilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda bu esa devonning yildan-yilga muxlislari ortishiga sabab bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Xudoyberdiyev J. “Mahmd Qoshg‘ariy va “Devonu lug‘ati turk” Asarining o‘rganilishi Toshkent 2010 S-5
2. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк), таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов.– Тошкент, т. I, 1960.
3. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк), таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов.– Тошкент, т. II, 1961. S422-427
4. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготит турк), таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов.– Тошкент, III, 1963, т
5. Муталлибов С. XI асрнинг буюк филологлари ва уларнинг ноёб асарлари // Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготит-турк), таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов.– Тошкент, т. I, 1960, 7-39-бетлар.
6. Salimova, A. M. (2019). Mahmud Qoshg‘ariyning Devon’idagi Tasavvuf İstilohlarning İlmiy-Nazariy.Dede Korkut Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, 170-bet
7. Девону луготит турк. Индекс-лугат. – Тошкент, 1967.
8. “Devonu lug‘atit-turk” so‘zlar uchun fihrist. O‘zRFASHI. Saql. Raqami 5046/1. Bu haqda qarang: Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. B.116
9. Mahmud Qoshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘ati-t-turk), nashrga tayyorlovchi. H.Boltaboyev. Toshkent. MUMTOZ SO‘Z, 2016 B-10
10. Google.com
11. Wikipediya.uz



Xilola AYUPOVA,

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: hilolaayupova088@gmail.com

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

THE CONNECTION BETWEEN TONGUE TWISTERS AND THE PROVERB GENRE

Annotation

Samples of folk art, like all works of art, are divided into specific types, groups, and genres based on their structure, place of performance, appearance, function, degree of dependence on music, and ideological and artistic features. This division and classification into different types, groups, and genres is important not only for performers but also for listeners and researchers of the phenomenon, its nature, formation, gradual development of folklore samples, the emergence of certain types and genres, their refinement, interactions with changes, and relocation. It allows for the observation and study of processes such as the onset of crises. For this reason, folk genres evolve and improve in relation to each other, and over time may transition or converge in nature.

Key words: ideological and artistic feature, type category, gradual development, perfected form, crisis, folklore.

СВЯЗЬ СКОРОГОВОРОК С ЖАНРОМ ПОСЛОВИЦ

Аннотация

Образцы народного творчества, как и все произведения искусства, делятся на конкретные виды, группы и жанры по их структуре, месту исполнения, внешнему виду, функции, степени зависимости от музыки, идеально-художественным особенностям. Деление и классификация на разные виды, группы и жанры важны не только для исполнителей, но и для слушателей, исследователей явления, природы, формирования, постепенного развития фольклорных образцов, возникновения того или иного типа и жанра, совершенствования, столкновения с изменениями, сменой мест; и позволяет наблюдать и изучать такие процессы, как возникновение кризиса. По этой причине фольклорные жанры развиваются и совершенствуются по отношению друг к другу, а с течением времени могут переходить или сближаться друг к другу по своей природе.

Ключевые слова: идеально-художественная особенность, видовой тип, постепенное развитие, совершенная форма, кризис, фольклор.

TEZ AYTISHLARNING MAQOL JANRI BILAN BOG'LQLIGI

Annotatsiya

Kalq og'zaki ijodi namunalari ham barcha san'at asarlari kabi tuzilishi, ijob o'rni, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog'liqlik darajasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ko'ra muayyan tur, guruh va janrlarga bo'lib qaraladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, folklor namunalarining tabiatini, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo'lishi, mukammal shaklga kelishi, o'zgarishlarga uchrashi, o'rinn almashinishi va inqiroza yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o'rganish imkonini beradi. Shu sababli, folklor janrlari bir-biriga bog'liq holda taraqqiy etadi, sayqallanadi, shuningdek, vaqlar o'tishi bilan bir-biriga o'tishi yoki tabiatini jihatidan bir-biriga yaqinlashishi mumkin.

Kalit so'zlar: g'oyaviy-badiiy xususiyat, muayyan tur, tadrijiy taraqqiyot, mukammal shakl, inqiroz, folklor.

Kirish. O'zbek xalqi yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratib kelgan. O'zbek oilasida boshqa xalqlar kabi ertak aytib bermay farzand o'stirgan oilani tasavvur qilish qiyin. Bola tarbiyalash ona xalqimiz bilan birga dunyoga kelgan bo'lib, u bilan birga yashamoqda. Mehnatkash xalq doimo o'z surriyodalarini jismoniy, aqliy jihatdan sog'lom, mehnatsevar, o'ziga xos didga ega bo'lgan inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga asosiy vazifa qilib belgilab olgan. Mehnatkash xalq uzoq yillar davomida bola tarbiyasiga oid ko'plab ijobiy tajribalarga erishdi. Ularning oqilona donishmandligi bilan to'plagan bilimlari, avvalo, bizga boy xalq og'zaki ijodi: maqol, matal, masal, ertak, latifa, lof, ashula, doston bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib kelayotgan eng yaxshi adabiy an'analar orqali yetib keldi. A.M.Gorkiy bu haqida "Xalq og'zaki ijodini bilmasdan turib, mehnatkash xalqnинг haqiqiy tarixini bilish mumkin emas"-degan edi. Dunyo miqiyosida xalqlar yozma adabiyot vujudga kelmasidan oldin mazmun jihatdan boy va rang-barang bo'lgan og'zaki ijod na'munalarini ko'z qorachig'iday asrab, avaylab kelishgan.

Mazkur makolada tez aytishlar bilan bog'liq janrlarlarin munosabat masalasiga, xususan, tez aytishlarning maqollar bilan o'zaro ta'siri va munosabati o'ta darajada keng qamrovli masala bo'lib, u folklordagi ijodiy jarayonning tarixiy-tadrijiy masalalarini nisbatan to'laroq va chuqurroq yoritishga imkon

beradi. Chunki folklor janrlarining o'zaro ta'siri va munosabati bir tomonidan, ob'ektiv-dinamik jarayon ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi tomonidan u ayrim sub'ektiv jihatlar, ya'ni xalq ijodkorlarining voqelikni aks ettirishdagi: a) evolutsion holatlar; b) barqaror an'anaviylik bag'ridagi individual mahorati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham folklorshunos B. Sarimsoqov shunday deydi: "Jamiyat bosqichining ma'lum bir bosqichida vujudga kelgan ma'lum bir janr jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlari talab va ehtiyojlari moslashib boradi va niroyat, yangi bir hosilaga aylanadi"[1]. Kichik janrlarning tabiatini va g'oyaviy-estetik jihatdan bir-biriga yaqinlashish hodisasini olimning yuqoridagi fikrlari bilan izohlash mumkin. Haqiqatan ham, qadimda tez aytishlar kattalar repertuarida mayjud bo'lib, ularning dastlabki funksiyasi hazil-mutoyiba, ko'ngil ko'tarishga asoslangan bo'lsa, bolalar repertuariga o'tgandan keyin bolalarning istak va ehtiyojlardan kelib chiqib, tez aytishlarning tabiatian topishmoq, maqol va sanamlarga yaqin "yangi hosila"lari paydo bo'la boshladi [2].

Xalq og'zaki ijodi asarlарining jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanishi, diffuzion hamda transformatsion qonununiyatlar asosida muayyan o'zgarishlarga uchrashi kabi hodisalar ularning janriy xususiyatlari borasida turli xil munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Bu holat hozirgi kunimizda ham davom etmoqda.

"Folklorning maqol, matal, topishmoq, aforizm, hikmatli so'zlar kabi kichik janrlari, – deb yozadi B.Soatov, – semantik va

mantiqiy jihatdan bir-biriga yaqin turadi, ko'pincha bir-birlariga o'tib turadi[3]. Biz B.Soatov aytib o'tgan folklorning kichik janrlari qatorida tez aytishni ham qayd etib qo'yish juda o'rinni, deb o'ylaymiz. Sababi tez aytish janri ham o'zining kompozitsion tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari kabi bir qator o'xshash jihatlar mavjud. Ushbu fikrlarimizni folklorshunos B.Sarimsoqov va B.Soatovlarning yuqoridaq gaplari ham tasdiqlaydi. Ammo aksariyat tadqiqotlarda nima uchundir tez aytish janri kichik janrlar qatorida qayd etilmagan. Bu holni folklorshunosligimizda hozirga qadar tez aytish janrining maxsus tadqiqot ob'ekti bo'limganligi, bu borada yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlarinining olib borilmaganligi sabablari bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchi A.T.Aqjolova ham hozirgi kundagi qozoq bolalar she'riyatida tez aytishning bir qator turlarini, xususan, qo'shiq, sanama, masxaralama, son, maqol-matal, ertak, yolg'on tez aytishlar ko'payganini qayd etib o'tgan [4].

O'zbek xalqida esa maqollarga xos xususiyatlarni aks ettiradigan tez aytish elementlari ham uchrab turadi. Bu haqda I.Madiyarov ham fikr yuritib, quyidagi misol orqali buni izohlaydi:

"Oltin olmay olqish olgan odam – odam [5].

Ushbu o'zbek xalq tez aytishida maqollarga xos bo'lgan mazmunlilik va didaktik xususiyatlarni aks etgan. Shu bois, bu kabi tez aytishlar maqol sifatida qo'llanilishi mumkin va ularni maqol-tez aytishlar deyish mumkin. Ayni paytda mazmunan mazkur tez aytishga o'xshash maqolning mavjudligi fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi: Oltin olmay, odob ol, Odob oltin emasmi [6].

Zolimga zorlanma zinhor[7] misolida ham maqolga xos element – nasihat berish xususiyati mavjud. Quyidagi tez aytish haqida ham shunday fikrni aytish mumkin:

Dangalchi dangal gapirar,

Dangasa chang chiqarar [7].

Demak, o'zbek xalq tez aytishlari xazinasida maqol-tez aytishlar ham mavjud bo'lib, ular axloqiy-didaktik ahamiyati, odoba yo'naltirilganligi, pand-nasihat berish xususiyatlari bilan boshqa tez aytishlardan ajralib turadi.

Olmaxon, olmadan olmani ol![8], Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq[9] kabi an'anaviy tez aytishlardan ajralib turgan yuqoridaq singari maqol-tez aytishlarning mavjudligi xalqimizning naqadar dono xalq ekanligidan nishona. Sababi shu biringa sodda o'zin ichida ham yoshlarga ta'lum-tarbiya beradigan, o'git bo'ladigan, o'rnak bo'ladigan tez aytishlar orqali bolani tarbiya qilmoqda.

Quyidagi rus xalq tez aytishida ham maqollardagi kabi ajdodlarimizning hayotiy tajribalari asosida chiqarilgan xulosalarini nasihatnomashaklida bayon etilgan:

Jenya s Jannoy podrujilas.

Drujba s Jannoy ne slojilas.

Chtobi jit s druziyami drujo.

Obijat druzey ne nujno [10]. (Jenya Janna bilan do'stlashdi. Janna bilan do'stlik ish bermadi. Do'stlar bilan birga yashash uchun, Do'stлarni xafa qilish kerak emas.)

Ushbu misolda Jena ismli bolakayning Janna ismli bola bilan do'st tutingani, lekin uni dilini og'ritib qo'ygani haqida so'z ketadi. Bu maqol-tez aytish orqali bolalarga do'st bo'lish uchun doim to'g'riso'z bo'lish, do'stning diliga ozor bermaslik kabi fazilatlar o'rgatilgan. «Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim», «Do'sting bilan obod uying» kabi maqollarning mazmuni ushbu tez aytishda o'z ifodasini topgan.

Tahlil va natijalar. E'tibor beradigan bo'lsak, ruslarda ham, o'zbeklarda ham yaratilgan maqol-tez aytishlarda insonni yaxshilikka yetaklovchi, bolaga tanbeh, beruvchi, o'rnak bo'luchchi mavzular juda ko'p uchraydi. Bundan tashqari xalqlarning shug'ullanadigan mashg'ulotlari ham aks etgan maqol-tez aytishlar ham uchraydiki, bu haqda I.Madiyarov qozoq xalqlarida uchraydigan quyidagi tez aytishni misol keltiradi: «Turkiy xalqlar orasida qozoqlar azaldan yilqichilik bilan shug'ullanib keladi. Ot qozoq xalqi uchun juda muqaddas hayvon sanaladi. Shuning uchun ham qozoq tez aytishlari orasida ot bilan bog'liq namunalar ko'pchilikni tashkil etadi. Quyidagi she'riy maqol tez aytish ham bunga misol bo'ladi:

Shabysti at, shalbis shappas,

Shalbis shapsa, albis shappas» [11].

Xuddi shunga o'xshasha misollar rus tez aytishlarida ham uchraydi:

Prorub rubili – riyku lovili[12] (muzni teshib baliq tutdik).

Bilamizki, baliq ovlash va u orqali savdo-sotiq qilish - ruslarning asosiy mashg'ulotlaridan biri. Yuqorida tez aytish shu kasb bilan shug'ullanadigan oila farzandlaridan birining tilidan aytildan deyish mumkin. Bundan tashqari qisqichbaqa ham asosiy ozuqa turi hisoblanadi. Shuning uchun u bilan bog'liq turli tez aytishlar ham mavjud:

V ozere – karp, a v more krab.

- Turdiyev A. O'zbek va qoraqalpoq tillarida paremiya turlarining qiyosiy tahlili. Toshkent, 2018, Ma'rifat nashriyoti, 251 b.
- Abdullahov R. Turkiy tillar frazeologiyasi: o'zbek va qoraqalpoq tillari misolida. Nukus, 2020, Orol nashriyoti, 372 b.
- Nazarov H. Frazeologik birliklarning lingvistik talqini. Toshkent, 2021, Yangi asr avlod nashriyoti, 346 b.
- Ibragimov A. O'zbek va qoraqalpoq tillarining frazeologik qiyoslanishi. Toshkent, 2023, Innovatsiya nashriyoti, 299 b.



Shahnoza BOBOJONOVA,

Toshkent amaliy fanlar universiteti doktori, PhD,
E-mail: shahnozabobojonova@utus.uz

PhD, Sh.Gulyamova taqrizi asosida

SPECIFIC LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF EDUCATIONAL DISCOURSE

Annotation

It studies the role of educational discourse in three pedagogical conditions, emphasizes its influence on the development and communication of students. It studies the state of oral communication in the course of the lesson, pays attention to student activity and pedagogical strategies necessary to improve it. The importance of overcoming cultural barriers in communication, the role of non-verbal materials in oral speech. The article discusses how teachers can improve culturally friendly communication environments by adapting their teaching methods to accommodate the diverse backgrounds of their students. The study emphasizes that effective communication is critical to academic success and professional performance, and the need to maintain this visibility.

Key words: Educational discourse, oral communication, pedagogical strategies, cultural barriers, communication in the educational process, non-verbal material, teacher-student interaction.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ДИСКУРСА

Аннотация

Исследуется роль образовательного дискурса в трех педагогических условиях, подчеркивается его влияние на развитие и общение учащихся. Он изучает состояние устного общения в ходе урока, обращает внимание на деятельность учащихся и педагогические стратегии, необходимые для ее улучшения. Важность преодоления культурных барьеров в общении, роль невербального материала в устной речи. В статье обсуждается, как учителя могут улучшить культурно-дружественную среду общения, адаптируя свои методы преподавания к разным слоям общества своих учеников. В исследовании подчеркивается, что эффективное общение имеет решающее значение для академического успеха и профессиональной деятельности, а также необходимость поддерживать эту видимость.

Ключевые слова: Учебный дискурс, устное общение, педагогические стратегии, культурные барьеры, общение в образовательном процессе, невербальный материал, взаимодействие учителя и ученика.

TA'LIMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola pedagogik sharoitlarda ta'limi diskursning rolini o'rganadi, uning o'quvchilarning rivojlanishi va muloqot qobiliyatlariga ta'sirini ta'kidlaydi. U dars jarayonidagi og'zaki muloqot holatini o'rganadi, o'quvchilarning faolligini va tushunishni kuchaytirish uchun zarur bo'lgan pedagogik strategiyalarga e'tibor beradi. Muloqotda madaniy to'siqlarni yengib o'tishning ahamiyati, shuningdek, og'zaki nutqda noverbal elementlarning roli ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarning turli xil kelib chiqishiga moslashish uchun o'z o'qitish usullarini moslashtirib, madaniy jihatdan xabardor muloqot muhitini qanday yaratishi mumkinligi muhokama qilinadi. Ta'limdiagi samarali muloqot akademik muvaffaqiyat va kasbiy rivojlanish uchun juda muhim, bu ko'nmalarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ta'limi diskurs, og'zaki muloqot, pedagogik strategiyalar, madaniy to'siqlar, o'quv jarayonidagi muloqot, noverbal elementlar, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri.

Kirish. Jahon tilshunosligining rivojlanishi yangi ilmiy yondashuvlarni qabul qilish va amaliyotga tadbiq etishni taqozo etmoqda. Tilshunoslikdagi muhim dolzarb masala nutqlarning lingvistik, ijtimoiy, madaniy, antropologik va semiotik jihatlarini muayyan til qatlamlari doirasida o'rganishni o'z ichiga oladi. Ta'lum shakllari va vositalarining shiddat bilan takomillashtirilishi va o'zgarib borishi, ta'lum jarayoniga raqamlı texnologiyalarning "hujumi" ta'limi diskursning ham tadqiqot doirasini kengaytirib yubordi. Bir vaqtlar ta'limming asosiy va an'anaviy shakli sifatida qaralgan yuzma-yuz muloqot shaklida olib boriladigan dars jarayonlari bugungi kunga kelib ta'lum oluvchi va beruvchilarning ehtiyojini qondirmay qo'ydi. Bunga bir tomonidan bugungi zamonaviy dunyo ta'lumi o'z auditoriyasini ko'p til va madaniyatli ta'lum ishtirokchilar bilan to'ldirayotgani ya'nii muayyan bir ta'lum maydoniga xalqaro talabalarning ham jalb qilinayotganligi bilan izohlansa, ikkinchi tomonidan web texnologiyalarning rivojlanishi masofaviy ta'lum shakllariga boshqa bir madaniyat egasi bo'lgan diskurs qatnashchilarining ta'limi maqsadda o'zaro muloqotga kirishishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'linda va muloqotda qo'llaniladigan ta'limi diskurs pedagogik vaziyat yoki pedagogik maqsad bilan boshqariladi. Ta'limi diskursning maqsadi, metodi va vositalari qaysi muassasaga (ta'lum muassasasiga) tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsining

shakllanishi va rivojlanishiga mos keladi. Bu esa muloqotda yuzaga keladigan madaniy to'siqlarni bartaraf etish uchun og'zaki ta'limi diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishni taqazo qiladi.

Filologik tadqiqotlarga hamohang tarzda o'qituvchining ta'lum muhitida o'rni va vazifasini belgilovchi umumpedagogik, psixologik tadqiqotlar ham olib borildi va ta'limi diskurs ishtirokchilari markazida o'qituvchi va o'quvchi turishi hamda o'qituvchining murabbiy, kommunikant, maslahatchi, ta'lum muhiti va sharoitini yaratib beruvchi, o'quvchining xulq-atvorni shakllantiruvchi va rivojlaniruvchi, ularning xavfsizligini ta'minlovchi kabi bir qator vazifalari ham mavjud ekanligini ko'rsatadi. Har bir vazifa o'z xususiyatidan kelib chiqib o'ziga xos ijtimoiy muloqot shakllarini nutq jarayonida voqealanishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, ta'lum muhiti o'rganuvchining turli ilm va fan yo'nalishlarida bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishi uchun xizmat qiladi va bu jarayonda o'qituvchi va o'qituvchi o'rtasida o'ziga xos muloqot shaxsiyati yuzaga chiqadi va turlicha ijtimoiy statusga ega hisoblanadi [1]. O'qituvchining roli, asosan didaktik kommunikatsiya jarayoni orqali yuzaga chiqadi. Bunday diskurs jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bir nechta vazifalar bajariladi. Avvalo, o'qituvchining roli didaktik kommunikatsiya jarayoni orqali yuzaga chiqishida to'rtta vazifa muhim ahamiyatga ega sanaladi: Informativ, formativ, ta'limi

hamda rivojlantiruvchi. Informativ vazifa - ta'limiylar axborotni uzatish va qabul qilish; Formativ vazifa - o'quvchilarning o'yash va tasavvur qilish jarayonini ruhlantirish; Ta'limiylar vazifa ma'muriy ta'lim boshqaruvini ta'lim ishtirokchilariga yetkazish; Rivojlantiruvchi vazifa esa ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammollarga yechim topish vazifasi sanaladi.

Didaktik kommunikatsiya jarayonida o'qituvchining mental kommunikativ faoliyatini yuqorida keltirib o'tilgan har bir ijtimoiy vaifaga nisbatan o'z nutq uslubiga ega bo'lishini taqazo qiladi. Nutq uslubiga esa diskurs vaziyatida nutq ishtirokchisining individual xarakter-xususiyati qo'shiladi va ta'limiylar diskursning quyidagi omillar ta'sirida ham o'zaro farqlanishiga sabab bo'ladi [2]. Ta'limiylar diskursning farqlanishiga sabab bo'luchchi omillar quyidagilar:

axborotni qabul qilish va tushunishning o'ziga xos usullari

axborotni anglay olishdagi individual ko'nikmalar

axborotga munosabat bildirishning individual uslublari

axborot yuzasidan bildirilgan munosabatga nisbatan reaksiya

Garchi ta'limiylar diskursni ham boshqa muloqot sohalari kabi aniq bir qoliplarga solib bo'limasa-da, muloqotni yuzaga keltiruvchi omillar va sabablar ta'lim yuzasidan bo'ladigan kommunikatsiyaning to'rt asosiy uslubini ta'riflab o'tadi. Og'zaki diskurs yozma diskursga qaraganda lug'at boyligidan foydalanih jihatidan ancha erkin. Yozma diskursda leksik birliklar (ot, fe'l, sifat, ravish, bog'lovchi, ko'makchi va boshqalar juda zinch va tartibli joylashadi. Og'zaki diskursda bu zichlik sezilmaydi. Og'zaki ta'limiylar diskursda ham kontent bilimlari bilan aloqador leksik birliklar qatnashishi mumkin, ammo ular yozma diskursdagi kabi uyushib kelmaydi va zich joylashmaydi. Bundan tashqari, aniq bir shakliy qoliplarga bo'syundirilmagan og'zaki ta'limiylar diskursda atalamalar va nominatsiya birliklari zich joylashishi kuzatilmaydi. Yozma diskurs esa tavsifiy xarakterdagi ilmiy atamalarga boy bo'ladi. Og'zaki diskursda ma'ruba darslarda ma'ruzachining diskursi ba'zi hollarda umumiy o'g'zaki diskurs xususiyatlaridan chetga chiqishi mumkin.

Og'zaki diskursda nutqning umumiylar ma'zmunini yetkazish uchun nafaqat til birliklari balki ta'na tili ham qatnashadi va bu ifodaning anglanilishida muhim ro'l o'ynaydi. Yozma tilda esa tana tiliga xos noverbal elementlarning qatnashmasligi ta'limiylar diskursda ham fikrni ochiqroq va to'liqroq ifodalashni talab qiladi. Bu farq og'zaki va yozma nutqdagi muqim xususiyat bo'lmay, kontekstga ko'ra o'zgarib turadi. Nutqni ifodalashda nutq egasining diskursiv maqsadi ham ifodaning qanchalik ochiq va batafsil bayon etilish darajasini belgilaydi. Og'zaki nutqning biror bir mavzu yoki vaziyat talabiga ko'ra voqealanishi nazarda tutilayotgan fikrni tushunilish imkoniyatini oshiradi va referant diskurs jarayonida gap nima haqida borayotganligini tushunadi.

Yozma diskursdan farqli ravishda real nutq vaziyati va voqelantirish uchun sababni talab qiladigan og'zaki ta'limiylar diskurs kommunikatsiya ishtirokchilaridan tilning lingvomadaniy to'siqlari ta'sirida yuzaga chiqadigan to'siqlarni yengib o'tishni talab qiladi.

Tahsil va natijalar. Har ikkala jamiyatda ham ta'limiylar diskurs shakkllari jamiyat nutqiy etiketidan uzoqqa keta olmaydi va til va jamiyat kesishuvidan hosil bo'lgan sotsiolingvistik belgilarni namoyon qiladi. Umuman olganda, o'zbek tilidagi va ingliz tilidagi nutqiy etiketlarga xos ayrim leksik semantik guruhiylarini bir-biri bilan solishtirish orqali va qiyosiy tadqiqi, ushbu tillardagi odob-axloqi qoidalarini va madaniyatini aks ettirish uchun katta ahamiyatiga ega bo'ladi.

Jamiyatning til xususiyatlarini aniqlash va ramzlarni madaniy timsol sifatida tadqiq qilish xususiyatini noverbal til misolida tushuntirishimiz mumkin. Ya'ni bir muloqot jarayonida muayyan bir mazmunni ifodalovchi noverbal element boshqa bir til kontekstida butunlay boshqa ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin. Bu ham o'qitish yoki o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilarining o'ziga xos madaniy to'siqlarga duch kelishiga olib kelishi mumkin. Belgi va ramz o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turli xil shaxslari va muloqot shartlaridan tashkil topgan madaniyatlararo nutqning o'ziga xosligida muhim rol o'ynaydi. Turli madaniyat vakili bo'lgan adresant va adresatning lingvistik

shaxsi lingvistik tadqiqotlar obyekti sifatida madaniy-lingvistik va kommunikativ-faoliyat qadriyatlari, bilimlari, munosabati va xulq-atvor normalarini ta'limiylar diskurs jarayonida ham voqealanishiga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda ta'limiylar diskursdagi madaniy to'siqlarni bartaraf etish uchun qanchalik madaniy bilimlardan xabardor bo'lish kerakligiga to'xtalib o'tsak. Madaniy xabardorlik - o'qitishga madaniyatli yondashuvni shakllantirishning bиринчи bosqichidir. Madaniy xabardorlik yoki madaniy kompetensiya "o'z madaniyatingizni, boshqalarning madaniyatini va madaniyatning ta'limga rolini tushunishdir". Talaba madaniyatini "o'rganish uchun asos, yuqori talablarini bildirish va o'quvchilarning xilma-xilligini aks ettirish uchun o'quv dasturini qayta shakllantirish" sifatida hisobga olish ta'limga yaxshi natijalariga olib keladi. Bu narsa irqiy, jins yoki ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarning o'ziga xosligini yo'qqo chiqarmaydi; aksincha, bu o'qituvchilar har bir o'qituvchining o'ziga xosligini va jamoalar va ularning dars jarayonini jonli qiladigan guruhlar o'rtasidagi farqlarni tan olishga yordam beradi.

O'qituvchilar har doim ham o'z talabalar bilan bir xil ma'lumotga ega bo'lmagan uchun ular doimo o'sha talabalar va ularning madaniyatlaridan o'rganishga imkon berishlari juda muhimdir. Kasbiy rivojlanish kurslari yoki talabalar va ularning oilalari bilan munozaralar orqali turli madaniyatlarini yaxshiroq tushunish imkoniyatlarini izlayotgan o'qituvchilar o'rganishga to'sqinlik qiladigan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bir guruh talabalar tomonidan oson tushuniladigan dars yoki o'qitish usuli boshqa guruhga mos kelmasligi mumkin. Texnologiyadan foydalanih cheklanganligi, lingvistik farqlar, oilaviy dinamika va boshqa omillar ba'zi talabalarining muayyan darslarda to'liq ishtirok etish qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. O'qituvchilar dars davomida turli xil imkoniyatlar va ko'nikmalarini ishga solgan holda barcha o'qituvchilar uchun madaniy jihatdan mos keladigan muloqot shaklini tanlashlari lozim bo'ladi.

Muloqot ko'nikmalarini talabaning akademik muvaffaqiyati va kelajakdagi martaba istiqbollarini uchun juda muhimdir. Bugungi qiyin sharoitda talabalar nafaqat ilmiy tajribaga, balki kelajakda o'qish va ishga joylashish istiqbollarini oshirish uchun zarur ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Muloqot dinamik jarayondir, chunki u ikki yoki undan ortiq odamlar, ya'ni jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Og'zaki muloqot - fikrni nutq vositasida ifodalash jarayoni bo'lib, bu o'qituvchilar hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Odatda, o'qituvchilar og'zaki muloqot asoslarini uyda o'rganadi. Maktab muhitini o'qituvchiga tengdoshlari va o'qituvchilar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish orqali ushbu ta'limga bir darajaga oshiradi. Talabalar hayotidagi muloqot sifati keyingi hayotdagi professional muloqotni belgilaydi. Yaxshi muloqot talabalarga tegishli savollarni berish va tushunmagan narsalarini muhokama qilish imkoniyatini berish orqali o'quv jarayonidan ko'proq narsani o'zlashtirishga imkon beradi. Samarali og'zaki muloqot va bu o'z navbatida o'quv jarayoniga yordam beradi. Samarali muloqot shaxsning jamiyattdagi mavqeining ko'tarilib borishiga turtki bo'ladi. Muloqot ko'nikmalarini nutq uslublari, o'zini namoyon qilish usullari va boshqalarga munosabatda professionallikni rivojlanadiradi va bu xususiyatlar talabalarni kasbiy hayotida yaxshi o'rin egallaydi.

Talabalar bilan samimiy muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatini shundaki, u og'zaki taqdimotlarni muvaffaqiyatli tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish mahoratini egallaganligidir. Og'zaki muloqot real vaqt rejimida taqdimotlar, video taqdimotlar va intervyular, tarqatma materiallar kabi ko'rgazmali qo'llanmalarini o'z ichiga oladi. Xabar og'zaki muloqotning kalitidir. Taqdimotning mazmuni tinglovchilar va taqdimot maqsadlariga mos kelishi kerak. O'z-o'zini anglash -yaxshi og'zaki muloqotning boshlang'ich nuqtasidir.

Didaktik muloqot jarayoni sinfda amalga oshiriladi. Sinfdagagi muloqot muhitini juda ko'p o'lebovlarga ega: ergonomik, psixologik, ijtimoiy, me'yoriy, operatsion va innovatsion. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sinfdagi muhit xavfsiz, to'g'ri va o'qituvchilar rivojlanishi uchun mos bo'lishi kerak. Xavfsiz muhitda har bir o'qituvchi o'zini o'zi himoya qilish strategiyasini

ishlab chiqadi va muktabdag'i muvaffaqiyatsizlik holatlari kamayadi.

Xabar almashishning soddaligi yaxshi muloqot uchun ajralmas hisoblanadi, chunki xabarni o'zlashtirish uning taqdimatani aniqligiga to'g'ridan to'g'ri proporsionaldir. Suhbatdoshlarining mavzudan xabardorligi samarali og'zaki muloqotchingin qo'llidagi muhim vositadir. Yaxshi muloqotchi tinglovchilarining individual til xususiyatlari va fikr-mulohazalarini kuzatish orqali uning ta'sirini aniqlashi va shunga mos ravishda o'z yondashuvini o'zgartirishi mumkin. O'zaro ta'sir - bu samaradorlik yo'lidir. Ma'ruzachi savollar berish va mavzu bo'yicha fikrlarni so'rash orqali tinglovchilarini o'ziga jalb qilishi mumkin. Bu, shuningdek, tinglovchilardan olingan fikr-mulohazalarga asoslanib, xabar va taqdimot uslubini nozik so'zlashga yordam beradi.

Individual til xususiyatlari samarali og'zaki muloqotning muhim tarkibiy qismidir. Taqdimot paytida talaba barqarov va ishonchli pozitsiyani egallashi, to'g'ri imo-ishoralarini bajarishi, qimirlamasliklari va ko'z bilan aloqa o'rnatishlari kerak. Og'zaki muloqot nafaqat gapirish qobiliyati, balki tinglash qobiliyatidir. Yaxshi kommunikant esa tinglovchilarga mos keladigan va o'z xabarini shunga mos ravishda moslashtira oladigan kishi. Og'zaki muloqotga intiluvchi kishi ma'lum bir vaqt ichida tinglay olish qobiliyatini egallashi va suhbat jarayonini yaxshilashga tayyor bo'lishi kerak.

Yetarli bilinga ega bo'lgan shaxs yaxshiroq muloqot qila oladi, chunki kontent aloqa muloqot jarayonining ruhidir. Shuningdek, u munozara va mulohaza yuritish munosabatiga ega bo'lishi kerak, chunki bu intellektual qobiliyatlarni yaxshilaydi va

shu bilan bir qatorda samarali muloqotga hissa qo'shadi. Samarali yozish ko'nikmlari va yaxshi og'zaki muloqot qobiliyatlari bir-biriga mos keladi. Yaxshi yozish qobiliyatiga ega bo'lgan talabaning o'zi o'z fikrlarini tizimli tarzda tartibga solish va taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa. Ko'pgina o'qituvchilar ta'limiy diskurs jarayonida barcha talabalar uchun tushunarlari o'qitish usullaridan samarali foydalanishadi. Ko'pgina o'qituvchilar ijobjiy sinf madaniyatini yaratadilar, bu yerda farqlar kuchli tomonlarga aylanadi. Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining madaniy e'tiqodlari va munosabatlari talabalar bilan o'zaro munosabatlariga qanday ta'sir qilishini tushunadilar va o'z sinflarida har bir o'quvchining nuqtayi nazarini ko'rish qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantiradilar.

Xulosa qilib aytganda, ta'limiy diskursning o'quv muhitida muhim rol o'ynaydi, ham akademik, ham ijtimoiy rivojlanishni shakllantiradi. O'qituvchilar aniq va samarali muloqotni rivojlantirish uchun turli usullardan foydalangan holda ushbu nutqni osonlashtirishda asosiy shaxslardir. Madaniy farqlarni tushunish va ularga murojaat qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarining faolligini oshiradigan inkiyuziv dars muhitini yaratishi mumkin. Og'zaki muloqot nafaqat kontentni yetkazib berish, balki dinamik va sezgir o'zaro ta'sirini rivojlantirishdir. Og'zaki va og'zaki bo'lмаган muloqot qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish o'qituvchilar uchun talabalarni akademik muvaffaqiyatga erishishda qo'llab-quvvatlash va ularni kelajakdagi kasbiy qiyinchiliklarga tayyorlash uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Neacsu, I. (1999). Training and learning. the second edition. Bucharest: E.D.P.
2. Soitu, L. (2001). Pedagogy of communication. Iasi: European Institute.
3. Shaknoza, B. (2024). PSYCHOLINGUISTICS AND EDUCATIONAL DISCOURSE. American Journal of Philological Sciences, 4(05), 200-204.
4. Леонтьев О.А. Русские и американцы: парадокс межкультурного общения «Русские и американцы: парадокс межкультурной коммуникации». –191-193 с.
5. BOBOJONOVA, S. (2024). LINGUOCULTUROLOGY AND CONCEPT. UzMU xabarlari, 1(1.4), 296-300.
6. Brown, G., & Yule, G. (1983). Discourse Analysis. Cambridge University Press.
7. Halliday, M.A.K. (1985). An Introduction to Functional Grammar. Edward Arnold.
8. Gee, J.P. (1999). An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method. Routledge.
9. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. Penguin Books.
10. Scollon, R., & Scollon, S.W. (2001). Intercultural Communication: A Discourse Approach. Blackwell Publishing.
11. Bobojonova, S. (2022). Pragmatic interpretation of educational discourse and expression of dialogic discourse in the communication process.



Gulchehra BOLTAYEVA,

NavDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: boltaevalgulchehra@gmail.com

BuxDU dotsenti, PhD Axmedova Mehrinigor Bahodirovna taqrizi asosida

HAMZA IJODIDA MUMTOZ SHE'RIYAT AN'ANALARI

Annotatsiya

XIX asr oxiri XX asr boshlarida adabiyot yangilanishga yuz tutdi. Jadidchilik nomi bilan mashhur oqim-harakat xalqni ma'rifatlashirishga qaratilgan dastur bilan chiqib, jadid maktabi, jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatriga poydevor qo'ydi. Maqolada milliy birlik, taraqqiyot, ma'rifat g'oyalaring kurashchisi sifatida maydonga chiqqan Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatida mumtoz adabiy an'analarga izdoshlik xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik adabiyoti, jadidchilik oqimi, jadid maktabi, jadid matbuoti, jadid adabiyoti, jadid teatri, mumtoz she'riyat, adabiy izdoshlik, adabiy an'ana.

ТРАДИЦИИ КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ В ТВОРЧЕСТВЕ ХАМЗЫ

Аннотация

В конце XIX начале XX веков литература пережила обновление. Движение, известное как джадидизм, выступило с программой, направленной на просвещение народа, и заложило основу джадидской школы, джадидской прессы, джадидской литературы и джадидского театра. В статье рассматривается следование классическим литературным традициям в поэзии Хамзы Хакимзаде Ниязи, выступившего как борец за идеи национального единства, развития и просвещения.

Ключевые слова: просветительская литература, джадидизм, джадидская школа, джадидская пресса, джадидская литература, джадидский театр, классическая поэзия, литературное следование, литературная традиция.

TRADITIONS OF CLASSICAL POETRY IN THE WORKS OF HAMZA

Annotation

At the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, literature underwent a renewal. The movement known as Jadidism introduced a program aimed at enlightening the people and laid the foundation for the Jadid school, Jadid press, Jadid literature, and the Jadid theater. The article examines the adherence to classical literary traditions in the poetry of Hamza Hakimzade Niyazi, who emerged as a champion of the ideas of national unity, development, and enlightenment.

Key words: Enlightenment literature, Jadidism, Jadid school, Jadid press, Jadid literature, Jadid theater, classical poetry, literary adherence, literary tradition.

Kirish. Ma'lumki, XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayot o'ta murakkab bo'lib, Rossiya mustamlakasi, xonliklar o'tasidagi o'zaro nizolar, Turkistonda dinning mutaassiblashishi kabi tarixiy jarayonlar masalaning eng og'riqli nuqtalar edi. Akademik N.Karimovning fikricha, XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyatning ana shunday noxush manzaraga ega bo'lishiha amir va xonlarning ham abyti kattadir. "O'zlariga tegishli hududda mustabid tuzumni o'rnatgan bu davlat arboblari xalqni mustamlakachilar bilan birga ezib, hur fikrli kishilarni ta'qib va tazyiq etib kelganlar. Ana shunday sharoitda jadidlarning o'quv tizimini isloh etish, yangi tipdag'i maktablarni ochish, xalqni ma'rifatlashtirishga qaratilgan dastur bilan chiqishlari, jadid maktabi, jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatriga poydevor qo'yishlari ularning ulkan fuqarolik jasoratlari edi" [2]. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bunday murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonda she'riyatning rivoji, mavzu va shakl yangilanishlari, davr adabiyotining xususiyatlari haqidagi N.Karimov, I.Haqqul, U.Hamdam, D.Quronov, N.Afqorova, M.Tojiboyeva kabi olimlarning qator tadqiqotlari mavjud. Bu davrda yuzaga kelgan adabiy harakatlар, asosan, she'riyatda bo'y ko'rsatib, yangi janrlarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Unda ifoda etilgan g'oyalilar, davrning yetuk vakili Cho'lpon ta'kidlaganidek, "bir xil" emasdi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek mumtoz adabiyoti dunyo badiiy tafakkuri taraqqiyoti va takomiliga munosib ulush qo'shganligi bilan bashariyat ma'naviy va ma'rifiy rivojida o'ziga xos mavqe' kasb etadi. Buni 2017-yil avgust oyida o'zbek ziyyolilari bilan uchrashuvda muhtaram Prezidentimiz "bizning havas qilsa arziyidigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziyidigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziyidigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa

arziyidigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatto bo'ladi", deya qat'iy ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning adabiy-madanly meros va ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid asarlari hamda o'zbek tili va adabiyotiga oid fundamental tadqiqotlar mazkur maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. G'oyaviy mazmun va mavzu yangilanishlari, adabiy qonuniyatlarga aylangan an'analarning yangi adabiy hodisalarga o'z o'mini bo'shatib berishi milliy uyg'onish davrinining xarakterli xususiyatidir. "Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat milliy uyg'onish g'oyalaring adabiy-badiiy ifodasi edi. Lekin gap shundaki, u jadidchilikning shunchaki bir ko'rgazmasi (illyustratsiyasi) bo'lib qolmadи, chinakam adabiyotga aylandi. U yangi adabiyotni boshlab berdi. Jadid adabiyoti namoyandalarining ijodida muxammasnning janriy imkoniyatlari ijodiy o'zlashtirilishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu janrnning takomil topishida Hamza, Ibrat, Avloniy, Ajziy, Xondayliqiy kabi ijodkorlarning salmoqli o'mini alohida ta'kidlab, M.Tojiboyeva yozadi: "Muxammasnning jadid she'riyatidagi o'rni xuddi mumtoz adabiyotdagi kabi shu jihatdan ahamiyatlikli, jadid shoirlari o'zlariga ustoz deb bilgan mumtoz she'riyat ijodkorlari g'azallariga taxmis bog'lashdan ko'ra, mustaqil muxammaslarda janrnning imkoniyatlardan ko'proq foydalaniib, o'z davridagi ijtimoiy masalalarga munosabat bildirdilar, davrning muhim voqealarini aks ettirdilar. An'anaviylik va an'anaviy janrlarga yondashuv o'ziga xoslik yo'lidan kechdi" [3:94]. Bu fikr o'zbek adabiyotida jadidchilik davri muxammasnavigislining o'ziga xos o'rni borligidan dalolat beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy, Karimbek Kamiy, Xislat, Miskin, Tavallo, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy Ajziy, Sidqiy Xondayliqiy singari shoirlar ijodida muxammasning har ikki ko'rinishi mavjud. Xususan, taxmis-muxammaslar ko'proq Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, Fuzuliy, Amiri, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uzlat, Haziniy kabi shoirlarning g'azallariga bog'langanligi kuzatiladi. Buni davr adabiyotining mumtoz an'analarga e'tibor va ehtiromi, adabiy izdoshlik borasidagi o'ziga xos fazilati sifatida ta'kidlash mumkin. Jadid adabiyoti vakillari ijodida ishqiy, diniy-m'a rifiy va ijtimoiy mavzular hamda didaktik, hajviy yo'nalishdagi taxmis-muxammaslarda mumtoz adabiyot zaminidan ma'naviy oziqlanish ko'zga tashlanadi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov o'zbek she'riyatida poetik yangilanish jarayonini Hamza ijodi bilan bog'lab, shoirni mumtoz she'riyatimizning oxirgi va yangi o'zbek she'riyatining ilk shoiri sifatida ta'riflaydi [9]. Hamza devonida muxammas shaklidagi 17 ta she'r uchraydi [5]. Ulardan 15 tasi mustaqil muxammaslar bo'lib, 2 tasi Haziniy va Avloniy g'azali asosida yaratilgan taxmislardir. Hamzaning an'anaviy mavzular badiiy talqin etilgan mustaqil muxammaslari poetik mahorat bobida mumtoz shoirlarga bo'yasha oladi. Hamza muxammaslarida qo'llangan an'anaviy oshiq-ma'shuqa-raqib uchligi, ma'shuqaning bevafoligi-yu, oshiqning uning ishqida sargardonligi, furqat, xilvat, fano, gado, zohid, hur, g'arib, gul, nola, vola, bevafo, zolim, za'faron, firoq, fig'on, faryod kabi so'zlar vositasida yuzaga chiqqan. Ma'lumki, Hamza ikki tilda ijod qilgan. Uning devonida fors-tojik tilidagi she'rlar ham uchraydi. Shoir fors-tojik tilini yaxshi bilganligi uchun she'riyatida ham tojikcha so'zlarining salmog'i yuqoriligi kuzatiladi. Muxammasning sarlavhasida qo'llangan "parron" so'zi ham forschha bo'lib, "uchuvchi, uchg'an holdagi, otigan" ma'nolarini anglatadi. Muxammasning bunday sarlavhalanishida ma'shuqaning ishq tig'ini parron aylashi oqibatida oshiq jismining qynoqda azoblanishi aks etgan: Tiri ishqin ul kun parron aylading, //Yorib siynam xunin ravon aylading, //Qumri yanglig' ishim nolon aylading, //Benihoyat mani giryon aylading, //Zolimliging oxir ayon aylading [5].

Aruzning ramal bahrinda yaratilgan mazkur muxammas aaaaa, bbbba tarzida qofiyalangan. Bu shoirning aruzda ham yetarli tajribaga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, she'rdagi "begona" raqib obrazini ifodaydi. Ma'shuqa esa sitamgar, o'z va'dasida turmaydigan obraz sifatida ko'zga tashlanadi. Hamza muxammasda yor go'zalligini tasvirlashda an'anaviy tashbehlardan o'rini foydalani, ma'shuqaning oshig'iga yetkazgan jabr-u jafosini kuchaytirish orqali ishq iztiroblarini ta'sirchan ifoda etadi: Ag'yorima tuyassardir visoling, //Yuz noz ila tovus yanlig' xiroming, //To'ti kabi shirin-shakar kaloming, //Men g'arbiga shul deb sani gunohing, //Ko'rinnasdan o'zini pinhon aylading [5].

Muxammasning maxlas bandida shoir "Nihoni" taxallusini qo'llagan. "Mohi tobon kabi yuz" tashbehi, "rahmsiz nargis-u shahlo ko'z" istiorasi Hamzaning mumtoz she'riyatga ergashganligini ko'rsatib turadi. Shoirning "Ey mahliqolar" nomli ishqiy muxammasi maxlas bandida esa taxallus qo'llashda o'ziga xoslik nazarga tashlanadi. Irsoli masal san'ati ("Qozonga yaqin o'tsang, qorasi yuqadi") istifoda etilgan mazkur maxlas banda shoir taxallusi yuqoridagi uch misrada takror qo'llanilgan. Bunda shoir o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash orqali mahliqolar ishqiga, bevafoolar dardiga mubtalo bo'imaslikka da'vat qilgan: Nodon qulgingiz mahzun Nihoni, //Aylab tavollo afzun Nihoni, //Yozgay masal bir majnun Nihoni, //Qozon yonidan o'tmang ukolar, //Yuqqay qarosi demish bobolar [5].

Hamza muxammaslarida mazkur janrga xos belgilardan bo'lgan misra tarje'ini uchratish mushkul. Bandlarning barchasida misra takrorisiz mantiqiy yakunlangan fikr mavjud. Buni N.Afqoqova barcha jadid shoirlari ijodiga xos xususiyat sifatida ta'kidlaydi: "Jadid shoirlarining muxammaslarida 5-misraning takrorlanishi hodisisi juda siyrak. Bu taxmislarda, o'z-o'zidan bo'lishi mumkin emas. Tab'i xud muxammaslarda esa bu usuldan foydalananish mumkin. Ammo har bir bandda mavzuga aloqador alohida-alohida fikrlar talqinini ko'zlash maqsadi har bir bandning o'ziga xos yakunini talab qiladi, bu o'z-o'zidan 5-misraning takrorlanishiga monelik qiladi" [1].

Tab'i xud muxammaslar yaratish adabiy hodisa sifatida jadidchilik davri, sobiq sho'ro davri va istiqlol davri adabiyotida ham davom etdi. Adabiyotshunos olim I.Haqqul aruzda ijod qilish ancha murakkab vazifa ekanligini ta'kidlab, aruzdag'i muvaffaqiyat bir shoirning shaxsiyatida shoirlilik, musiqachilik va musavvirlikning uyg'unlashuvidan yuzaga chiqishini uqtiradi. "Aks holda she'lda so'z ohang bilan, ohang rang, holat va kayfiyat bilan o'zaro birlik, yakporalik kasb etmaydi" [7]. Asrimiz boshlarida yozilgan tab'i xud muxammaslar orasida Hamzaning "Chiroylilik" radifli muxammasi qayd etilgan talabga javob berishi bilan diqqatni tortadi. Ibtidoda yorning go'zal ruxsori tavsif etiladi. Ma'shuqa husni gul yuz, kamon qosh, shahlo ko'z, shahdu shakar til, mushkin kokil singari o'xshatishlar asosida ta'riflanadi. Bu esa mumtoz she'riyatdagi ko'p asrlik an'analarga uyg'un keladi:

Jonona gul yuzingdin ruxsoringiz chiroylilik,
Abro' kamon qoshingdin diydoringiz chiroylilik,
Shahlo ikki ko'zingdin xummoringiz chiroylilik,
Shahd-u shakar tilingdin gulnoringiz chiroylilik,
Mushkin kokilingizdin totoringiz chiroylilik [6].

Asar mazmuniga ko'ra an'anaviy ishq mavzusida yozilgan. Tuzilishiga ko'ra olti bandli. Misralar an'anaga muvofig aaaaa, bbbba, vvva tarzidagi qofiyalanish tartibiga ega. Muxammas aruzning muzoreyi musammani axrab vaznida yozilgan. Aruzshunos olim A.Hojahmedov "adabiyotimizda sevimli vaznlardan biri bo'lib kelgan" [8] deya ta'riflagan bu vazn muzore' bahrining keng tarqalgan ko'rinishlaridan biridir. Bunda mafoiyun rukni birinchi – sadr va ibtido' ruknları hamda uchinchi – hashv ruknlarida axrab, ya'ni maf'ulu ko'rinishida, foilotun ruknları esa solim ko'rinishida ishtirok etadi [8]:

O-shuf-ta / bo'l-dim ul kun / ul moh / ro'-yi-ngiz-ga,
– V – V – / – / – V –
Maf'ulu / foilotun / maf'ulu / foilotun
Ber-dim ko'~/ngil-ni ul dam, / dil-bar / ku-yi-ngiz-ga,
– V – V – / – V / – V –
Maf'ulu / foilotun / maf'ulu / foilotun

Aytish o'rinniki, Furqatning ham xuddi shu vaznda yozilgan "Chiroylilik" radifli g'azali bor. Solishtirish uchun undan ikki bayt keltiramiz:

Jannatning gullaridin gulgoringiz chiroylilik,
Hur-u pari yuzidin ruxsoringiz chiroylilik
Ko'rganda qomatigiz bo'lgay xijil sanovbar,
Tovusning jilvasidin raftoringiz chiroylilik [4].

She'rdagi shakl va mazmun, uslub, unda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ham bir-biriga mos tushadi. Faqat janrdagi farqni aytmasa, hajmi ham bir xil: muxammas olti bandli bo'lsa, g'azal ham olti baytli ekanligi buni tasdiqlaydi. Hatto ko'pgina qofiyadosh so'zlarning ham bir xilligi diqqatni tortadi (ruxsoringiz, raftoringiz, anoringiz, ozoringiz, atvoringiz). Bu shunchaki tasodif bo'lmay, bir o'qishda Hamzaning Furqatdan ta'sirlanganini anglash mumkin. Ammo shuncha o'xshashliklarga qaramay bu she'r taxmis emas, o'ziga xos mustaqil asar. Bu esa boshqa shoir g'azalidan tug'ilgan kuchli badiiy shavq natijasida ham tab'i xud muxammaslar yozilishi mumkin, degan fikrha kelishga asos bo'ladi. Uchinchi band va baytda har ikki shoirda ham yor ozorlari haqida so'z boradi. Furqatda:

Har qancha aylasangiz, kelmas malol hargiz,
Yaxshi eruv jafongiz, ozoringiz chiroylilik [4].

Hamzada:
Jonim tasadduq o'lsun bergen sitamlaringga,
Sologan dilimda yuz ming anduhi g'amlaringga,
Dog'i muhabbat uzra qo'yan alamlaringga,
Ushshoq elin so'ray deb bosgan qadamlaringga,
Qilgan tarahhumingdin guftoringiz chiroylilik [6].

Furqatda "ozoringiz", Hamzada "sitamlaring", birida "har qancha", ikkinchisida "yuz ming", bular ayni mazmunni ikki xil ifodalashdir. To'rtinchi baytda ma'shuqa jafolari haqidagi fikrlar ikki shoirda yana davom ettirilishida ham o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Furqat "Kirdoringiz yarashgan, atvoringiz chiroylilik" deb yoqsa Hamza o'z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi:

Qilgan gunohlarimni har damda ta'na aylab,
Aybim yechib, libosin muncha barahna aylab,
Dashnom ila dilimi vayrona, raxna aylab,
Diyord ko'rsaturga oylyarcha tashna aylab,

Solgan jafolaringdin ozoringiz chiroylig [6].

Ayniqsa, mana shu to'rtinchi bandda ikki she'r bir-biriga shu qadar mos tushadiki, ikkisini bir yaxlit asar ko'rinishida bermalol tasavvur qilish, yonma-yon qo'yish mumkin. Bu esa muxammas va g'azalning badiiy saviyasini yana ham oshiradi. O'quvchining shuuriga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Keyingi bandda ham shoir yor sifatlarini sanashda davom etadi:

Gah noz-u ishva birla aylab o'zingga banda,
Gohi araz aylab, gohida lutf-u xanda,
Goh kuydurib, o'ldirib, gohi qilibki zinda,
Yo'q bobi husn ichra sandek pari Ho'qandda,
Qattol fe'lingizdin atvoringiz chiroylig [6].

Beshinchini va oltinchi bandlarda Hamzaning mahorati yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Shoir takror, tazod, tashbeh singari badiiy tasvir vositalarini o'zaro uyg'unlikda istifoda etadi. Muxammasda boshdan oxir yorning tashqi ko'rinishi va fe'l-atvori o'rtasidagi o'xshashlik va mutanosiblik san'atkorlik bilan

tasvirlanadi. Ma'shuqaning so'zlar vositasida chizilgan surati shunchaki go'zalning tasviri bo'lmay, uning takrorlanmas xarakter-xususiyatlari, o'tli qalbi va hayosini ham ko'rsatib turibdi. Bu Hamzaning poetik mazmun ifodasida o'ziga xos mahoratidan darak beradi. Oxirgi bandda yorning Sharq ayollariga xos ibosi ta'riflangan.

Xulosa. Hamza-Nihoniyning tahlil qilganimiz ushbu tab'i xud muxammasi yozilish uslubining go'zalligi, tilining ravnligi, vazning o'ynoqiligi bilan o'quvchiga ko'tarinki kayfiyat, estetik zavq beradi. Qolaversa, Hamzaning Sharq she'riyatining yetakchi ishq-muhabbat mavzusini ifodalashda Alisher Navoiyga izdosh, ma'shuqa tasviriga navoiyona yondashganligiga guvoh bo'lamiz. Unda adabiy ta'sir izlari mavjud bo'lsa-da, shoirning o'ziga xos badiiy mahorati ham aks etib turibdi. Hamza Hakimzoda o'zigacha xuddi shu mazmun, vazn va uslubda yozilgan g'azal va muxammaslardan farqli o'laroq, chinakam mustaqil asar yaratana olgan.

ADABIYOTLAR

- Афокова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Тошкент: Фан, 2005.
- Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Тошкент: О'zbekiston, 2008.
- Тожибоева М. Жадид адиллари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масалалари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017.
- Фуркат. Муҳаббат йўлида. Шеърлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
- Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Танланган асарлар. Биринчи том. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958.
- Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 1-том. Девон. – Тошкент: Фан, 1988.
- Ҳакқул И. Ҳаёт, адабиёт ва агадият. – Тошкент: Тафаккур, 2019.
- Hojahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
- [https://quronov.uz/hamzanning -поэтические изыскания-хакида/](https://quronov.uz/hamzanning-poetik-iszlaniishlari-hakida/)



Shavkatjon VOSITOVA,
Senior teacher of Andijan State University
E-mail: address: vositov1970@gmail.com

The review is from ASIFL PhD associate professor G.M.Ibragimova

SOCIAL, POLITICAL AND ECONOMIC SITUATION AND JADID LITERATURE IN TURKESTAN IN THE BEGINNING OF THE XXTH CENTURY

Annotation

This article deals with the significance of jadid literature and social, political situation in Turkistan in the beginning of the XXth century. The main focus will be on the importance of jadid representatives. Furthermore, it highlights the ideas of enlightenment, its development in Central Asia. People of opinion, who want to eliminate social injustice and change unjust regimes, believed that in order to change the poor state of the nation and the difficult way of life, it is necessary to give education to the people first. It was understood that nothing can be achieved without awakening the nation from ignorance and creating a desire for development in the spirit of the people. The word "Jadid" means "new" in Arabic and means a person who strives for development. Just as the enlightened people turned literature into a tool to fight against ignorance, modernists also turned fiction into a tool to save the people from ignorance and colonial oppression. The founders of the Jadid movement considered literature and theater to be the main means of awakening people's consciousness.

Key words: Jadid, Turkistan, Jadid literature, Jadid schools, editing, writing structure, experiment results.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ДЖАДИДСКАЯ ЛИТЕРАТУРА В ТУРКЕСТАНЕ В НАЧАЛЕ ХХ ВЕКА

Аннотация

В этой статье рассматривается значение джадидской литературы и общественно-политической ситуации в Туркестане в начале XX века. Основное внимание будет уделено значению представителей джадидов. Кроме того, в ней освещаются идеи просвещения, его развитие в Средней Азии. Люди общественного мнения, желающие устраниить социальную несправедливость и изменить несправедливые режимы, считали, что для того, чтобы изменить бедственное положение нации и тяжелый образ жизни, необходимо в первую очередь дать народу образование. Было понятно, что ничего нельзя достичь, не пробудив нацию от невежества и не создав в духе народа стремление к развитию. Слово «джадид» в переводе с арабского означает «новый» и означает человека, стремящегося к развитию. Так же, как просвещенные люди превратили литературу в инструмент борьбы с невежеством, модернисты также превратили художественную литературу в инструмент спасения народа от невежества и колониального гнета. Основатели движения джадидов считали литературу и театр главными средствами пробуждения сознания народа.

Ключевые слова: Джадид, Туркестан, джадидская литература, джадидские школы, редактирование, структура письма, результаты эксперимента.

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY-IQTISODIY HAYOT VA JADIDLAR ADABIYOTI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid adabiyotining ahamiyati va 20-asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ko'rib chiqiladi. Bunda asosiy e'tibor jadid vakillarining ahamiyatiga qaratiladi. Bundan tashqari, unda Markaziy Osiyoda ta'lim va uning rivojlanishi g'oyalar yoritilgan. Ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf etish, nohaq tuzumlarni o'zgartirishni maqsad qilgan jamoatchilik fikri ahli xalqning og'ir ahvolini, og'ir turmush tarzini o'zgartirish uchun avvalo xalqni ma'rifatli qilish zarur, deb hisoblardi. Millatni jaholatdan uyg'otmasdan, xalq ruhidha taraqqiyotga intilish yaratmasdan turib, hech narsaga erishib bo'lmasligi ayon edi. "Jadid" so'zi arabchada "yangi" ma'nosini bildiradi va taraqqiyotga intiluvchi shaxsni bildiradi. Ma'rifatparvarlar adabiyotni jaholatga qarshi kurash quroliga aylantirganidek, modernistlar ham badiiy adabiyotni xalqni jaholat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar. Jadidchilik harakatining asoschilari adabiyot va teatrni xalq ongini uyg'otishning asosi yositosi deb bilganlar.

Kalit so'zlar: Jadid, Turkiston, jadid adabiyoti, jadid maktablari, tahriri, yozuv tuzilishi, tajriba natijalari.

Introduction. In the beginning of the 20th century, Turkistan experienced significant social, political, and economic changes that influenced the development of Jadid literature. The Jadid movement emerged as a response to cultural stagnation. Intellectuals sought to modernize education and promote new literary forms. The period of the history of the Uzbek people at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century was a short period of time although it is important in the historical fate of the nation is a period of possession [6].

The definition for this approach was given differently according to numerous books and articles.

Traditional madrasas were challenged, leading to the establishment of new schools that emphasized secular subjects alongside Islamic education.: There was a growing sense of national identity among Turkestan peoples, fueled by a desire for reform and modernization. Turkestan was under Russian imperial control, which imposed restrictions on local governance and cultural expression.

Literature review. A wide variety of books and scientific articles are employed in this article to prove the accuracy of the given information and to support given discussions. The main one has been "The XXth century Uzbek literature" by Karimov N (1999). It is mainly employed to emphasize the main significance of jaded literature and to provide main methods for enhancing the uzbek literature. Also, the scientific article by Nazarov E (2020) is also a principal source to discover the main steps of jadid literature development. More importantly, the experiments and observations in his article provided very clear examples for my article. Moreover, the collection of articles "Fitrat and Jadidism" by Hamidulla Boltaboyev (2007) was significant in terms of the stages of process jadid literature and the main representatives. Hamidulla Boltaboyev gave explanation about the development stages of jadid literature, jadid poetry and prose, Fitrat's main works and analysis of Fitrat's dramas. Additionally, "Jadid drama" by Rizayev Sh (1997) is indispensable to focus on this term and its meaning. He described the process of development

modern art and folk oral drama in Central Asia with formation factors and historical conditions of the new Uzbek drama. Another article is "The main peculiarities of the English historical novel (on the basis of Walter Scott's novels)" by Makhlifiy Umarova (2022) is also useful in analyzing historical novel founders of two different nations Abdulla Qodiriy and Walter Scott and to identify the significance of writing first historical novels.

Research methodology. The analysis of the role of the Uzbek literature and the development of jadid literature can be studied employing a variety of methods, such as comparing-contrasting, analyzing the results of experiments and surveys and making conclusions with observations. The early 1900s saw the rise of various political movements advocating for autonomy and reform, influenced by broader revolutionary ideas from Russia. Figures like Ismail Gaspirali promoted ideas of modernization and reform, urging for political and social rights for the Muslim population.

First of all, the method of comparing and contrasting is implemented by making reasonable comparisons between studied information that assists to find major issues in learning the jadid literature are suggested as solutions. The main idea of the Jadid movement was initially manifested in the way of action in the field of culture, fighting for the development of social life, development of Turkish languages, formation and enrichment of the literature of these languages, deeper assimilation of worldly sciences, use of scientific achievements and equality of women and men who called to fight for their problems [5]. Increased interaction with Russian markets and infrastructure development led to new economic opportunities, although many local farmers faced challenges from land policies. The growth of cities like Tashkent facilitated new economic activities and the spread of Jadid ideas.

Jadid literature embraced new forms, including prose and poetry that addressed contemporary social issues and promoted progressive ideals. Writers focused on education, women's rights, and the need for social change, using literature as a tool for advocacy. Authors such as Abay Qunanbaiuly and Mukhtar Auezov contributed to the literary landscape, blending traditional and modern styles. The early XX th century in Turkistan was marked by a dynamic interplay of social, political, and economic forces that fostered the emergence of Jadid literature. This movement not only sought to reform education and promote modernity but also played a crucial role in shaping national consciousness among the Turkistani peoples. Jadid writers in early 20th-century Turkistan faced several significant challenges in promoting their ideas: Government Restrictions: The Russian imperial authorities imposed strict censorship on publications, limiting the freedom of expression for Jadid writers. Surveillance: Writers were often monitored, and their works could lead to imprisonment or exile. Conservative Opposition: Traditionalists within the Muslim community resisted Jadid ideas, viewing them as a threat to established norms and values. Religious Backlash: Some religious leaders condemned the reformist agenda, fearing it would undermine Islamic teachings.

Analyzing these two sources is helpful to see the certain benefits of this literature and jaded representatives. In this article, reasonable conclusions are made based on observing the statistics, facts and results of experiments.

Analysis and results. Low literacy rates among the population restricted the reach of Jadid literature, making it challenging to disseminate ideas widely. The movement primarily resonated in urban areas, while rural populations often remained disconnected from modern literary trends.

Many Jadid writers struggled to secure financial support for publishing their works, as resources were limited. Writers often relied on wealthy patrons, which could impose constraints on their creative freedom. The Jadid movement included a range of ideologies, leading to conflicts over priorities and methods among its proponents. Differences between older and younger writers regarding the direction of reform created tensions within the movement. The political turmoil in Russia and Central Asia created an uncertain environment that affected the ability to organize and promote ideas effectively.

Competing nationalist movements sometimes overshadowed the Jadid agenda, diverting attention from educational and cultural reforms. Despite these challenges, Jadid writers persevered, using innovative literary forms and grassroots efforts to promote their ideas, ultimately laying the groundwork for future cultural and political developments in the region. Uzbek literature of the 20th century is part of the centuries-old history of our national literature occupies a special place. Although most of the literature of this period representatives lived and created in the former Soviet era, and although the works of the author were not free from the influence of the ideology of that period, our literature is one of the artistic achievements of world literature in this period, enjoyed the experiences of classical and modern creativity. Buhoi expanded the artistic possibilities of Uzbek literature. Uzbek literature of the 20th century began to develop as a component of world literature [4].

The Jadid movement had a profound influence on modern literature in Central Asia, shaping its development in several key ways. Jadid writers introduced modern genres, such as short stories and novels, moving away from traditional poetry and oral narratives. Their works often tackled contemporary social issues, such as education, gender equality, and national identity, reflecting a shift toward secularism in literature.

The movement prioritized education, leading to increased literacy rates. This fostered a reading culture that encouraged the consumption of modern literature. Jadid schools emphasized critical thinking and modern subjects, cultivating a generation of writers and thinkers who contributed to the literary scene. The movement played a crucial role in the revival of Central Asian languages and cultures, inspiring writers to explore local themes and histories.

Jadid literature often blended traditional storytelling techniques with modern themes, creating a unique literary style that resonated with diverse audiences. Social Critique: Many Jadid writers used their works to critique colonial rule and advocate for social change, laying the groundwork for future literary movements that addressed political issues.

„Dunyoning ishlari“ qissasi xalq turmushi va hayotining shu davrdagi o‘ziga xos yilnomasi o‘laroq o‘zbek madaniyatini, urf-odatlarini, hayot tarzini, milliyligini aks ettiradi. O‘zbek milliy madaniyatiga xos leksik birliklarining tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va bu muamolarni hal etishda tarjimonlar tomonidan qo‘llanilgan usullarni qissanning nemis tiliga tarjimasini tahlil qilish jarayonida o‘rganib chiqamiz.

1. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir: tun yarimdan oqqanda birdan uyg‘onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... [5] Tarjimasi: Vielleicht geht es Ihnen bisweilen ähnlich wie mir, dass Sie mitten in der Nacht plötzlich aufwachen, den Blick auf die Zimmerdecke richten und einfach nur liegen und liegen...[6] Bu yerda asl nusxadagi „tun yarimdan oqqanda“ iborasiga tarjima tilidani teng qiyamli ekvivalent „mitten in der Nacht“ keltirilgan.

Bunga yana bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan:

2. Avvaliga chiqqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo‘ladi. [5]. Tarjimasi: Die eintönig tickende Uhr scheint allmählich zu verstummen [6]. Tarjimon „bora-bora“ iborasini aynan tarjima tilidagi „allmählich – sekin-asta, bora-bora“ so‘zi bilan mohirona olib bergan. Bu yerda tarjimonning so‘z tanlash mahorati tahsinga sazovor.

3. Shu qadar og‘ir sukunat cho‘kdiki, qulqlaringiz shang‘illab ketadi. [5] Tarjimasi: Es tritt eine so tiefe Stille ein,

dass Ihnen die Ohren zu sausen beginnen. [6] Tarjimon „og‘ir sukunat cho‘kmoq“ iborasini tarjima tilidagi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalaniib „eine so tiefe Stille eintreten“(juda chuqur sukunat kirmoq; juda og‘ir sukunat ro‘y bermoq) birikmasi orqali tarjimon iboraning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi. Eng ahamiyatli jihat shundaki, ushbu tarjima til imkoniyatlaridan yaratilgan birikma „eine so tiefe Stille eintreten“ asl nusxadagi „og‘ir sukunat cho‘kmoq“ iborasi bilan bir xil ma’no ifodalaydi.

4. O‘pkam to‘lib, o‘zimni tutolmayman[5]. Tarjimasi: Trännen, die ich kaum beherrschen kann, drängen sich in meine Augen. [6] Tarjimon „O‘pkam to‘lib, o‘zimni tutolmayman“ iboralarining umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi.: „ Quyilib kelayotgan ko‘z yoshlarimni bazo‘r to‘xtatolaman (tiyib turolaman)“ Bizning na‘zdizimda, „Trännen, die ich kaum beherrschen kann (ko‘z yoshlarimni bazo‘r to‘xtatolaman (tiyib turolaman))“ gapini „Trännen, die die ich nicht beherrschen kann (ko‘z yoshlarimni to‘xtatolmayman (tiyib turolmayman))“ jumlasi bilan almashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi, chunki asl nusxada „O‘pkam to‘lib, o‘zimni tutolmayman“ – deb yoizilan.

5. Bo‘ldi endi, bolam! Bunaqada o‘zingizni oldirib qo‘yasiz. [5] Tarjimasi: „ Nun reicht es, mein Kind! Wenn Sie weiter so trauern, werden Sie krank. [6] Tarjimon „ o‘zini oldirib qo‘ymoq“ iborasini „ „krank werden (kasal bo‘lmoq)“ iborasi orqali ifodalagan. Asl nusxadagi „Bunaqada o‘zingizni oldirib qo‘yasiz“ gapini tarjimada „Agar shunday qayg‘uraversangiz, kasal bo‘lib qolasiz“ - deya o‘girigan. Tarjimon iboraning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalangan.

6. Bunaqa ruhi pok odamlar kam bo‘ladi, bolam, men bilaman-ku [5]. Tarjimasi: Leute, mit solch einer reinen Seele gibt es selten auf der Erde, mein Sohn. Ich weiss, wovon ich rede [6]. Tarjimon asl nusxadagi „ruhi pok“ iborasini uning sinonimi “reine Seele sof ko‘ngil ” iborasi orqali ifodalagan.

7. „Ko‘zinga qara, bolam, chuqur bor“ [5]. Tarjimasi: „Sei vorsichtig mein Sohn! Da gibt es eine Grube“ [6]. Tarjimon asl nusxadagi „ko‘zga qaramoq“ iborasini tarjima tilidagi „vorsichtig sein – ehtiyyot bo‘lmoq“ birikmasi orqali ifodalagan va umumiy ma’noni aks ettirish bilan kifoyalangan. Tarjimon bu yerda kontextga mos so‘z birikma topa olgan, chunki „ko‘zga qaramoq“ iborasi „ehtiyyot bo‘lmoq“, „diqqatli bo‘lmoq“ kabilar bilan sinonimlik hosil qila oladi.

8. Ularning ko‘nglini olaman, deb ikki o‘rtada onalari adoyi tamom bo‘pti [5]. Tarjimasi Aus Gram, die Söhne weder zur Versöhnung noch zum Frieden bewegen zu können, wurde die Mutter krank und starb schliesslich vor Kummer [6]. Tarjimon „adoyi tamom bo‘moq“ iborasini tarjima tilidagi „krank werden-kasal bo‘lmoq“, „schliesslich vor Kummer sterben – va niyohat qayg‘udan o‘lmoq“ iboralarli orqali ifodalagan. Eng ahamiyatli jihat shundaki, tarjimon yozuvchi ko‘zda tutgan mazmuni kitobxoniga yetkazib bera olgan.

Xulosa va takliflar. Til madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an‘analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlар yig‘indisi va dunyoqarashini ham aks etadi. Tarjima jarayonida ushbu jihatlarni barchasi ikkinchi bir tilda qayta yaratiladigan murakkab jarayon. Tarjimon oldida ikki xil yondashuv turadi: tarjimaning transliteratsiya, transkripsiya va tasviriy tarjima usullaridan foydalanan asliyat matnining milliy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolish yoki yaqin ma‘noli leksik birlikklardan foydalangan holda tarjima tili madaniyatiga xos matn yaratish. Tarjimon asliyat matnining xususiyatlarini saqlab qolgan holda ikkinchi bir tilda ekvivalent matn yaratishni maqsad qilishi kerak. Badiiy tarjimada lingvomadaniy yondashuv to‘g‘risida so‘z borganda, birinchi o‘rinda asl matnni tarjima matniga imkon qadar to‘liq va to‘kis holatda tarjima qilishni aytamiz. Ammo har qanday matnning lingvistik o‘ziga xosligi bo‘ladi. Agar tarjimon bu uslub va yo‘nalishlarni tarjimada qo‘llay olmasa, tarjimada muqobillik saqlanmaydi va bu tarjimonning o‘z ijodiy ishiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham tarjimonlar matnlarni to‘liq tarjima metodlari va uslublaridan foydalangan holda tarjima qilishlari kerak. Chunki lingvomadaniyatning o‘rnii badiiy tarjimada niyohatda beqiyosdir. Umuman, lingvomadaniyatga xos ko‘nikma va bilimlarsiz tarjimon kutgan natijaga erisha olmaydi. Bu tabiiy. Lekin badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini hisobga olish tarjimadagi muvaffaqiyat uchun zarurdir. Tarjimonlar madaniyatlararo ko‘prik yaratishda asosiy rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat so‘zlarni, balki madaniy tushunchalarini ham o‘tkazadi. Tarjimadagi muvaffaqiyat, leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini to‘g‘ri tushunish va ularni moslashtirishga bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 121 b
2. G‘. Salomov Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir, Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent- 1961.
3. A’zamov Q. Milliy o‘ziga xoslik va badiiy tarjima // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1987. -№4 –B. 62-67
4. Mycaev K. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода. Ташкент: Ўқитувчи, 1980-192 с
5. O‘tkir Hoshimov „Dunyoning ishlari“ Qissa. Toshkent: Sharq, 2005
6. Kein Himmel auf Erden. Utkir Hoshimov; Übersetzer Oybek Ostanov. Taschkent: Akademnashr. Verlag. 2014. 304 S.
7. Salomov G‘. T. Tarjima nazariyasi asoslari. T.:O‘qituvchi. 1983, - 120-121 b



Maf tunabonu ZUXRIDDINOVA,

Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

E-mail: zukhriddinovamafatuna@gmail.com

DSc, dotsent T.Quchqarov taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF INVESTIGATING DYSPEMISMS WITHIN THE FIELD OF LINGUISTICS

Annotation

This article analyzes the study of dysphemisms in linguistics and their use in various cultural and social contexts. The article also focuses on the pragmatic and sociolinguistic analysis of dysphemisms, with particular attention to studies conducted in Asian countries.

Key words: dysphemism, linguistics, euphemism, sociolinguistics, cultural context, pragmatics.

ЯВЛЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ДИСФЕМИЗМОВ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация

Данная статья анализирует изучение дисфемизмов в лингвистике и их использование в различных культурных и социальных контекстах. В статье уделено особое внимание исследованием прагматического и социолингвистического анализа дисфемизмов в странах Азии.

Ключевые слова: дисфемизм, лингвистика, эвфемизм, социолингвистика, культурный контекст, прагматика.

DISFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILISH HODISASI

Annotatsiya

Mazkur maqola disfemizmlarning tilshunoslikda o'rganilishi va ularning turli madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatalishi haqida tahlil beradi. Maqlada, shuningdek, Osiyo davlatlarida disfemizmnning pragmatik va sotsiolingvistik tahliliga oid tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: disfemizm, tilshunoslik, evfemizm, sotsiolingvistika, madaniy kontekst, pragmatika.

Kirish. Qadimdan odamlar tana a'zolari, kasallik, o'lum, ichkilikbozlik va diniy mavzular kabi nozik tushunchalar haqida suhbatlashishdan qochib, bu mavzularga nisbatan tabular o'rnatganlar. Bunday ijtimoiy cheklolvar tillarga ta'sir qilib, ba'zi mavzularda erkin muloqot qilishni cheklagan. Odamlar muayyan so'zlarni tanlash orqali o'zaro munosabatlarni saqlashga va birdamlikni kuchaytirishga harakat qiladilar. Tildagi so'zlar turli holat va kayfiyatlarga ko'ra ma'noni yumshatishi yoki qo'pollashtirishi mumkin. So'zlovchilarning lingvistik tanlovi ular bilan kim gaplashayotganiga, joy va zamonga qarab o'zgaradi. Bir madaniyatda qo'pol bo'lgan so'zlar boshqasida ijobjiy qabul qilinishi ham mumkin. Shu bilan birga, madaniy va ijtimoiy tarbiya olgan tinglovchilar uchun qo'pol so'zlarning ta'siri salbiyoq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Allan va Burrij [1] ta'kidlashi bo'yicha, suhbat quruvchilar ko'pincha o'zlarini haqoratli til yoki ijtimoiy jihatdan ma'qullanmagan mavzulardan himoya qilish uchun neytral yoki yoqimli ifodalarni ishlatalishga intilishadi. Va aksincha, ular ba'zi mavzular yoki odamlarni kamsitish uchun haqoratli til birliklaridan foydalanishlari mumkin. Bu borada Fargal ham o'z fikrini beradi va deydi, evfemizmi yoki disfemizmi tanlash ko'pincha so'zlovchi va tinglovchi o'tasidagi ijtimoiy munosabatlar yoki muhitdagi rasmiylik darajasi kabi kontekstual omillardan kelib chiqadi. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, demak, so'zlovchilar odatda evfemistik ifodalarni nutqini adabiy holatga keltirish va muloyimroq qilish uchun ishlatalardilar va ba'zida tinglovchilarini haqorat qilish uchun tabularga yoki disfemistik ifodalarga murojaat qiladilar. Evfemizm yunoncha "eu" - "yaxshi, muloyim"; "phēmē" - "gapishtirish" so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan va ko'p tilshunoslari fikriga ko'ra noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvni sifatida qaraladi. "Лингвистический энциклопедический словарь"да esa "Evfemizm – bu so'zlovchi nazarida qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'mida qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotSIONAL betaraf so'z va ifodalar" deyiladi. Disfemizm yunoncha "dys" - "yomon, noqulay"; "phēmē" - "gapishtirish" so'zlarining birikuvi bo'lib, 19-asr oxirlarida keng foydalanish uchun mavjud bo'lgan va 1927-yilda birinchi marotaba Albert Karnuya tomonidan foydalanilgan.

Ular ifodalarni kamsituvchi, haqoratomuz yoki xo'rlovchi holatiga keltiradi va adresatga salbiy ma'no yuklaydi. Concise Oxford English Dictionary (2004) ma'lumotiga ko'ra, disfemizm "yoqimli yoki neytral so'z o'rniha haqoratomuz yoki noqulay atamalarni ishlatalishdir". Disfemizmlarning adabiyotda ishlatalish ko'lami katta chunki ular qahramonlarning nutq shaklini tavsiflash yoki ularning boshqalarga nisbatan norozilik, qo'pol yoki kamsituvchi munosabatlarini yetkazib berish uchun qollaniladi. Malfemizm va kokofemizm ham disfemizmnning alternativ sinonimlari hisoblanadi. Malfemizm lotin tilidagi "mulus" – "yomon" so'zidan olingan va muloyim, noaniq so'zni haqoratomuz, qo'pol yoki keskin so'z bilan almashtirish amaliyotidir. Tilshunos Grant bu terminni taklif qilgan bo'lib, bu so'zlar qo'pol, nafratga to'lgan, masxaralovchi, kufr va boshqa barcha yomon illatlarini o'z ichiga olgan birliklardir deb ta'rif beradi. Ispan tilshunosi Da Silva Correa esa disfemizm tushunchasini "kakofemismo", "kontra-evfemismo" va "antieufemismo" deb ataydi. Kokofemizm termini grek tilidagi "kokos" "yomon" so'zining birikuvidan hosil bo'lgan va muloyim yoki neytral iboralarning o'rniha kamsituvchi yoki haqoratli so'z yoki iboralarni atayin ishlatalishiga aytildi. Yuqorida uchta iborani bir-biriga sinonim sifatida qo'llayotgan bo'lsak ham, disfemizm va malfemizm qo'pol yoki shunchaki hazil tariqasida kamsituvchi so'zlar bo'lishi mumkin, "kakofemizm" esa odatda qasddan haqorat qilish sifatida tushuniladi [14].

Evfemizm va disfemizm ta'riflarini aniqlab oqanimizdan so'ng savol tug'iladi: agar evfemizm tabu so'zlar o'rniha ishlatalidigan muloyim so'zlar bo'lsa, disfemizm esa qo'pol yoki haqoratli so'zlar yoki iboralar bo'lsa, demak bu ikki kategoriyaga kirmaydigan yana bir neytral bo'shilq bor ekan. Bu bo'shilqdagi so'zlar nomlash uchun Kate va Allan "ortofemizm" terminini taklif qildilar. Bu so'z yunoncha "ortho" - "to'g'ri, to'g'ri, normal" so'zları birikuvidan tashkil topgan. Ortofemizmlar haqoratli ifodalarning alternativalaridir va evfemizmlar singari, ijtimoiy maqbul atamalar sifatida afzal ko'rildi. Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha atamalarni to'plam sifatida "X-femizmlar" deb guruhlashtiriladi. Ularning qiymati asosan ular aytilgan kontekstida baholanadi. X-femistik qiymatni belgilaydigan unsur ijtimoiy munosabatlar yoki konvensiyalar bo'lib, ular ma'lum

dialekt guruhlari o'rtasida va hatto bir xil jamiyat a'zolari o'rtasida ham sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Rim notiqligida ham disfemizm strategik tarzda qo'llanilgan. Taniqli notiqlar, masalan, Tsitseron va Seneka, raqiblarini obro'sizlantirish, jamoatchilik fikrini o'zgartirish va nutqiy ustunlikni ta'kidlash uchun qo'pol til ishlatganlar. Jamoat nutqlarida disfemizmni ishlatalish raqiblarning nuqsonlari va kamchiliklarini ta'kidlash uchun ataylab qilingan taktika bo'lgan.

Qadimgi davrlarda disfemizm faqat jamoat nutqiga xos emas, balki kundalik hayotda ham keng tarqalgan edi. Turli qadimgi madaniyatlarda qo'pol til ishlatalish ijtimoiy iyerarxiyani aks ettirishi mumkin edi, bu yerda boshqlardan ustun bo'lgan amaldorlar o'zlarining ustunliklarini tasdiqlash uchun haqoratomuz so'zlardan foydalanan edilar. Bu lingvistik amaliyot ijtimoiy tuzilmalar va hokimiyat munosabatlарини mustahkamlardi.

Renessans davri (14-17-asr). Yevropada katta madaniy, badiiy va intellektual rivojlanish davri bo'lgan. Ushbu davr Gretsiya va Rimming klassik qadriyatlarga bo'lgan yangilangan qiziqish tufayli adapbiyot va san'atda sezilarli rivojlanishlarga olib keldi. Renessans yozuvchilarini tomonidan qo'llanilgan ko'plab adapbiy uslublar orasida disfemizm ularning asarlarini yanada kuchaytirishda muhim rol o'yndadi. Ushbu lingvistik vosita ko'pincha kuchli his-tuyg'ularni ifodalash, turli mavzularni tanqid qilish yoki qahramonlar va vaziyatlarni aniq va realistik tasvirlash uchun ishlatalidi.

Tushunchalarni evfemistik tarzda ifodalashdan qoniqmaslik, lingvistik iboraning qarama-qarshi turi bo'lgan disfemizmin paydo bo'lishiga olib keldi. Bu atama bиринчи марта 1873-yilda qayd etilgan va 1927-yilda qayta kashf qilingan o'sha vaqtida unga: "Disfemizm achinmaslik, shafqatsizlik, masxaraomuzlikdir. Bu maqtanchoqlik, injiqlik va manmanlikka ham, shuningdek, o'ta hashamdrolikka ham qarshi reaksiyadir" [13]. Disfemizm bo'yicha adapbiy asosan peyorativ konnotasiyasiga qaratilgan. Timoti Jayning asarlarini tilshunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan haqorati so'zlarini jiddiy va keng ko'lama o'rganadigan bиринчи asarlar qatoriga kiradi [11].

MakEneri korpus ma'lumotlarini ishlatib, so'kinishlarning tipologiyasi va sotsiolingvistikasini yoritadi. MakEneri tomonidan ta'riflanganidek, yomon til, kimgadir noqulaylik yoki haqorat yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday so'z yoki iboradir. So'kinish yomon tilning bir misoli sifatida ko'rildi [13].

Dewaele so'kinish va tabular bo'yicha ko'p tillik nuqtai nazarini taqdirm etadi. U his-tuyg'ularni, shu jumladan salbiy his-tuyg'ularni, masalan, g'azab va so'kinishni chet tilida ifodalash qiyin bo'lishi mumkinligini ayтиб o'tdi. Buning sabablaridan biri shundaki, his-tuyg'ularni, masalan, g'azabni ifodalash, insonning his-tuyg'ularni ustidan nazoratni yo'qotishiga olib keladi va natijada, insonning lingvistik resurslari ustidan nazoratni yo'qotishni ham o'z ichiga olishi mumkin [7].

Bergen la'natlashning kognitiv jihatlariga akademik qiziqishning ortib borayotganini aks ettiradi. Benjamin K. Bergen qarg'ishning keng qamrovli tadqiqotini taqdim etadi va lingvistik tabu haqida kengroq ma'lumot beradi. Lingvist sifatida Bergen qarg'ishning lingvistik jihatlarini tahlil qilishga ko'proq qiziqadi va ushbu mavzuga sotsiolingvistik va kognitiv lingvistik nuqtai nazardan yondashadi. Bergen madaniyat va jamiyatning taqilangan nutqdagi rolini muhokama qiladi va qarg'ishni universal deb hisoblaydigan tamoyillarni taqdim etishdan oldin mavzuni turli tillar bo'yicha sinchkovlik bilan o'rgandi.

Disfemizmlar ikkinchi jahon urushidan keyin evfemistik birliklar qatorida nutq sathida o'z o'rniiga ega bo'la boshladi va tilshunoslarning tadqiq manbaiga aylandi. Dastlab, G'arb davlatlaridagi tilshunoslar e'tiboriga tushgan ushbu hodisa, K. Allan, Burridge, U. Giezek, R. Burchfield, G. M Casas, E. Warren, N. Zollner kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. Ular disfemizmlarni tarixiy jihatdan tadqiq etib, evfemizmlar bilan taqqoslash orqali hulosalar chiqqanganlar. Xususan, Allan va Burridj evfemizmlar va disfemizmlarning lingvistik va ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganib, bu til shakllarining qanday qilib o'zini himoya qilish yoki hujum qilish uchun ishlatalishini tahlil qiladi; Giezekning tadqiqotlari ko'pincha sotsiolingvistika va tilning pragmatikasi bilan kesishib, haqoratomuz tilning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatalishini o'rganadi. Uning

disfemizmlar haqidagi batafsil maqolalari turli lingvistik jurnallarda chop etilgan bo'lib, haqoratomuz tilning pragmatik va ijtimoiy ta'sirlarini o'rganadi; Burchfield esa kitoblarida disfemizmlarning til o'zgarishi kontekstida qanday rivojlanganini tahlil qiladi; [2] Uning maqolalari evfemistik va disfemistik tilning kognitiv jihatlarini o'rganadi; Warren media va jamoat nutqida disfemizmlarning ta'siri bo'yicha keng tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari media tadqiqotlari va lingvistik pragmatika bo'yicha to'plam va jurnallarda ko'p bora nash qilingan; Zollnerning tadqiqotlari ko'pincha disfemizmlarning sotsiolingvistik jihatlari va uning madaniy ifodadagi rolini o'z ichiga oladi. Uning disfemizmlar haqidagi tadqiqot maqolalari turli lingvistik va sotsiokultural jurnallarda chop etilgan bo'lib, haqoratomuz tilning ijtimoiy dinamikaga qanday ta'sir qilishi o'rganadi.

Rus olimlaridan, A.N.Rezanova ingliz tilidagi disfemizmlarni o'ргangan va ularning tarixiy shakllanish bosqichiga urg'u borgan, V. I. Jelvis, T.B. Boyko, V. I. Zabotkina, B. A. Larin, R P Moskvina va T.S. Bushayevalar esa disfemizmlarni evfemizmlar bilan yonma-yon tadqiq qilib borishgan. Masalan, V. I. Jelvis "Поле браны: сквернословие как социальная проблема в языках и культурах мира" tadqiqot ishida turli tillar va madaniyatlar orasida ijtimoiy ma'qullanmagan til birliklaridan foydalanimning o'xshashliklari va farqlari to'g'risida ma'lumot borgan. T.S. Bushayeva esa "Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке" tadqiqotida zamonaviy tilshunoslikda evfemizm va disfemizmlarni pragmatic jihatdan tahlil qilgan va hozirgi paytda ularning ta'siri qanday holatga kelib qolgani borasidagi izlanishlarini berib borgan. Bundan tashqari pragmalingvistika sohadagi tadqiqotlar N. D. Arutyunova, E. S. Aznaurovalar tomonidan, xususan "Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы" asarda semantika va til falsafasini tushunish, qanday qilib til murakkab fikrlarni bildirish quroli ekanligi borasida fikr yuritadilar; kognitiv lingvistika sohasidagi tadqiqotlar M. V. Nikitin, T. A. van Deyk, E. S. Kubryakova, E. V. Rahilina, T. G. Skrebtsovoylar tomonidan; stilistika sohasidagi tadqiqotlar, misol uchun T. G. Skrebtsovoy "Наивные картины глобализации: взгляд лингвиста" maqolasida tilshunoslik nuqtai nazaridan globalizatsiyaning ta'sirlari haqida ma'lumot borgan. V. G. Kostomarov, T. G. Dobrosklonskaya kabi olimlar tomonidan amalga oshirilagan.

F. Djajasudarma fikriga ko'ra, hissiy ma'no so'zning ma'nosini bilan bog'liq qiymatdir. Bu qiyamatlar ijobiyl bo'lishi mumkin, masalan, yaxshi, odobli, hurmatli yoki muqaddas ma'nolarni anglatadi. Aksinchal, qiyamatlar salbiy bo'lishi ham mumkin, masalan, qo'pol, xunuk, iflos, odobsiz yoki hatto pornografik ma'nolarni anglatadi [6]. Chaer dysphemizmni ma'nosini yumshoq yoki oddiy so'zni qo'pol ma'noga ega so'z bilan almashtirishga urinish deb ta'riflaydi [5]. Marcus dysphemizmni evfemizmnning antonimi deb hisoblaydi, bu erda evfemizm tajovuzkor yoki hujumkor ifoda bilan almashtiriladi. Dysphemizm suhbat mavzusi bo'lgan kishi uchun noxush ifodadir [12]. Al-Qadi ba'zi nozik masalalar va ijtimoiy tabular, masalan yuqumli kasalliklar, "nojo'ya ifodalarni aytishni talab qiladi" deb ta'kidlagan [12].

Garner dysphemizmni neytral yoki ijobiyl ma'noga ega so'z yoki iboralarni noxush so'zlar bilan almashtirish deb ta'riflaydi. Disfemizm evfemizmnning aksi bo'lib, tinglovchini hujum qilish uchun qo'llaniladi. Allan va Burridj qashashlariga ko'ra, disfemizm so'zlashuvchilar va tinglovchilar uchun og'riqli yoki bezovta qiluvchi ma'noga ega bo'lgan so'z yoki iboradid.

Tahlil va natijalar. G'arb davlatlaridagi tilshunoslardan farqli o'laroq, osiyolik tilshunoslar disfemizmlarga shunchaki evfemizmlarning aksi sifatida emas balki yaxlit tushuncha sifatida qaraganlar. Osiyo mamlakatlarida disfemizmni o'rganish. Asosan, pragmatic, lingvistik va sotsiolingvistik tadqiqotlar bo'yicha olib borilgan. Bu tadqiqotlarning ko'pchilik qismi disfemizm kabi haqorati so'zlarining turli madaniy va ijtimoiy kontekstda ishlatalishi va ularning ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Quyida esa Osiyodagi ko'zga ko'rning shu sohaga hissa qo'shgan tilshunos olimlar haqida to'xtalib o'tamiz:

Yapon xalqi o'z muloyimligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi va tabiiyki, disfemizmlarni o'rganish va shu orqali ularidan foydalanishga ehtiyyorkor bo'lish bu davlat aholisi uchun muhim bo'lgan. Sachiko Ide yaponiyalaiklarning hurmatlilik konseptini o'rgangan, shu orqali u yapon tilidagi hurmat kon'sinosini beruvchi so'zlar bilan birgalikda hurmatni to'kuvchi haqoratomuz so'zlarini ham pragmatic jihatdan tahlil qilgan [15].

Shu yo'naliш bo'yicha tadqiqot olib borgan yana bir Yaponiyalik tilshunos Yasuhiko Koga bo'lgan. Ushbu tadqiqotchi haqoratomuz so'zlarining sotsiolingvistik tahliliga asoslanib, o'z ilmiy ishini yozadi [16].

Bu sohada Yaponiyalik hamkasblaridan ortda qolmagan Xitoylik tilshunosolar ham o'z fikrlarini ommaga havola etishgan. Ulardan biri He Ziran bo'lib, u Xitoy tilida pragmatika va diskurs tahlilini o'rganib, hurmatlilik va humatsizlikning lingvistik aspektlarini tadqiq qilgan. Uning "Politeness and Impoliteness in Chinese: An Analysis of Dysphemistic Expressions" (Journal of Pragmatics, 2010) maqolasi Xitoy tilida haqoratomuz ifodalarning tahlilini beradi.

Yana bir xitoylik izlanuvchi Li Wei ko'ptillilik va belgilamashish orqali suhbatalishish masalalarini o'rganadi, bu esa Xitoy tilida haqoratomuz tilning turli kontekstlardagi ishlatilishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Uning "The Bilingualism Reader" (Routledge, 2007) kitobi ko'ptillikni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Madaniyat jihatdan Yaponiya bilan o'xshash bo'lgan Korea davlatida ham disfemizmlarga nisbatan jiddiy qarashlar, taqiqotlar olib borilgan. Ular orasida ko'zga ko'ringanlarida biri Baek Il-Hwan disfemizmlarning sotsiolingvistik tahliliga e'tibor qaratgan. Uning "Youth Language in Korea: A Sociolinguistic Analysis" (Seoul National University Press, 2015) kitobi koreys tilidagi haqoratomuz ifodalarning tahlilini tadqiq qiladi. Yana bir tadqiqotchi Sookeun Chang Koreya mediyasida haqoratomuz tilning tasviri va uning ijtimoiy ta'sirini o'rganadi. Uning "The Portrayal of Offensive Language in Korean Media: A Sociolinguistic Perspective" (Media Studies Journal, 2014)

maqolasi koreya mediyasida haqoratomuz tilning tasviri haqida ma'lumot beradi. Osiyo mamlakatlarda disfemizmni o'rganish ko'pincha lingvistika, sotsiolingvistika va pragmatik tahlillar doirasida olib boriladi. Yetakchi olimlar, masalan, Sachiko Ide va Yasuhiko Koga Yaponiyada, He Ziran va Li Wei Xitoyda, Baek Il-Hwan va Sookeun Chang Koreyada haqoratomuz tilning turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari tilning insonlar o'rtaсидаги muloqotda qanday ishlatilishini va bu jarayonda yuzaga keladigan normativ buzilishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada disfemizmlarning tilshunoslikdagi ahamiyati va ularning turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishi keng tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, disfemizmlar nafaqat muloqot jarayonida tilning qo'pol yoki haqoratli shakllarini ifoda etadi, balki ular ijtimoiy munosabatlar, siyosiy va madaniy qadriyatlar, hamda jamiatnatning axloqiy me'yorlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, disfemizmlar madaniy kontekstga qarab turlicha qabul qilinadi va har bir jamiatyadagi ularning ishlatilishi o'ziga xos ma'no va ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Osiyo mamlakatlardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, disfemizm, evfemizm kabi lingvistik vositalar pragmatik va sotsiolingvistik jihatdan jiddiy o'rganilishi zarur bo'lgan hodisalardir. Disfemizmlarning turli madaniyat va ijtimoiy sharoitlarda o'ziga xos ishlatilishi ularning lingvistik shakllarini yanada boyitadi. Yaponiyada, Xitoyda va Koreyada disfemizm bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, bu sohadagi izlanishlar hali to'la yakuniga yetmagan va kelgusida yanada kengroq o'rganishlarni talab qiladi. Taklif etiladi, disfemizmlarni o'rganishda lingvistik, psixologik va ijtimoiy omillarni chuquroq tahlil qilish, ularning qol'lanilishi va ta'sirini global va mahalliy kontekstda o'rganish kerak. Shu bilan birga, disfemizm va evfemizmni lingvistik va madaniy jihatdan kengroq qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lardi, bu esa tilning turli kontekstlardagi ishlatilishini yanada chuquroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

- Allan, K. & Burridge, K. (1991). Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. New York: Oxford University Press.
- Al-Qadi, N.S. (2009). A Sociolinguistic Comparison of Euphemisms in English and Arabic. Journal of King Saud University-Language and Translation, 21(1), 13-22.
- Carnoy, A. (1927). La science du mot: Traité de sémantique [The science of words: A treatise on semantics]. Éditions Universitas, Louvain.
- Casas, G. M. (2009). Euphemism and Dysphemism: Their Use in Literature and Everyday Language. Pragmatics and Cognition, 17(3), 567-580.
- Chaeer, A. (1995). Introduction to Semantics Indonesian. Jakarta: Rineka Cipta.
- Djajasudarma, F. (1993). Semantics 1. Introduction to the Direction of Science Meaning. Bandung: ERESCO.
- Dewaele, J.-M. (2010). Emotions in multiple languages. Basingstoke, UK: Palgrave Macmillan.
- Enright, D. J. (Ed.) (1985). Fair of speech: the uses of euphemism. New York: Oxford University Press.
- Farghal, M. (1995). Euphemism in Arabic: A Gricean Interpretation. Anthropological Linguistics, 37(3), 336-378.
- Jay, T. (1992). Cursing in America: A psycholinguistic study of dirty language in the courts, in the movies, in the schoolyards and on the streets. Amsterdam: John Benjamins.
- Marcus, D. (2011). The Barren Woman of Psalms 113: 9 and the Housewife: An Antiphrastic Dysphemism. Bravman Memorial Volume.
- McEnery, T. (2009). Swearing in English: Bad language, purity and power from 1586 to the present. London: Routledge.
- Silva Correia, João Da. (1927). O eufemismo e o disfemismo na língua e na literatura portuguesa. Arquivo da Universidade de Lisboa, 445-787.
- The Sociolinguistics of Honorifics in Japanese (2008). Nihon University Press.
- The Use of Offensive Language in Japanese: A Pragmatic Approach (2006). Pragmatics



Zahro ISLOMOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika institute Xorijiy til amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: Zahroislomova2484@gmail.com

QarDU dotsenti, PhD F.Rajabov taqrizi asosida

ON THE STUDY OF AXIOLOGICAL UNITS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article talks about the level of study of axiological units in Uzbek linguistics, their current status, problems and views. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of the level of study of axiological units in Uzbek linguistics based on existing literature.

Key words: axiology, axiologism, values, linguistic and cultural studies, linguistic tools, linguistic unity.

К ИЗУЧЕНИЮ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье говорится об уровне изученности аксиологических единиц в узбекском языкоизнании, их современном состоянии, проблемах и взглядах. На основе научных данных автор на основе существующей литературы изучил и проанализировал конкретные аспекты уровня изученности аксиологических единиц в узбекском языкоизнании.

Ключевые слова: аксиология, аксиологизм, ценности, лингвокультурология, лингвистический инструментарий, языковое единство.

О'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AKSIOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o'rganilish darajasi, bugungi kundagi holati, muammolari va qarashlari to'g'risida so'z yuritiladi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mayjud adabiyotlar asosida o'zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o'rganilish darajasining o'ziga xos jihatlarni o'rangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: aksiologiya, aksiologizm, qadriyatlar, lingvomadaniyatshunoslik, lingvistik vositalar, lisoniy birlilik.

Kirish. "Aksiologiya" atamasi XIX asrning ikkinchi yarmidan beri keng qo'llanilib kelinmoqda, ammo hozirgi kunda o'zbek va ingliz tillarida o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek tilida aksiologiya tushunchasi borasida yaxlit hozirga qadar yaxlit bir umumiy izoh berilmagan[1].

"Aksiologiya" atamasi va uning analogi "aksiologizm" o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda faol qo'llanila boshlangan. Hozirgi kunda aksiologiya atamasi tilshunoslikda eng ko'p ishlatalidigan asosiy tushuncha sifatida o'zini namoyon qilmoqda. "Aksiologiya" yunoncha tildan olingan bo'lib, "axio"- qadriyatlar va "logos" – fan, ta'limot degan ma'nolarini bildiradi va qadriyatshunoslik, qadriyatlar haqidagi fan hisoblanadi.

O'zbek tilida aksiologik birliklarning o'rganilishi ko'pincha semantik, pragmatik va diskurs tahlillar orqali amalga oshiriladi. Semantik jihatdan bu birlıklar lug'aviy ma'nolaridan tashqari, ko'plab konnotatsiyalarga (yashirin ma'nolarga) ham ega bo'ladi. Pragmatik tahlil esa bu birlıklarning nutqda qanday qo'llanishi, ularning kontekstga bog'liqligini o'rganadi.

O'zbek tilida aksiologik birlıklar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ma'lum bir so'z yoki iboraning jamiyatdagi o'rnni va qanday qadriyatlarni ifodalashini tushunishga qaratilgan. Misol uchun, turli bayramlar, urf-odatlar va jamiyatdagi muhim voqealar bilan bog'liq so'zlar xilma-xil ma'naviy va madaniy qiyatlarni o'zida mujassam etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tushuncha turli adabiyotlarda turliqa talqin etiladi. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da "Aksiologiya-qadriyatlar to'g'risidagi fan" deya qisqacha ta'rif keltiriladi. I.T.Frolova tahriri ostidagi "Falsafiy lug'at"(1986)da esa aksiologiyaga "qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan tadqiq etish", deb ta'rif beriladi. Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi "Falsafa: qomusiy lug'at"(2004)da aksiologiya "aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatlari yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasi" sifatida izohlanadi[3].

Aksiologiya XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan

fanga kiritilgan. Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasining uziyi o'ziga xosligi bo'lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi (nazariy) falsafiy 3 nazariyalar) yangi ta'lim falsafasi sifatida va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga uyg'un tarzda qaraladi[2].

Keyinchalik, XIX asrning oxirlarida aksiologiya tilshunoslik atamasi sifatida qo'llanila boshlangan. Aksiologiya qadriyatlamning tabiatini falsafiy tadqiq etish XIX asming ikkinchi yarmida yuzaga kelgan bo'isa ham, qadirning dunyo falsafasidayoq dunyoga qadriyatli munosabat o'ziga xos tavslitlandadi. O'sha davr faylasutlari tabiiy va ijtimoiy hodisalami baholashda «yaxshilik», «ezgulik», «haqiqat», «foydalni», «go'zal» kabi tushunchalardan foydalananishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi Sharq falsafasi insonning ichki dunyosini tadqiq etishga katta e'tibor qaratgan. Qadimgi bobilliklamning yaxshilik bilan yornonlikning, ezungul bilan yovuzlik, boylik bilan qashshoqlikning, zo'rlik bilan xo'rlikning bir-biriga tubdan zid ekanligi, o'zaro qararna-qarshi va rnurosasizligi haqidagi falsafiy g'oyalami o'zida rna'ium darajada bayon qiluvchi «lafokash avliyo haqida dostoll» va «Xo'jayining qul bilan suhbat» degan asarlari ham rnavjudligini aytib o'tish zarur. Ulaming birinchisida - baxt va baxtsizlik,adolat va adolatsizlik ularning sabablarini, bartaraf etish yo'llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvur va g'oyalar bayon etilgan. Keyingisida, xo'jayin bilan qul o'tasidagi ziddiyat ular orasidagi ta'sirli suhbatda ifoda qilingan. Asarda aytishicha, har gal xo'jayining istaklarini o'rinli va asosli qilib rad etishga vaj topadigan quldan ko'ngli sovgan xo'jayin nihoyat: «Xo'sh, endi nima yaxshi?» deb xitob qiladi. Qul dadillik va istehzo bilan bunday javob beradi: «Mening kallamni ham, sening kallangni ham uzib, daryoga tashlash kerak. Eng yaxshisi ana shu. Osmonga yetish darajasida yuksak, butun yemi qoplab olish darajasida katta odam bormi, axir!». Jahli chiqib ketgan xo'jayin daxshat bilan qulga qarab: «Ey qul, men seni o'dirishni va seni mendan oldin ketishga majbur qilishni istayman», - deydi. Bunga javoban qul xo'jayinni

ogohlantirib: «Dahshatini olganda, xo'jayinim mendan keyin faqat uch kun umr ko'radilar», - deydi. Hind falsafasida yuksak reallikni o'zida aks ettiruvchi ruh - braxman orqali «qalb» tushunchasi ochib berilgan. Qalb «sof anglash»ni aks ettiradi va «sof ilohiylik holati»da joylashadi. Hind faylasuflarining mazkuz ta'lomoti inson tabiatini takomillashtirishning amaliy yo'lllarini ko'rsatib beruvchi «Vpanishadlar» deb nom olgan.[3] Dastlab Hindistonda (mil. Avv. VI asr) paydo bo'lgan, keyinchalik Markaziy, Janubiy, Shimoliy va Sharqi Osiyoda keng tarqalgan Dzen-buddizm ta'lomoti ham insonning ichki holatiga e'tibor qaratgan. Dzen-buddizm ta'lomitining ahamiyati ichki o'z-o'zini baxshida etishda namoyon bo'ladi: haqiqatni anglash uchun atrof-muhitni o'rganish kerak emas, o'zini, o'zining «Men»ini Buddha bilan qurollantirish zarur. Dzen-buddizm ta'lomitining oliy haqiqatga erishish texnologiyasi turli psixologik mashqlami o'z ichiga oladi. Psixologik mashqlar o'zida insonning o'z-o'zini takomillashtirishi, uning o'z-o'zini axloqiy anglashi, xulq-atvor usulubini shakllantirish dasturi sifatida qarash mumkin bo'lgan turli qadriyatli jihatlami aks ettiradi.

Qadimgi G'arb faylasuflari ham qadriyatni turlicha talqin etganlar. Qadriyatga tegishli go'zal va xunuk, yaxshi va yomon, baxt va baxtsizlik tushunchalarini turli davrlarda turlicha va turli odamlar tasavvurida tushunganlar. Vlar asosiy aksiologik masalalami shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxt mavjudmi? Inson hayoti mazmuni nimada? Haqiqat nima? Sevgi nima va ayriliq nima? Go'zallik nima? Qadriyatlar tabiatidagi qaramaqshiliklami aniqlashgan: go'zal narsalar insonni jinoyatga boshlashi mumkin; go'zal so'z salbiy ko'rinishdagi mazmunnii ifoda etishi mumkin; tashqi go'za'llik - ma'naviy qashshoqlik. Qadimgi Yunon faylasufi Geraklitning fikricha, bilish asosida idrok turadi, biroq donolikka faqat fikrlash orqali erishiladi. Demokrit barcha narsalaming o'ichobi, oliy qadriyat sifatida har qanday insonni emas, faqat dono kishini tushunadi. U Geraklitning fikrimi inkor etmagan holda, bilishning asosiy manbasi sifatida hissiy idrok aks etishini ta'kidlaydi. Biroq uning fikricha, hissiy idrok narsa-hodisalar haqida «qorong'u» bilimlar beradi. Dunyoning mohiyatini tushunish tafakkur yordamida haqqoniy bilimlami egallahsga imkon beradi. Bu esa, hissiy idrokning rolini pasaytirmaydi. Aksincha, Demokrit tarbiyada bola tabiatiga uyg'unlik, uning qiziqishlarini hisobga olish zarurligi, jazolashning befoydaligini asoslab beradi. Demokritning atom to'g'risidagi nazariysi ham o'zida qator tarbiyaviy qadriyatami jamlaydi. Masalan, mehnatga doimiy odatlanishni shakllantirish, ishontirish asosida o'qishga ijobji motivatsiyani shakllantirish, haqiqatni izlab topish, qalbni qo'rquvdan xalos etish, ishtiyoqini shakllantirish haqidagi fikrlari shular jumlasidandir. Haqiqatga erishishga yo'naltirilgan inson harakatiga Suqrot ham qadriyat sifatida qaraydi. Aflatun birinchilardan bo'lib, ta'lim tizimini falsafiy nuqtai nazaridan asoslaydi, buning uchun davlat ta'liming zarurligini ta'kidlaydi. U o'zining davlat, shu jumladan, ta'lim haqidagi ta'lomotida g'oyalaming aqlga asoslangan dunyosi; davlat (jamiyat, polis); individ, fikrlovchi, davlat qonunlariga rioya qiluvchi kabilami ajratib ko'rsatadi[2].

Tahlil va natijalar. O'rta asrlar ta'lomitida qadriyat Xudoning marhamati, uning ko'rsatmalari' asosi sifatida tushunildi. Xudoda oliy egzulik mujassamlashadi, u o'zida Haqiqat, Yaxshilik, Go'zallik birligini namoyon etadi va axloqiy qadriyatlamining manbai hisoblanadi. O'rta asrlardagi aksiologik

ong obyektiv va subyektiv qadriyatlamining o'zaro munosabati, ularning birligi va xilmalligini aks ettiradi. Uning uchun yaxlitlikda uch ilohiy fozillikni aniqlab beruvchi Ishonch, Umid, Muhabbat kabi ma'naviy qadriyatlamini e'tirof etish xarakterlidir. O'rta asr g'oyalarda Xudo uchun yashash o'z aksini topgan. Insonning qadr-qimmati to'liq uning Alloh bilan ittifoqiga bog'liq bo'lgan. Bu g'oya sof, ilohiy bo'lib, kishi ichki «Men»ining hosil bolishi unga bog'liq. Demak, O'rta asrlar ham qadriyatni izohlashda turli-tumanlik tavsiflanadi. Ko'plab ijtimoiy qaramaqshiliklarga qaramay, O'rta Osiyolik qomusiy mutafakkirlar faqatgina tabiatshunos olimlargina bo'lib qolmadilar. Shuningdek, ular insonparvarlik g'oyalarni targ'ib etuvchi va izohlab beruvchi faylasuf-mutafakkirlar sifatida ham nom qoldirishdi. Ilg'or mutafakkirlar - Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar ijtimoiy tuzum, davlatning gullab-yashnashi uchun ziar bo'lgan insonparvarlik g'oyalarni ilgari surishdi hamda insonparvarlashuv bosqichlari tamoyillarini ishlab chiqishdi.

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamoqdalar. Ma'lum fan sohasiga oid atamalarning ma'no va mazmunitidan chekimmagan holda boshqa sohada qo'llanishi ana shu integratsiyaning bir ko'rinishidir. Falsafa va mantiq ilmida qo'llanuvchi "aksiologiya" termini tilshunoslikka kirib keldi va aksiologik tilshunoslik (lingvoaksiologiya) sohasi o'zining predmeti, maqsadi va vazifasiga ega bo'ldi. Shu o'rinda mantiqda qo'llanilib kelinayotgan modallik (munosabat) va baho kategoriyasi ham aksiologiya bilan uyg'unlashib, "aksiologik modallik" va "aksiologik baho" lingvistik terminlari paydo bo'ldi[4].

Hozirgi zamonda ingliz va o'zbek tillari o'zgarib borayotgan jamiyat normalari va qadriyatlarini aks ettiruvchi rivojlanishda davom etmoqda. Aksiologik leksika turli xil tushunchalarni, jumladan, bag'rikenglik, xilma-xillik, inson qadr-qimmati kabilarni o'z ichiga oлgan bo'lib, zamonaviy hayot murakkabliklarini aks ettiradi. Shuningdek, aksiologik birliliklar tilshunoslik sohasida tarixiy va madaniy meros bo'lib, bir millatning yaratgan tarix va madaniyati bilan bog'liq qadriyat va qiyatlarni ifodalashda keng tarqalgan so'zlar hisoblanadi. Bu birliliklar, bir tilning so'zlar orqali ifodalangan tarixiy va madaniy merosini saqlashda katta ahamiyatga ega. Aksiologizmni tariflashda yunon falsafasining, xususan aristotelizmning turkisi seziladi, lekin bu tushuncha yalpi aksiologik tahlil bilan ta'minlanmagan holatda bir nechta faylasuflar tomonidan rivojlanirilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, keying yillarda tilshunoslik sohasida paydo bo'layotgan va shakllanayotgan yangi yo'nalishlarning mayjudligi bu sohadagi modernizatsiyalanishning keskin sur'atlarda ekanligidan dalolat beradi. Ana shunday yo'nalishlardan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalardan biri bo'lgan aksiologiya atamasи, dastlab rus tilshunosligida, so'ngra jahoning boshqa tilshunoslik sohalariga kirib bordi. Aynan o'zbek tilshunosligida XX asrning 80-yillarga kelib shakllangan bu tushuncha bugungi kunda ham o'z tadqiqotchilariga ega. Jahon tilshunosligiga nazar tashlasak, tilning aksiologik tabiatiga bo'lgan talab va bu ko'lamda qilingan ishlar, nazariyalar 90-yillarga kelib birmuncha tanqidlarga uchraydi[3]. Yillar o'tishi bilan esa tadqiqot maydoni kengayib aksiologiya va aksiologizm sohasiga talab va qiziqish qayta tiklandi.

ADABIYOTLAR

1. Alimova Sh.Kognitiv o'zbek tilshunosligida "konsept" atamasini o'rganilishiga doir-T.: 2023. _B 109
2. Boymatova D. Murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantic-pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Jizzax, 2022. – B.34.
3. Kizi, I. Z. S. (2024). Research of Axiological Lexicon in Uzbeki and English Languages. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(6), 172-177.
4. Mardonov. Sh va b.q Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma) -T.: «Fan va texnologiya», 2013
5. Sharipova O. Aksiologiya va qadriyat tushunchalari haqida-«Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili» munosabati bilan yosh olim va talabalar o'rtasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya-Qo'qon universiteti 15.05.2023y-B-1307-1308
6. Исломова, З. (2024). О'zbek va ingliz tillarida aksiologik leksika tadqiqi. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(1/С), 245-249.



Xurmatillo ISMOILOV,

Andijon davlat universiteti doktoranti, PhD, dotsent v.b

E-mail: prof_ismoilov@umail.uz

ADU dotsenti, f.f.n. O.Tojiyev taqrizi asosida

ON THE STUDY OF JUDICIAL SPEECH

Annotation

Researches to comprehensively enhance judicial practice pose crucial tasks not only for lawyers but also for linguists. Alongside this, developing judicial linguistics as a separate field, achieving linguistic competence in legal practice, and ensuring that language is understandable and fluent, meeting the demands of legal language are all pressing needs. In this context, the article justifies the necessity of distinguishing perspectives on judicial discourse, particularly the need to differentiate court proceedings and court sessions as separate speech situations. It also outlines the analysis of existing research on defining the structure of judicial discourse, specifically regarding the classification of active and passive speech, and provides commentary and perspectives on these studies.

Key words: judicial eloquence, court proceedings, court session, structure of judicial discourse, active and passive speech.

ОБ ИЗУЧЕНИИ СУДЕБНОЙ РЕЧИ

Аннотация

Поиски всестороннего совершенствования судебной деятельности ставят актуальные задачи не только перед юристами, но и перед лингвистами, развивать судебную лингвистику как отдельную область, достигать речевой компетентности в юридической деятельности, обеспечивать понятность и понятность речи, также, свободно владеть и соответствовать требованиям юридического языка. В этом смысле на основе взглядов на судебную речь, в частности, на необходимость выделения судебного процесса и процессов судебного заседания как отдельных речевых состояний, сделан обзор существующих исследований по определению состава судебной речи и классификации активных и пассивных речей, так же описано отношение к ним.

Ключевые слова: судебная речь, судебное разбирательство, судебное заседание, композиция судебной речи, активная и пассивная речь.

SUD NUTQINING TADQIQIGA DOIR

Annotatsiya

Sud faoliyatini har tomonlama yuksaltirishga doir izlanishlar nafaqat huquqshunoslarning, balki tilshunoslarning ham oldiga dolzarb vazifalar qo'yemoqdaki, buning barobarida sud lingvistikasini alohida soha sifatida rivojlantirish, yuridik faoliyatda nutqiy kompetentlikka erishish, nutqning tushunarli va ravon holda yuridik til talablariga monand bo'lishini ta'minlash dolzarbdir. Shu ma'noda maqolada sud nutqiga doir qarashlar, xususan, sud protsessi hamda sud majlis jarayonlarini alohida nutqiy sharoitlar sifatida farqlashning zarurati asoslanib, sud nutqining tarkibini aniqlash hamda faol va nofaol nutqlar tasnifi yuzasidan mavjud tadqiqotlar sharxi va ularga munosabatlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: sud notiqligi, sud protsessi, sud nutqining tarkibi, faol va nofaol nutqlar.

Kirish. Jahon tilshunoslida globalizatsiya jarayonida asosiy e'tibor tilning funksionallashuviga qaratilar ekan, muloqot jarayonini shaxs-nutq kesishmasida makon, zamon, vaziyat, umuman, ekstralningvistik hamda paralingvistik vositalar bilan uzyvi bog'liqlikda tadqiq qilish til ilmi uchun ulkan sarmoya berishi, shubhasiz. Tilning ijtimoiy ta'sirga berilishi, o'z navbatida sud nutqini tadqiq etish muammolarini ham yuzaga chiqib, shu nuqtai nazardan sud lingvistikasini antropotsentrifik yondashuv asosida tadqiq etishga yo'l ochadi. Bu esa sud jarayonlarini shaffoflashtirish hamdaadolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahibili. Sud nutqiga doir qarashlar huquqshunoslari: B.O'rbo耶ev, A.Soliyev, A.Saidov, G.Sarkisov, K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Toxirov, M.Voinova, S.Karimov, X.Mamatov, I.Bo'riyev, M.Mirhamidov, S.Hasanov, N.Norpo'latov, N.Bekmirzayevlarning [2,3,4,7,8,10,11,12,13,15] hamda tilshunoslari Sh.Ko'chimov [6], A.Aripova [1], Q.Mo'ydinovlarning [9] tadqiqotlari ko'rindagi.

Nomi zikr etilgan huquqshunoslarning qarashlarida sudlarning tarixiy-an'anaviy faoliyat asosida sud nutqi notiqlik san'atining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Albatta, bu baho ma'lum davr sotsial muhiti va mamlakatlar boshqaruvi bilan bevosita bog'liq. Tarixdan sud nutqining notiqlik san'atining qadimiyligi turi ko'rinishida shakllangani, sudlar tarixidagi mavjud o'Ichovlarda notiqlikning birlamchi o'rinn egallagani va sudda faoliyat yuritgan ayni davr notiq shaxslari, xususan,

advokatlarning soni va faoliyat bilan bog'liqligi fikrimizni dalillaydi.

Ma'lumki, sud nutqi eramizdan oldingi VII-VI asrlarda qadimgi Afina, Yunoniston davlatlarida katta e'tibor va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda Antifon, Lisiy, Isey, Perikl, Giperid, Kleon, Aristotel, Demosfen; Rimda Mark Portius Katon, Mark Tulliy Sitseron; Rossiyada F.N.Plevako, A.F.Koni va boshqalarning [4,10,11,13,9] faoliyatini va qo'llagan metodlarining samarasini o'laroq, sud majlisidagi muloqotda asosiy jihatlar sifatida: bugungi nutqiy kompetentlik, «nutqiy hazm» [5] ga erishish, psixolingvistik ta'sir etishning asosiy o'rinda turishi anglashiladi. Shunday bo'lsa-da, sud nutqiga nisbatan notiq va notiqlik atamalarini bugungun kun sud faoliyatiga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiq emas. Sud majlis ishtiroychilarining esa muhokama jarayonida har bir so'zni o'z o'rnida mohirona qo'llay olishlari ularning notiqligi emas, balki nutqiy kompetentligi yaxshiligi yoki aksincha ekanini bildiradi. Bevosita kuzatuvlarimiz asosida aytish mumkinki, sud majlisida adabiy til me'yordi doirasida, rasmiy uslubga xos tarzda so'zlash talabi qo'yilsa-da, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va boshqa kabi shaxslarda muloqot ko'nikmasining birdek shakllanmaganligi va turli sotsial mavqeiga monand holda saviyasining turlicha ekan muhokama vaqtida raislik qiluvchi-sudya, davlat ayblovchisi-prokuror, himoyachi-advokatlardan samarali muloqot o'rnatish maqsadida nutqiy strategiyani qo'llashni taqazo etadi. Albatta, bunda raislik qiluvchi-sudya, davlat ayblovchisi-prokuror,

himoyachi-advokatlar o'z sotsial mavqeyiga munosib nutq ijrosidan to'la chetlashmaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Malumki, sud organining faoliyati faqatgina qonun hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalardan asosida tashkil etiladi. Bu esa uning «davlat hokimiyati sifatida mustaqil holda ish yuritishi»ni ta'minlaydi [14] hamda faoliyatiga rasmiy tus beradi. Shuning uchun ham sud protsessiga oid har qanday qarashlar qonunlар asosida, ularda keltirilgan moddalarga tayanilgandagina to'g'ri, aniq va asosli bo'ladi. Sud majlisi ishtirokchilar nutqi hamda ish hujjatlarini lingistik tahsilga tortishda ham har bir holat qonun bilan izohlanishi maqsadga muvofiqdir. Shu ma'noda, sud nutqiga antroposentrik paradigma asosida yondashilar ekan sud majlisi (muhokamasi)ning nutqi tahsilga tortilgan har bir ishtirokchisi hamda ish hujjati matnlarini qonun moddalari bilan sharxlanishi, iqtiboslar bilan asoslanishi va shu asnodda xulosalar chiqarilishi to'g'ridir.

Sud nutqini tasniflashda, avvalo, sud protsessi hamda sud majlisi jarayonlарini alohida muloqot sharoitlari sifatida farqlab olishga ulkan ehtiyoj mavjud. Ya'ni sud protsessi deganda, biz, jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan biror jinoyat ishining jinoyat ishi yuritishdan boshlab, sudning hukmi yoki ajrimi chiqarilib, ayblanuvchi mahkum yoki oqlangan shaxsga aylangunigacha bo'lgan umumiylar jarayonni tushunamiz. Sud protsessida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: 1) jinoyat ishi yuritishdagi harakatlar; 2) sud majlisi (muhokamasi)dagi harakatlar; 3) jinoyat ishini ko'rish tartiblari [5]. Sud majlisi (muhokamasi) esa, ushbu jarayonning tarkibiy qismi bo'lsada, alohida jarayondir. Ya'ni unda taraflar bir joyga jamlanib yuzmavuz muzokaraga kirishadilar va buning amaliy natijasi (xulosasi) sifatida sud hukmi yoki ajrimi yuzaga chiqadi. Sud majlisi sud protsessining tarkibidagi alohida muhokama jarayoni (yig'ilish, majlis, munozara maydoni) ekanini hisobga olsak, unda har bir ishtirokchidan ma'lum sotsial rolini bajarish talab etiladi. Sudda nutqiy xoslanishning sotsial omillari va me'yorlar borki, [5] unga har bir ishtirokchining qat'iy amal qilishi zarur. Sud majlisi (muhokamasi)ni aks ettiruvchi ish hujjatlarini (sud majlisi bayonnomasi, hukm, ajrim)da bu rollar aynan ifodalanadi. Raislik qiluvchi, davlat ayblovchisi hamda himoyachi rollari Jinoyat-protsessual kodeksi [16] da o'z ma'no va sharxiga ega.

Tahsil va natijalar. Sud nutqining tarkibi huquqshunoslar tomonidan turlicha tasnif etiladi. Xususan, S.Inomxo'jayev qoralovchi (prokuror) nutqi, oqlovchi (advokat) nutqi, o'z-o'zini himoya qilish nutqi, jamoatchi-qoralovchi nutqi kabi to'rt guruhni farqlaydi [4]. S.Karimov, X.Mamatov, I.Bo'riyevlar esa prokuror nutqi, jamoatchi-qoralovchi nutqi, himoyachi nutqi, jamoatchi-oqlovchi nutqi, o'z-o'zini himoya qilish nutqi kabi besh guruhnini ajratadilar [7]. M.Mirhamidov, S.Hasanovlar prokuorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi, sudyaning muzokara nutqi [10] kabi uch guruhnini; M.Mirxamidov, N.Norpo'latov, S.Hasanovlar prokuorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi, sudyaning qonun targ'iboti, huquqiy madaniyatni yuksaltirish nutqi kabi uch guruhnini [11]; S.Uzmanov prokuorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi kabi ikki guruhnini [13] farqlaydilar.

Tilshunos A.Aripova o'zining «Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari» nomli risolasida prokuror nutqi, advokat nutqi, javobgar shaxs nutqi kabi uch guruhnini [1] ko'rsatadi. Q.Mo'ydinov sud jarayonidagi nutqlarning amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda bir xil ko'rinishda nomlanishiga zaruriyat tug'ilishini ta'kidlaydi. Albatta, amaldagi qonun hujjatlariga monand tasniflangan nutqlar sud nutqi tarkibini har tomonlama asosli ifodalaydi. Chunki negizida davlat tili hamda huquqiy bilimlar jamlangan amaldagi qonunlar sud protsessini to'la va aniq tavsiflaydi.

Q.Mo'ydinov sud nutqining to'rt guruhini taklif etadi [9], unga asosan:

sud jarayonida jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar: suda, xalq maslahatchilar, sud majlisi kotibi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi nutqi. Fikrimizcha, ushbu guruhdagi suda va prokuror nutqini farqlashda sud majlisining o'ziga xos, muayyan jarayon ekanini, unda suda – raislik qiluvchi, prokuror – davlat ayblovchisi rolini bajarishini e'tibora olib, raislik qiluvchi (suda) nutqi hamda davlat

ayblovchisi (prokuror) nutqi ko'rinishida tasniflash maqsadga muvofiq.

Sud jarayonida ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari: jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi nutqi.

Sud jarayonida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar: ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, himoyachi (advokat), jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar, fuqaroviylar javobgar, sudlanuvchi va jabrlanuvchining qonuniy vakillari nutqi. Ushbu guruhni farqlashda, (faqatgina sudlanuvchi va jabrlanuvchining qonuniy vakillari nutqi) deb emas, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining qonuniy vakili (O'zR JPK., 60-m.), jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar va fuqaroviylar javobgarning vakili (O'zR JPK., 62-m.) nutqi ko'rinishida farqlash ayni qonunga muvofiq bo'ladi [16].

Sud jarayonida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar: guvoh, guvohning advokati, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolislar nutqi ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu to'rt guruh ayrim to'ldirishlarimiz bilan sud nutqining tarkibini to'laqonli ifodalay oladi.

Shuningdek, Q.Mo'ydinov sud jarayoni ishtirokchilarini nutqini qo'llanishiga ko'ra faol va nofaol nutqlarga ajratib ko'rsatadi: 1) faol nutqlar; 2) nofaol nutqlar. Faol nutqlar qatoriga: suda, prokuror, ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, himoyachi (advokat), jabrlanuvchilar nutqi; nofaol nutqlarga esa sud majlisi kotibi, xalq maslahatchilar, tergovchi, surishtiruvchi, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, fuqaroviylar da'vogar, fuqaroviylar javobgar; sudlanuvchi va jabrlanuvchilar qonuniy vakillari, guvoh, guvohning advokati, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolislar nutqi kiritiladi. Ta'kidlayotganimizdek, mazkur ikki guruhnini farqlashda ham asosiy e'tiborni sud majlisi (muhokamasi)ga qaratish, ya'ni ayni shu «munozara maydoni» ishtirokchilarining nutqini tasniflashda bevosita kuzatishga asoslanish to'g'ri bo'ladi. Boisi, surishtiruv, dastlabki tergov, tergov harakatlari sud majlisi kabi taraflarni bir joyga jamlab, muhokama ko'rinishida tashkil etilmaydi. Shu ma'noda gumon qilinuvchining nutqini faol nutqlar qatoriga kiritish mulohazali. Chunki uning nutqini sud majlisidagidek taraflar bilan o'zaro muloqotga kirishishi asosida kuzatishning imkoniy yo'q. «Gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'Imagan shaxsdir...» (O'zR JPK., 47-m.). Gumon qilinuvchi: surishtiruvchi, tergovchi va prokuorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi... shart (O'zR JPK., 48-m.). Bundan tashqari, nofaol nutqlar qatoriga tergovchi, surishtiruvchining ham nutqini kiritish ham biroz mulohazali. Chunki bu shaxslardan surishtiruvchi – surishtiruv bosqichida, tergovchi esa, dastlabki tergov bosqichi hamda tergov jarayonida birga-bir munosabatda muloqotga kirishadilar. Tabiiyki, ular sud majlisida ishtirok etmaydilar. Bundan tashqari, nofaol nutqlarini farqlashda, faqatgina, sudlanuvchi va jabrlanuvchining qonuniy vakillari nutqi deb emas, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining qonuniy vakili (O'zR JPK., 60-m.), jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar va fuqaroviylar javobgarning vakili (O'zR JPK., 62-m.) nutqi shaklida farqlash ayni qonunga muvofiq bo'ladi.

Sud majlisidagi faol va nofaol nutq turlarini bevosita sud majlisida kuzatuvchi sifatida jamlangan xulosalarga asosida quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

Sud majlisi (muhokamasi)dagi faol nutqlar: raislik qiluvchi – suda (O'zR JPK., 30-m.), davlat ayblovchisi – prokuror (O'zR JPK., 33-m.), ayblanuvchi – sudlanuvchi (O'zR JPK., 45-m.), himoyachi – advokat (O'zR JPK., 49-m.), jabrlanuvchi (O'zR JPK., 54-m.);

Sud majlisi (muhokamasi)dagi nofaol nutqlar: sud majlisi kotibi (O'zR JPK., 32-m.), xalq maslahatchilar (O'zR JPK., 30-m.), jamoat ayblovchilar, jamoat himoyachilar (O'zR JPK., 42-m.), fuqaroviylar da'vogar (O'zR JPK., 56-m.), fuqaroviylar javobgar (O'zR JPK., 58-m.), gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining qonuniy vakili (O'zR JPK., 60-m.), jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar va fuqaroviylar javobgarning vakili (O'zR JPK., 62-m.), guvoh (O'zR JPK., 65-m.), guvohning advokati (O'zR JPK., 661-m.), ekspert (O'zR JPK., 67-m.),

mutaxassis (O'zR JPK., 69-m.), tarjimon (O'zR JPK., 71-m.), xolislar (O'zR JPK., 73-m.).

Xulosa va takliflar. Sud majlisining ahamiyati taraflarni yuzma-yuz qo'yib, bevosita kuzatilmayotgan voqeа-hodisa, fakt va holatlar haqida ishda qatnashayotgan shaxslar bilan muloqotga kirishish (nutqini eshitish, idrok etish) orqaligina bilib olish, baholash mumkinligi hamda shu asosda sud hukmi chiqarilishiha ko'rindi. Sud majlisida asosiy g'oya haqiqatni yuzaga chiqarish

hamda adolatni qaror toptirish ekan, bu jarayonda har bir ishtirokchining nutqi beqyo ni ahamiyatga ega. Shunday ekan, sud majlisining har bir ishtirokchisining nutqini ekstralningistik omillar bilan birga kuzatish til ilmi uchun qimmatli natijalar beradi. Alovida ta'kidlash zarurki, mazkur plandagi izlanishlarning salmog'ini oshirish bugunning kechiktirib bo'lmaydigan masalalaridandir.

ADABIYOTLAR

1. Арипова А. Нотиқлик нуткининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2002. – 25 б.
2. Бекмирзаев Н. Нотиқлик асослари. – Т.: Фан, 2006. – 143 б.
3. Воинова М. Культура речи юриста. – Т., 2003. – 209 с.
4. Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 157 б.
5. Исмоилов Х.Т Суд лингвистикасининг социолингвистик ва психолингвистик аспектлари (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): Филол. фан. б. ф. д-ри ... дисс. – Андижон. 2021. – 142 б.
6. Кўчимов Ш. Хукукий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари: Филол. фан. док. ...дисс. – Т., 2004. – 280 б.
7. Назаров К., Усмонов С., Тохиров К. Юристнинг нутки маданияти. – Тошкент, 2003. – 215 б.
8. Мўйдинов К. Ўзбек тилининг суд нутки лексикаси: Филол фан. б.ф.док ...дисс. – Т., 2019. – 140 б.
9. Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. – Тошкент: Зарқалам, 2004. – 158 б.
10. Мирҳамидов М. Ҳасанов С. Юридик тил ва хукуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004. – 238 б.
11. Мирҳамидов М. Норпӯлатов Н., Ҳасанов С. Юристнинг нутқ маданияти. – Т.: Фан ва технология, 2005. – 314 б.
12. Сайдов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва хукуқшунос нутқи. – Т.: Адолат, 1994. – 32 б.
13. Усмонов С. Юристнинг нутқ маданияти. – Т.: ТДЮИ, 2006. – 197 б.
14. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston NMIU, 2018. – 75 b.
15. Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – 102 б.
16. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Адолат, 2018. – 848 б.



Guzal KAMBAROVA,
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: kambarovaguzal@yahoo.com

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi katta ilmi hodimi, siyosiy fanlar doktori, doston, Yuldasheva G.I. taqrizi asosida

FRANSIYA YOSHLAR SIYOSATIDA MADANIY MEDIATSIYA

Annotatsiya

Maqolada madaniyat siyosatidagi "mediatsiya" atamasi, uning Fransiya yoshlari siyosati va ta'lim tizimida qo'llanish jihatlari ko'rib chiqiladi. "Yangi xizmat – yosh xodim" dasturi doirasida mediatsiya usullari va uning natijalari o'rganiladi. Shuningdek, Fransiyadagi madaniy mediatsiyaning turli darajadagi ijtimoiy qatlarni vakillari (bolalar bo'g'chasi tarbiyalanuvchilar, maktab o'quvchilar, kattalar, mahojirlar, savodslar, huquqbazarlar, nogironlar va boshqalar)ning jamiyatga moslashishidagi vazifasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: madaniy mediatsiya, yoshlari siyosati, demokratizatsiya, madaniy-ma'rifiy faoliyat.

КУЛЬТУРНАЯ МЕДИАЦИЯ ВО ФРАНЦУЗСКОЙ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация

В статье рассматривается термин «медиация» в культурной политике, его применение во французской молодежной политике и системе образования; вопросы внедрения медиации в систему образования, ее значение. Методы медиации и ее возможные результаты изучаются в рамках программы «Новая услуга – молодой сотрудник». Также анализируется функция культурного посредничества во Франции в социальной адаптации представителей разных социальных слоев (детсадовцев, школьников, взрослых, иммигрантов, неграмотных, преступников, инвалидов и др.)

Ключевые слова: культурная медиация, молодежная политика, демократизация, культурно-просветительская деятельность.

CULTURAL MEDIATION IN FRENCH YOUTH POLICY

Annotation

This article explores the concept of "mediation" within the context of cultural policy, particularly its implementation in French youth policy and the education system. Mediation methods and their possible results are studied within the framework of the "New Service – Young Employee" program. The function of cultural mediation in France in the social adaptation of representatives of different social strata (kindergarten children, schoolchildren, adults, immigrants, illiterate people, criminals, disabled people, etc.) is also analyzed.

Key words: cultural mediation, youth policy, democratisation, cultural and educational activities.

Kirish. Maqolaning dolzarbligi globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari orasida insoniylilik, bag'rikenglik, birdamlilik, siyosiy-madaniy savodxonlik kabi ko'nikmalarini singdirish va shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Hozirgi kunda tinchlik o'rnatishda duch kelayotgan muammolar, madaniyatlارaro muloqot, global tendentsiyalar, raqamli inqilob, sun'iy idrok (AI) kabi masalalar Markaziy Osiyo davlatlari yoshlari uchun ham qiyinchiliklar, ham imkoniyatlar yaratmoqda. 2020 yilda Markaziy Osiyo davlatlari aholisining 24,1% yoshlari tashkil etdi [5]. Tinchlik o'rnatish, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish va saqlab qolish uchun Markaziy Osiyo davlatlarining strategik rivojlantirish dasturidan joy olgan.

Bugungi kunga qadar, Markaziy Osiyo davlatlari hududida madaniy va yoshlari siyosatida mediatsiya mavzusi chuqur tadqiq etilmagan. Shu maqsadda, madaniy mediatsiyaning ta'lim tizimida joriy qilinishi, yoshlari o'tasida madaniy muloqotning o'rnatilishi, madaniyatni demokratizatsiyalash kabi masalarni Fransiya tajribasi misolida ko'rib chiqmoqchimiz. Tadqiqot avvalo muzeylelar, teatrlar, galeriyalar, ta'lim, jamoatchilik bilan aloqalar va boshqalar madaniy tashkilotlar o'tasidagi zaif madaniy muloqot sabablariga e'tiborni qaratib, "Madaniy mediatsiya sana'at va madaniyat vakillari o'tasidagi masofani qanday yaqinlashtiradi?", "Ommaga ularni tushunishni qanday osonlashtiradi?", "Madaniy tafovutlarni bartaraf etish uchun madaniyat muassasalarida qanday strategiyalardan foydalilanildi va bu jamiyat yoki davlat boshqaruv strategiyasi uchun qanchalik muhim?" kabi savollar tadqiqot markazidan o'rinn olgan. Tadqiqot metodologiyasi tahlilning asosiyl umumiy ilmiy usullarini, shu jumladan tizimlashtirish va umumlashtirish, solishtirish va taqqoslash usullarini qo'llashga asoslanadi.

1967 yil 18-22 dekabrda UNESCOga a'zo davlatlardan madaniyat sohasidagi vakillar, olimlar, ijodkorlar, yirik mutaxassislar yig'ilib, madaniy siyosati, ommani madaniyatga qiziqitirish va ijodkorlarni qo'llab quvvatlashda davlat siyosatining ahamiyatini inobatga olib, ilmiy tadqiqot va tahlillar asosida "Madaniy siyosat: tadqiqot va hujjatlar" to'plami ustida ishladilar. Unga ko'ra, "madaniy siyosat" iborasi davlatning madaniy faoliyatini uchun asos bo'ladigan operatsiyalar, amaliyotlar, ma'muriy yoki budget boshqaruvi uchun yordamchi qo'llanma sifatida ko'riliши mumkin. Albatta, a'zo davlatlar o'z oldiga qo'yan madaniy qadriyatlar, maqsadlar va vazifalardan kelib chiqqan holda o'z madaniy siyosatini belgilaydi. Lekin, madaniy siyosatni samarali tadbiq etish uchun, omma ehtiyoji va taklif etilayotgan madaniy faoliyatlar o'zaro bog'liq bo'lishi va bunda madaniy vositachilar: olimlar, ijodkorlar, san'atshunoslar, murabbiylar kabi mutaxassislarga ehtiyoj paydo bo'ladi [2].

Madaniy mediatsiya tushunchasining izohi. "Madaniy mediatsiya" atamasini tahlil qilishdan avval, biz "mediatsiya" so'ziga to'htalib o'tmoqchimiz. XX asrda "mediatsiya" atamasi yo'naliш sifatida o'rganila boshlanib, mediatsiyada ikki tomonlama munosabatlarni o'rnatish, aloqalarda oydinlik kiritish yoki ma'lumotlarni yetkazishda qulaylik yaratish uchun uchinchi shaxsnı aralashuvini ko'zda tutadi.

Mediatorlik kasbi qadimgi Yunon davrida paydo bo'lgan [6]. Ya'ni bu "aralashuv" xolisona, mustaqil bo'lishi kerak. "Mediatsiya" atamasi har doim ham madaniyatga aloqador bo'lmagan. Avvalo, mediatorning asosiy vazifasidan biri, nizolarni xolisona turib hal qilishdan iborat bo'lgan. Masalan, yuridik nuqtai nazaridan qaraganda, "mediatsiya" nizolarni sudga yetib bormasdan hal qilish, bunday holatda mediator uchinchi shaxs sifatida xolis vazifasini bajaradi.

O'zbekiston ta'lif tizimida "muzey pedagogikasi" kabi atama qo'llanish qabul qilingan bo'lib, muzeyning ahloqiy ma'naviy tarbiya, shaxsning millatparvar va vatanni sevish, ardoqlash, tarixini o'rganish kabi ta'lif va tarbiya jaraniyonlarida pedagogikaming yangi sohasi sifatida ko'rildi [3].

Fransiya madaniyat tizimi amaliyotiga "madaniy mediatysiya" atamasi 1990 yillar boshida boshqa sinonim atamalar bilan kirob kela boshlagan, va 1997 yildan boshlab madaniy faoliyatlar va ularni joriy etishdagi ma'lum bir faoliyat turi uchun qo'llanila boshlangan [8]. Ma'lum bir faoliyat turi deganda, ishsizlikni kamaytirish, yoshlarni kasbga yo'naltirish, yangi ish bilan ta'minlash maqsadida "Yangi xizmat - yosh xodim" dasturini qabul qilinishi va yangi turdag'i mutaxassisliklarni joriy etilishi nazarda tutilgan [12]. Unga ko'ra vazirliklar va maxalliy davlat tashkilotlari yangi ish o'rinalarini yaratishlari, yoshlarni yangi kasb va mutaxassislikka o'rgatish, va ularni yangi ish o'rinaliga jalb qilish kabi majburiyatlar yuklatilgan.

Mediatsiya munosabatlari (shaxs/gurux, jamoat ishi/tashkilotlar, hudud/vaqt)da san'atga oid tajribalar, amaliyotlar haqida fikr yuritishga (yaratish, tarqatish va qabul qilish) va barcha toifadagi omma uchun teng bo'lgan sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi [12]. Shuningdek, jamiyatning turli qatlamlari bo'lgan muhohijrlar, uysizlar, qamoqxonadigilar, bemorlar, qariyalar, imkoniyati cheklangan shaxslar va h.z.larning ijtimoiy aloqadorligini inobatga oлgan holda ular uchun yagona madaniy zamin yaratadi [1]. Mazkur vaziyatda asosiy vazifa muzeylar zimmasida bo'lib, ushbu qatlamlari xususiyatlarni inobatga oлgan holda, madaniy ta'limga yangi uslublarini yaratish, o'rganishni osonlashtiruvchi yangi yechimlarni joriy qilishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gordienko N.E. & Sinityna A.O. (2015), Aubouin N., Kletz F., Lenay O. (2009, 2010), Caillet E. (1995) kabi olimlar madaniy mediatsiyaning ta'riflari va yondashuvlani o'rganib, bu jarayonda til va nutqning vazifasi, muzeylarga tashrif buyuruvchilarni jalb qilish, eksponatlar va dasturlar orqali madaniyat, san'at, meros kabi tushunchalarni rivojlantirish, muloqot jarayonida duch keladigan tashkiliy muammolarni hal qilish, shuningdek madaniy muhitda inson resurslarini boshqarishda mediatsiyaning ahamiyati haqida o'rganishgan.

Bundan tashqari, madaniy mediatsiyada etika, mediatorlaning axloqiy mas'uliyati, mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy muloqot o'rnatishda duch kelinadigan muammolarga yechim topish va jamiyatning barqaror rivojlanish kabi mavzularni Côte K. (2016), Rasse P. (2000), Kaun J. (1999, 2012) o'z tadqiqot ishlardara yoritishgan. Ularning ta'kidlashicha, madaniy vositachilik nafaqat madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi, balki mintaqalarining barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Shuningdek, Kamneva G.P. (2008), Aim R. (2009), Malraux A. (1967) kabi yana bir guruh olimlar madaniy mediatsiyaning ijtimoiy-siyosiy va boshqaruv jihatiga urg'u berib, madaniy merosni saqlab qolish, milliy o'ziga xoslik va merosni qadrlash va mas'uliyatni shakllantirishda madaniy siyosatning ahamiyatini ko'rsatib, unda hukumat va mahalliy tashkilotlarning roli, mahalliy jamoalar uchun hududlar madaniy loyihalarni ishlab.

chiqish va boshqarish tashabbusini qo'llab-quvvatlash kai yondashuvlarni tahlil qilishgan.

Muzeylardagi madaniy meros obyektlari o'rtasidagi bog'liqlik, muzeylarning jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishi va shu bilan birga merosni saqlab yetkazishda asosiy vazifasini saqlab qolish lozimligi va bunda raqamli texnologiyalar yordamida interfaol ta'lif yondashuvlар tahlilini Janes R.R. (1995), Nigmatov A. (2021), Schiele B. (2001) kabi olimlar o'rganishgan.

Ushbu manbalar madaniy mediatsiya, merosni boshqarish va muzeishunoslik bo'yicha tadqiqotlar uchun keng qamrovli asos bo'lib, turli madaniy va milliy kontekstlarda nazariy tushunchalar va amaliy misollarni taqdim etadi. Ular madaniy siyosat va diplomatiya, madaniy muloqot amaliyoti va merosni saqlashda madiatsiya fani ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Tahlil va natijalar. Fransiya ta'lif tizimida madaniy mediatorlik, yoki vositachilik bilan o'qituvchi yoki murabbiy emas, balki san'at va madaniyat sohasi, hamda tarixni yaxshi o'ргangan mutaxassis shu'gullanadi. Olive Rishar va Sara Bareta'kidashlaricha, mediatsiya tushuncha shunchalik murakkab va keng qamrovli bo'lib, o'z navbatida murabbiy/rahbar, tashkilotchi, gid yo'boshlovchi, agent, "talqinchi", ko'rsatuvchi, tarjimon, "vositachi", yordamchi, ro'yxatga oluvchi, joriy etuvchi, "mediator" kabi turli atamalarga murojaat qilishni talab qiladi [3].

Madaniyatlar o'rtasidagi vositachilik ko'pincha nozik ma'lumotlar yoki munozarali mavzular bilan ishslashni o'z ichiga oladi, shuning uchun ma'lumotlar va ishtiroychilarga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish muhimdir. Tadqiqot jarayonining o'zi ishtiroy etgan turli madaniyatlarha hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlash, stereotiplar yoki noto'g'ri fikrlar yuzaga kelishini oldini olishda mediatorlar ham elchi, ham vakil vazifasini bajarishiga to'g'ri keladi [9. B. 40].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan materiallarga asosan Fransiyada "Yangi xizmat - yosh xodim" dasturini qabul qilinishi, ushbu dasturning bir bo'lagi sifatida "madaniy mediatsiya" va "mediator" faoliyati, using maktab o'quvchilari va yoshlarni ta'lif va tarbiyasidagi ahamiyati, va madaniy mediatsiyaning ta'lif tizimida yo'lga qo'yilganligini ko'rib chiqildi. Madaniyat va san'at bilan bog'liq obyektlar, tashkilotlar va tadbirlarni omma e'tiboriga to'g'ri havola qilishda, uning madaniy savodxonligini oshirishdagi muhim vazifa madaniy mediatsiya tizimi bajaradi.

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistondagi yoshlari orasida madaniy savodxonlik, madaniy o'ziga xosliklar, madaniy mafkuralarni to'g'ri shakllantirish va madaniy immunitet hosil qilish uchun ta'lif tizimida madaniy mediatsiyani joriy etilish maqsadga muvoqifdir. Buning uchun avvalo, Fransiya tajribasini o'rganish, muzeypedagogikasini mukammallashtirish, muloqotda nutq va tarjima ahamiyati, ijtimoiy hamjihatlik, tinchlik o'matish va o'zaro tushunish rivojlantirishda madaniyatlararo muloqot kabi tushuncha va ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab oluvchi madaniy mediatsiyani ta'lif tizimiga kiritish tavsiya etiladi.

Tadqiqotning asosiy natijasidan ko'rish mumkinki - mediatsiya madaniyat, ta'lif, diplomatiya, muzeylar, ommaviy axborot vositalari va jamoat ishlari kabi turli kontekstlarda madaniy tafovutlar qanday boshqarilishini, muzokara qilinishini yoki bog'lanishini o'rganish uchun fanlararo yondashuvlarni birlashtirishga asos bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

- Гордиенко Н.Е., Синицына А.О., Médiation Culturelle. Differents Accès vers la Définition. Язык: категории, функции, речевое действие. // Мат-лы межд. научной конф. 16–17 апреля 2015 г. Ч. И. М. – Коломна. М.: МПГУ, 2015. С. 40–44.
- Камнева Г.П., Современная культура как объект музеиного менеджмента // Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса. 2008. № 3. С. 16–21.
- Nigmatov A., "Muzey pedagogikasi va axborotlashtirish texnologiyasi", "Raqamli iqtisodiyot", ilmiy elektron jurnal, 7 son, bb. 333-339.
- Синицына А.О., Культурная медиация и ее формы в педагогической науке и практике во Франции // Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса. Т. 11. 2017. № 1. С. 67–76.
- Aïm R., Conduire un Projet – l'usage des PME, PMI, TPE et des collectivités territoriales. La Plaine Saint Denis: Afnor Edition. 2009.

6. Aubouin N., Kletz F., Lenay O., Entre continent et archipel. Les configurations professionnelles de la médiation culturelle// document de travail du DEPS/ 2009. No 1. Une synthèse de l'étude est disponible en ligne: <http://www.culture.gouv.fr/culture/deps/2008/pdf/cetudes-2010-1.pdf>.
7. Aubouin N., Kletz F., Lenay O., Médiation culturelle: l'enjeu de la gestion des ressources humaines// Cultures études. 2010. No 1. Disponible sur internet: <http://www2.culture.gouv.fr/culture/deps/2008/pdf/cetudes-2010-1.pdf>.
8. Bordeaux M., La médiation culturelle en France, conditions d'émergence, enjeux politiques et théoriques, Culture pour tous Actes du Colloque international sur la médiation culturelle Montréal – Décembre 2008.
9. Brabander L. La Valeur des idées. Paris: Dunod. 2007.
10. Beaud S., Weber F., Guide de l'enquête de terrain. Paris: La Découverte, 2010.
11. Caillet E, avec la collaboration d'Evelyne Lehalle. A l'Approche du musée, la médiation culturelle. Lyon: PUL. 1995.
12. Caune J., Pour une éthique de la médiation. Le sens des pratiques culturelles. Grenoble: PUG. 1999.



Mukaddas QODIROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: qmuqaddas@mail.ru
Orcid: <https://orcid.org/0009-0001-3445-1403>

DSc, dotsent T.Quchqarov taqrizi asosida

THE ROLE OF PRAGMATIC CONVENTIONALITY IN THE REGULATION OF ENGLISH BUSINESS DISCOURSE

Annotation

This article examines the role of pragmatic conventionality in regulating English business discourse and highlights its importance in ensuring effective communication in a business environment. Also, in the article, it is scientifically based that pragmatic conventionality means a standardized language practice formed on the basis of social norms and assumptions. They are essential for maintaining professionalism, accuracy and mutual understanding in business interactions. The analysis shows the influence of these conventions on various aspects of communication, including formal greetings, email formats, and industry terminology. Drawing on theories of linguistics and philosophy, the research emphasizes the importance of sociocultural competence and adherence to legal and ethical standards in global business communications. By learning historical context and contemporary applications, this article demonstrates how pragmatic conventions facilitate effective interaction and compliance, and ultimately contribute to the success of business operations.

Key words: business communication, conventional communication, pragmatic conventionality, norms and rules, ensuring speech accuracy, maintaining professionalism.

INGLIZ BIZNES DISKURSINI TARTIBGA SOLISHDA PRAGMATIK KONVENTSIYALLIKNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz biznes diskursini tartibga solishda pragmatik konventsiyallikning rolini o'rganadi va uning biznes muhitida samarali muloqotni ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada pragmatik konventsiyallik ijtimoiy me'yorlar va taxminlar asosida shakllantirilgan standartlashtirilgan til amaliyotini anglatishi ilmiy asoslangan. Ular biznesdag'i o'zaro munosabatlarda professionallik, aniqlik va o'zaro tushunishni saqlash uchun juda muhimdir. Tahlil ushbu konventsiyalarning muloqotning turli jihatlariga, jumladan, rasmiy tabriklar, elektron pochta formatlari va sohaga oid terminologiyaga ta'sirini ko'rsatadi. Tilshunoslik va falsafa nazariyalariga tayangan holda, tadqiqot ijtimoiy-madaniy kompetentsiya va global biznes muloqotlarida huquqiy va axloqiy standartlarga rioya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Tarixiy kontekstni va zamonaviy ilovalarni o'rganib, ushbu maqola pragmatik konventsiyalar qanday qilib samarali o'zaro ta'sir va muvofiqlikni osonlashtirishini va natijada biznes operatsiyalarining muvaffaqiyatiga hissa qo'shishini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: biznes muloqot, konventsional muloqot, pragmatik konventsiyallik, me'yorlar va qoidalari, nutqiy aniqlikni ta'minlash, professionallikni saqlash.

РОЛЬ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОНВЕНЦИАЛЬНОСТИ В РЕГУЛИРОВАНИИ АНГЛИЙСКОГО БИЗНЕС-ДИСКУРСА

Аннотация

В этой статье исследуется роль pragmaticheskoye uslovnosti v regulirovaniyakh anglijskogo delovogo diskursa i podcherkivayetsya ee vaynost' dlya obespecheniya effektivnogo obshcheniya v delovoye srede. Ta же v statelye naučno obosnovano, cto pragmaticheskaya uslovnost' otносится k standartizirovannoye jazykovoye praktike, sfomulyirovannoye na osnovye sozialnyx norm i oжиданий. Oni neobходimy dla подderzhaniya professionalizma, yasnosti i vzaimoponimaniya v delovyx otnosheniyax. Analiz pokazывает vliyanie etix соглашений na razlichnye aspekty obshcheniya, vkluchay formalnye privetstviya, formaty elektronnoy pochty i otraslevuyu terminologiyu. Opirayas' na teoriu lingvistiki i filosofii, issledovaniye podcherkivaet vaynost' soziokulturnoye kompetentnosti i соблюдения pravovyx i eticheskix standartov v globalnym delovom obshchenii. Issleduyu historicheskij kontekst i sovremenennye priложeniya, eto statelye demontsirovuet, kak pragmaticheskie соглашения способstvuyut effektivnemu vzaimodeystviyu i соблюдenuju normativnyx требованиj i, следовательно, способstvuyut uspeshu biznes-operacij.

Ключевые слова: delovoe obshchenie, konvencionalnoe obshchenie, pragmaticheskaya uslovnost', normy i pravila, obespechenie tochnosti rechi, soxranenie professionalizma.

Kirish. Biznes muloqotlari sohasida tildan samarali foydalanan muvaffaqiyatl o'zaro munosabatlari va bitimlar uchun juda muhimdir. Pragmatik konventsiyallik tilning muayan kontekstlari, ijtimoiy me'yorlar va taxminlarga rioya qilgan holda qo'llanilishining standartlashtirilgan usullarini anglatadi. Ingliz biznes diskursi an'anaviy ravishda eng tartibga solinadigan diskursiv turlardan biridir. Biznes muloqotlarini standartlashtirish va konventsiyalligi biznes muloqotlarini boshqarishni ta'minlaydi.

M.V. Koltunova konventsiyallikni turli nutq darajalarida muloqot qiluvchilarining o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi pragmatik konventsiyalar tizimi sifatida belgilaydi, pragmatik konventsiyalar esa janr stsenariylarining odatiy modellarida, nutqiy o'zaro ta'sirning status-rol modellarida aks ettiligan muloqotni tashkil etuvchi asosiy "me'yorlar va qoidalari" sifatida tushuniladi [1].

Ingliz biznes diskursida bu konventsiyalar aniqlik, professionallik va o'zaro tushunishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biznes sozlamalarida bu ko'pincha rasmiy tabriklar, elektron pochta xabarlarli va hisobotlar uchun tuzilgan formatlar va sanoatda tushuniladigan maxsus terminlarni o'z ichiga oladi. Bu esa, til orqali ijtimoiy o'zaro ta'sirini amalga oshirish qobiliyatining o'zi ushbu me'yor va qoidalarni bilish bilan bog'liqligini anglatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilm-fanda "konventsional muloqot" muammosi bilan bir qancha turli bilim sohasiga mansub mutaxassislar shug'ullanishgan, jumladan, faylasuflardan: A.L. Blinov, M. Dammit, D. Devidson, V.A. Lebedev va b.; tilshunoslardan: J. Ostin, J. Searl, P. Strouson, M.V. Koltunova, D. Lyuis, S.S. Ryabkov va b. Umumiyl ilmiy nuqtai nazardan "konventsija" atamasini deviant xulq-atvorni rad

etish orqali umume'tirof etilgan qoidalar, me'yorlar, urf-odatlar va xulq-atvorni tashqi tartibga solishni bildirish uchun ishlatalidi [6].

Tilning konventsiallik mohiyati haqidagi masalalarining rivojlanishi Aristotel davriga borib taqaladi, u nomlar narsalarining tabiatidan kelib chiqmagani uchun til qandaydir kelishuv yoki shartnomalar natijasidir, deb hisoblagan. Keyinchalik, bu g'oyani F. de Sossyur davom ettirdi. U tilni ulardan foydalanadigan til jamoasiga "qo'yilgan" ixtiyoriy belgilar tizimi [5] deb ta'rifladi. Konventsiallar til tizimining asosi bo'lib, uning barcha darajalariga kirib boradi va nutq faoliyatining barcha jahbalarida amalga oshiriladi.

Ch.V. Morrisning "Belgilar nazariyasining asoslari" (Foundations of the theory of signs) kitobida pragmatikada konventsiallar lingvistik va nutq birliliklaridan foydalanish qoidalari sifatida tushuniladi, chunki til "foydalanish sintaktik, semantik va pragmatik qoidalar bilan belgilanadigan har qanday shaxslararo ramziy vositalar to'plami" [9] sifatida talqin etiladi.

S.S. Ryabkov esa o'zining «Zamonaviy nemis tilidagi "Vertrag" nutq aktining freym tuzilishi» (Фреймовая структура речевого акта «Vertrag» в современном немецком языке) nomli tadqiqotida nutqiy aktlarga nisbatan "konventionallik" tushunchasini keng ma'noda, "tilning konventional asosiga tayangan ma'lum bir nutq aktining doimiy mulki" sifatida yoki tor ma'noda, "nutq aktini nutqda shu tarzda dekodlash imkonini

beradigan qat'iy belgilangan kommunikativ qobig'i" deb talqin qiladi [4].

E.N. Malyuga madaniyatlararo biznes muloqoti kontekstida nutq aktlari nazariysi haqida gapirganda, "agar biznes muloqoti ishtirokchilari turli madaniyatlarga mansub bo'lsa hamda til va madaniyat masalasida teng malakaga ega bo'lsa, nutq aktining muvaffaqiyati ehtimoli juda yuqori bo'ladи ta'kidlaydi va to'laqonli o'zaro ta'sirning muvaffaqiyatsizligini va duch kelinadigan tushunmovchiliklarning yuzaga kelish ehtimoli mavjud"ligini xavf ostiga qo'yadi [2] Binobarin, biznes muloqotining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri kommunikantlarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasiga bog'liq bo'lib, u sheriklarning madaniy qadriyatlarini, ularning xususiyatlarini va biznes munosabatlariiga ta'sirini qadrlash va hisobga olish bilimi va qobiliyatini nazarda tutadi [3].

Natijalar va muhokama. Zamonaviy biznes landshaftida samarali muloqot muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Ingliz biznes diskursini tartibga solish biznes sharoitida qanday ishlatalishini tartibga soluvchi yo'riqnomalar, me'yorlar va huquqiy asoslarni o'z ichiga oladi. Ushbu qoidalar aniqlik, professionallik va muvoqiflikni ta'minlaydi, samarali o'zaro aloqalar va operatsiyalarni osonlashtiradi. Biznes diskursini tartibga solish muloqotlar bo'ylab professionallik va izchillikni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagilarga yordam beradi:



Aniqlikni ta'minlash – aniq ko'rsatmalar tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi va xabarlar to'g'ri uzatilishini ta'minlaydi.

Professionallikni saqlash – standartlarga rioya qilish muloqotni rasmiy va xushmuomalalni hamda hurmatga loyiq qiladi. Bu biznes munosabatlarni saqlab qolish uchun juda muhimdir.

Huquqiy standartlarga rioya qilish – qoidalar korxonalarga reklama, ma'lumotlarni himoya qilish va boshqalar bilan bog'liq qonunlarga rioya qilishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan tasnifiy xususiyatlar tahlili borasida to'xtalmoqchimiz:

Biznes muloqoti ko'pincha tasodifiy suhbatlarda unchalik keng tarqalgan bo'lgan rasmiyatchilik va xushmuomalalik darajasini [8] (professionallikni saqlash) talab qiladi. Bunga unvonlardan (titullar, mas.: Mr., Mrs., Ms., Miss, Master, Sir, Madam, Dr. va h.k.) foydalanish, xushmuomalalni so'rovlar (Could you...?, Would you...?, Excuse me, ..., Would you mind...? Do you mind...?, Do you think you could help me with...?, Would you be able to help me with...? va b.) va rasmiy yopilish (Yours truly, Sincerely, Thanks again, Appreciatively, Respectfully, Faithfully, Regards, Best regards va b.) kiradi. "Please" va "thank you" so'zlaridan foydalanish, shuningdek, "Dear Mr. Smith" kabi tegishli salomlar keng tarqalgan misollardir.

Biznes diskursni standartlashtirilgan formatlar asosida shakllantirish: elektron pochta xabarları, hisobotlar va taqdimatlar

odatda aniqlik va professionallikni ta'minlash uchun standartlashtirilgan formatlarga amal qiladi. Misol uchun, elektron pochta xabarları ko'pincha salomlashish (Good morning/afternoon/evening; Hello/Dear, I hope this email finds you well; Thank you for your time and attention; I am contacting you in regards...; Thank you for getting in touch with... va b.) bilan boshlanadi, so'ngra aniq maqsad qo'yiladi va harakatga chaqirish yoki yakuniy so'z bilan tugaydi.

Sohaga xos jargonlardan foydalanish: sohaga xos terminologiyadan foydalanish tajribani yetkazishga yordam beradi va xabar mo'ljallangan auditoriya tomonidan tushunilishini ta'minlaydi. Masalan, "ROI" (Return on Investment/Investitsiya daromadi) yoki "B2B" (Business to Business/Biznesdan biznesga) kabi atamalar odatda biznes diskursida qo'llaniladi.

Pragmatik konventsiallar statik emas; ular kontekst va auditoriyaga qarab farqlanadi. Masalan, ko'p millatli korporatsiyada rasmiyatchilik darajasi (Mas.: -Good morning, Mr. Brown. – Good morning, Miss Nightingale.) va foydalanadigan til turi boshlang'ich muhitdan sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Biznes diskursini tartibga solish biznes muloqotini qanday olib borish kerakligini belgilaydigan ko'rsatmalar va me'yorlarni anglatadi. Bu kompaniyaning ichki siyosati va kengroq sanoat standartlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

Ichki muloqot siyosati	Kompaniyalarda ko'pincha xodimlarning ichki va tashqi aloqalari bo'yicha aniq ko'rsatmalar mayjud. Bular elektron pochta uchun shablolar, uchrashuvlar uchun ko'rsatmalar va nozil ma'lumotlarni qayta ishlash protokollarini o'z ichiga olishi mumkin. Bunday siyosatlar izchillikni ta'minlaydi va kompaniyaning rend ovozini saqlab qolishga yordam beradi.
Huquqiy va axloqiy standartlar	Biznes muloqotlari reklama standartlar, iste'molchilar huquqlari va ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlar kabi huquqiy me'yorlarga mos kelishi kerak. Axloqiy muloqotlar ham muloqotning halol va humratli bo'lishini ta'minlovchi rol o'yaydi. Masalan, Evropada ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament (The General Data Protection Regulation – GDPR) kompaniyalarning shaxsiy ma'lumotlarni qanday ishlatsiga ta'sir qiladi.
Madaniy sezgirlik	Global biznes munitidagi muloqotdagi madaniy farqlarini tushunish juda muhimdir. Bunga to'g'ridan-to'g'rilik, ierarxiya va muzokara ushlublari bilan bog'liq turli konventsiallardan xabardor bo'lish kiradi. Misol uchun, G'arb madaniyatlarida to'g'ridan-to'g'ri muloqotni qadrlash mumkin bo'lsa-da, Osiyo kontekstlarida ko'proq bilosita yondashuvlarga ustunlik berish mumkin.

Bundan ko'rinish turibdiki, ingliz tilidagi biznes diskursning pragmatik-diskursiv xususiyatlarini tushunish juda muhim. Kontekstli xabardorlikni qo'llash, xushmuomalalik strategiyalarini qo'llash, o'zaro munosabatlarni boshqarish, ravshanlikni ta'minlash va fikr-mulohazalarni osonlashtirish orqali biznes diskurs ishtirokchilari muloqot sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Oxir oqibat, ushbu xususiyatlarni

o'zlashtirish nafaqat individual ish faoliyatini yaxshilaydi, balki tilshunoslikda diskurs borasida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shadi.

Xulosa. Pragmatik konventsiallik va tartibga solish ingliz biznes diskursining muhim tarkibiy qismidir. Belgilangan konventsialva qoidalarga rioya qilgan holda, mutaxassislar o'zlarining muloqotlari samarali, humratli va sanoat standartlariga

mos kelishini ta'minlashi mumkin. Shuningdek, ingliz biznes diskursini tartibga solishda pragmatik konventsiyallikning roli chuqur o'rghanish, tez rivojlanayotgan global biznes muhitida madaniyatlar va kontekstlarda samarali muloqot qilish qobiliyati muvaffaqiyat uchun asosiy mahorat bo'lib qolishiga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda biznes diskurs va ehtimol, sun'iy

intellekt integratsiyasini izchil tahlil qilish lozim, bu nutqning ma'lum jihatlarini potentsial ravishda avtomatlashtiradi va muloqot shakllari haqida yangi tushunchalarini beradi. Bir so'z bilan aytganda, biznes muhitni rivojlanishda davom etar ekan, muloqot amaliyotlarini samarali tartibga solish va moslashtirish qobiliyati muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Колтунова М.В. Конвенциональность как основа делового общения [Текст]: дисс. ... доктора филологических наук/ М.В. Колтунова. – М., 2006. – 286 с.
2. Малюга Е.Н. Функциональная прагматика межкультурной деловой коммуникации [Текст]/ Е.Н. Малюга. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2008. – 320 с.
3. Пономаренко В.А. Фразеологические единицы в деловом дискурсе: на материале английского и русского языков [Текст]: Дисс. ... канд.филол.наук/ В.А. Пономаренко. – Краснодар, 2007. – 213 с.
4. Рябков С.С. Фреймовая структура речевого акта «Vertrag» в современном немецком языке [Текст]: Автoreферат дисс. ...канд.филол.наук/ С.С. Рябков. – Нижний Новгород, 2008. – 19 с.
5. Соссюр Ф. де Труды по языкоznанию [Текст]/ Ф. де Соссюр. - М.: Прогресс, 1977. – 696 с.
6. Социологический энциклопедический словарь: на русском, английском, немецком, французском и чешском языках / Редактор-координатор академик РАН Г.В. Осипов. – М.: НОРМА, 2000. – 488 с.
7. Философский энциклопедический словарь/ Ред.-сост. Е.Ф. Губский и др. – М.: Инфра-М, 1998. – 576 с.
8. Brown P. & Levinson S.C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge, UK: Cambridge University Press.
9. Morris Ch.W. Foundations of the theory of signs [Text]. – Chicago, 1938. – 60 p.



Наргиза МАМЕДОВА,

И.о. доцент кафедры «Языки и дошкольное образование» Ташкентского института экономики и педагогики

Рецензент: С. Истроилова – доктор философии по филологии (PhD)

RUS TILINI O'QITISH USULLARI VA UNING YUTUQ VA ISTIQBOLI

Annotatsiya

Til shaxsining shakllanishi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning lingvistik salohiyati o'zgarish bilan davom etadi. Rus tilini o'qitishning zamonaviy usullari nazariy asosini uning asosiy fanlari – pedagogika, ta'lif va kognitiv psixologiya, psixolingvistika yutuqlari tashkil etganligi sababli shaxsga yo'naltirilgan ta'lif strategiyasini amalga oshirish haqiqatga aylandi.

Kalit so'zlar: Rus tili, uslublar, metodika, adapbiyat, chet tilini o'qitish metodikasi, kategoriya.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА, ЕЁ ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

Формирование языковой личности – длительный процесс, продолжающийся изменением её языкового потенциала. Поскольку теоретическую основу современных методов обучения русскому языку составляют достижения его основных наук - педагогики, педагогической и когнитивной психологии, психолингвистики, реализация личностно-ориентированной образовательной стратегии стала реальностью.

Ключевые слова: Русский язык, методы, методика, литература, методика преподавания иностранного языка, категория.

RUSSIAN LANGUAGE TEACHING METHODS AND ITS ACHIEVEMENT AND PROSPECT

Annotation

The formation of a language personality is a long-term process, which continues with the change of its linguistic potential. Since the theoretical basis of modern methods of teaching the Russian language is formed by the achievements of its main sciences - pedagogy, educational and cognitive psychology, psycholinguistics, the implementation of a person-oriented educational strategy has become a reality.

Key words: Russian language, methods, methodology, literature, foreign language teaching methodology, category.

Введение. Учащихся, логического мышления с учетом их возрастных особенностей, общие особенности содержания предметов, появившиеся в программах «Игнатьева» до этого времени.

Программы первого десятилетия после революции предусматривали изучение «живого языка», например грамматики. Не «рука» орфографии, а отдельный раздел, отводящий изучение орфографии и пунктуации к формальным навыкам.

Сложные и проектные программы 1930-х годов, реализация которых привела к ликвидации самостоятельного предмета русского языка, грамматические упражнения устанавливались в процессе языкового наблюдения во время учебы.

Стабильный учебный план 1933 года установил концентрический принцип изучения грамматики, а синтаксис был признан приоритетным разделом, потерявшим свое место в учебном плане 1954/55 учебного года. В программу 1936 года развитие устной и письменной речи учащихся было включено как неотъемлемая часть[1].

Анализ литературы по теме. Методика преподавания русского языка как науки, ее основы были продолжены в трудах историков языка Ф. И. Буслаева и И. И. Срезневского, К. Д. Ушинского и достигла своего расцвета в начале 20 века благодаря работам В.И. Водовозова, С.Ю. Стоюнина, Л.И. Поливанова, А.Д. Алферова и др[2].

Особенностями программы 1967 года являются фонетика, словарный запас, структура слов, изменяемые и фиксированные части речи, выявление знаний о синтаксисе простых и сложных предложений. Кроме того, в эту программу вошли разделы «Культура речи и стилистика» и «Общие сведения о языке»[3]. Стабильная программа русского языка в 1970 году была дополнена самостоятельными разделами «Словарь», «Словообразование», «Сочетание фраз».

Со временем меняется не только содержание школьного курса русского языка, но и структура программы:

дается перечень знаний, подлежащих освоению и развитию учебных, языковых и речевых навыков.

Методика исследования. Действующие программы по русскому языку основаны на достижениях прошлых программ и отражают современное состояние лингвистической и психолого-педагогической науки.

Систематическое освоение современных методов обучения русскому языку представляет собой ориентированную на учащихся образовательную стратегию, конечной целью которой является формирование языковой личности, способной к систематизации и реализации.

Для достижения запланированной коммуникативной ситуации желательно использовать языковые средства на всех уровнях.

Анализ и результаты. Формирование языковой личности – длительный процесс, продолжающийся изменением ее языкового потенциала. Поскольку теоретическую основу современных методов обучения русскому языку составляют достижения его основных наук - педагогики, педагогической и когнитивной психологии, психолингвистики, реализация личностно-ориентированной образовательной стратегии стала реальностью.

Опираясь на достижения психологов позволяет лингвисту учитывать особенности психики студента, его личностные особенности (тип памяти, особенности мышления, внимания, характер предпочтений в получении и усвоении информации) при организации учебного процесса. Принадлежность к определенному аффективному типу, доминирующему полушарию мозга при обучении и т. д.).

Педагогическая психология обогащает методы обучения русскому языку сведениями о закономерностях развития учащихся в образовательных условиях. Представители когнитивной психологии изучают пути формирования знаний, роль вербальных и эмоциональных средств в обучении, что дает педагогам методы, методы и логику для лучшего понимания, запоминания и усвоения учебного материала школьниками, помогает выбирать операции[4].

Психолингвистика, изучающая процессы прогнозирования, формирования и создания собственной речи, восприятия и понимания речи других, вносит неоценимый вклад в методику обучения русскому языку.

Ещё одним важным достижением современной методологической системы является основная общеначальная концепция подхода. Отношение как реализация социальных отношений является переменной величиной. Содержание концепции формируется в зависимости от социально-экономических условий, сложившихся в обществе, образовательной политики, реализуемой на определенном этапе его развития. Методами обучения русскому языку, актуальными на современном этапе развития, являются:

значительного по объёму и разнообразного по содержанию материала раскрывает лингвистический ландшафт русскоязычного мира в целом, создаёт национально-культурный фон для понимания своеобразия русского языка. Поскольку язык является отражением национальной культуры, национальной истории, манеры речи, культуры межнационального общения, то преподавание русского языка в нашей республике осуществляется, с одной стороны, в контексте русской культуры, с другой стороны, в диалоге с белорусской культурой функциональный (речевой-деятельностью) подхода, отличающийся с точки зрения объекта исследования (лингвистический, речевой,); коммуникативной- деятельностью подходом различается по методу обучения (описательно-классификационный, речевой- развивающий, коммуникативной-деятельностью).

Функциональный подход к обучению русскому языку подготовлен функциональной грамматикой, предметом которой являются «языковые единицы в речи и функции и деятельность языковой системы», поскольку каждая из языковых единиц обладает семантикой. Потенциал, который может быть реализован только в процессе речевой деятельности.

Коммуникативного активно-активного подхода, приняли участие в эксперименте, проведенном в рамках реализации концепции развивающего обучения, и пришли к выводу о необходимости сотрудничества педагога и обучающегося. студентка преподавания в команде родного языка.

Вторая часть термина коммуникативной-деятельностью подход определяется механизмом приобретения знаний: «Познание... всегда есть осуществление некоторой деятельности или действия, связанного с этим знанием. Качество приобретения знаний определяется разнообразием и характером деятельности, в которой знания могут быть использованы»[5].

Tarixiy tadridj va taraqqiyot o'zgarishlari shuni ko'rsatdiki, mehmonxona ishi terminologiyasi mehmonxona sanoati va turizmning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim sohalardan biri. Ingliz va o'zbek tillaridagi mehmonxona ishi terminlari nafaqat madaniy va iqtisodiy o'zgarishlarni, balki

globalizatsiya jarayonining ham ta'sirini aks ettiradi. Bu leksika ikki tilda ham tarixiy jarayonlar davomida shakllanib, turli bosqichlarda o'zgarib borgan.

Ingliz tili mehmonxona ishi sohasida xalqaro til sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tildagi mehmonxona terminologiyasi ko'plab millatlar tomonidan qabul qilingan va zamonaviy mehmonxona sanoatining asosini tashkil etgan. Bundan farqli o'laroq, o'zbek tilidagi mehmonxona ishi terminologiyasi milliy qadriyatlar, an'analar va turli tarixiy omillar ta'sirida shakllanib, o'zining xos xususiyatlarga ega.

Mazkur maqolada mehmonxona ishi terminologiyasining ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshash va farqli jihatlari chuquq o'rganilib, ularning umumiyliliklari va o'ziga xosliklari aniqlanadi. Ikki tildagi terminologiyani chog'ishtirish orqali, mehmonxona ishidagi zamonaviy leksik tendensiyalar va ularning rivojlanish yo'naliishlari aniqlanadi. Tadqiqotdan maqsad, mazkur sohadagi tilla o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqalarni o'rganish hamda ularning umumiy rivojlanish tamoyillarini yoritishdan iborat.

Muammoning o'rganiganlik darajasi. Ingliz va boshqa xorijiy tillarda hamda rus tilshunosligida umumiy va xususiy terminologiya bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari M.E.Umarxo'jaev, I.X.Sadikova, S.X.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Axmedov, D.X.Kadirbekova, H.V.Mirzaxmedova va S.T.Mustafayevalar tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Barchamizga ma'lumki, jahon tilshunosligida mehmonxona ishi terminologiyasining shakllanish tarixi mehmonxona va mehmonxonalar sanoatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu sohadagi terminlar madaniy, iqtisodiy va

texnologiyalik o'zgarishlar bilan shakllanib, har bir davrda yangi tushunchalar, atamalar va lug'atlar paydo bo'ldi. Quyida mehmonxona ishi terminologiyasining shakllanish tarixi haqida qisqacha ma'lumot keltiriladi.

Metodologiyasi. Mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohasi global iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Ingliz tili mehmonxona ishida xalqaro aloqa tili sifatida ustunlik qiladi, bu esa terminologiyaning standartlashuviga yordam beradi. Boshqa tomordan, o'zbek tilida mehmonxona terminlarining rivojlanishi va lokalizatsiya jarayonlari diqqatga sazovor. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi mehmonxona ishi terminlarining qiyosiy tahlili o'tkaziladi, ularning morfologik, semantik, fonetik va madaniy jihatlaridan o'rganiladi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Terminologik tahlil: Ingliz va o'zbek tillaridagi mehmonxona ishiga oid atamalar tanlab olindi va ularning lug'atlardagi ta'riflari o'rganildi.

2. Fonetik tahlil: Ingliz va o'zbek tillaridagi terminlarning talaffuzlari va ularning o'zaro qiyosiy tavsifi o'rganildi.

3. Morfologik va semantik tahlil: Ingliz va o'zbek tillaridagi atamalarning grammatic va ma'noviy tuzilishlari o'rganildi.

4. Madaniy tahlil: Mehmonxona ishidagi madaniy omillarning ingliz va o'zbek tillariga ta'siri tahlil qilindi.

Shuningdek ishda morfo-semantik, statistik va qiyosiy - chog'ishtirma tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mehmonxona ishi terminologiyasining shakllanishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mehmonlar va sayohatchilar uchun turli xizmatlar ko'rsatish ilk davrlardayoq mavjud bo'lgan, va shuningdek, ular uchun maxsus atamalar ham paydo bo'lgan. Masalan, rimliklar davrida "taberna" so'zi mehmonlar uchun turar joyni ifodalagan. Bu davrdagi mehmonxona xizmatlari oddiy bo'lgan va ularning atamalari ham unchalik rivojlanmagani.

O'rta asrlarda mehmonxona sanoati va uning atamalari biroz murakkablashdi. Bu davrda Yevropada mehmonxona va xostellar faoliyati ko'paygan. Masalan, "inn" so'zi, ingliz tilida, yolg'iz sayohatchilar va tijoratchilar uchun turar joylarni ifodalagan. Shuningdek, "hostel" so'zi o'rta asrlardagi jamoat turar joylarini anglatgan.

Industrial inqilob davrida mehmonxona sanoatida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrda transport vositalari rivojlangani bois, sayohatlar soni ortib, mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talab keskin oshdi. Mehmonxona ishi uchun ko'plab yangi atamalar va tushunchalar paydo bo'ldi. Masalan, "concierge" va "bellboy" kabi atamalar aynan ushbu davrda mehmonxona xizmatlarining rivojlanishi bilan paydo bo'lgan.

XX asrda mehmonxona sanoati globallashuv jarayonini boshdan kechirdi. Bu davrda xalqaro mehmonxona tarmoqlari va brendlari shakllanib, ular bilan bog'liq atamalar ham xalqaro miqyosda standartlashdi. Buning natijasida "front office", "check-in", "check-out", "suite" kabi atamalar butun dunyo bo'ylab umumiy tushunchaga aylandi. Ingliz tili xalqaro til sifatida mehmonxona ishi terminologiyasining asosini tashkil etdi.

XXI asrda mehmonxona ishi terminologiyasiga raqamlashtirish jarayoni katta ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy texnologiyalar va onlayn bron qilish tizimlari bilan bog'liq ko'plab yangi terminlar paydo bo'ldi, masalan, "online booking", "e-check-in", "virtual concierge". Shuningdek, atamalarning qisqartirilishi va yangi uslubdagi so'zlar, masalan, "staycation" (uyda yoki mahalliy joylarda dam olish) ham shakllandi.

O'zbek tilida mehmonxona ishi leksikasining tarixiy rivojlanishi jamiyatagi iqtisodiy, madaniy, va siyosiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu leksika ham vaqt davomida turli bosqichlarda shakllanib borgan. Mehmonxona ishi atamalari, avvalo, xalq an'analar, savdo yo'llari va keyinchalik global madaniy ta'sirlar natijasida o'zgarishlar va rivojlanishlardan o'tgan.

O'zbekiston hududida mehmono'stlik an'anasi qadimdan mavjud bo'lgan. Aholining mehmono'stlik madaniyati ko'hna zamonlardan boshlab rivojlanib, bu an'analar milliy madaniyatning muhim qismiga aylangan. Mehmonlarni qabul qilish uchun an'anaviy mehmonxonalar – "karvonsaroylar" (savdo

yo'llari bo'yicha yo'lovchilar uchun mo'ljallangan turar joylar) keng tarqalgan. Bu an'analarga muvofiq, mehmonlar uchun ajratilgan alohiba joylar va ularni qabul qilish uchun xizmat ko'rsatish tartiblari shakllangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, milliy qadriyatlar va o'zbek tilining tiklanishi jarayoni boshlandi. Bu davrda mehmonxona ishi uchun atamalarni milliy asosda shakllantirishga e'tibor qaratildi. Milliylikka urg'u berish maqsadida, ayrim ruscha atamalar o'rniغا o'zbekcha so'zlar qo'llana boshlandi. Masalan:

- "Mehmonxona": - "Gostinitsa" o'rniga.
- "Qabulxona": - "Reception" o'rniga.
- "Xizmat ko'rsatish": - "Servis" o'rniga.

Shuningdek, global madaniyatning ta'siri tufayli, ko'plab xalqaro atamalar ham kirib keldi. Bu atamalar o'zbek tilida saqlanib qoldi yoki mahalliylashtirildi, masalan, "konserj", "shvedcha stol" (inglizcha "buffet"dan).

Zamonaviy tilshunoslikda "so'z" va "termin" tushunchalari o'rtasidagi munosabat muhim masalalardan biri bo'lib, bu ikki atama turli til sohalarda o'rganiladi va qo'llaniladi. Quyida ushbu tushunchalarning o'zaro munosabati va ularning tilshunoslikdagi roli haqida batafsil ma'lumot keltiriladi.

So'z tilning asosiy birligi bo'lib, u ma'noga ega va ma'lum tilda faoliyat yuritadigan asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. So'zlar to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsiya vositasida insonlar o'rtasida ma'lumot almashtishga imkon beradi. So'zning asosiy xususiyatlari:

- Ma'noviy komponent: So'z ma'lum bir ma'noni ifoda etadi, va u inson tafakkurida o'ziga xos tasavvur va tushunchalarga bog'liq.

- Fonetik komponent: So'zning talaffuzi va uning fonologik xususiyatlari tilning uning ajralmas qismidir.

- Morfologik komponent: So'zning tuzilishi va uning grammatic funksiyasi tildagi boshqa elementlar bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Termin shushunchasi esa - ma'lum bir fan yoki kasb-kor sohasiga xos bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, u ushbu sohada maxsus tushunchalarni ifodalash uchun ishlatalidi. Terminlar ko'pincha umumiylug'at so'zlaridan farqli ravishda, aniq va aniqlangan ma'nolarga ega bo'ladi. Terminning asosiy xususiyatlari:

- Aniqlik: Terminlar ko'pincha bir ma'noda tushuniladi va ularning ma'nosini odatda muayyan fan yoki soha doirasida belgilanadi.

- Standartlashuv: Terminlar ko'pincha maxsus lug'atlar, qoidalari va standartlarga asoslanib shakllanadi, va ularning ma'nosini xalqaro miqyosda ham tushunarli bo'lishi mumkin.

- Mutaxassislik: Terminlar faqat muayyan soha yoki kasbda faoliyat yurituvchi mutaxassislar tomonidan ishlatalidi va ularning umumiy aholi uchun tushunish qiyin bo'lishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda so'z va termin tushunchalari o'rtasida aniq farq bor. So'zlar tilning asosiy unsurlari bo'lib, ular insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning umumiylug'at so'zlaridan farqli ravishda, aniq va aniqlangan ma'nolarga ega bo'ladi. Tilshunoslikda ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi o'zaro munosabati o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki bu tilning rivojlanishi va uning turli sohalardagi qo'llanilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Qolaversa so'z va terminlar ingliz va o'zbek tillarida mehmonxona ishi terminlarining kompleks chog'ishtirma tahlilini yuritishda qo'l keladi.

Xulosa. Ingliz tilida mehmonxona ishi leksikasining tarixiy rivojlanishi mehmonxona sanoatining uzluksiz o'zgarishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Ilk davrlarda asosiy atamalar oddiy turar joylar va xizmatlar bilan chegaralangan bo'lsa, industrial inqilob va globalizatsiya jarayonlari natijasida leksika sezilarli darajada boyidi. XXI asrda raqamlashtirish va internet texnologiyalari mehmonxona ishi leksikasiga yangi tushunchalarni kiritdi, bu esa mehmonxona ishida zamonaviy talablarga javob beradigan yangi atamalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR

1. Умархўжаев М.Э.. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1972. – 25 с.
2. Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 174 с.
3. Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2000. – 24 с.
4. Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланган хукукий терминларнинг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2007. – 26 б.
5. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик таддики: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – 25 б.
6. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида соликбожхона терминларнинг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри дисс. – Т., 2016. – 255 б.
7. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 44 б.



Nigorakhon MIRZOYOKUBOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
Email: nigorakhonmirzoyokubova@gmail.com

O'zMU dotsenti PhD F.B.Axrarova taqrizi asosida.

EFL SINFLARIDA FONOLOGIK INTERFERENSIYA VA UNING OMILLARINI BARTARAF ETISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Fonologik interferensiya masalasi hozirda ingliz tilini chet til sifatida o'qitishda noto'g'ri talaffuz qilish muammosini yuzaga keltiradigan asosiy sabablardan biri hisoblanmoqda. Natijada, har qanday EFL o'qituvchisi duch keladigan qiyin vazifa ushbu muammoni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va bunga qarshi samarali yondashuvlarni topishdir. Masalaga kengroq yondashish uchun sifat-qiyoslash metodidan foydalanildi va ingliz tili tovushlarini talaffuz qilishda fonologik xatolarga olib keladigan sabablar hamda unga qarshi to'g'ri yondashuvlarni aniqlash uchun EFL talabalari o'rtasida suhbat olib borildi. Suhbat natijalarining tahlili orqali fonetik interferensiyanı keltirib chiqaradigan bir nechta omillar mavjudligi aniqlandi: o'rganuvchi yoshi, motivatsiyasi, o'rganish qobiliyati, tildan foydalanish miqdori. Bundan tashqari, natijalar an'anaviy yondashuvlardan ko'ra amaliy metodlardan foydalanish afzalligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ona tilining aralashuvi, bilingvizm, orsodoks usullari, amaliy usul, empirik tadqiqotlar, til tajribasi.

ФОНОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ В КЛАССАХ EFL И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К УСТРАНЕНИЮ ЕЕ ФАКТОРОВ

Аннотация

Проблема фонологической интерференции в настоящее время считается одной из основных причин, вызывающих проблему неправильного произношения при обучении английскому языку как иностранному. В результате перед любым преподавателем EFL стоит сложная задача – определить факторы, вызывающие эту проблему, и найти эффективные подходы к ней. Для более широкого подхода к вопросу был использован метод прилагательного-сравнительного и среди студентов EFL были проведены собеседования, чтобы определить причины, которые приводят к фонологическим ошибкам в произношении, а также правильные подходы к их устранению. Путем анализа результатов бесед было установлено, что существует несколько факторов, вызывающих фонетическое вмешательство: возраст учащегося, мотивация, способность к обучению, количество использования языка. Кроме того, результаты показывают преимущество использования практических методов перед традиционными подходами.

Ключевые слова: Вмешательство родного языка, билингвизм, ортодоксальные методы, практический метод, эмпирические исследования, языковой эксперимент.

PHONOLOGICAL INTERFERENCE IN EFL CLASSES AND INNOVATIVE APPROACHES TO ELIMINATE ITS FACTORS

Annotation

The issue of phonological interference is nowadays considered one of the main reasons that raises the problem of mispronunciation in English language instruction as a foreign language. As a result, the difficult task faced by any EFL instructor is to identify these factors that cause the problem and find effective approaches to this. A qualitative-comparative method was used to approach the issue more broadly and an interview was conducted among EFL students in order to obtain information about the reasons that lead to phonological errors in the pronunciation of English sounds as well as the correct approaches to it. Through analysis of the results of the interview, it was found that there are several factors that cause phonetic interference: the age of the learner, motivation, learning ability, amount of language use. In addition, the results show the advantage of using practical techniques over traditional approaches.

Key words: Native language interference, bilingualism, orthodox methods, practical method, empirical research, language experience.

Introduction. Interference in linguistics is comparable to the sociological problem of bilingualism and it is one of the current issues in teaching foreign languages. It can be seen as the transfer of phonological, grammatical, lexical, and orthographic components from one language to another.

Phonological interference is a phenomenon which is typically observed in the process of mastering another language, in bilinguals' speech. The term "phonological" specifically refers to elements that have a foreign accent, such as stress, rhythm, intonation, and speech sounds, which are transferred from one language to another. Interference is a term used in sociolinguistics and second language acquisition to describe the inaccuracy that a speaker brings into one language as a result of this contact with another language.

Language interference is the impact of a language learner's native tongue on their ability to produce the new language. It indicates that the first language of the speaker has an impact on their second or foreign language. In this instance, it is clear that language interference is common among beginners or

students learning English. To put it another way, language learners incorporate first-language structure into the target language.

Naturally, the foundation to teach English can only be taught using the orthodox methods of teaching the alphabets and the words and the rules. However, when it comes to teaching English to students of higher classes who already know the basics, the traditional methods generally tend to give poorer results than innovative methods. Hence, most ESP teachers believe that a well-chosen approach to the teaching of English has some benefits for their students' language acquisitions. Thus, if the methodology currently used in EFL classes is not effective and successful, it is worthwhile experimenting with other methods and finding out whether they will yield significantly different result both on educational and on the attitudinal level. This paper will provide a few of such methods to struggle with the factors that cause the problem.

Literature review. Native language interference is still important issue in teaching of English as second or foreign

language. Many researchers over the world conducted studies regarding this issue. In general, all descriptions given by world scholars for this phenomenon are almost the same, but by specifically approaching the notions are various. Scientist Odlin states that interference is called language transfer or cross-linguistic influence, though these terms refers to a broader phenomenon and is often used interchangeably [1].

Festman cited about difficulties in mastering second language due to the interference that is influenced by old habit, familiarity with mother tongue, and interaction of two languages communities. Besides, he noted that interference can occur in the phonological, grammatical, lexical, and semantic systems [2].

The research result that Rivera and Marisol carried out provides vital data concerning the impacts of native language on second language acquisition [3]. They discovered that the two main ways in which Spanish pronunciation might be inferred phonologically in English were long vowels and consonant clusters. In English, a word's meaning can be altered by the length of a vowel, but not in Spanish. Additionally, pronunciation errors occurred because Spanish speakers read English using the same method (letter by letter) as they do in Spanish.

When we analyze Chinese scientists' studies on the topic, the results shows that students in Northwest China struggled to distinguish between the sounds /n/ and /l/, /ei/ and /en/, and /u/ and /. All of these were brought on by their inability to tell apart various Chinese phoneme pairs in their dialects. Furthermore, there were no long or short vowels in the dialect of central China, which caused confusion among learners regarding phonetic pairings. These phonetic pairs caused confusion among the students in this area: /n/ and /l/, /u/ and //, /i/ and /i/, /w/, /f/ and /v/, /f/ and /h/ [4].

Methodology. The research was conducted by qualitative - comparative method, particularly in the form of interview. According to Jamshed, interview is a method which is exclusively qualitative and is one of the most widely used. Its popularity is mainly due to its ability to allow researchers to obtain precise, relevant information if the correct questions are asked [5]. Interview is a type of empirical research that examines a current phenomenon in its actual environment. Additionally, this method is a form of a conversational approach, where in-depth data can be obtained.

The graduates whose major is economy participated in the conducted interview. Interview was carried out by giving two

№	English Consonants	Modification	Words
1.	Voiceless labiodental fricatives /f	Voiceless bilabial stop /p/	after, beef
2.	Voiced labiodental fricatives /v/	Voiceless bilabial stop /p/ or voiceless labiodental fricatives /f/	travel, believe
3.	Voiceless dental fricatives /θ/	Voiceless dental stop /t/	think, healthy
4.	Voiced dental fricatives /ð/	Voiced dental stop /d/ or voiceless dental stop /t/	brother, smooth
5.	Voiced alveolar fricatives /z/	Voiceless dental fricatives /s/	zero, crazy

2. Age of Learning. Age is another urgent factor that plays an important role in second language learning. If learners begins their second language acquisition in early age, they face up fewer troubles in their language interpretation. For instance, despite of being younger than their groupmates, some students in the interview spoke in English more fluently because of having more years' experience in acquiring second language.

3. Formal Instruction. Formal instruction is the other vital issue in language learning. Most teachers make mistakes by correcting the students' pronunciation errors directly. Consequently, in such cases, the students only recognize the correct pronunciation of some English words without providing the students any learning activity to pronounce the words repeatedly. It means that English pronunciation instruction does not give significant effect on EFL students' pronunciation ability.

4. Motivation. Motivation for learning the language determines whether the learner will develop good pronunciation. Students can become highly proficient, even native-like speakers of second languages, especially if motivated to do so. According to response, Uzbek students have desire to have good English

types of questions: one of them aimed to finding out the factors which affect their mispronunciation of English sounds, the second one helped to identify beneficial methods to eliminate those factors. Some students made mistakes in their speech because of beginning to learn English in the late age and still faced up troubles in the production of English sound. The other ones told their difficulties because of less of use the learning language. All answers in the interview were recorded and then recording results examined in-depth.

Results and discussion. Findings obtained from the interview show the following factors:

1. Mother tongue. The native language is the basic obstacle which leads to make mistakes in the second language acquisition. It is the language which people grow up speaking from their childhood and considered as mean of communication in their daily life. Everybody around them speak in this language and by constant hearing they acquire their native languages naturally. This situation make them be accustomed with it and then they find difficulties in pronouncing English sounds. This occurred because some sounds which are available in English are not available in their mother tongue. For example, researches conducted on analyzing the phonetic level of English in comparison with Uzbek show the followings: lack of English interdental sounds [θ] and [ð], which are often replaced by [d], [z] and [s], which can lead to confusion in words such as "think - sink", "thin - a sin - a tin". The English [r] is pronounced differently from Russian or Uzbek ones. In addition, English [v] is another difficult sound for Uzbek learners and it needs to be carefully distinguished from [b]. In the case of [v] the lower lip as active articulator, is pressed against the upper teeth in such a way as to allow the air expelled from the lungs to continue to pass through : in phonetic terminology, it is labiodental and fricative. With [b], on the other hand, the lower lip articulates with the upper lip and forms a firm contact with it such that the air flow is completely blocked for a moment: it is bilabial and plosive. [6] Another phenomenon, vowel length, is also absent in Uzbek and Russian, but plays a great role in English. For example: to live [I] – to leave [i:], to book [U] - tooth [u:]. The famous phonetician Daniel Jones distinguishes two types of the letter "L" (dark and light) in English, which cannot be found in Uzbek.

According to the research done by Ani Dyah Astuty, Buginese students mispronounce some English sounds given in the table below: [7]

pronunciation. They expect that they can speak English fluently to get better study and carrier opportunity in the future.

5. Foreign Language Aptitude. It is inborn ability to perceive new language easily. Some students have inborn talent to acquire another language in less efforts while some encounter difficulties in pronunciation despite of much training.

6. Engagement with English.

Language use deals with how much second language learners engage with the language being learnt whether it is through receptive and productive skills. Therefore, for EFL students, it is about how much the students spend their time listening and speaking English, as well as reading or writing English text either inside or outside university.

When it comes to the findings of the second question given in the interview to identify efficient approaches to improve students' pronunciation, the results reveal that a number of students find practical methods beneficial to train in their weak points and achieve fluent speech in the target language. Practical methods are followings:

- a) Enacting the stories.

The story will help them learn the language as they will be enacting it by dialog which they will themselves extract from the stories and also modifications can be made to the plays to help the students be more interactive and creative.

The students have to immerse themselves into the atmosphere of the story and they have to put them in their positions. This entire process has many benefits besides being a very effective method of teaching the language; it helps preserve the literature, which is nothing but our culture. This method brings about the total learning experience that was meant to be provided by the story and in the end the student will definitely be able to answer questions without even preparing for it as an exam, besides the entire process is fun and not at all boring. Hence, it ensures the learning process is complete.

b) Teaching through conversations.

The child is never taught the native language. They learn it automatically to use it in day to day life. No one ever teaches the kid the characters of the language or how to make sentences or the grammar of that language. The conversations alone teach the children.

Hence conversations form a very important part of the teaching process. The sentence construction and the grammar is not something that can be entirely taught by rules. They have to be taught intuitively. That can only happen through a lot of reading and a lot of listening. This can be taken care of easily as every conversation needs a topic. The topic can be given to the students in form of written documents which they have to first read then form an opinion and then have a conversation about it or it can be spoken out and then they can listen, understand and also take part in the conversation.

c) Teaching through games.

This is a very interesting method of teaching. Students and children generally tend to like games and want to play them more and more. Traditional methods dictated for study and games to be separate but the fact remains that the students tend to be more interested in playing games rather than sitting down to study. Any logical reasoning would dictate us to combine the two aspects to solve the problem. The games part of learning would help the students keep their interest as the desire to win is very strong. It keeps us going and when included with different aspects of learning. The learning process would continue almost throughout the day without the students getting tired or bored of studying.

d) Help from the multimedia

Multimedia sources like songs, movies, TV series, magazines, newspapers play a very vital role in improving students' language skills. They do not even realize that they have helped them. They just wake up one fine day and realize that They are better than it than They were yesterday.

Conclusion and recommendation. As the conclusion, Uzbek students made errors in pronunciation of particular English sounds as the result of their native language interference. This interference is also caused by some factors regarding the students' personal aspect and the English instruction at educational places. There are four factors that affect native language interference toward the production of English sounds. They are basically age of learning English, motivation to learn English, English learning aptitude, and language use which is specified into oral communication or speaking skill. To minimize these factors practical methods such as enacting stories, teaching through conversations, teaching through games, help from the multimedia are found as beneficial approaches by students and they assume these methods help to improve their pronunciation.

REFERENCES

1. Odlin, T. Cross linguistics Influence and Conceptual Transfer. What are the Concepts. Annual Review of Applied Linguistics, (2005), 25, 3.
2. Festman, J., Rodriguez-Fornells, A., & Münte, T. F. Individual differences in control of language interference in late bilinguals are mainly related to general executive abilities. Behavioral and Brain Functions (2010) 6(1), 5.
3. Rivera, A., & Marisol, N. The Native Language Interference (language transfer) in Ecuadorian High School Learners of English, (2018) 33.
4. Zheng, T. Influence of Negative Transfer of Mother Tongue on Chinese English
5. Learners' Pronunciation. Theory and Practice in Language Studies, (2018). 8(11), 1483.
6. Jamshed, S. Qualitative research method-interviewing and observation. Journal of Basic and Clinical Pharmacy, (2014). 5 (4), 87-88
7. Muxtorov Muhiddin Mansur o'g'li, The Problems of Phonetic Interference in Mastering English Pronunciation and Ways of its Prevention, Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT, (2022),119-123.
8. Ani Dyah Astuty, Phonological interferences in the English of Buginese students, International Journal of Research on English Teaching and Applied Linguistics,(2022),53-61.



Gulshan MUSULMONOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-mail: musulmonova_gulshan@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent R.F.Zohidov taqrizi asosida

"ZARBULMASALI SIDQIY" ASARIDA SHAKL VA MAZMUN UYG'UNLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sirojiddin Sidqiyning "Zarbulmasali Sidqi" didaktik asari asari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilingan. Tadqiqotimizda N.Karimov, A.Nasirov, B.Qosimov, R.Javharova kabi adabiyotshunoslarning nazariy fikrlariga tayanildi.

Kalit so'zlar: Didaktik adabiyot, zarbulmasal, maqol, savol-javob, pand-nasihat.

HARMONY OF FORM AND CONTENT IN THE WORK OF "ZARBULMASALI SIDQIY".

Annotation

In this article, Sirojiddin Sidqi's didactic work "Zarbulmasali Sidqi" is studied from the point of view of literary studies. We relied on the opinions of literary scholars such as A.Nasirov, B. Qasimov, R. Javharova.

Key words: Didactic literature, percussive, proverb, question and answer, advice.

ГАРМОНИЯ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В РАБОТЕ "ЗАРБУЛМАСАЛИ СИДКИ".

Аннотация

В данной статье дидактическая работа Сироджиддина Сидки «Зарбулмасали Сидки» рассматривается с точки зрения литературоведения. В своем исследовании мы опирались на теоретические мнения таких литературоведов, как Б. Касымов, А. Насиров, Р. Джавхарова.

Ключевые слова: Дидактическая литература, зарбулмасал, пословица, вопрос и ответ, дидактика.

Kirish. Sirojiddin Sidqi "Zarbulmasali Sidqi" asari bilan o'zbek adabiyotida "zarbulmasalchilik" an'analarini davom ettirdi. Ilmi hikmat, muomala odobi, chuqur falsafiy mushohadalarga moyil Sidqi o'z kuzatuv va hayotiy xulosalarini badiiy aks ettirgan. Sidqiyning "Zarbulmasali Sidqi" asari esa boshdan oxirigacha savol-javobga asoslanadi, muallif ularni asoslash uchun maqollar, hikmatli so'zlar, didaktik nasihatlar, bayt va to'rtliklardan foydalanadi, ba'zi savol-javoblarda o'zi guvohi bo'lgan yo' eshitgan voqealarni keltirib o'tadi. "Zarbulmasali Sidqi" asari pand-nasihat ruhidagi, insonlarni yaxshilikka da'vat etuvchi asardir. Sidqiyning ushbu asarining boshqa ijodkorlarning asaridan farqi shundaki, asar yaxlit suyjetga ega emas, kattaroq hajmdagi hikoya yoki hikoya ichida hikoya keltirilmagan. Ijodkor bir fikr atrofida aylanmaydi. Savol-javoblar ketma - ket kelganiga qaramay hammasining zamirsha har xil fikr va xulosalar mayjud. Boshqa asarlarga o'xshash tomoni esa kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa berishga, ularni to'g'ri yo'lda yurishga undashga xizmat qiladi[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Zarbulmasali Sidqi" asari ma'no va mazmun e'tibori bilan o'ziga xos didaktik asardir. Sidqi ijodida didaktik mavzudagi asarlar alohida o'rinn egallaydi. Shoir ijodining ilk yillarda arab ertaklari asosida tuzilgan "Ming bir kecha", Sa'diyning "Bo'ston", "Rahimo" va "Karimo", "Hikoyai latifa" asarları, shuningdek, "Ajoyib ul-mahluqot" kabi didaktik asarlarни fors tilidan o'zbekchaga o'girdi. Keyinchalik o'zi ham "Iktisob", "Sad irshodi mullo Sidqi", "Bazmi ishrat" kabi didaktik, "Mezoni shariat", "Tazkirai imom A'zam" nomli diniy-ma'rifiy asarlar yaratdi. Adibning "Zarbulmasali Sidqi" dan tashqari "Parokanda maktub va ash'orlar" nomli to'plamida ham bir qancha nasihatlar, nasriy hikoya va masnaviy yo'lida yozilgan masallar mayjud.

Tahlil va natijalar. Sidqi an'anaviy qissa, yodnomha, hikmat, hikoyat janrida qalam tebratish bilan birga badiiy ifoda, badiiy tasvirning yangicha shakkllari ustida ish olib bordi. Xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan savol-javob shaklida yozilgan asarları shundan dalolat berib turibdi. Sidqi "Zarbulmasali Sidqi" dan oldingi asarlarida ham o'z fikrini badiiy ifodalashda savol-javob usuliga murojaat qilgan. Shoir savol-javob bayon usulidan didaktik ruhdagi asarlarida ko'p foydalangan. Jumladan, Sidqiyning 1917-yilda mardikorlarning o'z yurtlariga qaytishi

sababi bilan ijtimoiy-tarixiy mavzuda yozilgan "Sitamdiya rabochiyalar kelishi" masnaviyasi ham boshdan-oyoq savol-javob asosiga qurilgan. Shoirning tugallanmagan asarları saqlanadigan 7631-inventar raqamli to'plamda ham "Varsat ul-anbiyo" ("Payg'ambarlar merosi") nomi ostida savol-javoblar shaklidagi parokanda varoqlar ham bor[3]. Sidqi "Mezoni shariat" nomli diniy-ma'rifiy risolasida islomiy tasavvurlarning asl mohiyatini qalamga olar ekan, o'z saloqlari an'analarini izchillik bilan davom ettira oladi. Bunday tasavvurlarni kitobxonga yetkazishda savol-javob shaklidan unumli foydalanadi. Jumladan:

"Savol:-Iymonning tani nadur?

Javob:-Besh vaqt namozni o'qumoqliq turur.

Savol:- Iymonning dili na turur?

Javob:- Qur'on o'qumoq turur"

Savol:- Iymonning nuri na turur?

Javob:- Rost aytmоq turur

Savol:- Iymonning po'sti na turur?

Javob:- Sharm va hayo turur.

Sirojiddin Sidqiyning "Zarbulmasali Sidqi" asari 1932-yilda yozila boshlangan. Dastlab Sidqi 100 ta savol-javobli didaktik nasihatlar yozishni niyat qilgan. Shu sababli asarning birinchi sahifasiga asar nomi ostiga "Savol-javobli yuz so'z" degan nomni ham yozib qo'yadi. Keyinchalik adib boshqa bir daftarda savol-javobli nasihatlarni yana yozishga qaror qilgan va ularning sonini 521 taga yetkazib qo'yan. Biroq asar qo'lyozmasini ko'zdan kechirish jarayonida 521-savol-javobdan so'ng ham yana 40 dan oshiq raqamlanmagan savol-javoblarni qo'shib ko'chirganligining guvohi bo'lamiz. Adibning "Zarbulmasali Sidqi" asari bizgacha to'liq holda yetib kelmagan. Saqlanib qolgan daftarlardagi savol-javoblar soni 215 tani taskil qiladi. Asarning o'ziga xosligi shundaki, asardagi har bir savol-javob mustaqil xarakterga ega bo'lib, jamiyatdagи biror mavzu haqida fikr yuritiladi. Adib oddiy kishilarning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq masalaladan tortib umuminsoniy masalalarni ham qalamga oladi. Asarda umumbashariy mavzular, yaxshi va yomon illatlar, maishiy mavzular, ba'zi bir tarixiy ma'lumotlar aralash holatda keladi. Sidqi asosiy fikrini savol-javoblar orqali berishga harakat qiladi. Shuningdek, fikrini izohlash, to'ldirish, dalil keltirish maqsadida o'zbek xalq

maqollaridan, matallaridan, o'zining hayotiy tajribasi asosida yozgan ibratlari fikrlardan misollar keltiradi.

"Zarbulmasali Sidqiy" asarining qimmatini oshiradigan vosalitardan biri o'zbek xalq maqollaridan mohirona foydalilanligidadir. Asar boshdan-oyoq maqollar, matallar, hikmatli so'zlar asosiga qurilgan. Shoiring shogirdi Abdullo Nosirov ustozni Sidqiy qishlog'iga qaytib ketganidan keyin o'zbek xalq maqollarini yig'ib yurganligi haqidagi ma'lumotlarni o'z esdaliklari yozib qoldirgan [2]. Sidqiyning "Zarbulmasali Sidqiy" asari bizgacha to'liq yetib kelmag'anligi sababli, asarda jami qancha maqol va matallar qo'llanganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Adib asardagi savol-javoblar sonini 550 dan oshirgan. Muallif deyarli har bir savol-javobda 1 tadan maqol qo'llanganligini hisobga olsak, maqollar soni ham 500 ga yaqinlashganligini taxmin qilish mumkin. Muallif ayrim savol-javoblarda esa 2 yoki 3 tagacha maqollar ishlatalganini ko'ramiz. Masalan: mehnatsevarlik haqidagi 25-savol-javobda "Ishlasang tishlarsan", "Ishlamay yegan kovshamay o'lar"; musofirlik haqidagi 7-savol-javobda "Musofir ko'r kishi kabidur", "Ko'magan yerning chuquri ko'p"; farzandning naqadar ulug' ne'mat ekanligi aytilgan 33-savol-javobda "Bolalik uy bozor", "Bolalik uy erur guliston"; farzandsizlik haqidagi 34-raqamli savol-javobda "Bolasiz uy erur go'riston", "Bolasiz uy - xomushlar mozori" kabi 2 tadan o'zbek xalq maqollar qo'llanaligan bo'lsa, 74-raqamli savol-javobda esa 3 ta "Eshagiga yarashur tushovi", "O'xshatmayin uchratmas", "Teng qilmayin, duch qilmas" kabi maqollar birgalikda ishlatalgan. Bundan kelib chiqadiki, Sidqiyni asarida eng ko'p maqol va matallardan namunalar keltingan adiblardan deyish mumkin. Ma'lumki, Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq o'zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vazniga solgan.

"Zarbulmasali Sidqiy" asarining mazmun - mundarijasi ancha keng. Asarda muallif o'z iqtidori, saviyasi, ma'naviy salohiyati darajasida o'z davrining eng muhim masalalarini badiiy ifodalashga harakat qiladi. Asarda vatanparvarlik, rostgo'ylik, to'g'rilik, kamtarlik, mehr-oqibat,adolat, do'stlik, qanoat, sabr, ishchanlik, nafs, g'ayrat, himmat, ehson, saxovat, tejamkorlik, oqillik, tejamkorlik kabi yaxshi xislatlar haqida bir qancha savol-javoblar berilgan. Javoblarga maqollar, matallar, she'riy baytlar ilova qilingan. Yaxshi odatlar haqida savol- javoblarga misollar keltiramiz:

Savol:- Ul nimadurkim, kishini asir qilur?

Javob:- In'om, ehson.

Qo'zini ko'rkim, esa bir zarra non,

Egasining ortidan bo'lg'ay ravon

Savol:- Ul nimadurkim, andin hech narsa qutulmaydur?

Javob:- G'ayrat.

Savol:- Ul nimadurkim, qorin to'yg'uzur?

Javob:- Qanoat.

Qanoat qorin to'yg'uzur,

Beqanoat yolg'iz otin so'yg'uzur.

Savol:- Ul nimadurkim, tog'ni osti birla qo'podur?

Javob:- Er kishining himmati.

Himmatlini bir martabaga eltadur oxir

Unda yaxshi xislatlardan xayr - ehson, g'ayrat- shijoat, qanoat, himmat haqida fikr boradi: Masalan, saodat haqidagi savol-javobni ko'raylik:

Savol:- Saodat nimadur?

Javob:- Haqiqat sari qadam urmoq.

Shoir kishilarni saodatga, ya'ni baxt, omad muvaffaqiyatga erishish yo'li haqiqat sari qadam qo'ymoqdir, deya xulosa qiladi. Shoir asarlarida haqiqatparvarlik insonlardagi eng yaxshi xislat ekanligi ko'p bora ta'kidlangan. Sidqiyning o'zi ham haqtalab, tikso'z, haqiqatgo'y,adolatsizlik bilan chiqisha olmaydigan toza vijdon egasi bo'lgan. To'g'riso'zligi sababli 1909-1911-yillarda Toshkentdan ketib vaqtinchalik Farg'ona tomonlarda yashaydi. Bu haqida yozuvchi A.Asilov shunday ma'lumot beradi: "O'nqo'rg'on qozisi bir boyning asossiz tuhmatiga uchib, kambag'al dehqonni qon qaqqashatadi: o'ttiz so'mlik qirchang'isini majburan sakson so'mga o'tkazadi. Maqsad bitta: qo'shimcha olingen ellik so'mni "arra" qilish. Bu

hayotiy haqiqatni eshitgan shoir haromho'r qozini shunchalar bulg'alaydiki, bu amaldor to'g'ri so'zga tan berish o'rniga, Sidqiyni yo'q qilish payiga tushadi. Bu haqda shoir shunday yozadi: "So'zlarim barchaga quyosh kabi fosh bo'lgach, ul zolim bangi qozi o'zi kabi zolim va mustabidlarni yollab, men kambag'alni Sibiriyaga surgun, turma ichra turg'un qilmoqqa ancha cholishdi. Maylono Firdavsiy Sulton Mahmud G'aznaviyini hajv qilib, Tus shahriga qochqondie, ul zolim amaldin qolq'uncha men ham Farg'onalarda qochib yurdim va ikki yilcha umrimni kechirdim. 1329 sanayi hijriyada qish havosinda toki ul zolim taxtdin tobutga tortildi, men ham o'z vatanim darbu devoriga otildim. Va birgina haqiqat izhori uchun shunchalik tashvish chektim..." [1]. Shoir Toshkent shahridan ketib Farg'ona vodiysi tomonlarda yashashga majbur bo'lagani haqida "birgina haqiqat izhori uchun shuncha tashvish chekdim", deb yozsa-da, ammo "maqsadimdu r haqiqat izhori" jumlalarini o'zining bosh maslagiga aylantirdi. Shoir shunday yozadi: "Bulut kelg'on birlan oftob nuri kamaymas va oftoblik ismi yo'qolmaski, hamon oftob oftobdur. Shunga o'xshash haqiqatni ham qaro bulutlar yoshira olmaski, hamon haqiqat haqiqatdor, oxir yuzag'a chiqar" [2].

Asarda tejamkorlik, uddaburonlik, yaxshi so'z, ozodalik va boshqa fazilatlar haqida savol- javoblarda o'xshatish asosida chiroyli ibratlardan yozilgan.

Savol: - Qo'li sust kosibdin kim yaxshi?

Javob: - Oyog'i chaqqon gadoy

Savol: - Tengsiz xazina nimadur?

Javob: - Tejalgan ro'zg'or.

Savol: - So'zning yaxshisi qandog' bo'lur?

Javob: - Oz bo'lub kubg'a dalolat qilsa, ochiq bo'lsa, eshitguvchig'a og'ir bo'limasa, birovning shaxsig'a tegmasa.

Savol: - Odam bolasining qiymati nima bilan bo'lur?

Javob: - Ozodalik, bir narsani birovlardan ko'z tutmaslik bilan.

Sidqiyning «Zarbulmasali Sidqiy» asaridagi kuchli badiiy usullardan biri shundaki, muallif savol-javoblarida salbiy illatlar va unga ega bo'lgan shaxslarni ayamasdan fosh qiladi. Asarda shoshqaloqlik, dangasalik, tajribasizlik, besabrlilik, tekinxo'rlik, ochko'zlik, hasadgo'ylik, sudxo'rlik, mumsiklik-xasislik, qo'pol so'zlash, g'arazli fikr, ta'magirlik, bilimsizlik, baxillik, ochofotlik, qo'pollik, yolg'onzhilik, poraxo'rlik, nodonlik kabi salbiy illatlar qoralanadi. Jumladan:

Savol: - Ul kimdurkim, o'z oshi o'ziga haromdur?

Javob: - Baxil.

Savol: - Ul nimadurkim, so'zlaguvchini sharmanda qilur?

Javob: - G'arazli fikr.

Savol: - Ul kimdurkim, rost so'zi ham e'tibordan soqitdurdur?

Javob: - Yolg'onchi (Utrukchi).

"Zarbulmasali Sidqiy" asaridagi eng ko'p tilga olingan salbiy illatlardan biri dangasalikdir. Adib asarda dangasa, ishyoqmas, tani sog' bekorchi, tayyoxro'r soyaparvar kabi jumlalarini juda ko'p ishlataladi. Sidqiyning fikricha, kishimi yalqovlik xor qiladi, dinni xarob qiladi. Bekorchilik bilan uyda yalpayib yotmoq kabi fano ishdan ko'ra, mard bo'lub tog'-u cho'lda qo'y boqmoq yaxshidur, birovning minnatli nonini yegandan, erta-yu kech tinim bilmay mehnat qilmoq afzaldur. Har inson bu illatni zanjirlaridan o'zini xalos etishi, bo'shatishi lozimdir. Asarda shu mavzuga bagishlangan savol-javoblar ko'p uchraydi:

Savol: - Oshi bo'lsa, ishi bo'limasa,

Yozi bo'lsa, qishi bo'limasa, jumlasini kim aytadi?

Javob: - Tani sog' ishyoqmas.

Ishyoqmas o'lsun, ishyoqmas o'lsun,

Oning yeriga ishlovchi kelsun.

Savol: - Ishi qurtlag'an dehqonning dushmani kimdir?

Javob: - Tani sog' bekorchi, ishsiz dangasa.

Savol: - Ul kimdurkim, ish buyursak, otangdan yaxshi o'git beradur?

Javob: - Ishga tobi yo'q dangasa.

"Zarbulmasali Sidqiy" asarida tani-joni sog' bo'la turib, odamlarga foydasini tegmaydigan, tekinxo'rlik bilan kun kechiruvchi kimsalar hayoti haqidagi savol- javoblarni ham kitobxonga taqdim qiladi. Ular mehnat qilmasdan xalq molidan

tama' qilib, kun ko'ruchchi eshonlar, shayxlar, to'ralardir. Bunday kishilarni shoir ta'magirlar, "shayx ismli gadoylar" deya ataydi. Ularning maqsadi mehnat qilmasdan, tama'girlik qilib boylik orttirish, deydi. Sidqiy bir hikmatida bunday kimsalarga qarata:"Mard bo'lsang, qo'y tama'ni, mehnat et, Bo'lma shayxu mehnat ila rohat et " deb yozadi. Asarda bunday kishilar qattiq tanqid qildi:

Savol: - Ko'zlik kesak, tirik mozor kimdur?

Javob: - Tayyorxo'r soyaparvar.

Savol: - Dunyo yuzidagi eng yomon kimdur?

Javob: - Birovg'a og'irlig'in solib yotqon kishi.

Savol: - Jonlik balo nimadur?

Javob: - To'rasи birla kambag'alning uyiga bosib kelgan eshonzoda.

Savol: - Kimdurkim, hamishxo'rdur?

Javob: - Tama'gir.

Baxillik, xasislik kishilardagi eng tuban illatlardan biridir. Qur'oni karim va Hadisi shariflarda ham baxillik barcha harom ishlarning va yaramas xulqlarning sababchisi sifatida qoralangan, saxiy, himmatli, muruvvatli inson bo'lishga da'vat etilgan. "Zarbulmasali Sidqiy"da ham shu mavzuga bag'ishlangan bir necha savol-javoblar bor:

Savol: - Kimsalar haqida shunday hikmat bor?

Javob: - Mumsik (xasis)

Bu savol-javobda Sidqiy kishilardagi mumsiklik-xasislikni qoralayapti. Xasislar o'z nafsidan ham qizg'onadilar, o'zi uchun kerakli narsani xarid qilmaydilar. Xasis kishi pulidan qizg'onib, arzon mol soitib qildi. Ammo arzonning sho'rvasi tatimas, deganlaridek, bu mol sifatlari bo'lmaydi, shoir aytganidek, illatlari bo'ladi. Va ikkinchi marotaba xarj qilishga majbur bo'ladi. Shoir fikrini quyidagi bir chirolyi bayt bilan xulosa qildi:

Xarji mumsik ikki hissa bo'lg'anining sirri bul -

Olg'ay arzon narsanikim, ul esa illatlilik bo'ur.

Yoki Sidqiy boshqa bir savol-javobda shunday yozadi:

Savol: - Ul nimadurkim, kishini yuzag'a chiqarmaydur?

Javob: - Baxillik. Baxil hamisha o'zini faqir qilib ko'rsatur, gadoylarning tirikligidin badtar tiriklik qilur. Baxilda sharofat bo'lmas, kishida himmat bo'lmas.

O'ziga baxillik qilgan kishi, o'zgaga ham saxiylik qilmaydi. O'zidan ham qizg'anib, gadoylar kabi hayot kechiradi. Uning boshqalarga nafi, foydasi tegmaydi. Sidqiyning Shayx Sa'diydan qilgan tarjimasidagi baytlar ham yuqoridagi savol-javob bilan hamohang:

Baxil archi moli bilan bo'lsa boy,

Chekar xorliq o'yla pulsiz gadoy.

Hasad va hasadgo'ylik pand-nasihat ruhidagi didaktik asarlarda eng yomon xulqlardan biri sifatida talqin etiladi.

G'iybat, bo'hton kabi illatlар hasad qilganlikdan paydo bo'lishi ko'p bora aytildi. Qadimgi yunon faylasufi Arastu "Dunyoda hammadan ko'ra hasadgo'yning yuki og'irdir, chunki u bechora atrofidagi barcha odamlarning qayg'usini o'z ustiga yuklab yuradi", deb aytadi. Sidqiy ham bir savol-javobda hasadgo'y insonni shunday ta'riflaydi:

Savol: - Ul kimdurkim, bir begunohning gunohining zarari uchun g'azablanur?

Javob: - Hasadchi. O'zidin o'zi kular, ishayar, qayg'u dengiziga cho'mar, na yeganida maza topar, na ichganida.

Sidqiy o'z asarlarida ustoz shoirlarning an'anasini davom ettirgani ko'zga tashlanadi. Adib ijodini kuzatgan kishiga uning Sadiy, Alisher Navoiy uslub va bayon tarzini hamda g'oyalarini, umuman an'analarni izchil davom ettirgani, boyitgani, ularni sodda va aniq, xalqona tilda bayon qilgani yaqqol ko'rinish turadi. Sa'diy Sherzoziyda badfe'l kimsalar haqida shunday hikmat bor: "Badxo'y ba dasti dushmane giriftor ast, ki har jo ravad, az on rahoyi nayobad" ("Fe'li yomon kishi qayonga borsa, zulmidan qutulmoq imkonsiz bo'lgan bir dushmaniga giriftordir"). Hazrat Alisher Navoiy ham "Mahbul ul qulub"da bu fkirni rivojlantirib shunday deydi:"Yamon qilig'liq badxo'y va bot achchig'liq turshro'y har balog'a giriftordur va bir ibtilog'a mubtalokim, har yon borsa abndin qutulmas va har sori qochsa, andin xalos bo'lmas," [7] deb ta'riflasa, "Nazmul javohir" asarida bu illatdan xalos bo'lish mumkin emasligi haqidagi baytni keltiradi:

Badxo'yliq ul vahshat erur shiddatdin,

Kim elga xalosliq yo'q ul vahshatdin [8].

Sidqiy Navoiy satrlariga hamohang fikrlarni o'rtaga tashlaydi. Shoir sodda va ravon uslubda o'z xulosalarini ifodalab qo'ya qoladi. Uning fikricha, badxo'yliq - badfe'lilik, dag'allik insonlardagi bir bedavo, tuzatib bo'lmas darddir, Bu illatni davolaydigan dori yo'qtur. Xudoyi taolo ayrim insonlarni "yaxshi xulqu", ayrimlarni esa "tundxo'y" (yomon fe'lli?) qilib yaratadi.

Savol: - Qayu dardurkim, bedavodur?

Javob: - Badxo'yliq.

Ne kasalkim bo'lur-iloji bo'lur,

Ya'ni, badxo'yluqqa yo'q doru.

Xulosa va takliflar. Sidqiyning "Zarbulmasali Sidqiy" asari uslubining soddaligi, qisqaligi bilan ajralib turadi. Har bir savol-javob ixcham va lo'nda tuzilgan, ammo chuoq mazmunga boy bo'lib, ko'pincha inson tabiatini, axloqi, donoligi va ma'naviyati haqida fikr yuritadi, xulosalar qiladi. Turli umumlashma xulosalar orqali o'quvchilarni o'z hayotlari va xatti-harakatlari haqida fikr yuritishga, shaxsiy o'sishga va axloqiy rivojlanishga da'vat etadi, asardan saboq olishga undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar.-T.: "Ma'naviyat", 1998. - 304 b.
2. Asilov A. Sirojiddin Maxdum- Sidqiy Xandaqliqiy.(Roman, g'zallar) – T.: "G'afur G'ulom", 2019. 173- bet.
3. Javharova R. Sirojiddin Sidqiy Xondaqliqiyning adabiy merosi. Filol. fan. nom. diss. – T.: 1996.
4. "Zarbulmasali Sidqiy". Sidqiy Xondayliqiy. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi №7631.
5. Is'hoqov F.. Gulxaniy "Zarbulmasal"ning ilmiy-tanqidiy matni.-T.:1997.-15-bet.
6. Asrlar nidosi. Rojiy. Nashrga tayyorlovchi: Dilbar Rahmatova. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. – B.124
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. www.ziyouz.com kutubxonasi 34-bet.
8. Alisher Navoiy. Nazmul javohir. www.ziyouz.com kutubxonasi. 27-bet.



Madina NORBEKOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: madinabonushuhratovna@gmail.com

Renesans universiteti professori, filologiya fanlari doktori L.Raupova taqrizi asosida

VIEWS ON THE DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF THE TEXT

Annotation

In the article, the text is classified as well as a structural, communicative, grammatical, functional, pragmatic, stylistic, semiotic, phenomenological and categorial description.

Key words: Text, sign, articulation, autosemancy, cogenesis, continuum, prospectus, retrospection, modality, integration.

ВЗГЛЯДЫ НА ОПИСАНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЮ ТЕКСТА

Аннотация

В статье дается структурное, коммуникативное, грамматическое, функциональное, прагматическое, стилистическое, семиотическое, феноменологическое и категориальное описание текста, а также его классификация.

Ключевые слова: Текст, символ, артикуляция, аутосемантическость, когезия, континуум, перспектива, ретроспектива, модальность, интеграция.

MATNNING TAVSIFI VA TASNIFI XUSUSIDA QARASHLAR

Annotatsiya

Maqolada matn strukturaviy, kommunikativ, grammatik, funksional, pragmatik, stilistik, semiotik, fenomenologik va kategorial tavsif hamda tasnif qilinadi.

Kalit so'zlar: Matn, belgi, artikulyatsiya, autosemantlik, kogeziya, kontinuum, prospekteziya, modallik, integratsiya.

Matn lingvistikasiga oid ilmiy tadqiqotlarda "matn" atamasi eng ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'lgan va bo'lib kelayotgan birlidir. Matnni undagi ma'lumotlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkinligini hisobga olsak matn, birinchini navbatda, axborot birligidir; uni yaratish psixologiyasi nuqtai nazaridan, muallifning muayyan maqsaddan kelib chiqqan ijodiy harakati sifatida matn sub'ektning og'zaki va aqliy faoliyati mahsulidir; pragmatik pozitsiyadan matn idrok etish va talqin qilish uchun materialdir; niyoyat, matnni yana tuzilishi, nutqni tashkil etishi va yana uslubiy jihatdan tavsiflash mumkin. An'anaga ko'ra, tilshunoslikda "matn" atamasi nafaqat yozma, yozib olingan matnni, balki yoki bu tarzda, balki har qanday uzunlikdagi odam tomonidan yaratilgan "nutq asari" ni ham anglatildi – bir butun hikoyadan, she'r yoki kitobgacha. Til va ekstralengvistik voqeqlik hodisasi sifatida matn juda ko'p turli xil funktsiyalarni bajaradigan murakkab hodisadir: u aloqa vositasini, ma'lumotni saqlash va uzatish usuli, shaxsnинг aqly hayotini aks ettiruvchi vositadir. Ma'lum bir tarixiy davr, madaniy mavjudlik shakli, muayyan ijtimoiy-madaniy an'analarning aksi hamdir. Har qanday matnni yaratishda, albatta, odamlarning amaliy faoliyati asosiy hisoblanadi (muloqotning ma'lum bir sohasiga adekvat bo'lgan lingvistik vositalar to'plamini belgilaydigan ekstralengvistik omillar). Turli xil morfologik-sintaktik va leksik-grammatik tuzilmalarining tabiiy muhitida qo'llanilishini ko'rsatadigan matn nutqning namunasini (monolog va dialogik) bo'lib, mustaqil bayonet qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Matnning lingvistik nazariyasi ritorika va filologiyaga asoslanadi. Yuqorida qayd etilganidek, matn - matn tilshunosligi fanning predmeti ekan, matn lingvistikasi - bu tilni harakatda o'rganadigan va umumiy foydalanish shakllarini izlaydigan fandir. Matn tilshunosligining vazifasi shu sohaning mazmuni va shakliy birliklari bilan matnning grammatik toifalari tizimini topish va qurishdir. U berilgan material (matnlar korpusi) asosida ro'yxat tuzadigan matnning strukturaviy tahlilidan farq qiladi va matn lingvistlari barcha matnlarga xos bo'lgan matn tatqiqlarini yaratishga harakat qiladi. Matn lingvistikasida matn deganda odatda "to'liq va to'g'ri tuzilgan izchil ketma-ketlik" tushunilarini ekan. Shu bilan birga, matn tadqiqining bir qancha jihatlari yoritiladi. Jumladan, strukturaviy matn tahibili, matnni strukturaviy tashkil etish muammosi, matn birliklari va ularning xususiyatlarini

aniqlash muammosi bilan shug'ullanadi. Funktsional yoki pragmatik jihat matn birliklarini nutqda ishlashida ko'rib chiqiladi. Matn grammatikasi grammatik jihatdan to'g'ri birliklarni qurish va kod normalariiga rioya qilish shartlarini o'rganishga qaratilgan. Stilistik jihat matn birliklarining uslubga bog'liqligini hisobga oladi, uning xarakterli xususiyatlarini aniqlaydi. Keling, bugungi kunda matnning eng keng tarqalgan ta'riflari va tushunchalarini ko'rib chiqaylik:

1. Matn:

- ma'lum bir til qoidalariga, berilgan belgi tizimiga muvofiq tuzilgan va xabarni tashkil etuvchi jumlalar, so'zlar (semiotikada - belgililar) ketma-ketligi.

- og'zaki ish; badiiy adabiyotda - tabiiy til belgilari (so'zlar) va murakkab estetik belgilari (poetik tilning tarkibiy qismi, syujet, kompozitsiya va boshqalar) dan tuzilgan to'liq asar yoki uning parchasi.

- izohsiz va unga berilgan ilovalarsiz muallif inshosi.

2. Matn:

- xotirada qolgan, yozilgan yoki bosilgan har qanday bayonot, insho, hujjat va hokazolarni tashkil etuvchi so'zlar, gaplarning ma'lum bir bog'lanish va ketma-ketlikda kelishi.

- har qanday insho, hujjat va boshqalarning asosiy materiali, unga eslatma yoki sharhdan farqli o'laroq; to'plamning asosiy qismi ko'rsatmalar, izohlar, chizmalar va boshqalar[11].

3. Matn:

- og'zaki amalgal oshirishdan farqli o'laroq, nutq yoki xabarning yozma yoki bosma yozuvni.

- nutqiy asarning lingvistik belgilari orqali ifodalangan va mustahkamlangan hissий idrok etuvchi tomoni.

- nisbiy birlik (yaxlitlik) va nisbiy avtonomiya (ajralish)ga ega bo'lgan nutqiy muloqotning minimal birligi[8].

4. Matn:

- yozma yoki bosma shaklda takrorlangan asl asar yoki hujjat.

- bir butunlikni tashkil etuvchi belgilari (til yoki boshqa belgilari tizimi) ketma-ketligi[9].

5. Matn birlamchi berilgan, asosiy kategoriadir[10].

6. Matn - har xil turdag'i leksik, mantiqiy va grammatik bog'lanishlar bilan birlashtirilgan, ma'lum bir tarzda uyushtirilgan va yo'naltirilgan ma'lumotni yetkazishga qodir bo'lgan ma'lum

tartibli jumlalar to'plami. Matn murakkab bir butunlik bo'lib, tarkibiy-semantik birlilik vazifasini bajaradi[12].

7. Matn nutqiy-jiodiy jarayon mahsuli bo'lib, to'liqlikka ega bo'lgan, yozma hujjat g'oyasida ob'yektivlashtirilgan, ushbu hujjat turiga muvofiq adabiy qayta ishlangan, nom (sarlavha) va asardan iborat. leksik, grammatik, mantiqiy, stilistik bog'lanishning har xil turlari bilan birlashtirilgan maxsus birliklar (suprafrasal birliklar) soni. Matn - ma'lum bir maqsadga muvofiqlik va pragmatik munosabatga ega bo'lgan asar[4].

8. Matn - bu belgilar ketma-ketligi shaklida mavjud bo'lgan, ularning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan rasmiy izchillik, mazmunli yaxlitlik va rasmiy semantik tuzilishga ega bo'lgan xabdirdir[5].

9. Matn:

- har qanday to'liq va izhil, mustaqil va grammatic jihatdan to'g'ri bo'lgan og'zaki yoki yozma gapning tuzilishi;

- ikki o'lcovli (sintagmatik va paradigmatic) o'rinsbosarlarning uzluksiz zanjiri orqali hosil bo'lgan til birliklari ketma-ketligi;

- tilning fenomenologik jihatdan berilgan birlamchi mavjudlik uslubi;

- muayyan vaziyatda shaxs tomonidan bajariladigan nutqiy harakat yoki bir-biriga bog'langan nutqiy harakatlar turkumi;

- bayonotlarga bo'lingan birlik;

- vogelikning grafik tasviri, tilning yozma variantini yaratish;

- matn murakkab hodisa bo'lib, uning aloqa aktida paydo bo'lish xususiyatlarga ko'ra u faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega: artikulyatsiya, avtosemantlik, kogeziya, kontinuum, prospektiya, retrospekteziya, modallik, integratsiya, to'liqlilik[6].

10. Matn:

- murakkab ruhiy faoliyat yoki murakkab tafakkurning lingvistik ifodasi;

- ma'lum vaqtadan keyin boshqalarga (muloqot) yoki o'z-o'ziga yetkazish maqsadida yaratilgan narsa;

- ma'lum bir tarixiy davrda ta'lim, ijtimoiy va kasbiy muloqot jarayonida egallangan bilimlar asosida yaratilgan narsa;

- idrok etishning mumkin bo'lgan sharoitlarini hisobga olgan holda ma'lum bir ehtiyoj, turki, niyat mavjud bo'lganda aqliy va til faoliyatni natijasida ma'lum lisoniy vositalar yordamida og'zaki yoki yozma shaklda tuzilgan narsa.

"Matn" tushunchasining ko'pgina ta'riflarini umumlashtirib, kontseptsiya mazmunining tadqiqot jihatiga bog'liqligini ta'kidlash kerak:

- verbal belgilarni tizimi sifatida semiotik (R. Yakobson, Yu. M. Lotman, B. Ya. Uspenskiy va boshqalar);

- fanlararo bilim sohalari xususiyatlarda diskursiv (E. Benveniste, T. van Deyk, R. Bart va boshqalar);

- lingvistik jihatdan til birliklarining funksional ahamiyati tizimida (V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, V.P.Grigoryev, G.Ya.Solganik, L.A.Novikov, N.A.Kojevnikov va boshqalar);

- pragmatik vaziyat doirasida og'zaki (J. Ostin, J. Searle, M. M. Baxtin, N. D. Arutyunova va boshqalar);

- falsafiy, adabiy, sotsiolingvistik, tarixiy bilimlar sohalari birligida poststrukturalist (J.Derrida va boshqalar);

- adabiy, lingvistik, falsafiy va antropologik karakterdagagi "madaniy intertekst" nuqtai nazaridan matn tahlili sifatida dekonstruktivistik (J.Deleuz, J.Kristeva, R.Barts va boshqalar);

- yozuvchi va kitobxon o'rtasidagi faol dialogik o'zaro ta'sir sifatida, hikoya qilish nazariyasi doirasida narratologik (V. Propp, V. Shklovskiy, B. Eyxenbaum, M. M. Baxtin, P. Lubbok, N. Fridman, E. Laibrid, V. Fyuger), , va boshqalar);

- psixolingvistik jihatdan nutq ishlab chiqarish va uni idrok etishning dinamik tizimi sifatida (L. S. Vygodskiy, A. R. Luriya, N. I. Jinkin, T. M. Dridze, A. A. Leontiev va boshqalar);

- psixofiziologik jihatdan muallif psixiologiyasini ma'lum bir adabiy shaklda til vositalaridan foydalangan holda amalga

oshiradigan ko'p qirrali hodisa sifatida (E. I. Dibrova, N. A. Semenova, S. I. Filippova va boshqalar) va boshqalar.

Bundan tashqari, "matn"ni talqin qilishning u ifodalaydigan tushunchalarga ko'ra tasnifi mavjud[3]:

1. Natijaviy-statik tasvirni aks ettiruvchi statik aspekt tushunchalari. Matn jo'natuvchidan begonalashtirilgan ma'lumot sifatida tushuniladi, bu til bizga bevosita kuzatishda beriladigan yagona shakldir.

2. Tilning nutqda jonli faoliyat yuritish qobiliyatini hisobga olgan holda matning protsessual jihatni tushunchalari.

- 3) jo'natuvchi va qabul qiluvchining mavjudligini nazarda tutuvchi aloqa aktiga qaratilgan aloqa tushunchalari.

- 4) Matnni til tizimining darajasi deb hisoblaydigan tabaqalanish tushunchalari.

Shunday qilib, matnni tadqiqot vazifasiga qarab, murakkab, to'liq yaxlitlikning o'ziga xos modeli va ushbu modelning o'ziga xos amalga oshirilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin. T. M. Nikolayeva shunday ta'kidlaydi: "Matnni zamnaviy talqin qilishda asosiy vazifalar - bu yaratilgan matn birliklarining aniq talqinini ta'minlash, aloqa qilishdir". Bunda matn o'z vazifasidagi gaplar to'plami va shunga mos ravishda sotsiokommunikativ birlik sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy matn tilshunosligida ikkita asosiy yo'nalish paydo bo'lgan deb hisoblash mumkin:

agar muallif idrok etuvchiga ta'sir qilmochchi bo'lsa, mavjud, nazarda tutilgan yoki yaratgan keng kontekstli kommunikativ muhit matnni tushunish;

bitta yopiq matndagi chuqur ma'nolarni aniqlash; matnning yashirin ma'nosini talqin qilish sifatida germenevтика bilan yaqinlashish[1]. Binobarin, to'liq gapni ifodalovchi nutqning asosiy birligi matndir. Muayyan matnlari til tizimi va muallifning lingvistik malakasi bilan bog'liq bo'lgan, ularni qurishning umumiy tamoyillariga asoslanadi. Bundan tashqari, matn nafaqat nutq birligi, balki til birligidir. Asosiy lingvistik belgi - qisman belgilarning cheklangan, tartibli to'plamidan tashkil topgan matn. Matn tabiatan cheklangan, shuning uchun kuzatilishi tizimli va tabiyi. Matnni zamnaviy talqin qilishda kommunikativ xarakterdagi masalalar birinchiligi o'ringa chiqariladi, ya'ni ratsional (asoslangan) aloqa shartlarini tahlil qilish, yaratilgan matn birliklarining bir ma'noli talqinini ta'minlash vazifikasi. Hozirgi vaqtida mayjud bo'lgan barcha til xilma-xilligi faqat xotirada saqlanadigan va shaxs ongida aks ettirilgan tasvirlar va obrazli tizimlarning aksidir. Qo'shimcha ravishda axloqiy yoki estetik mazmunga ega bo'lgan tasvir ona tilida so'zlashuvchilar ongida ramziy ma'noga ega bo'лади. Matn o'z vazifasidagi bayonotlar to'plami va shunga mos ravishda sotsiokommunikativ birlik sifatida talqin etiladi. Har qanday jamiyat madaniyatining eng muhim elementi bo'lib, unda faoliyat ko'rsatadigan til uning "konteksti" dagi ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir qiladi. Matnning mohiyatini tavsiflovchi toifalarini aniqlash va matnlarning butun xilma-xilligini chekli, kuzatilishi mumkin bo'lgan asosiy turlar to'plamiga qisqartirish imkonini berish uchun matnlarni tasniflash bo'yicha bir qator shunga o'xshash urinishlar mavjud. Eng muhim tasniflarga quyidagilar kiradi:

1. Qurilish xarakteriga ko'ra (1, 2 yoki 3-shaxsdan).

2. Birovning nutqini uzatish tabiatini bo'yicha (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita).

3. Bir, ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning nutqida ishtirok etish orqali (monolog, dialog, pilolog).

4. Funksional-semantik maqsadiga ko'ra (nutqning funktsional va semantik turlari: tavsif, bayon, fikrlash va boshqalar).

5. Gaplar orasidagi bog'lanish turiga ko'ra (zanjir bog'langan, parallel, bog'lovchili matnlar).

6. Tilning vazifalari asosida va ekstralngvistik asosda funksional uslublar ajratiladi - matnlarning funksional-stilistik tipologiyasi.

ADABIYOTLAR

1. Москальская О. И. Грамматика текста. – М., 1981.
2. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. VIII. Лингвистика текста. – М., 1978.
3. Маслов П. А. Проблемы лингвистического анализа связного текста. – Таллин, 1975.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
5. Лосева Л. М. К изучению межфразовой связи // Русский язык в школе. – 1967. – № 1.

6. Лукин В. А. Художественный текст: Основы лингвистической теории и элементы анализа. – М., 1999.
7. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М., 1981.
8. Домашнев А. И. и др. Интерпретация художественного текста. – М., 1989.
9. Кожина М. Н. Стилистика текста в аспекте коммуникативной теории языка // Стилистика текста в коммуникативном аспекте. – Пермь, 1987
10. Колшанский Г. В. От предложения к тексту // Сущность, развитие и функции языка. – М., 1987. Левковская Н. А. В чем различие между сверхфразовым единством и абзацем // Филологические науки. – 1980. – №
11. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М., 1981.
12. Левковская Н. А. В чем различие между сверхфразовым единством и абзацем // Филологические науки. – 1980. – № 1.



Gulasal ROFIYEVA,

O'zMU strategik rivojlantirish va xalqaro reyting bo'limi boshlig'i, PhD

E-mail: rofiyeva_g@nuu.uz.

Salimaxon RAJABOVA,

O'zMU strategik rivojlantirish va xalqaro reyting bo'limi uslubchisi

E-mail: rajabovasali95@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent G. Qurbanova taqrizi asosida

FRANSUZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN YUMORISTIK MATNLARDA LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARNING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fhajviy matnlarning milliy-madaniy jihatlarini qiyosiy-chog'ishtirma usulda o'rganilishi borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'rganiladi. Yumoristik matnlar tarjimasida e'tibor qilinishi kerak bo'lgan jihatlar ilmiy o'rganiladi. Hajviy matnlarni qanday berish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinayotganda tarjima qilinayotgan millat uchun tushunarli qilib tarjima qilish usullari ko'rib chiqiladi. Hajviy matn, asosan, latifa o'zi nima ekanligi to'g'risida olimlar fikrlari o'rganiladi, yumoristik matnlarda lingvokognitiv xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Latifalar, lingvokulturologiya, lingvokognitiv, qiyosiy-chog'ishtirma usuli.

ОТРАЖЕНИЕ ЛИНГВОКОГНИТИВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ, ПЕРЕВОДЕННЫХ С ФРАНЦУЗСКОГО НА УЗБЕКСКИЙ

Annotatsiya

В данной статье изучены научно-теоретические взгляды на изучение национально-культурных аспектов юмористических текстов сопоставительным и перекрестным методом. Научно изучены аспекты, которые следует учитывать при переводе юмористических текстов. Будет рассмотрено, как визуализировать комические тексты при переводе с одного языка на другой, чтобы они были понятны целевой нации. Изучены мнения ученых о том, что такое юмористический текст, преимущественно шутка, а также рассмотрены лингвокогнитивные особенности юмористических текстов.

Ключевые слова: Анекдоты, лингвокультурология, лингвокогнитив, сравнительно-сопоставительный метод.

REFLECTION OF LINGUOCOGNITIVE CHARACTERISTICS IN HUMORISTIC TEXTS TRANSLATED FROM FRENCH INTO UZBEK

Annotation

This article examines scientific and theoretical views on the study of national and cultural aspects of humorous texts using comparative and cross-methods. Aspects that should be taken into account when translating humorous texts have been scientifically studied. It will consider how to visualize comic texts when translating from one language to another so that they are understandable to the target nation. The opinions of scientists on what a humorous text is, primarily a joke, have been studied, and the linguacognitive features of humorous texts have been considered.

Key words: Jokes, linguacultural studies, linguacognitive, comparative-contrastive method.

Har bir xalqning latifalari o'sha xalqning folklor namunalari hisoblanadi. Shu o'rinda folklor so'zining mohiyatiga e'tibor qaratsak. O'TILda folklorqa quyidagicha izoh berilgan, folklor (ingl. folklore folk - xalq + lore – bilim, fan) xalq ijodiyoti; xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (ertak, doston, qo'shiq, lapar, masal, maqol, matal, topishmoq va b.). Xalqning ko'p asrli tarixi mobaynida yaratilgan hikmatli so'zlar – milliy folkloarning eng yaxshi namunalardir [1]. Latifalar ham xalq tomonidan yaratilganligi va xalq ijodiyoti namunlari bo'lganligi bois ularni folkloarning ushbu lug'atda keltirilgan asarlar qatoriga qo'shish mumkin. Latifalar har bir xalqning o'z ruhiyati, mentaliteti, madaniyati, dunyoqarashi, e'tiqodi nuqtai nazardan yaratilar ekan, ularni tarjima qilishda har bir tarjimon dan tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalarini o'zar o'yng'unlashtirgan holda tarjima amaliyotlarini olib borish talab etiladi.

Latifa tarjimalarida lingvokognitiv xususiyatlarni aniqlashda Gi De Mopassanning "Besh hikoya" turkumidagi "Tuan ota" hajviy hikoyasidan misollarni tahlilga tortdik:

Fransuz tilida:

Les farceurs du pays lui demandaient :

— Pourquoi que tu ne bê point la mé, pé Toine ?

Il répondait :

— Y a deux choses qui m'opposent, primo qu'a l'est salée, et deusio qu'i faudrait la mettre en bouteille, vu que mon abdomen n'est point pliable pour bé à c'te tasse-là [2] !

Tarjimada:

Shunda undan hazillashib:

- Nega dengizni ichib qo'ya qolmaysan, Tuan ota? - deb so'rashsa,

- Ikki narsa bunday qilishimga xalal beradi: birinchidan dengiz suvi juda sho'r, ikkinchidan uni oldin shisha idishga quyish lozim, aks holda men bunday tog'oradan icholmamaymarda, - deya javob beradi [3].

Yuqoridaq tarjimada matnning xususiyati va unga hajv berish uslibi, ya'ni yozuvchining ifoda etish masalasi muhim ahamiyatga ega. Matnga yumoristik bo'yqordorlikni oshirish maqsadida yozivchi avvalo dialektlardan foydalangan va tarjima mazkur dialektlarga xos belgilar tushurib goldirilgan. Biroq bu hplat tarjimadagi hajv urg'usiga jiddiy ta'sir etmagan. Shuningdek, inson qiyofasini kulgili etib tasvirlashda hayvon nomlaridan foydalananlogan va bu hajviy matnda ko'chimni hosil qilgan. Mazkur nom ko'chish hodisasi tarjima o'xshatish orqali ifodalabinib, mazmun saqlab qolingga.

Fransuz tilida :

Et puis il fallait l'entendre se quereller avec sa femme ! C'était une telle comédie qu'on aurait payé sa place de bon cœur. Depuis trente ans qu'ils étaient mariés, ils se chamaillaient tous les jours. Seulement Toine rigolait, tandis que sa bourgeoisie se fâchait. C'était une grande paysanne, marchant à longs pas d'échassier, et portant sur un corps maigre et plat une tête de chat-huant en colère. Elle passait son temps à élever des poules dans

une petite cour, derrière le cabaret, et elle était renommée pour la façon dont elle savait engraisser les volailles [2].

Tarjimada :

Uning xotini bilan bahslashishini ham, albatta, eshitish kerak! Bu tomosha uchun joy haqi to'lasang arziydi. Turmush qurishganiga o'ttiz yil bo'lganiga qaramasdan, ular deyarli har kun tortishib turshadi. Bunday janjallarda Tuan ota odatdagidek kulib tursa, uning ayoli doim asabiy. Bo'yи uzun, ozg'indan kelgan bu ayol qush panjasiga o'xshash oyoqlari bilan katta qadam bosib yurar, boyqushsimon boshi esa g'azabnok ko'rindi. Sharobchining xotini bo'sh vaqtlar qahvaxonaning orqasidagi kichik hovlichada parranda boqadi. Bu ayol qushlarga yaxshi qaray olishi bilan juda mashhur [3].

Navbatdagi tarjimada tarjimon asliyatdagi hajviy uslubga urg'u berish holatlarini saqlab qolgan va shu orqali yozuvchi uslubini saqlashga erishgan. Misollardan ko'rindanidiki, hajjni ifodalashda asosan badiyi stilistik vositalarga murojaat qilinadi. Avvalo bu jarayon yozuvchi ijodkorligi darajasi bilan bog'liq bo'lib, asar tarjimasi ham o'z navbatida kulgu ulasha olishi uchun ushbu vositalar, ya'nii metofora, metanomiya, sinekdoxa, mubolog'a, litota va o'xshatish kabilarni adekvat berilishini ta'minlashi lozim bo'ladi.

Fransuz tilida :

Mais elle était née de mauvaise humeur et elle avait continué à être mécontente de tout. Fâchée contre le monde entier, elle en voulait principalement à son mari. Elle lui en voulait de sa gaieté, de sa renommée, de sa santé et de son embonpoint. Elle le traitait de propre à rien, parce qu'il gagnait de l'argent sans rien faire, de sapas, parce qu'il mangeait et buvait comme dix hommes ordinaires, et il ne se passait point de jour sans qu'elle déclarât d'un air exaspéré :

— Ça serait-il point mieux dans l'étable à cochons un quêtou comme ça ? C'est que d'la graisse que ça en fait mal au cœur.

Et elle lui criait dans la figure :

— Espère, espère un brin ; j'verrons c'qu'arrivera, j'verrons ben ! Ça crèvera comme un sac à grain, ce gros bouffi !

Toine riait de tout son cœur en se tapant sur le ventre et répondait :

— Eh ! la mé Poule, ma planche, tâche d'engraissier comme ça d'la volaille. Tâche pour voir.

Et relevant sa manche sur son bras énorme :

— En v'là un ailleron, la mé, en v'là un [2].

Tarjimada :

Ammo bu ayolning fe'li tor, doim hamma narsadan norozi. U butun dunyoga qarshidek go'yo, ayniqsa eridan noligani noligan. Erining xushkayfiyati-yu mashhurligi, semizligi-yu sog'lonligi ham unga yoqmasdi. U erini hech ish qilmasdan pul topadigan bekorchi matoh deb atar, ko'p ichib, ko'p ovqat yeganini ayib eriga baland ovozda ta'kidlardi:

- Bunday yo'g'on teri bilan cho'chqa bo'lgan yaxshiroqku! Axir semizlikning turgan bitgani yurakka zarar.

Yana istehzo qilib :

- Shoshmaytur hali ko'ramiz! Don solingan teshik qopdek to'kilib ketadi, bu semiz, - derdi.

Tuan ota esa qornini silkitib xandon otib kulgancha javob qaytarardi:

- Eh, ona tovuq, tarashaginam, qani bir parrandalaringni shunday semirtilib ko'ralchi, qo'lingdan kelarmikan!

Yo'g'on qolllari bo'ylab yengini ko'tarib:

- Mana bir qanoti, mana, ko'ryapsanmi [3].

Yuqoridagi misol o'zida kinoya, istehzo va metaforaga boyligi bilan ajralib turadi. Tarjimada ham asliyatda berilgan so'zlarning o'zbek tilida mos keluvchi ma'nolari berib o'tilgan va moslashuvchan-transformatsiya tarjima uslubidan foydalilanilgan. Chunki asliyatda personajlar o'rtasidagi dialogda haqorat qiluvchi so'zlardan foydalilanilga. Biroq suhabatning davomidagi so'zlar vaziyatni quvnoq holatga olib keluvchi erkalash va kinoya bilan o'zgartirilgan.

Latifa haqida ba'zi olimlarning bergan fikrlarini o'rganamiz. B.Suvonqulovning tadqiqot ishida keltirilgan N.Osmanovning fikriga e'tibor beramiz: "Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariida "anekdot" so'zi, albatta, qo'llanilmagan va bu yerda aytilayotgan hikoyalar esa xar xil, ko'pincha arabcha

nomlarga ega bo'lishgan. Eng ko'p rasm bo'lgani latifa (ko'p. latoyif) – hazil, askiya; zarifa (ko'p. zaroyif) – nozik fikrli hikoya; nodira (ko'p. navodir va ajiba (ko'p. ajoyib) – noyob, mashhur, g'alati narsa. Satira va paskvil hajv termini bilan atalgan, biroq u ko'pincha nazmiy asarlarga nisbatan qo'llanilgan. Bu terminlar qaysi ma'noda turli turkumdag'i anekdotlarning har xil xususiyatlarini aks ettirishadi, lekin ularning qo'llanilganligi va qo'llanilayotganligi mutazam mantiqli emas. Qiziqarlisi shuki, sanalgan terminlarning ikkitasi – nodira va ajiba – ma'no jihatidan anekdot termini bilan o'xshash" [4] Ushbu nuqtai nazardan anekdot terminini latifa terminining fransuzcha ekvivalenti qilib olish mumkin. Chunki anekdotda ham, latifada ham qiziqarli voqe-a-hodisalarini hikoya qilib aytib berish ko'zda tutiladi.

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida lingvokulturologiya, lingvopraktika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika kabi sohalarida ilmiy tadqiqotlar antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida olib borilmoqda. Bunda tilning inson omilini hisobga olgan holda o'rganish bosh mezon hisoblanadi. Tadqiqotimiz o'zbek xalq latifalarini ingлиз tiliga tarjima qilish, hajviy matnlarda kulgini yuzaga keltirishda inson omili birinchi o'rning chiqishi va latifalarini tarjima qilishda o'zbek xalqining madaniyatini tashkil etuvchi urf-odatlar, rasmmusmlar, xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, qadriyatlar, tarixi va geografik joylashuvini ifoda etuvchi til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini tarjima tilida berish masalalariga bag'ishlanganligi bois, ularni lingvokulturologik aspektida taddiq qilish maqsad qilingan.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asming ikkinchi choragiida lingvokulturologiya termini paydo bo'ldi. Lingvokulturologiya fanining paydo bo'lishida nemis olimi V.fon Gumboldning hizmatlari beqiyosdir. Ushbu fanning yuzaga kelishi rus olimi V.N.Teliya nomi bilan ham bog'liq [5]. Bundan tashqari, bu sohaning rivojlanishiga A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U. Uitni, D. Pauell, F.Baos, E.Sepir, B. Uorf, G. Brutyan, A.Vejbitskaya, D. Xaymz kabi olimlar ham o'z hissalarini qo'shishgan [6].

O'zbek tilshunosligida ham antropotsentrik paradigma asosiy e'tiborda bo'lgan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan, turli monografiya va maqolalar nashr etilgan. Bu tadqiqotlar aynan lingvokulturologik tadqiqotlar bo'lmasa ham, bunga yaqin sohalar, jumladan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopraktika, psixolingvistika kabilarda olib borilgan. Antropotsentrik paradigma bosh mezon hisoblangan tadqiqotchilar sifatida S.Mo'minov, Sh. Safarov, M. Hakimova, N. Mahmudov, E. Begmatov, A. Nurmonov, D. Xudoyberganova [7] va boshqalarini ayib o'tish mumkin. Ushbu olimlar orasida D. Xudoyberganovaning tadqiqot ishida matnning antropotsentrik talqini, o'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantic, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq qilingan. Olima o'z monografiyasida o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari bobida pretsedent birliliklar va lingvomadaniy birliliklarning matn yaratilishidagi o'rni kabi masalalarga to'xtalib, unda o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratishdagi o'rni, jonlantrish asosidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari keng ochib berilgan. Ushbu tadqiqot ishining tadqiqotimziga aloqador jihat shundaki, D. Xudoyberganova matnni antropotsentrik jihatdan tadqiq etgan bo'lsa, bizning ishimiz hajviy matnlarni tarjima qilish va ularda kulgini yuzaga keltiruvchi milliy-madaniy leksik birliliklarni fransuz tilida milliy koloritni ifodalagan holda aks ettirish masalalariga bag'ishlanadi.

Shu o'rinda lingvokulturologiya fanining mohiyati, uning tadqiqot obyekti va predmeti haqida fikr yuritish joizdir. A. Abdurazizov lingvokulturologiyaga quyidagicha izoh beradi: lingvokulturologiya – til va madaniyat, o'zaro madaniy masalalarini ilmiy tadqiq etadi. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o'rganadi. Dunyoning til xaritasi, umuman, ularning insonlar ongidagi mantiqiyl ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani kengroq va chuqur ilmiy o'rganish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog'liqdir [8].

Shu o'rinda olim V. Maslovaning lingvokulturologiya borasidagi fikriga ham iqtibos keltirib o'tadi, ya'ni "Til madaniyat

bilan uzvyi bog'langan, u madaniyatga yetib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi" [9]. Olimlarning fikriga qo'shimcha qilgan holda aytish mumkinki, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki har bir millat tilida o'sha xalqning madaniyati aks etadi.

M.H.Abrams anekdotni qisqa hikoyalar sirasiga kiritib, unga quyidagicha izoh bergan: "Anekdot – xalq og'zaki ijodining boshqa bir turi bo'lib, hazillar to'planmasi hisoblanadi. Kulgili (ba'zida uyatlari) anekdot barcha hazillarning eng keng tarqalgani va o'zgarmaydigan turi, ya'ni yangi hazillar yoki eski hazillarning yangicha ko'rinishlari, hamda qayerda bo'lsa ham zamonning ijtimoiy jihatdan o'zgarishining barqaror bo'lishi ta'minlaydi, odamlarga yaxshi kayfiyat baxsh etadi" [10].

Demak, yuqorida keltirilgan manbalardan kelib chiqib, latifaga quyidagicha ishchi ta'rif berildi: Latifa – inson hayotida sodir bo'ladigan qiziqarli voqealarga asoslangan kichik hikoya bo'lib, u xar bir xalq tilining o'ziga xos tasviriy ifodalari hamda milliy madaniyatini aks ettiruvchi leksik birlıklar yordamida yaratiladi va insonlarga kulgi hadya etish uchun qo'llanadi. Odatta latifalar xalq og'zaki ijodiyoti namunalari hisoblanib, insonlar ulardan kelgusi avlodni ezmulkir ruhida tarbiyalash maqsadida foydalanadi. Latifalarning muallifi ma'lum bir shaxs hisoblanmaydi.

Latifalarni tarjima qilish uchun tarjima tushunchasining mohiyatiga ham to'xtalib o'tishimiz kerak. Azal-azaldan dunyo xalqlarining bir-birlari bilan muloqot qilishida ma'lum darajada muammolar kelib chiqqan. Bunga ko'p millat va etlatlarning bir-biri uchun tushunarsiz tillarda muloqot qilishi sabab bo'lgan. Mana shunday muloqtdagi qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi omil – tarjima va uni amalga oshiruvchi vosita – tarjimon hisoblanadi. Shuning uchun tarjimani ikki til, tarjimonni ikki millat o'tasidagi vositachi deb tushunishimiz mumkin. Tarjima haqida ko'plab o'zbek va chet el olimlari ham o'z fikrlarini bildirib o'tishgan.

Sh. Safarovning ta'kidlashicha, har bir shaxsning lisoniy kobiliali bilan muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birlıklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir [11]. Sh.Safarovning fikriga qo'shilgan holda, biz ham inson nutqida qo'llanadigan leksik birlıklar uning nutq madaniyatini anglatса, ana shu nutq

madaniyatiga inson yashab turgan muhitning madaniyati bevosita ta'sir ko'rsatadi, degan fikrni bildirmoqchimiz.

Hajviy matnlarni tarjima qilishning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilishda biz ushbu sohaning maqsadi, obyekti va predmetini aniqlashtirib olishimiz kerak. Shu o'rinda Z. Sabitovaning bu boradagi fikrlariga e'tibor qaratmoqchimiz. Olimaning fikricha, madaniyat, xalq tafakkuri, olamni idrok etishdagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Ushbu sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birlıklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birlıklari tadqiq etiladi. Bunda til birlıklari lingvomadaniy birlıklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birlıklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birlıklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birlıklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari mavjud bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongini tasviflash hamda til egalarining milliy - madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birlıklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofig keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Latifalarda ham lingvokulturologiyaning predmeti hisoblangan madaniy axborot tashuvchi til birlıklari kulgi keltirib chiqarishda o'ziga xos ahamiyatga ega. O'zbek xalq latifalarini tarjima qilishda mana shunday til birlıklarini tarjima qilish va ular orqali yuzaga kelgan kulgi effektini tarjima tiliga ham olib o'tish tarjimanining o'ziga xos muammolarini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkun, o'zbek xalq latifalarining fransuz tiliga tarjima qilingan namunalarini tahlil qilishda tarjimonlar o'zbek xalqining madaniyatini anglatuvchi milliy-madaniy leksik birlıklarni ba'zida tarjimadan tushirib qoldirishgan, ba'zida fransuz tilida muqobili bo'lmagan leksik birlıklar bilan almashtirishgan. Latifalar har bir xalqning og'zaki ijodi namunalari bo'lganligi bois, o'sha xalqning ruhiyatni, mentaliteti, madaniyatni, dunyoqarashi, e'tiqodi nuqtai nazaridan yaratiladi. Ularni lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalarini o'zaro integrallashuvi natijasida tarjima qilish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4-жилд . – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.355.
2. Guy De Maupassant. Toine.. – F.: Marpon Flammorion.1885. – Р. 26.
3. Ergashev M., Gaté J. Tuan ota. –Т.: Tafakkur bo'stoni. 2010. – В. 10.
4. Сувонкулов Б. Ўзбек халқ latifalarining жанр хусусиятлари. Филол.фан.ном....дисс.автореф. –Т., 2008. – Б.13.
5. Телия В. Русская фразеология: семантический, pragматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Язык русской культуры”, 1996. – С. 288.
6. Маслова В. Лингвокультурология. 2-издание. –М.: Академия, 2004. – С. 6.
7. Мўмінов С. Ўзбек мuloqot xulқinинг ijtimoiy – лисоний хусусиятлари: Филол.фан.ном....дисс.автореф. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2000. – Б. 47. , Ҳакимова М.Х. Ўзбек тилида матнининг прграматик талқини: Филол.фан.ном....дисс.автореф. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2001. – Б. 283., Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.92., Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафakkur маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2011. № 3. – Б. 19-24, Бегматов Э. Антпронимлар – антропоцентрик тадқик обьекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2013. - № 3. – Б. 35-39, Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари хақида мuloҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2013. - № 5. –Б.10-29, Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан.ном....дисс.автореф. –Т.: 2015. – Б. 36.
8. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.144.
9. Маслова В. Лингвокультурология. 2-издание. –М.: Академия, 2004. – С. 9
10. Abrams M.N. A Glossary of Literary terms. The seventh edition. Cornell University. Printed in the USA. 1999. – P.101
11. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.65.
12. Сабитова З. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.



Akbar RUZIYEV,
ToshDO'TAU, PhD
E-mail: ruziyevakbar@navoiy-uni.uz

RTU professori, f.f.d L.Raupova taqrizi asosida

PRIVATE DISCOURSE AND ITS CHARACTERISTICS IN PRAGMALINGUISTICS

Annotation

In the article, special importance is given to the concept of discourse, its emergence and popularization in science. As long as language is the primary means of knowing the world, discourse remains alive and important in the same sense. Therefore, it is necessary to pay special attention to the issue of discourse and understand its essence.

Key words: Discourse, discursive analysis, linguistic, sociological, pragmalinguistics, gender, pragmatics.

ЧАСТНЫЙ ДИСКУРС И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ В ПРАГМАЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье особое значение уделяется понятию дискурса, его возникновению и популяризации в науке. Пока язык является основным средством познания мира, дискурс остается живым и важным в том же смысле. Поэтому необходимо уделить особое внимание вопросу дискурса и понять его суть.

Ключевые слова: Дискурс, дискурсивный анализ, лингвистический, социологический, прагмалингвистика, гендер, прагматика.

PRAGMALINGVISTIKADA XUSUSIY DISKURS VA UNING XUSUSIYATLARI

Annotasiya

Maqolada diskurs tushunchasi, uning paydo bo'lishi va fanda ommalashuvni masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Til dunyoni bilishning birlamchi vositasi sanalar ekan, diskurs ham ayni shu ma'noda yashovchan va e'tibortalab bo'lib qolaveradi. Shunday ekan diskurs masalasiga alohida e'tibor qaratish va uning mohiyatini anglab yetish lozim.

Kalit so'zlar: Diskurs, diskursiv tahlil, lingvistik, sotsiolistik, pragmalingvistika, gender, pragmatika.

Diskurs tushunchasi bugungi kunga kelib tilshunoslikda keng iste'molda bo'lgan konsepsiylar qatoriga kirib ulgurdi. Dunyo olimlari bu borada tadqiqotlar olib borib, unga o'z munosabatlarini bildirib kelmoqda. Ularning tadqiqotlarida diskurs tushunchasi va uning qamrovini sharhlashga, mohiyati va funksiyasini o'chib berishga, shu aspektida subyekt hamda obyektlarini aniqlab, izohlashga harakatlar qilinganligini kuzatish mumkin. Tabiiyi, ana shu jarayonda diskurs tabiatি masalasiga, diskurs dialog, diskurs-tahlil jarayoniga va uning bugungi kunda ilg'angan, ammo hali oxiriga yetib ulgurilmagan jihatlariga munosabat bildirildi.

Bir qator manbalarda ta'kidlanishicha, zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri ham aynan diskurs masalasiga borib taqaladi. Zero, tadqiqotchi M.Xolmurodova ta'biriha, "pragmatikaga oid tadqiqotlarda asosiy tahlil birligi to'liq shakllangan matn yoki boshqa turdag'i nutqi, diskursiv tuzilmalar bo'ladi... lisoniy birlıklarning pragmatik imkoniyatlari faqat ularning matn, diskurs sharoitida faollashuvinda namoyon bo'ladi" [1].

Keyingi paytlarda kognitiv tilshunoslik yo'nalishiga qiziqish ortmoqda. Shunday ekan kognitizm, uning predmeti, obyekti masalalariga munosabat bildirish zarur. Tilshunos N.Mahmudov "Til tilsimi talqini" monografiyasida antroposentrik paradigmani izohlar ekan, tilning tafakkurga, tafakkurning tilga faol ta'sir qilishi ochiq haqiqatligini qayd etadi. "Milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy madaniyat", "milliy ma'naviyat", "milliy mentalitet", "milliy xarakter" kabi bugun keng iste'molda bo'lgan juda ko'p atamalarda ana shu bog'liqlik mavjudligini ta'kidlab o'tadi. Shular bilan bir qatorda, tilshunos S.G.Ter-Minasova qarashlarini yoqlagan holda, tilda nafaqat inson atrofidagi real olam, nafaqat uning turmush tarzi va sharoiti, balki xalqning ijtimoiy o'z-o'zini anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analar, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar tizimi, dunyoni sezishi va ko'rishi ham aks etishini, til madaniyat quroli sifatida inson shaxsining kamol toptirishini qayd etib o'tadi. Markazida inson turgan antroposentrik paradigma mazkur

muammolar tizimini tadqiq etishga qaratilgan, deb hukm chiqaradi. Olim fikrini davom ettirar ekan "antroposentrik paradigma" terminini ayrim tilshunoslar "kognitiv paradigma" deb nomlash tarafdoi ekanligini yoqlamaydi. M.A.Maslovaning "bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki kognitiv lingvistica "til ichidagi inson va insondagi til" muammosining aspektlaridan biri, xolos" [2], degan fikrlarini tasdiqlab, "antroposentrik paradigma" termini maqsadga ko'proq muvofig keladi, chunki u kognitiv lingvistikani emas, balki lingvokulturologiyani ham, kommunikativ lingvistikani ham, etnolingvistikani ham o'z ichiga oladi, deya qayd etadi [3].

Sohada XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar monografik planda namoyon bo'la boshladи. Mazkur tadqiqotlarda aynan antroposentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo'lsa-da, o'zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki g'oyalari o'rta ga tashlandi. Tilshunos S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi izlanishlarida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan tahalilga tortilgan [4].

Xuddi shu masala bo'yicha manbalarda turlicha talqinlar beriladi. Ulardan ayimlariga to'xtalib o'tsak: "Antroposentrik paradigma inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi [5]. Shu mavzudagi dastlabki ilmiy tahlillar tilshunos olima I.Azimova tomonidan olib borilgan. Uning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyanining psixolingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida asosiy e'tibor "matnni tushunishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralngvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida aniqlash, matnning mazmuniy persepsiyanidagi birlıklarni aniqlash va ularning formal-semantic xususiyatlarini tahlil qilish"ga [6] qaratilgan. Tilshunos Sh.Bobojonova tomonidan o'rinni ta'kidlanganidek, I.Azimova tomonidan yo'naltirilgan assotsiativ tajriba usuli yordamida gazeta matnlari persepsiysi bo'yicha quyidagi darajalarni belgilaydi: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja va matn

darajasi [7]. Tadqiqotchi bunda “stimul matndagi lisoniy omillar, matndagi so‘zlarining aynan eslab qolinishi, eslab qolilgan so‘zlarining kontekstual ma’nolarining konkretlashishi, stimul matnga xos mazmuniy strukturaning shakllanishi va yaxlit matn proyeksiyasining hosil bo‘lishi”ni matn idrokidagi asosiy jarayonlar sifatida belgilaydi [8]. I.A.Azimovaning fikricha, so‘z, so‘z shakli, so‘z birikmasi va sintagma matn mazmuniyit persepsiyasidagi birliklar hisoblanadi [9].

Tilshunos olim A.Rahimov fikriga ko‘ra, “Tilshunoslik fani tarixidagi uchinchi makroparadigma antroposentrik paradigma (kommunikativ yoki nominativ-pragmatik paradigma) deb hisoblanadi. A.Rahimov til va ijtimoiy hayotning turli sohalari o‘rtasidagi aloqani yoritishda inson “oltin ko‘pri” vazifasini o‘taydi” deb hisoblaydi. Tadqiqotchining fikricha, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik paradigmalar antroposentrik paradigma tarkibiga kiruvchi miniparadigmalar hisoblanadi. Ushbu paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikasiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o‘rganuvchi, boshqa sistemalar – jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilalar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo‘naltirilgan qarashlar, g‘oyalari va ta’limotlar majmuidir [10].

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazaridan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Tilshunos N.Mahmudovning tilshunoslikda antroposentrik paradigmanning shakllanishi haqidagi quydagi fikrlarni bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar [11].

Olimning keltirilgan fikrlaridan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, tilga antroposentrik yondashuv tilshunoslik sohasining eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan holda, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab borayotganini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi; kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmanning yetakchi yo‘nalishlari sifatida haqli ravishda e’tirof etiladi.

V.A. Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini, insonning o‘ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi” [12]. Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o‘tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini butunlay chetga surib qo‘ydi. Bunda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi [13]. Ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi.

Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. “Kognitiv” termini inglizcha “cognize - bilmox, anglamox, tushunmox” demakdir. Kognitiv tilshunoslik “cheгарадосхан” bo‘lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolongvistika, lingvistika kabi sohalar kesimida yuzaga kelgan. “Kognitiv grammatika” termini 1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida birinchil marta ishlatalib, 80-yillarda Yevropaning an‘anaviy tilshunosligida “kognitiv tilshunoslik” termini tarzida qoror topdi. Rus tilshunosligiga esa V.I.Gerasimovning “Novoye v zarubejnoy lingvistike” (1988) maqolasi bilan kirib keldi.

Nutqni har xil aspektlarda tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar turli fan tarmoqlarining yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Nutqning muloqotga uzatishdan boshlab to qayta ishslash va qabul qilish jarayonlari muayyan lingvistikaga oid fan yo‘nalishlarida alohida tadqiq qilinadi. Nutqning kommunikantlar tomonidan qabul qilinishi va o‘zlashtirilishi har bir muloqot ishtiroychilarida individual xarakter kasb etadi. Ana shu individualliklarni tadqiq etuvchi lingvistik fan sohasi

pragmalingvistika sanalsa, uning asosiy masalalaridan biri sifatida diskursni ko‘rsatish mumkin.

Fransuz tilidagi discours so‘zi (lotincha discrus — harakat, suhbat, muloqot) “diskurs” deb tarjima qilinadi (kamroq — nutq, nutq turi, matn, matn turi). Diskurs mohiyatini ta’rif uchun murakkab tushunchalardan biri hisoblanadi. Ammo, shunga qaramay, bu ko‘pincha qo‘llaniladigan va funkshonal jihatdan qulay atama. Dastlab fransuz tilshunosligida “diskurs” so‘zi umumiy nutq yoki matnini bildirgan.

E.Benevinitse diskurs mohiyatini izohlashda nutq rejasi (nutqqa tayyorgarlik bosqichi) va tinglovchi tomonidan o‘zlashtirish jarayonida o‘rtadagi masofani diskurs deb izohlaydi [14].

Diskursni matn lingvistikasining predmeti sifatida, nutq tahlilini esa uning usullaridan biri sifatida o‘rganib, T.M.Nikolaeva nutqni “bir qator mualliflar tomonidan deyarli bir xil ma’nolarda qo‘llaniladigan matn lingvistikasining noaniq atamasini” deb hisoblaydi va asosiyalarini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) dialog;
- 2) matnning og‘zaki-so‘zlashuv shakli;
- 3) ma‘no jihatdan o‘zaro bog‘langan gaplar guruhi;
- 4) bog‘langan matn;
- 5) berilgan, og‘zaki yoki yozma nutq ishi [15].

Kelajakda matn lingvistikasining atamasini sifatida “diskurs” ta’rifi matn doirasi bilan cheklanib qolmaydi va “bu matn yangilanadigan shartlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi” [16]. Bunday holda, Kryuchekhnikov tomonidan taklif qilingan nutq ta’rifini eslash o‘rinli bo‘ladi. Zamonaqiy tilshunoslikda ushbu hodisani tavsiflashda birinchi o‘rinni egallagan T.A. van Deyk “nutq oqimi sifatida, til o‘zining doimiy harakatida, tarixiy davrning xilma-xilligini, ham kommunikantning, ham kommunikativ vaziyatning individual va ijtimoiy xususiyatlarini o‘zlashtiradi, muloqot sodir bo‘ladi” [17].

Diskurs mentalitet va madaniyatni aks ettiradi, ham milliy, ham umumi, ham individual va xususiy mohiyat kasb etadi. Van Deyk umumi, xususiy, individual diskurslarni tasniflar ekan, ularni ichki tuzilishiga muvofiq ham guruhlarga ajratib chiqadi. Shunga ko‘ra, nutqning turli talqinlarini ko‘rib chiqib, van Deyk ushbu atama fanda bir necha ma’nolarda qo‘llanilishini ta’kidlaydi:

keng ma’noda diskurs (murakkab kommunikativ hodisa sifatida) nutq, yozma, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan komponentlarga ega bo‘lishi mumkin;

tor ma’nodagi diskurs (matn yoki suhbat sifatida) kommunikativ harakatning yozma yoki og‘zaki mahsulotidir;

muayyan suhbat sifatida diskurs har doim muayyan muhitda va muayyan kontekstdagi ba’zi aniq obyektlar bilan bog‘lanadi;

diskurs muayyan kommunikativ harakatlar bilan emas, balki og‘zaki ishlab chiqarish turlari bilan bog‘liq bo‘lgan suhbat turi sifatida;

diskurs janr sifatida (masalan: yangiliklar nutqi, siyosiy nutq, ilmiy nutq);

muayyan tarixiy davr, ijtimoiy hamjamiyat yoki butun madaniyatning umumlashtirilgan ifodasi sifatida [18].

H.Ne’matov, B.Mengliev, A.Botirova hammuallifligidagi “Tilshunoslikning falsafiy masalalari” kitobida konsept mohiyati shunday izohlanadi:

“Bilimlar sistema xarakteriga ega bo‘lmas ekan, u tasavvurligicha qoladi. Barqaror (sistema)lashgan bilimlar konsept tabiatiga ega bo‘ladi. Tushuncha darajasiga ko‘tarilish uchun tasavvur munosabatlar tizimiga kirishib, konsept darajasiga, ya’ni sistemalashgan bilim darajasiga, so‘ngra bu konsept juz‘iyiliklardan, manzaraliliklardan xoli bo‘lishi, yuksak umumiylilikka ko‘tarilishi lozim. Tasavvurning yuksak darajasidan konsept hosil bo‘ladi” [19].

Shunga ko‘ra, turlarning keyingi mazmunan bo‘linishi allaqachon aniqlangan umumiyo sohalari doirasida, asosan, “diskurs” nomini atributiv kengaytirish orqali amalga oshirilmoqda: nutq matni “pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar” bo‘yicha turlarga bo‘linadi, nutq “inson mavjudligining turli usullari”ga muvofiq turlarga ajratiladi, “odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sir jarayoni” bilan birga keladigan ijtimoiy omillar tufayli va

boshqalar. Bugungi kunda rus lingvistik adabiyotida nutqning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularning ro‘yxati, albatta, ochiqligicha qolmoqda:

- shaxsga yo‘naltirilgan diskurs (kundalik va ekzistensial) va maqomga yo‘naltirilgan diskurs - institutsional (siyosiy, ma‘muriy, huquqiy, harbiy, pedagogik, diniy, sport, ilmiy va boshqalar);
- milliy diskurs (rus, nemis, ingliz va boshqalar);
- diskurs-esseistik, yangiliklar va boshqalar;
- munozarali, polemik va boshqalar;

– ommaviy axborot vositalari diskursi, internet diskursi va boshqalar;

– argumentativ, informatsion, ifodali, reklama, kinoyali nutq va boshqalar;

- fantastik diskurs, detektiv, ksenofobiya va boshqalar.

Agar bu yerga diskursning qo‘sishimcha, yangidan-yangi semantik mundarijasini (ijtimoiy-marosim, madaniy-tarixiy, tibbiy-pedagogik va boshqalar) ham qo’shsak, u holda nutq turlarining soni, aytish mumkinki, cheksizlikka intiladi.

ADABIYOTLAR

1. Холмуродова М. И. Эркин Аъзам киноқиссалари тиалининг соционпрагматик аспекти. -: Filol. fanl. d-ri. diss. –Andijon, 2021. –В. 19.
2. Махмудов Н. Тил тилсими тадқики. – Т.: Мумтоз сўз, 2017. -Б. 58-59
3. Маслова В.А.Лингвокультурология. –Москва, Akademija, 2001. - С. 5.
4. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2000. –Б. 47.
5. Xudoyberanova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. –Б. 5.
6. Azimova I.A. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi diss avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2008. – В. 24.
7. Бобоҷонова Ш.. Ўзбек ва инглиз тилларидаги таълимий дискурснинг когнитив-прагматик тадқики. : Filol. fanl. d-ri. diss. – Andijon, 2022. -Б. 15.
- A. Rahimov. N. Turniyazov. O‘zbek tili. Toshkent. 2006. – В. 5.
8. Mahmudov N. Tilining mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012. -№ 5. – В. 6-7.
9. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. –С. 6.
10. Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // <http://www.Nbuu.Cov.ua/portal/Sog-Gum/ls 2008-17/dorofeev/pdf>.
11. Миронова Н.Н. Дискурс-анализ оценочной семантики. Учебное пособие. – М.: НВИ, ТЕЗАУРУС, 1997. –С. 158.
12. Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. Oxford Blackwell, 1983. -P. 272.
13. Крючечников Н.В. Роль надписей в драматургии фильма / Николай Васильевич Крючечников. – М.: ВГИК, 1964. –С. 19.
14. Ермоленкина Л.И. Дискурсивная личность в коммуникативном пространстве современного радио // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2017. Вып. 2 (179). – С. 37-40.
15. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация [Текст] / Т.А. ван Дейк. – М.: Прогресс, 1989. –С. 312.
16. Несъматов Х, Менглиев Б., Ботирова А. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. Германия: Globe Edit. 2020. – Б. 55-59.
17. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. - С. 136–137.
18. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – С. 390.



Komila SAYDJANOVA,
Alfraganus Universiteti o'qituvchisi

Toshkent menejment va iqtisodiyoti instituti dotsenti, PhD, Sh.Gulyamova taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA SINONIMLARNI ANIQLASH VA TASNIFFLASHNING ASOSIY MEZONI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinonimiyaga oid asosiy qarashlar va tadqiqot usullari ko'rib chiqilgan. Sinonimlar til tizimining asosiy unsurlaridan biri sifatida tahlil qilinib, sinonim aloqalarni aniqlash uchun asosiy mezonlar taqdirm etilgan: leksik ma'nuning umumiyligi, nominatsiyaning umumiyligi, bir-birini almashtira olishlik va tushunchaviy umumiyligi. Shuningdek, maqolada sinonimlarning bir qator muhim jihatlari, jumladan, ma'nolar o'xshashligi va farqlanishi, semantik moslik va leksik qo'llanishning nozik tafovutlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Sinonimiya, leksik ma'no, nominatsiya, ma'no o'xshashligi, semantik moslik, sinonimik qator, bir-birini almashtira olishlik.

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ВЫЯВЛЕНИЯ И КЛАССИФИКАЦИИ СИНОНИМОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены основные взгляды и методы исследования синонимии. Проанализированы синонимы как один из основных элементов языковой системы и представлены основные критерии определения синонимических отношений: общность лексического значения, общность наименования, взаимозаменяемость и концептуальная общность. В статье также обсуждается ряд важных аспектов синонимов, включая сходство и различие значений, semanticскую совместимость и тонкие различия в лексическом использовании.

Ключевые слова: Синонимия, лексическое значение, наименование, сходство значения, смысловая совместимость, синонимический ряд, взаимозаменяемость.

BASIC CRITERIA OF EXPRESSION AND CLASSIFICATION OF SYNONYMS IN LINGUISTICS

Annotation

The article defines the main views and methods of studying synonyms. Synonyms are analyzed as one of the main elements of the linguistic system and the main criteria for defining synonymous relationships are presented: the generality of lexical meaning, the generality of the noun, the influence of language on conceptual generality. In this paper, a number of important aspects of synonyms are discussed, including their coherence and differences in meaning, semantic compatibility, and subtle differences in lexical use.

Key words: Synonymy, lexical meaning, naming, similarity, meaning, synonymy, meaning.

Kirish. Ma'lumki, so'zlarning sinonimik aloqalari leksikaning tizimli xarakterini eng yorqin aks ettrib, uning izchil va har tomonlama tavfsi hozirgi tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan birini tashkil qildi. Sinonimiya muammosining dolzarbli eng avvalo bu kategoriyaning yetarli darajada o'rganilmaganligi, umumiy sinonimik kontseptsianing yo'qligi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Lingvistlar bir yoqadan bosh chiqarib bir-biriga qo'shilishadigan narsa – bu sinonimlarning til tizimidagi muhim rolini tan olishdir [1]. Vaholanki, muammoning eng ahamiyatlari jihatlaridan sinonimi, sinonimiklikni, tasnifning printsiplarini, sinonimik qatorning tuzilishini, ma'nuning nozik farqi¹ tushunchasini aniqlash kabi masalalar va boshqalar o'zining yechimini kutib turibdi.

Ko'rsatilgan problematikaning to'la tanqidiy tahlilini berishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ymay, sinonimlarni ajratib ko'rsatishning asosiy prinsiplarini qisqacha ta'riflab berishga va shu tarzda harorat idroki sifatlarining leksik semantik guruhlardagi sinonimik aloqalarini tadqiq qilishning dastlabki pozitsiyalarini aniqlashga harakat qilamiz.

Shu munosabat bilan sinonimiyaning tabiatiga bo'lgan mavjud qarashlarning xilma-xilligi quyidagi mezonlarga olib kelish mumkin.

1. So'z leksik ma'nosining umumiyligi mezoni.
2. Nominatsiyaning umumiyligi mezoni.
3. Bir-birini almashtira olish mezoni.
4. Tushunchaviy umumiylilik mezoni.

So'z leksik ma'nosining umumiyligi asosida sinonimiyanı aniqlashga intilish mantiqiy va lingvistik kategoriyalarni chegaralash tendensiyasi bilan bog'liq.

Asosiy mezonnini tanlashdagi birdamlikkha qaramay, uning tarafdarlari o'rtasida leksemalarni sinonimik qatorlarga konkret

birlashtirishda har xil yondashuv kuzatiladi. Sinonimik munosabatlarni sharflashning ikkita usuli aniq yaqqol ko'rindadi:

1.Ma'nolarning yaqinligi yoki aynan o'xshashligi asosida.

2.Ma'nolarning bir xilligi asosida.

Ularning birinchisi qadimgi yunon va rim falsafiy ta'limotlariga borib taqaladigan sinonimlarni an'anaviy tushunishni aks ettiradi [2]. Bu mezoning shartliligi shunchalik shubhasizki, hatto uni o'zlarining darsliklarda sinonimlarning ta'riflarida foydalanadigan mualliflar ham "noto'g'rili" va "noaniqligi" haqida pisanda qilishga majburdirlar [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ammo hozirgi fransuz lingvistlari: Benak, Bayi, Bar, De Noter, Grevis va boshqalar sinonimlarning o'z sharhida ma'nolarning yaqinligi yoki aynan o'xshashligidan kelib chiqadilar.

Ma'nolarning umumiyligiga asoslanib, S.Ullman o'z ta'rifini shakllantiradi[4]. Buning ustiga "ma'no" (sens) unda so'zning ham tushunchaviy, ham affektiv ma'nosini qamrab oladi [5].

Sinonimlarning semantik umumiyligini A.Mitteran, uni qo'llanilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan to'ldirib, yanada kengroq tushunadi[6]. Masalaning bunday qo'yilishida, N.N. Lopatnikovaning to'g'ri qayd qilishicha, to'g'risini aytganda tilda sinonimlarning mayjudligi fakti yo'qqa chiqariladi[7].

Sinonimiklikning sof lingvistik kategoriyasini – ma'noni eng maqbul mezon deb hisoblab, nomlari keltirilgan lingvistlar qo'llanilayotgan atamalarining va eng avval, aynan ma'nuning ishlab chiqilmaganligini hisobga olmaydilar. Shu sababli, V.A. Zvegitsev, sinonimlarning ta'rifini leksik ma'no tushunchasining bazasida, bu leksik ma'no aniqlanmagan paytda qurish foydasizdir deganida, shak-shubhasiz haqdir[8].

“Yaqinlik”, “o’xshashlik” atamalarining noaniqligini, mujmalligini odilona payqab qolib, ba’zi bir tadqiqotchilar sinonimik munosabatlarni leksik birliliklarning qat’iy aynan bir xilligi doiralarli bilan cheklaydilar.

Misol uchun, S.G. Berejanning hisoblashicha, “intuitiv tarzda idrok qilingan so’zlarning ma’noviy yaqinligi sinonimiklikning ishonchli mezoni sifatida chiqishi mumkin emas. Maxsus adabiyotda ilgari surilayotgan sinonim so’zlarni aniqlashning boshqa mezonlari: tushunchaning birligi, nominatsiyaning umumiyligi va bir-birini o’zaro almashtira olish ham to’g’ri kelmaydigan hisoblanadilar[9].

So’zlarni leksik-semantik variantlarning (semantik ko’paytiruvchilarning, semalarning) to’plami holida tahlil qilib, S.G. Berejan shu haqida xulosaga keladiki, “Sinonimiya deganda ... ma’nolari eng mayda semantik birliliklarni namoyon qilmaydigan bir qator so’zlarning ma’noviy mos kelishini emas, chunonchi ular ma’nolarining alohida struktur elementlarining to’la mos kelishini tushunish kerak”[10].

Masalaning bunday qo’yilishida sinonimiya hodisasingin mohiyati qashshoqlashadi, u umumiyyining va xususiyining, o’xshashning va farqlining dialektik birligini taqozo qiladi.

Yuqorida zikr qilingan yondashuvning subyektiv xarakteri va kam mahsulorligi bir qator tadqiqotchilarda keskin tanqidni keltirib chiqaradi. Misol uchun, L.A. Cheshkoning fikriga ko’ra, “agar qarab chiqilayotgan nuqtai nazarda turilsa, shubhasiz, unda sinonimik lug’atning tarkibini leksik dubletlar deb ataluvchilarning va ularga yaqin leksik birliliklarning juda oz sonli qatlami bilan, bir necha asosiyo so’zga (dominantaga) – o’zining stilistik qo’llanilishi yoki ishlatalish sohasi bo’yicha keskin cheklangan so’zlar bilan chegaralash mumkin bo’lar edi”[11].

Ikkinchisi mezonning (nominatsiyaning umumiyligi) asosida sinonimlarni referensjon talqin, ya’ni referentning yoki voqelik hodisasingin umumiyligi belgisi bo’yicha ajratish yotadi.

So’zlarning sinonimikligini aniqlashning bu usuli yangiligi bilan ajralib turmaydi. Bunday mulohazalar frantsuz lingvisti F.Bryunoda uchraydi. Uning “Tafakkur va til” ishidagi sinonimiya bo’yicha bo’limi “Bitta narsaning har xil nomlari” degan ikki xil tushunishga yo’l qo’ymaydigan sarlavhaga ega”[12].

Sovet tilshunosligida bu orientatsiya F.K. Gujva , M.F. Palevskaya , A.A. Reformatskiy , N.M. Shanskiy va boshqa ayrim lingvistlar tomonidan taqdirm qilingan.

Ekstraliningistik omil asosida sinonimiyaning tabiatini talqin qilish haddan tashqari kengaytirilgan tuyiladi, chunki u lingvistikani tilning eng xarakterli va ajralmas xususiyatlarning chegaralaridan tashqariga chiqarib tashlaydi. Bunday yondashuvda “tilning barcha vositalari, bu vosital yordamida “tafakkurda aks etgan voqeqliking xuddi o’sha parchasi” ifodalanishi mumkin bo’lsa, sinonimik xarakterni qo’iga kiritadi”[13].

Tahvil va natijalar. Boshqacha so’zlar bilan aytganda, bunday turdag'i ta’rif aslini olganda sinonimiyanı sintagmatik tartibga olib keladi, holbuki u nutqiy emas, balki umumtil xarakteriga ega. Demak, nominatsiyaning umumiyligi mezoni sinonim so’zlarni aniqlashda ishonchli vosita bo’lib xizmat qila olmaydi.

Uchinchi mezonning xarakteristikasiga o’tar ekanmiz, bir-birini almashtira olish sinonimiklikning ko’rsatkichi sifatida ushbu muammoga bag’ishlangan ishlarning deyarli barchasida tilga olinadi. Biroq uning samaradorligi darajasi lingvistlar tomonidan turlicha baholanadi.

Ayrim mualliflar unda sinonimlarni aniqlashning yagona ishonchli usulini ko’radilar. Bu xususida S.Ullman eng uzil-kesil shaklda o’z fikrini bayon qiladi: “Ne seront tenus pour synonymes authentiques que les mots qui peuvent se substituer les uns aux autres dans nimporte quel contexte, sans qu'il y ait le moindre changement dans la signification objective et la nuance affective de l'énoncé”[14].

Bu tezisni postulat sifatida aytib, muallif shunday xulosaga keladiki, bitta so’zni hamma jihatdan teng qimmatli boshqasi bilan almashtirish amalda mumkin emas.

Sinonimlarning bir-birini almashtira olish mezonini sovet tilshunoslari A.A. Bulaxovskiy, B.V. Gornung, O.L. Kamenskaya,

V.K. Favorin va boshqalar ishlata dilar. Buning ustiga, agar B.V. Gornung sinonimikligini aniqlash protsedurasining hal qiluvchi payti faqat kontekst deb hisoblasa, L.A. Bulaxovskiy ,O.L. Kamenskaya va boshqa bir qator tadqiqotchilar taqqoslanayotgan so’zlarning semantik yaqinligini ham isobga oladilar.

Sinonimlarni ajratib ko’rsatishda bir-birini almashtira olishning muhimligini A.N. Gvozdev va N.M.Shanskiy ta’kidlaydilar.

Sinonimiya bo’yicha ayrim ishlarda qisman semantik almashtira olishlikka yo’llanmalar mavjud. Misol uchun, S.G. Berejan, sinonimik munosabatlarga kirishuvchi so’zlarning ma’noviy teng qimmatli emasliklarini (masalan, bir ma’noli so’zning ko’p ma’noli so’zning ma’nolaridan biri bilan sinonimikligini) isobga olib, semantik jihatdan faqat qisman yoki bir tomonlama bir-birini almashtira olish haqidagina so’z yuritish mumkin, degan xulosaga keladi (bunga emotsiyal-baholash va distributiv tartibdagi cheklashlar qo’shiladi).

Tilshunoslarning boshqa qismining fikriga ko’ra, sinonimlarning bir-birini almashtira olishlari “xususiy, ammo ularning ixtiyoriy xususiyatlari hisoblanadi”, ularni ajratib ko’rsatish protsedurasida qo’shimcha usullardan birdir.

Sinonimikligini aniqlashga funksional yondashuvning tarafdarlarini tanqid qilib, A.P. Yevgeneva til bosqichini hamda nutq bosqichini, asl sinonimlarning va nutqda yuzaga keladigan son-sanoqsiz aynanlik va ma’nolarning yaqinligini chegaralashning zaruratini to’g’ri ko’rsatib o’tadi, bunda ma’noning aynan bir xilligi kontekst, nutq vaziyati, so’zlarning leksik-frazeologik aloqalari kabi va b. qo’shimcha shartlar bilan oldindan belgilab qo’yiladi.

Bu nuqtai nazarga N.N. Lopatnikova ham qo’shilishadi. Sinonimlarni aniqlashda bir-birini almashtira olishlik printspisi qo’llanilishining bir qator hollarda foydaliligin tan olib, muallif uni absolyutlashtirishdan ogohlantiradi, chunki so’zlarning haqiqiy ishlashi faqat ularning ma’noviy mazmuniga (sens) emas, balki ma’noning qo’shimcha belgilariga (signalement) bog’liqdir.

Bir qator boshqa sovet tadqiqotchilari ko’rsatilgan mezonni qo’llashning istiqbollariga nisbatan vazmin pozitsiyani band qiladilar.

Shu sababdan frantsuz lingvistlarining qarashlari ham bir-biriga to’g’ri kelmaydigandir. “Mutatis”, “mutandis” bu yerda sinonimiya bo’yicha vatan ishlarida mulohazalar “gammasi” kuzatiladi – sinonimlikning asosiy mezoni sifatida bir-birini almashtira olishni tan olishdan boshlab to uni mutlaqo inkor qilishgacha.

Birinchi yo’nalish tarafdarlariga “Hozirgi fransuz tili lug’ati”ning mualliflaridan biri R. Lagan kiradi. Tahsil qilinayotgan hodisaning kontekstga to’liq tobe’ligini qayd qilib, u sinonimlarni ta’riflaydi: “Deux ou plusieurs noms sont synonymes quand ils peuvent se substituer les uns aux autres dans les mêmes contextes (les mêmes “Environnements”), c.-à-d. entrer dans les mêmes phrases, sans que le sens en soit changé de façon appréciable.

La synonymie donc varie avec le contexte: 2 noms peuvent être synonymes dans une phrase donnée, alors que dans d’autres contextes ils ne sont pas substituables les uns aux autres”[15].

Fikrimizcha, eslatilgan principni sinonimik munosabatlarning tadqiqotidan butunlay chiqarib yuborish maqsadga muvofiq emas, chunki bir-birini almashtirish imkoniyati farqlarni, ammo birinchi navbatda, sinonim so’zlarning o’xshashligini nazarda tutadigan sinonimiya hodisasingin o’z dialektik mohiyati bilan bog’liqdir. Ko’rsatilgan prinsipning sinonimikligi tekshirishning usullaridan biri sifatidagi istiqboli O.Sovajoning qiziqarli eksperimental ma’lumatlari bilan tasdiqlanadi.

Maqsadi ma’lum sinonim so’zlarni farqlash yoki farqlamaslikni aniqlashdan iborat bo’lgan tilshunos bo’lmagan informantlarning so’rovi quyidagi natijani berdi: ishtirokchilarning ko’pchiligi sinonimik juftlikning bitta bo’lagini boshqasi bilan osongina almashtirib, taklif qilingan sinonimlar o’rtasidagi farqni ko’rsata olmadи.

Bir-birini almashtira olishlik leksemalar sinonimikligining ko’rsatkichi sifatida odatda uning neutralizatsiya tushunchasiga bog’liqmasligi bilan xarakterlanadi.

Haqiqatda, semantik, aniqrog'i, sinonimlarni qatorda qarama-qarshi qo'yishdagi tushunchaviy farqlarni neyrallash ularning almashtirish imkoniyatini oldindan belgilab beradi, demak, sinonimik leksemalarni o'zaro almashtirish protsedurasida bosh asos hisoblanadi.

Xulosa. Sinonimiyanı tahlil qilishda turli mezonlar asosida turliça yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, sinonimlarning

til tizimida muhim o'rni borligi shubhasiz. Sinonimik munosabatlar leksik birliklar o'tasidagi ma'no yaqinligiga asoslanadi. Biroq sinonimlarning to'liq bir-birini almashtira olish xususiyati amalda har doim ham to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, sinonimiyanı tadqiq qilishda har xil mezonlarning bir-birini to'ldiruvchi rolini hisobga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Dubois J.e.a. Dictionnaire de linguistique. P., Larousse, 1973, p.477. J.Lyons. Linguistique Générale. P., Larousse, 1970, p.345.
2. Macalán, карапнг: Б.Н. Головин. Введение в языкознание. М.,1973, с.99; А.В. Калинин. Лексика русского языка. М.,1971, с.47; В.Н. Цыганова. Синонимический ряд (на материале глаголов современного русского языка). В сб.: "Очерки по синонимике современного русского литературного языка". Под ред. А.П. Евгеньевой. М.-Л.,1966, с.169.
3. Реформатский А.А.. Введение в языкознание. Москва,1967, с.62.
4. On aura donc des synonymes quand deux ou plusieurs mots différents ont le même sens." S.Ullmann. Précis de sémantique française. P.,1959, p.180.
5. Ibid., p.148.
6. Mitterand H.. Les mots français. P.,1965, p.74-75.
7. Lopatinikova N.N., Movchovitch N.A.. Lexicologie du français moderne. М. ,1971, p.182.
8. Звегинцев В.А.. Кўрсатилган асар, 130-131-бетлар. Шу муносабат билан С.Х. Иоффенинг мулоҳазасини қиёсланг: "Лексик синонимия муаммоси факат маъноларнинг таърифи назарияси яратилгандан кейингина ҳал қилиниши мумкин". Грамматическое значение и лексические синонимы. В сб.: "Лексическая синонимия", М., 1967, с.7.
9. Бережан С.Г.. Теория семантических полей и синонимия. В кн.: "Проблемы языкознания. Доклады и сообщения советских ученых на X Международном конгрессе лингвистов". М.,1967, с.167.
10. Бережан С.Г.. Теория семантических полей и синонимия. В кн.: "Проблемы языкознания. Доклады и сообщения советских ученых на X Международном конгрессе лингвистов". М.,1967, с.168.
11. Чешко Л.А.. Предисловие к "Словарю синонимов русского языка" З.Е. Александровой. М., 1968, с.5. Бу ҳакида Евгеньеванинг А.П. мулоҳазасини карапнг. Проект словаря синонимов. Введение. М., 1964, с.8.
12. Brunot F.. "La pensée et la langue". P.,1922, pp.79-80.
13. Евгеньева А.П.. Основные вопросы лексической синонимии. В сб.: "Очерки по синонимике современного русского литературного языка". Под ред. А.П. Евгеньевой. М.-Л., 1966, с.11.
14. Ullmann S.. Précis de sémantiques française. Berne, 1952, p.180.
15. Livret méthodologique établi sous la direction de R.Lagane. Dictionnaire du français contemporain. P. Larousse, 1971, p.13-14
16. BOBOJONOVA, S. (2024). LINGUOCULTUROLOGY AND CONCEPT. UzMU xabarlari, 1(1.4), 296-300.
17. Kizi, B. S. Y. (2023). DISCOURSE AND ITS INTERPRETATION IN MODERN LINGUISTICS. International Journal of Pedagogics, 3(11), 146-148.
18. Davranovna, S. K. (2022). XORIJY TILDA LEKSIKO SINONIMIK MEZONLAR. Journal of new century innovations, 18(2), 112-118.
19. Сайджанова, К. Д. (2020). Сравнительный лексикологический анализ французских средств в современном медицинском языке. Вестник науки и образования, (14-3 (92)), 25-27.



Zulfiya SAFAROVA,

Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: zulfiya.uz

O'zFinPI dotsenti X. Tojiyeva taqrizi asosida

ONA HAQIDAGI O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING MA'NO XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ona obrazi har qanday asar tarkibida uchraydi. Jumladan, o'zbek xalq maqollari tarkibida ham buni ko'ramiz. Maqlada eng buyuk zot - ona obraziga maqollar timsoldila to'xtalib o'tilgan va ularning ma'no - mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maql, so'z, ona, tarbiya, farzand, hurmat.

ХАРАКТЕРИСТИКА ЗНАЧЕНИЯ УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЙ О МАТЕРИ

Аннотация

Образ матери можно встретить в любом произведении. В частности, мы видим это в узбекских народных пословицах. В статье рассмотрен образ самой великой породы – матери в форме пословиц и раскрыт их смысл – сущность.

Ключевые слова: Пословица, слово, мать, воспитание, ребенок, уважение.

CHARACTERISTICS OF MEANING OF UZBEK PROVERBS ABOUT MOTHER

Annotation

The image of a mother is found in the composition of any work. In particular, we can see this in the composition of Uzbek proverbs. The article touches on the image of the greatest hero – mother in the image of proverbs and explains their meaning and essence.

Key words: Proverb, word, mother, upbringing, child, respect.

Kirish. Maql - xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuy-g'ulari, ijobjiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Har bir tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafak-kurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatrалари xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiyy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir [1].

Maql xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. Maql arabcha qavln - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingen bo'lib, aytib yuriladigan ifoda va iborlarga nisbatan qo'llaniladi. Maql og'zaki ijodimizda qo'llaniladigan eng kichik janrlardan biri hisoblanadi [2]. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. Maqollar hajm jihatdan qisqa bo'lsada, ularda fikr va mazmun keng qamroqli bo'ladi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yuq. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga meros qilib goldiradilar. Xalq maqollari tarixi o'nlab asrlar bilan o'chanadi. O'rxun - Enasoy bitiklarida "Oriq va semiz (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi", "Yupqa qaln bo'lsa tor - mor qiladigan bahodir emish, Ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish" kabi maqollarni eslatuvchi parchalarni o'qiyimiz. Maql janrinining o'rganilish tarixi Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. O'zining ("Devonu lug'ati turk" asarida 400 ga yaqin maql va matallar o'rin olgan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan maqollarning bir qanchasi hozir, ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatalidi. Masalan: Maql Koshg'ariy asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin"; "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi.

Bundan tashqari so'z mulkinining sultonni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Maqollar xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'z bo'lgani uchun undan keng foydalanimi. Xalqning ijtimoiy, tarixiy, madaniy, maishiyy, hayotiy tajribasi umumlashgan holda beriladi. Milliy til tarkibida qoplashgan holda namoyon bo'lgani uchun

maql tarkibidagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirib, o'zgartirib bo'lmaydi va buning iloji ham yo'q.

Adabiyotlar tahlii va metodologiya. Filologiya fanlari doktori B.M.Jo'rayeva O'z ilmiy tadqiqotlarida o'zbek xalq maqollari intralingvistik birliliklari yordamida shakllangan 6 ta guruhga ajratgan. a) iboralar asosida shakllangan maqollar: sanamay sakkiz demaslik - sanamay sakkiz dema. b) Fol'klor janrlari asosida shakllangan maqollar: d) e'tiqodiy tushunchalar asosida shakllangan maqollar, f) xalq umidlari asosida shakllangan maqollar, s) xalq o'yinlari asosida shakllangan maqollar e) hadislar asosida shakllangan maqollar [3]. Yuqorida keltirib o'tilgan yo'nalishlar xalq maqollarining shakllanish jarayonlarimazmun - mohiyatidan kelib chiqib guruhlarga ajratilgan. Xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishining bir bo'lagi tarjima asar hisoblanadi. Bu haqida V.G.Beliniskiy "Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalqning tiliga tarjima qilish, ularning o'zaro yaqinlashishlariga, bir - birlariga g'oya almashishlariga asos bo'ladi, ana shunda yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish ro'y beradi", demak tarjima asarlar madaniy aloqalardan tashqari, turli millat vakillarini orasida do'stlik aloqalarini ham rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Tahlii va natijalar. O'zbek xalq maqollarida ona obrazi orqali xalqning ushbu tabarruk zotga munosabati ifodalanadi. Misollar orqali ular badiiy tahlii qilinsa, quyida keltirilgan maqolda bir onaning butun bin yurtga tengligi, yurt kabi, vatan kabi o'z farzandlarini quchog'ida asrab-avaylab o'stirishi kabi ma'nolar yashiringan: Ona yurting – oltin beshiging. Ushbu ikki so'z, "ona yurt" tushunchasi, orqali mamlakatning mehrli onaga qiyosi ko'riniadi. Xo'sh, nega aynan ona vatanga qiyos qilinadi? Yuqorida savolga esa shunday javob aytish mumkin: Ona – farzandi tug'ilgan kundan umrining so'ngiga qadar unga beminnat mehr beruvchi zotdir. Aynan shu jihatdan vatan kabi bag'rikengligi bilan unga qiyoslanadi.

Bu maql orqali ifoda etilgan ma'no quyidagicha: Ona – eng avvalo, farzandiga ustoz, tarbiyachi. Ilk tug'ilgandayoq farzandining ehtiyojini o'z tanasidagi ko'krak suti bilan qondiradi. Ertalabgacha beshikda yotgan bolasiga allalar aytib uning kamoloti uchun tilaklar tilaydi, joynamozlar ustida eng ko'p farzandi uchun duoga qo'l ochib unga tole so'raydi. O'zbek oilalarida ota ko'proq oilaning molivayi tomonini yaxshilashga

uringani sababdan farzand tarbiyasi ko'proq onaning zimmasiga tushadi.

Yuqorida aytigan maqol mazmuni ham shunga ishora qiladi. Bu uning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni quyidagicha: "Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi", -xalq orasida shunday maqol bor. Ona suti bilan singgangan tarbiya har qanday berilgan tariyadan ko'ra yaxshiroq va a'loroqdir. Ayol – oilada barchaga o'rnat hisoblanadi. U ilk bor bolasiga allalar aytgandayoq uning jon qulog'iga mehr bilan qorishilgan tarbiya uchqunlarini sochadi.

Ota bo'lmay – ota qadrini bilmash,

Ona bo'lmay – ona qadrini.

Aytlishi kerak bo'lgan yana bir masala borki, bu farzandlarning ota-onasi va oilasiga hurmat-e'tibori, ularni qadrlashidir. Ona o'ttiz ikki suyak sindirib bolasini dunyoga keltiradi, tarbiyalaydi, o'z xohish-istiklaridan kechib bo'lsa-da, farzandining istaklarini ijobat qilish uchun yuguradi. Bor umrini farzandiga, oilasiga bag'ishlaydi. Uning bu ta'riflarini davom ettirishga bu qalam kuchi ojizlik qiladi. Ayolga, onaga ta'rif yo'zishni boshlagan bir ijodkorga butun bir umr kamlik qiladi.

"Jannat onalar oyog'i ostidadir", -deyilgan. Shuning uchun uning poyini qancha tavof etsa, shuncha kam. Ularning qadrini bilish uchun, albatta, ona bo'lish shart emas. Shunchaki, ona uchun yaxshi farzand oqil va iymonli o'g'il-qiz bo'lib ulg'aysa, unga mehr va sevgisini izhor qilsa, bas. Bolaning qo'li shilinsa, onaning ko'ngli shilinadi. Ona – hamisha farzandim deb yonib yashovchi farishta. O'z jonidan bir parchani yulib farzandiga baxsh etarkan, uni Allohning buyuk ne'mati deb biladi. Jonimning parchasi – bolamning tanasi dard ko'rmasin deya barcha dardlarga o'zni duchor qiluvchi, o'g'il yoki qizi biroz og'risa ham, atrofida girdikapalak bo'lib, kasaldan ko'ra ko'proq bezovta bo'lguvchidir. Bolasining tanasi og'riganini u his qilsa, uning butun qalbi bolam deya qaqqashaydi. Chunki bir parcha etligidan tarbiyalagan, umriningmazmuniga aylantirgan farzandi o'z jonidan-da aziz. Fikrni quyidagi maqol ifodasida isbotlash mumkin:

Ona allasi dunyoni tebratadi.

Har qanday insонning qalb ochgichi onasi, hali zabon chiqarmaganda ham tushunib allalab chiqqan mehridaryosidir. Bolasi beshikda yig'laganda ko'krak suti bilan ovutuvchi, bolalikda tizzasi qonab uning oldiga borganida kulchalar, shirinliklar bilan uni yupatuvchi ona emasmidi?! Jahl chiqqanda, asabiy yoki xafa holatlarda ham uning tizzasiga bosh qo'yib taskin topmaydimi?! Boshini qadoq qo'llari bilan silaganda barcha g'amlarni umutadi inson. Uning bag'riga bosh qo'ygandagina o'zini yana yosh boladek erkin his qila oladi.

Ona obrazni deyarli barcha asarlar tarkibida, jumladan, folklor asarlarida ham yorqin ifoda etiladi. Maqollarda ona obraziga e'tabor qaratilsa, shu mavzuda yozilgan maqollar ancha ko'p va ularda onalarning xarakter xususiyatlari, jamiyatdagi va oiladagi o'rni, vazifasi kabilar keng yoritilgan [5].

Onalar haqida maqollar tarkibini o'rghanar ekanmiz, ularda ko'proq moddiyilikdan ko'ra ma'nnaviy ehtiyoj muhimroq ekanimi ta'kidlash joiz. «Ona - olam faxridir». «Onaning allasi dunyoni tebratar» maqollarida ham shu ma'no anglashiladi.

Ona bilan bola - gul bilan lola.

Bolali ona donga to'ymas, bolali g'oz donga.

Bolaning qo'li shilinsa, onaning ko'ngli shilinadi.

Ona - daraxt, bola - meva.

Onali yetim - gul yetim, Otali yetim - shum yetim.

Ona - mehribon, ota - g'amg'uzor

kabi maqollarda ona obrazni bola obrazni bilan chambarchas bog'liq holda ifodalangan va bola hayotidagi onaning o'rni tasvirlangan.

«Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada» kabi maqollarda ona har doim bolasini qo'msash, sog'inish tuyg'ulari bilan yashashi aniq, raso ohib bera olgan.

Umuman, ona haqidagi xalq maqollarda hurmat, e'zozlash, sog'inch ma'nolari yetakchilik qiladi. Xullas, ona haqidagi xalq maqollari qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi bilan bog'lanmasin, fikr yuritilmasin, tanlangan muammolar, ijtimoiy

ADABIYOTLAR

1. "O'zbek xalq og'zaki ijodi", O. Safarov. Toshkent, 2010 "Musiqqa" nashriyoti.
2. "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi". T. Mirzayev, O. Safarov, D. O'rayeva. T. 2008.
3. "Folklorshunoslikka kirish". M. Jo'rayev, J.Eshonqulov, T., 2017.

munosabatlar atroficha o'rganiladi. Maqollar uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'pmalolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlар xarakterli [6].

Otasini og'ritgan El ichida xor bo'lar,
Onasini og'ritgan Parcha nonga zor bo'lar.

Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarga ega bo'lishi bilan diqqatga sazovordir.

Onangni quyosh bilsang, otangni oy bil,
Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi.

Ona qilsa zo'rlikni, bola tortar xo'rlikni

Onaga o'xshab qiz tug'ilmas,

Otaga o'xshab - o'g'il.

Onali kelin - qarqara, Onasiz kelin - tasqara

Onasi qimizak yesa, Qizining tishi qamashar

kabi maqollar bilan tanishganimizda ko'chma ma'no yashiringanini his qilamiz.Xalqimiz xalq og'zaki ijodida munosib o'rin olgan ushbu maqolni ko'chma ma'noda tushunmasak, qanday maqsad nazarda tutilgani va asl ma'nosini tushunmay qolishimiz mumkin.

Otasi tentakning birisi - tentak, Onasi tentakning barisi - tentak.

Otasini so'rasang - Ahmadi forig', Onasini so'rasang - tovoni yoriq.

Semiz qo'zining go'shti yaxshi, Oqil onaning - qizi.

Charxni buzgan - parrasi, Qizni buzgan - onasi.

Erka tutsa onasi, Taltayadi bolasi.

To'g'ri tutsa onasi, Yurtga ega bolasi.

Eshigi yomonning uyiga borma,

Onasi yomonning qizini olma.Terakka qarab, tol o'sar.

Onaga qarab, qiz o'sar.

Qiz bersang, otasiga qarab ber,

Qiz olsang, onasiga qarab ol.

Qizni onasi tiysin, O'g'ilni - otasi.

Bola - loy, ona - kulol.

Ona suti bilan kirmagan

Tana suti bilan kirmsa.

Onadan ko'rgan to'n bichar,

Otadan ko'rgan o'q yo'nar.

Ushbu turkum maqollarda onani farzand tarbiyasidagi,odob-axloqiga javobgarligidagi o'rni tula-tukis ohib berilgan va o'zbek xalqi madaniyatida ota ona farzand tarbiyasidagi hissasi maqollar orqali yetkazilgan. Maqollar tahlili shuni ko'rsatadi, ayniqsa onalar qiz farzand tarbiyasiga alohida mas'ul sifatida berib o'tilgan.Birinchidan, onalar o'ta mas'uliyatl shaxslar.Ular bola tarbiyasida juda muhim rol o'yaydi, bolaning kelajakda yaxshi yoki yomon bo'lishi onaga bog'liq. Ona jamiyat farovonligi uchun ham javobgardir. Jamiyatning kelajagi ko'p jihatdan onaning ta'limoti natijasidir.Har bir oilaning tinch-totuv, barqaror, xotirjam bo'lishi, farzandlarining sog'lom va barkamol bo'lishi, oilada sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzining mavjudligi har jihatdan bir inson zimmasiga tushadi.

O'zbek maqollarida onaga hurmat va itoat muhimligi ko'pincha ta'kidlanadi. Masalan, "O'z onasini hurmat qilmaganni hech kimni hurmat qilmaydi" kabilar o'zbekcha maqollarda buni yaqol misolini uchratishimiz mumkin.Hikmatlar ota-onalarning farzandlarining hayotini shakkantirishda muhim rol o'ynashini e'tirof etadi. Masalan,Ona nasihatni bu – oltin zanjirdirkabi maqoli buni yorqin isbotidir.

Xulosa. Ona obrazni deyarli barcha asarlar tarkibida, jumladan, folklor asarlarida ham yorqin ifoda etiladi. Maqollarda ona obraziga e'tabor qaratilsa, shu mavzuda yozilgan maqollar ancha ko'p va ularda onalarning xarakter xususiyatlari, jamiyatdagi va oiladagi o'rni, vazifasi kabilar keng yoritilgan.Umuman olganda, o'zbek maqollarning lingvistik-madaniy tahliliga doir fikrlari bu ixcham hikmat ifodalarining boyligi va murakkabligini ko'rsatadi. Maqollarni o'rganish orqali biz insoniy qadriyatlar, madaniy istiqbollar va tilning ma'noni etkazish va bilimlarni uzatish kuchi haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lamiz.

4. Shermamatova S. Karimova D. “XX asr o‘zbek yozuvchilari ijodida ona obrazi” maqola.
5. <https://maqollar.uz/>
6. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/2019-12-17-06-07-1>



Dilnoza SOBIROVA,

Buxoro davlat universiteti doktoranti, PhD

E-mail: dilnozarasulovna@mail.ru

DSc, professor M.Ahmadova taqrizi asosida

USE OF NEOLOGISMS IN ADVERTISING TEXTS

Annotation

Advertisements have become such an integral part of our daily lives that we encounter them at every step, whether we like it or not. The text, words, image, tone, colors used in them are carefully selected by copywriters in order to attract people's attention and "call" customers. One of its important requirements is that the words used in the advertising texts are understandable for the addressees. At the same time, the representation of the units used by the addressees in everyday life in advertising ensures the effectiveness of advertisements, that is, it brings the advertised product closer to the target audience. This article talks about new words entering our language - neologisms, their assimilation into the language, and at the same time, they are actively used in advertising texts. Neological units used in advertising texts are analyzed.

Key words: Neologism, name-neologism, word acquisition, advertising.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

Рекламные объявления стали настолько неотъемлемой частью нашей повседневной жизни, что мы сталкиваемся с ними на каждом шагу, нравится нам это или нет. Использованные в них текст, слова, изображение, тон, цвета тщательно подбираются копирайтером, чтобы привлечь внимание людей и «призвать» клиентов. Одним из его важных требований является то, чтобы слова, используемые в рекламных текстах, были понятны адресатам. В то же время представление в рекламе единиц, используемых адресатами в повседневной жизни, обеспечивает эффективность рекламы, то есть приближает рекламируемый продукт к целевой аудитории. В данной статье говорится о новых словах, поступающих в наш язык - неологизмах, их ассимиляции в язык и в то же время они активно используются в рекламных текстах. Анализируются неологические единицы, используемые в рекламных текстах.

Ключевые слова: Неологизм, нейм-неологизм, усвоение слова, реклама.

REKLAMA MATNLARIDA NEOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya

Reklamalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qolganki, istaymizmi, yo'qmi har qadamda ularga duch kelamiz. Ularda qo'llanayotgan matn, so'zlar, tasvir, ohang, ranglar... kishi e'tiborini jaib qilish, xaridorlarni "chaqirish" maqsadida kopirayterlar tomonidan puxta o'ylanib tanlanadi. Reklama matnlarida qo'llanayotgan so'zlarning adresatlar uchun tushunarli bo'lishi uning muhim talablaridan biridir. Shu bilan birga, reklamada adresatlar kundalik hayotda qo'llab kelayotgan birliklarning ifodalanishi reklamalarning samarali bo'lishini ta'minlaydi, ya'ni reklama qilinayotgan mahsulotni maqsadli auditoriyaga yaqinlashtiradi. Ushbu maqolada tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlar – neologizmlar, ularning tilga o'zlashtirilishi, shu bilan birga, reklama matnlarida faol qo'llanishda ekanligi xususida so'z yuritiladi. Reklama matnlarida qo'llangan neologik birliklar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Neologizm, neym-neologizm, so'z o'zlashtirish, reklama.

Ma'lumki, til (undan foydalanuvchilar bor ekan) doim o'zgarish, taraqqiy etish, boyish jarayonini boshdan kechiradi. Manbalarda qayd etilishicha, tilning boyish imkoniyatlari asosan ikki xil usulda namoyon bo'ladi. Ulardan biri tilning ichki imkoniyatlari asosida (so'z yasash, ma'lum bir narsa-hodisani yangi nom bilan atash), ikkinchisi tilning tashqi omillar asosida boyishi, ya'ni taraqqiyot natijasida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning o'zlashtirishidir. Tilshunos Otabek Shukurovning "Zamonaviy o'zlashmalar evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini" deb nomlangan tadqiqotida o'zbek tilida so'z o'zlashtirish quyidagi bosqichlarni bosib o'tganligi xususida so'z yuritiladi:

I. Forscha o'zlashmalar. Forscha so'zlarning o'zlashishi uch bosqichli davr asosida shakllangan:

- 1) qadimiy davr;
- 2) o'zbek tilining fors-tojik adabiy tili bilan aloqasi davri (IX-X, XI-XV asrlar);

3) o'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi davri (qadimdan to hozirga qadar);

II. Arabcha o'zlashmalar. Arabcha o'zlashmalarining o'zbek tiliga o'zlashishi ko'proq VII-VIII asrlarda yuz bergan, arab tilining o'zidan bevosita so'z olish XI asrda to'xtagan;

III. Ruscha va rus tili orqali kirgan o'zlashmalar. Ular XIX asrdan mustaqillikkacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi;

IV. Mustaqillik davri o'zlashmalar. Ularning salmoqli qismi istiqboldan so'ng hozirga qadar leksikaga to'g'ridan to'g'ri Yevropa tillaridan olinayotgan o'zlashmalar [1, 23].

Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan reklama matnlarida qo'llanilgan o'zlashmalar olimning tasnididan o'rinn olgan to'rtinchis bosqich – Mustaqillik davri o'zlashmalar bo'lib, ular tilimizga to'g'ridan to'g'ri Yevropa tillaridan o'zlashtirilib, nutqimizda faol qo'llanayotgan neologizmlardir.

"Neologizm" atamasи dastlab 1772-yilda ingлиз tilshunosligida qo'llangan bo'lib, fransuz tilidagi néologisme so'zidan olingan [5]. Merriam Webster luga'ati (Merriam Webster dictionary) manbasiga ko'ra, mazkur so'z fransuz tilida "yangi so'z yasash odati, yangi tuzilgan so'z" kabi ma'nolarda qo'llangan [6]. Fransuz tilidan ingлиз tiliga olinib qo'llanilgan mazkur atama, aslida yunoncha néo-néo ("yangi") va lós / lógos so'zlaridan olingan bo'lib, "nutq, so'z" degan ma'noni anglatadi [5]. Cambridge dictionaryda qayd etilishicha, neologizmlar yangiso'z, ifoda yoki mavjud so'zning yangi ma'nolaridir [7].

Reklama matnlarini kuzatar ekanmiz, ularda ko'plab, neologik birliklarning qo'llanib kelinayotganiga guvoh bo'lamiz:

Fanta va sneklardan lazzatlan. Kel, dam olish vaqtida Fanta va snek. Tamaddi qil! Har bir tanaffusda snek va fanta...

Mazkur reklama matnida birmuncha yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan snek birligi qo'llanadi. Snek so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, yengil tamaddi ma'nosini anglatadi. Amerikaliklar

"yo'lida" tez iste'mol qilish uchun mo'ljallangan – shokolad barlari, turli xil chipslar, shishgan makkajo'xori va makkajo'xori tayoqchalari, shakar yoki tuzli yong'oqlar kabi mahsulotlar(sneklar)ni, garchi ularning kaloriyalari yuqori bo'lsada, iste'mol qilishadi. Sneklar ochlik tuyg'usini tezda qondirishga imkon beradi, minimal miqdordagi vitaminlar va mikroelementlarni o'z ichiga oladi va, shunga ko'ra, ko'pincha nosog'lom oziq- ovqat hisoblanadi. [8]

Hatto oddiy kurnarni ham yorqin qilsa bo'ladi. Karaokeda vaqtichog'lik qilish yoki yaqin do'sting bilan skeyt uchish... Shunchaki fantani olib tanla! Yorqin hissiyotlar, yorqin uslub, yorqin ichimliklar... Atrofingda yorqin odamlar ko'payganida zerikish nima ekanligini bilmaysan. Fanta bilan yorqinroq bo'l! (Fanta ichimligi reklama matnidan).

Mazkur reklama matnida neologik birliklardan karaoke va skeyt kabilar qo'llangan. Bu birliklar asosan yoshlar nutqida birmuncha faol qo'llanib kelinmoqda. Karaoke (yapon tilidagi ikki so'zning birlashmasidan hosil bo'lgan qo'shma so'z kara – bo'shilq va ingлизcha orchestra – orkestr; yapon tilidan tarjima qilinganda "bo'sh orkestr") professional yoki elektron qurilmasdan foydalanmasdan turib oldindan yozilgan musiqaga (fonogramma yoki plus) qo'shiq aytish imkonini beradi. Skeyt – poyabzal tagiga o'rnatilishi mumkin bo'lgan va muz ustida yoki muzdan boshqa sirt ustida sirpanishga mo'ljallangan g'ildiraklar to'plami biriktirilgan metall ramka.

Grillda pishirilgan qovurg'a ta'miga ega Lay's chipslaridan rohatlaning. (Lay's mahsuloti reklama matnidan)

Mazkur reklamada reklama qilinayotgan mahsulot nomi (chips) neologizm sifatida tilimizga kirib kelgan. Chips – kartoshka chiplari bo'lib, ular yaxshilab qovurilgan, pishirilgan yoki havoda qovurilgan kartoshkaning yupqa bo'lagini anglatadi [10].

HUMANS kartasiga xaridlar uchun 2 foizdan keshbek oling va smartfonga almashtiring. (HUMANS aloqa operatori reklamasi matnidan)

Keshbek (ingliz tilidan olingen bo'lib — naqd pulning qaytib berilishi degani) — mijozlarni jalb qilish va sadoqatini oshirishga qaratilgan maxsus bonus dasturlarining bir turi bo'lib, asosan internet-savdolari, bank mahsulotlari va o'yin biznesida qo'llanadi [9].

Yana bir muhim jihat, yuqorida keltirilgan reklama matnlaridagi "Lay's", "HUMANS" kabi so'zlar ayni kunlarda jamiyat a'zolari tomonidan tez-tez qo'llanilib kelinmoqda. Bu kabi birliklar tadqiqotlarda neym-neologizmlar sifatida baholanadi. Qayd etish lozimki, ayni kunlarda ko'plab xorijiy til neymlarining lug'at boyligimizga o'zlashtirilishi jarayoni ham kechmoqda.

Xulosa. Reklama matnlarida qo'llanib kelinayotgan, ayni damda "iste'mol"da bo'lgan neologizmlar qatorini ko'plab davom ettrish mumkin. Neologizmlar tilga kirib kelayotgan yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardir. Ularning tilda saqlanib qolishi yoki, aksincha, "iste'mol"dan chiqib ketishi shu tilda muloqot qiluvchilar va vaqt mezoniga bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Шукуров О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография. – Қарши, Интеллект нашриёти, 2022. – 240 б.
2. Rasulovna, S. D. (2023). ABOUT WORD USE IN MODERN MEDICAL ADVERTISING TEXTS. International Journal of Advance Scientific Research, 3(09), 180-182.
3. Asadov T., Mardonova S. Ayrim muallif nutqi neologizmlarining leksikografik talqini xususida. Til va adabiyot.uz 2024-yil, 3-son.
4. Sobirova D.R. Qisqalik–samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili. "Soha lingistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro, 2021-yil, 11-novabr.
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Neologism>
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/neologism>
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/neologism>
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BD%D1%8D%D0%BA>
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Keshbek>
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Potato_chip



Nilufar SOTVOLDIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:sotvoldiyevanilufar0@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d N.Abduraxmonova taqrizi asosida

SINONIMLARNI IFODALASHDA TARJIMA QILISH TURLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjima turlari bilan birgalikda mashina tarjimasida sinonimlarning kelishi va berilishiga oid nazariyalar va tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Mashina tarjimasi bilan bog'liq sinonimlar qning berilishiga doir misollar keltirilib izohlangan. Shu bilan bir qatorda yuzaga keladigan kamchiliklar va quayaliklar ham ifodalangan.

Kalit so'zlar: Mashina tarjimasi, sinonimlar, elektron lug'at, MATH, CAT, HAMT, FAMT, qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, statistic mashina tarjimasi.

TYPES OF TRANSLATION IN REPRESENTING SYNONYMS

Annotation

In this article, the theories and researches related to the arrival and transfer of synonyms in machine translation, together with translation types, were considered. Examples of providing synonyms related to machine translation are given and explained. In addition, the disadvantages and conveniences that arise are also expressed.

Key words: Machine translation, synonyms, electronic dictionary, MATH, CAT, HAMT, FAMT, rule-based machine translation, statistical machine translation.

ВИДЫ ПЕРЕВОДА ПРИ ПРЕДСТАВЛЕНИИ СИНОНИМОВ

Annotatsiya

В данной статье были рассмотрены теории и исследования, связанные с приходом и переносом синонимов в машинном переводе, а также с видами перевода. Приводятся и поясняются примеры предоставления синонимов, связанных с машинным переводом. Кроме того, выражены и возникающие недостатки и удобства.

Ключевые слова: Ашинный перевод, синонимы, электронный словарь, MATH, CAT, HAMT, FAMT, машинный перевод на основе правил, статистический машинный перевод.

Kirish. Mashina tarjimasi avtomatik tarjima deb ham yuritiladi. Bunda insoniyatning ishtirokisiz sun'iy intelekt yordamida bir tabiiy tildan ikkinchi tabiiy tilga avtomatik tarzda tarjima amalga oshiriladi, albatta, bu vaqt borasida insoniyatga katta yordam beradi. Negaki kunlab vaqt talab qiladigan matnlarni bir zumda kompyuter yordamida tarjima qilish mumkin. Biroq biz bunga kompyuter tarjimasi atamasini ishlashda olmaymiz. Chunki mohiyatan to'g'ri kelmaydi. Avtomatik tarjima deganimizda ham xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Avtomatik tarjima terminini ishlatganimizda tor ma'no hoslil qilib, faqat dasturlar yordamida amalga oshirilgan tarjimaga aylanib qoladi. Shu bois biz bu tarjimaga mashina tarjimasi deb murojaat qilishimiz har tomonlama o'rinni bo'ladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turganidek, mashina tarjimasi keng ma'noda qo'llanilganligi bois bugungi kunda uning to'rtta turi mavjud. Ular:

So'zlarni elektron lug'atlar yordamida tarjima qilish (machine-assisted human translation, qisqacha MATH).

Matnni dasturiy ilovalar yordamida tarjima qilish (computer assisted-translation, qisqacha CAT).

Muharrir yordamidagi mashina tarjimasi (human-assisted machine translation, qisqacha HAMT).

To'liq avtomatik mashina tarjimasi (fully automatic machine translation, qisqacha FAMT).

Elektron lug'atlar yordamida tarjima qilishda inson tomonidan matnni tarjima qilishda kompyuter elektron lug'atlar va unga kiritilgan ko'rsatmalaridan foydalaniladi.

Matnni dasturiy ilovalar yordamida tarjima qilish matnni kompyuter vositasida tarjima qilish va unda anglashilgan asosiy tushunchalarini ajratishga xizmat qiladi.

Muharrir yordamidagi mashina tarjimasidagi kompyuter dasturiy ta'minoti orqali amalga oshiriladigan tarjimaga inson resursi tomonidan tahrir qilish vazifasini yuklanadi.

To'liq avtomatik mashina tarjimasi tarjimon dasturi orqali matnni ham tarjima, ham tahrir qilish vazifalarini amalga oshiradi.

Hozirgi axborotlar asrida mashina trajimasiga doir ko'plab tizimlar yaratildi. Bunday tizimlarni muayyan xususiyatlari ko'ra farqlash mumkin. Masalan: 1) tillarning ishtiroki: a) ikki tilli; b) ko'p tilli; 2) tanlangan mavzuning miqdori: a) muayyan uslub va sohaga aloqador; b) bir uslub hamda ko'p sohalarga tegishli; 3) turli uslub va bir necha sohalar bilan bog'liq.

Jon Xatchins mashina tarjimasi tizimlarini quyidagicha tavsiflaydi:

1. Qoidaga asoslangan MT- MT-Rule-Based MT:
 - 1) transfer tizim (transfer-based machine translation);
 - 2) interlingual tizim (interlingual machine translation);
 - 3) lug'at asosidagi tizim (dictionary-based machine translation);

2. Korpus asosidagi mashina tarjimasi- Corpus based MT:

- 1) statistikaga asoslangan MT(statistics-based);
- 2) namuna asosidagi MT(example-based);

3. Gibrid mashina tarjimasi- Hybrid machine translation (HMT). Bu tarjima tizimi qoidaga hamda statistikaga asoslangan bo'lib, gibrid mashina tarjimasi tizimidan bir nechta tarjima kompaniyalari: Asia Online, LinguaSys, Systran, PangeaMT, UPV, Logos foydalanadi.

Qoidaga asoslangan mashina tarjimasi har bir tilning lingvistik qoidalari hamda bilingval lug'atlarga tayanadi. Bu, asosoan, bir-biriga yaqin tillar orasida amalga oshiriladi. Qoidaga asoslangan mashina tarjimasining ishlash texnologiyasiga ko'ra kompyuter dasturiy ta'minoti matnni tahlil qiladi va uzatilayotgan tavsifni tarjima qilinayotgan tildagi matndan to'playdi. Bu, albatta, o'z o'rniда, morfologik, sintaktik, semantik va qoidalardan iborat lug'atga ega bo'lgan ma'lumotlar ba'zasiga ehtiyoj sezadi. Dastur ushbu qoidalardan foydalanib tarjima qilinayotgan ikkinchi til garmmatik strukturasiga moslaydi. Bunda tarjima katta lug'at va lingvistik qoidalarga asoslanadi.

Qoida asosidagi mashina tarjimasi tarjima samaradorligini yaxshilashda tijorat kompaniyalaridan uzoq vaqt va katta mablag'ni talab etadi. Yuqoridagi metodlardan

foydalangan holda matnni avtomatik tarjima qilishda erishilgan natijalarni mutaxassislar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha belgilaydilar:[1]

Tarjima metodlari	Xatolik[%]
Semantik transfer metod	62
Dialog aktiga asoslangan metod	60
Namuna asosidagi metod	52
Statistik metod	29


Statistik mashina tarjimasi texnologiyasi katta hajmlisolishitirilgan til juftliklari hamda matn namunalardan (korpuslar) foydalanuvchi mashina tarjimasi metodi hisoblanadi. Statistik mashina tarjimasi haqidagi dastlabki g'oya 1949 yili Uorren Utetonidan Klaud Shannonning ma'lumot nazariyasi asosida yaratilgan. Keyinchalik ushbu nazariyaga ko'ra 1991 yilda IBM tadqiqotchisi Tomas J. Watson tomonidan bu tizim qayta o'rganilib chiqilgan. Statistik tarjima modellari dastlab so'z asosida yaratilgan (Models IBM Hidden dan 1 - 5 model, Stefan Vogeldan Markov model 45 hamda Frans Jozef Okdan 6 model46), lekin keyinchalik ibora asosidagi modellar ham paydon bo'ldi47. Statistik mashina tarjimasi usulidan IBM kompaniyasi foydalanib IBM Model 1 - 5 modelini yaratdi. Google kompaniyasi ham bu metoddan foydalana boshladи. Bugungi kunda ayni metod quyidagi tizimlarda unumli qo'llamoqda: 1) Giza++; 2) Moses; 3) Pharaoh; 4) Rewrite; 5) BLEU scoring tool. Statistik mashina tarjimasi monolingva bilingv korpusning tahlididan kelib chiquvchi parametrlarning statistik tarjima modellaridan foydalanadi. Statistik tarjima modelini yaratish qisqa muddatli jarayondir, biroq u mayjud multilingual korpusga tayanganadi. Maxsus soha uchun kamida ikki million so'z, umumiy til uchun undan ham ko'proq so'z leksikoni bo'lishini talab qiladi. Nazariy jihatdan sifatlari tarjimaga erishish mumkin bo'lsa-da, ko'plab kompaniyalarda bunday kerakli tarjima modellarini yaratish uchun katta miqdordagi multilingual korpuslar mavjud emas. Statistik mashina tarjimasining o'rta darajadagi tarjima

1-RASM.



modellaridan foydalanishda kompyuter qismlarining kuchli hamda katta hajmdagi konfiguratsiyasi talab qilinadi[1].

Hozirgi kunda foydalananuvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan tarjimon dasturlar google translate hamda yandex translate bo'lib, har ikkisi 100+ tilda ishlaysdi. Google translate 5000 ta so'zli matnni, yandex translate esa 10000 ta so'zli matnni bir vaqtning o'zida tarjima qila oladi. Bundan tashqari biz bepul foydalana oladigan <https://www.machinetranslation.com> hamda <https://hix.ai/translate.com> saytlari ham mavjud. Bulardag'i xato va kamchiliklari va yutuqlarini topish maqsadida quyidagi bir xil matnni tarjima qilib ko'ramiz.

Farklı dünya demek, farklı bakış açısı ve farklı insanın de mektir. Evet, hepimiz farklı düşüncelere ve yaşamımızda kendi isteklerimiz doğrultusunda, kendimizin şekillendir diğeri bir dünyaya sahibiz. Bazı anlarda olur ki kendi düşünunce lerimiz ve yaşamımız doğrultusunda karşımızdaki kişileri yönlendirmeye çalışırız. Bu doğru mu? Tabii ki her insanın kendi düşüncelerine sahip olması bu soruya yanıtlamak adına bizi biraz düşündürüyor. Ancak herkes kendine göre bir strateji belirlemiştir ve o yönde ilerliyor. Önemli olan insanların düşüncelerine saygı duyarak olmak iste dikleri kişiye ulaşmaları konusunda anlaşış göstermektedir. Her insanın yaşam tarzı farklı olduğu için kendi dünyala rında, zihinlerinde oluşturdukları kendi düşünceleriyle yol alırlar. Ayrıca bu dünyamıza sadece istediğimiz arkadaş ve dostlarımızı almayı tercih ederiz. İstemediğimiz kişiler bi zim dünyamıza giremez[2].



Yandex translator



Quyidagi esa inson tomonidan amalga oshirilgan tariima:

“Turliche dunyo degani, turlichcha dunyoqarash va turlichcha inson deganidir. Ha, har birimiz hayotimiz o‘z xohish-istaklarimiz asosida shakkllatirgan dunyoga egamiz. Ba‘zida atrofimizdag‘i insonlarni o‘z fikrimiz va hayotimizga mos ravishda yo‘naltirishga harakat qilamiz. Bu to‘grimi? Albatta, har bir insonning o‘ziga xos fikrlarining borligi bizni bu savolga javob berishdan avval bu haqida biroz o‘ylashga majbur qiladi. Biroq har kim o‘ziga munosib strategiya belgilab, shu yo‘nalishda harakat qilayotgan bo‘lishi mumkin. Muhimi boshqalarning

fikrini hurmat qilib, ularni o'zlarini xohlagan inson bo'lishi borasida to'g'ri tushunishdir. Har bir insonning turmush tarzi har xil bo'lganligi sababli, ular o'z dunyosida, o'z ongida yaratgan o'z fikrlari bilan oldinga intiladi. Bundan tashqari, biz o'z dunyoyimizga faqat o'zimiz xohlagan do'st va hamrohlarimizni olishni afzal ko'ramiz. Biz istamagan kishilar bizning dunyoyimizga kira olmaydi".

Ushbu tadqiqot natijalari kompyuter tilshunosligida ta'minot muammosini, xususan, sinonimik birliliklar bilan bog'liq

muammolarni hal qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Qamrashdagi o'zgarishlar, ma'lumotlarning kamligi va tillararo sinonimiya muammolari NLP tizimini rivojlantirish uchun jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaradi. Oldinga qarab, kelajakdag'i tadqiqotlar taklif qilingan echimlarni amalga oshirishga va ularning NLP tizimining ish faoliyatini yaxshilashdagi samaradorligini baholashga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, lingvistik resurslarni kengaytirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ochiq hamkorlikni rag'batlantirish bo'yicha davom etayotgan sa'y-

harakatlar kompyuter tilshunosligining dinamik sohasida lingvistik ta'minot va hisoblash talabi o'rtaсидаги тафовутни бартарaf etishda muhim ahamiyatga ega bol'adi.

Xulosa. Sinonimlar asosidagi tarjima muammolari bilan bog'liq muammolarni kuzatildi. O'zbek tilidagi sinonimlarning kontekslar bilan bog'lagan holda muammolar bartaraf etildi. Tadqiqotimiz natijasida har bir mashina tarjimasi ham mukammal bo'la olmasligini kuzatdik.

ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonova N.Z. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti (monografiya).—Toshkent: Muharrir, 2018. – B.28.
2. Ayşe Sözeri. Fark et. Eyobi Yayınları. 77 b.
3. Franz Jozef Och, Hermann Ney. What can machine Translation learn from speech recognition? 2009.
4. Faruqui, M., Dyer, C., & Roth, D. (2016). Towards an Automatic Turing Test: Learning to Evaluate Dialogue Responses. In Proceedings of the 54th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (pp. 1116-1126).
5. Nivre, J., et al. (2016). Universal Dependencies v1: A Multilingual Treebank Collection. In Proceedings of the Tenth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2016) (pp. 1659-1666).
6. Snow, R., O'Connor, B., Jurafsky, D., & Ng, A. Y. (2008). Cheap and Fast—but is it Good?: Evaluating Non-Expert Annotations for Natural Language Tasks. In Proceedings of the Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (pp. 254-263).



Maxfusa TAIROVA,

Termiz davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasini erkin tadqiqotchisi

E-mail:tairovamaxfusa@mail.ru

DSc.professor S.Jumanov taqrizi asosida

RELATIONSHIP BETWEEN THE ORIGINAL AND THE TRANSLATIONS IN ENGLISH AND UZBEKI

Annotation

This article examines the example of the translation of John Dryden's tragedy "Aurangzeb", examines a number of problems that a translator faces in order to ensure the form, semantic and poetic closeness between the original text and the translated text, as well as to create a unity of form and meaning that ensures the artistic integrity of the translation.

Key words: originality, translation, equivalent, linguistic units, artistic and visual means, linguistic means, adequate, originality, method, re-expression.

СВЯЗЬ МЕЖДУ ОРИГИНАЛОМ И ПЕРЕВОДАМИ НА АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация

В данной статье на примере перевода трагедии Джона Драйдена «Авранзеб» исследуется ряд проблем, с которыми сталкивается переводчик, чтобы обеспечить форму, смысловую и поэтическую близость между оригинальным текстом и переведенным текстом, а также создать единство формы и смысла, обеспечивающее художественную целостность перевода.

Ключевые слова: оригинальность, перевод, эквивалент, языковые единицы, художественно-изобразительные средства, языковые средства, адекватные, оригинальность, метод, перевыражение.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ASLİYAT VA TARJIMALAR O'RТАSIDAGI MUNOSABATLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada asliyat va tarjima tilida qayta yaratilgan matn orasida shakliyemantik va poetik yaqinlikni ta'minlash, tarjimada badiiy yaxlitlikni ta'minlovchi shakl va ma'nuning birligini yaratishda tarjimon oldida bir qancha muammolar borligini Jon Draydenning «Avrangzeb» tragediyasi tarjimasi orqali o'rganildi.

Kalit so'zlar: asliyat, tarjima, ekvivalent, lingvistik birliklar, badiiy-tasviriy vositalar, lisoniy vositalar, adekvat, asliyat, usul, qayta ifodalish.

Kirish. Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashga harakat qilgan har bir tarjimon original asardagi milliylikni anglatuvchi so'zlar bilan doimiy to'qnash keladi. Bu borada esa realiyalar asar milliy xususiyatlari ifodalovchi asosiy belgidir. Tarjimada madaniyatlararo tafovutlar mksalasi ingliz va o'zbek tarjimashunosligida u yoki bu darajada o'rganigan. Jumladan, O.Nensi, H.Feiz, R.Jeani, B.Rainhert kabi ingliz, G.D.Tomaxin, A.P.Babushkin, L.V.Mosiyenko, M.N.Yesakova singari rus, H.Xamroyev, I.Mirzayev, R.Kasimova kabi o'zbek olimlarining tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Ikki tilli matmlar mazmunining maksimal umumiyligi, bu matmlar yaratilgan tillardagi farqlar bilan yo'l qo'yilgan potensial erishish mumkin bo'lgan ekvivalentlikni va tarjima ekvivalentining haqiqiy semantik yaqinligini farqlash kerak. tarjimon tarjima jarayonida erishgan asl va tarjima matnlari. Tarjima ekvivalentlining chegarasi – tarjima paytida asl nusxaning mazmunini maksimal darajada saqlab qolish (lingvistik) darajasidir, ammo har bir alohida tarjimada aslsa turli darajalarda va har xil yo'llar bilan semantik yaqinlik maksimal darajaga yaqinlashadi [1]. Har qanday matn qandaydir kommunikativ funksiyani bajaradi: ba'zi faktlarni etkazadi, his-tuyg'ularni ifodalaydi, kommunikatorlar o'rtaida aloqa o'rnatadi, retseptordan qandaydir reaktsiya yoki harakat talab qiladi va hokazo. Aloqa jarayonida bunday maqsadning mavjudligi uzatiladigan xabarlarining umumiyligi xususiyatini va ularning til dizaynni belgilaydi. Bunday nutq segmentlarini taqqoslayslik:

I safely can unlade my breast of love

Sekin yulib tashlarmen muxabbatni dilimdan [2]

Your victory, alas, begets my fears.

Sizning g'alabangiz afsus menda qo'rquv uyg'otdi [3].

Ushbu bayonotlarning har birida alohida so'zlar va tuzilmalarining ma'nolari va butun xabarning o'ziga xos mazmunidan tashqari, umumlashtirilgan funksional tarkibni ham topish mumkin:

faktlar bayonoti, ifoda, turtki, aloqa qidirish;

matn ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida bir nechta kommunikativ funksiyalarini bajarishi; yuqoridagi so'zlar bitta yaxlit matnni tashkil qilishi; tarjima tarkibida kommunikativlikni yo'qotmasdan funksional vazifa (aloqa maqsadi) bo'lishi mumkin emas.

Tarjima jarayonida tarjimon asliyatdagi voqe-a-hodisalarini kitobxonaga tushunarli bo'lgan til vositalari orqali qayta yaratishga intiladi. Bunda u kitobxoning asliyatga nisbatan butunlay boshqa tilga mansub ekanligini, o'zgacha madaniyat va tarix vakili ekanligini unutmasligi kerak. Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimada pragmatik uyg'unlikka erishish uchun tarjimondan asliyat matnida ifodalangan har bir holat va narsani yaxshi bilishni, ya'ni chukur ekstralolingvistik bilimga ega bo'lish talab qilinadi, zero, ekstralolingvistik faktorlarni xisobga olish asliyomonand tarjimaga erishish garovidir.

Adabiyotlar tahlili va metod. Tarjima matnining umumiyligi nutq funksiyasini ko'rsatadigan matn mazmunining bir qismi (so'zlashuv) uning aloqa maqsadini tashkil etadi. Bu «lotin» («nazarda tutilgan» yoki «majoziy») ma'no bo'lib, unda, xuddi yashirin shaklda, butun so'zlashuvdan semantik bir butun sifatida chiqarilgan. Shaxsiy lingvistik birliklar bunday ma'noni yaratishda endi to'g'ridan to'g'ri o'z ma'nolari orqali emas, balki bilvosita, boshqa birliklar bilan uning yordamida qo'shimcha ma'no ifodalash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ma'no-so'z birligini tashkil qiladi. Qabul qiluvchini bayonotni idrok etib, nafaqat lisoniy birliklarning ma'nosini va ularning bir-biri bilan munosabatlarini tushunibgina qolmay, balki butun tarkibdan ma'lum xulosalar chiqarishi, undan qo'shimcha ma'lumot chiqarishi kerak, bu nafaqat Manba nima deyishini, balki nima ularun ekanligini ham ma'lum qiladi. u «bu bilan nimani nazarda tuyapti»[4] deydi.

Birinchi turdag'i tarjimalarning ekvivalenti, aloqa mazmuni bo'lgan asl tarkibning faqat shu qismini saqlab qolishdan iborat:

Behold these dying eyes, see their submissive awe -
So'nayotgan yulduzlarga boqing, bu itoatkorona nigohlar.

Nay, more, you have forgot who is your own - Bo'ldi
bas! Kimligingizni unutibisz.

You made me liberty your late request.
Is no return due from a greatfull breast.

So'nggi bor tilab oluvdingiz ozodligimni, Biroq qaytara
olmadim bu yaxshiligungizni.

Masalan, birinchi misolida, aloqa maqsadi so'zlashuv
mazmunining asosiy qismi bo'lgan majoziy ma'noni etkazish edi.
Bu yerda kommunikativ ta'sir kamyoviy elementlarning o'zaro
ta'siriga o'xshatilgan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni o'ziga
xos badiiy tasvirlash orqali erishiladi. Ushbu ma'lumotlarning
bilvosita tafsifi tarjimon tomonidan ona tiliga tarjima qilish uchun
qabul qilinishi mumkin emas deb topilgan va tarjimada boshqa,
biroz kamroq obrazli bayonot bilan almashtirilgan, ammo bu zarur
kommunikativ ta'sirini ta'minlaydi. Ikkinchisi misolida, muloqotning
maqsadi suhbatdoshning oldingi bayonotidan ta'sirlangan
ma'ruzachining his-tuyg'ularini ifodalashdir. Ushbu maqsadni
tarjimada takrorlash uchun tarjimon ta'sirini ifodalaydigan
stereotipik iboralardan biri, garchi uni tashkil etuvchi lingvistik
vositalar asl nusxaning birliklariga mos kelmasada, o'zbek tilida
ishlatgan. Uchinchi misolda, tarjimon har qanday usul bilan saqlab
qolishga intilayotgan asl nusxaning umumiyligi vazifasi ovozli
yozuv, qofiya va metrqa asoslangan she'riy ta'sirdir. Ushbu
ma'lumotni ko'paytirish uchun asl xabar kerakli she'riy
fazilatlarga ega bo'lgan boshqasi bilan almashtiriladi. Ushbu
misollardan ko'rinib turibdiki, aloqa maqsadi so'zlashuv
mazmunining eng umumiyligi qismidir, umuman aytishga xos bo'lib,
uning kommunikativ aktdagi rolini belgilaydi.

Ushbu turdag'i asl nusxalar va tarjimalar o'rtasidagi
munosabatlari quyidagicha tavsiflanadi:

Ieksik tarkibi va sintaktik tashkil etishning
taqqoslanmasligi;

semantik parafralash yoki sintaktik transformatsiya
munosabatlari bilan asl nusxa va tarjimaning so'z boyligini va
tuzilishini bog'lay olmaslik;

aslyat va tarjimadagi xabarlar o'rtasida haqiqiy yoki
to'g'ridan to'g'ri mantiqiy aloqalarning yo'qligi, bu ikkala holatda
ham «bir xil xabar berilgan» deb tasdiqlashga imkon beradi;

ekvivalent deb tan olingen barcha boshqa tarjimalar bilan
taqqoslaganda asl nusxa va tarjima tarkibidagi eng kichik
umumiylig[i]5..

Shunday qilib, ekvivalentlikning ushbu turida tarjimada
asl nusxada umumiyligining qayta yaratilishi yaqqol namoyon
bo'ladi. Asl nusxadagi bir yoki ikkita so'z tarjimada to'g'ridan
to'g'ri yoki bilvosita yozishmalarga ega bo'lsa ham, bu xulosha
umuman butun xabar uchun to'g'ri keladi.

Muhokama. Ushbu ekvivalentlik darajasidagi tarjimalar
tarkibni batafsilroq ko'paytirish mumkin bo'lmagan holatlarda
ham amalga oshiriladi va bunday ko'paytirish tarjima retseptorini
noto'g'ri xulosalarga olib kelib, uning asl retseptordan farqli
ravishda birlashmalariga olib keladi va shu bilan xalaqtir beradi.

Quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

Your pardon, mighty sir,
You seem not high enough your joys to rate; [6]
Bir qoshiq qonimdan o'ting olampanoh,
Bundan siz xursanddek ko'rimmaysiz, oh [7].

Shunday qilib, ingliz maqollari bilan tafsiflangan vaziyat
dunyo bo'ylab sayr qilmaslik, aksincha uyda o'tirib, mol saqlash
kerak degan xulosani anglatadi. Ekvivalent tarjima xuddi shu
emotional munosabatda bo'lgan va asl nusxadagi stilistik
(she'riy) funksiyani (maql shakli) maksimal darajada
takrorlaydigan o'zbekcha ibora bo'ladi. Xuddi shu vaziyatni
tafsiflash kerakli natijani bermagan uchun, boshqa vaziyatni
tafsiflovchi xabardan foydalanish kerak. Belgilangan talablarni
qondirishga urinish taxminiy tarjimani beradi: Kim tinch
o'tirmasa, u yaxshilik qilmaydi.

Quyida Jek Londonning «Oq so'yloq» asari o'zbek va
nemis tillaridagi tarjimalari orqali frazeologik ekvivalentning yana
bir holatini ko'rib chiqamiz: to cast a glance - nigoh tashlamoq.

Then he would cast a glance of fear at the wolf-circle
drawn expectantly about him. – Shundan so'ng u bo'rilarga
dahshatlari nigoh tashladi, olov atrofini tobora yaqinroq yopdi.

Hisoblash ham frazeologik birliklarni tarjima qilish
usullaridan biridir. Masalan, oqqush qo'shig'i ifodasida - swan
song ushbu uchta tilda tasvir, struktura to'liq mos keladi: «It's my
swan song. I am almighty proud of it. I worship it» 8. – «Bu
mening oqqushlar qo'shig'im. Men u bilan faxrlanaman. Men
unga sig'inaman» 9.

Ekvivalentlik masalasi frazeologik birliklarning
tarjimasida ham kuzatilishi mumkin to know from A to Z: Oh, he
knew it all, and knew them well, from A to Z. – Ha, u bu o'yinni
mukammal tushundi; Men bu qizlarni A dan Z gacha tanish edim
[10].

Biroq, ingliz tiliga tarjima qilishda o'xhash tasviriy
muqobillik yo'qligi sababli, biz analog izlashga murojaat qilishga
majbur bo'lmoadamiz. tarjimada bu kabi ifodalarni so'zma-so'z
«ichki va tashqi narsalarni bilish» degan ma'noni anglatadi.

So'zma-so'z tarjima quyidagi frazeologik birliklarga
taalluqlidir: to take root - ildiz otmoq, to keep oneself in the
background - сояда колинг, ас слеар ас дай - кун каби тиник ва
х.к.

Frazeologizmlar bir butun sifatida tarjima qilinmaydi,
balki so'zma-so'z tarjima qilinadi, bu tarjima
transformatsiyalarida kamdan kam qabul qilinadi.

Quyidagi parchani ko'rib chiqamiz:

«Never had he been at such an altitude of living, and he
kept himself in the background, listening, observing, and
pleasuring, replying in reticent monosyllables, saying, «Yes,
miss,» and «No, miss,» to her, and «Yes, ma'am,» and «No,
ma'am,» to her mother.» va uning o'zbekcha yozishmalari «Men
uni hech qachon bunday baland ko'tarmagan edim va u soyada
qolishga harakat qildi, tingladi, tomosha qildi, quvondi va o'zini
tutib, bir bo'g'lini javob berdi:»

Ekvivalentlikning ikkinchi turida asl nusxa va tarjima
mazmunining umumiyligi qismi nafaqat muloqotning bir xil
maqsadini anglatadi, balki o'sha tildan tashqari holatni ham aks
ettiradi. Vaziyat - bu bayonotda tasvirlangan obyektlar va
obyektlar orasidagi bog'lanishlar to'plami. Har qanday matn ba'zi
bir haqiqiy yoki xayoliy vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan narsalar
haqida ma'lumotni o'z ichiga oladi. Matning kommunikativ
funksiyasini vaziyatga yo'naltirilgan xabar orqali amalga oshirish
mumkin emas. Fikrlash fikr obyekti bo'lmasdan mayjud
bo'lmagan kabi, «hech narsa haqidá» bo'ladigan izchil matnni
tasavvur qilishning iloji yo'q.

Ekvivalentlikning ikkinchi turi tarjimalar bilan
ifodalanadi, ularning asl nusxaga semantik yaqinligi ham
ishlatilgan lisoniy vositalar ma'nolarining mushtarakligiga
asoslanmaydi. Ushbu turdag'i tarjimaning ba'zi bir misollari:

Wished freedom I presage you soon will find,
If Heav'n be to virtue kind [11].

Ozdolik istasangiz tezda bo'lur ijobat,
Gar falak ko'rsatsa mehr va adolat [12].

Ushbu misollarda tenglashtirilgan ko'p tilli
so'zlashuvlarda asl nusxadagi so'zlar va sintaktik tuzilmalarining
aksariyati tarjima matnida bevosita yozishmalarni topa olmaydi.
Shu bilan birga, ushbu guruhning asl nusxalarini va tarjimalari
orasida birinchi turdag'i ekvivalentlikdan ko'ra ko'proq mazmunli
umumiylig mavjudligini ta'kidlash mumkin. Masalan, tarjimalarni
taqqoslayslik:

1) I will do it! - Men tayyorman!

2) I bring a heart more true than fortunate - Taqdim yetay
sizga bor dilim.

Birinchidan, biz umuman boshqa hodisalar haqida
gaplashamiz, ular orasida biron bir haqiqiy aloqani farqlash
mumkin emas. Asl nusxa va tarjimaning mushtarakligi shundan
iboratki, har ikkala holatda ham ma'ruzachining subbatdoshining
oldingi so'zlariga nisbatan hissiy munosabati to'g'risida bir xil
xulosalar chiqarish mumkin.

Ikkinchidan asl nusxa va tarjimaning beqiyos til vositalari
asida xuddi shu harakatni tafsiflaydi, xuddi shu haqiqatga ishora
qiladi, chunki siz cuxbatdoshingizga aytayotganingiz malum.
Ikkala matn ham turli xil narsalar haqida gapiradi, ammo bir xil
narsa». Kundalik hayotda bunday bayonotlar to'g'risida tez-tez
aytiladi, ular «bir xil fikrni boshqa so'zlar bilan ifoda etadilar».

Natijalar. Ushbu turdag'i asl nusxalar va tarjimalar
o'rtasidagi munosabatlari quyidagicha tavsiflanadi:

leksik tarkibi va sintaktik tashkilotining taqqoslanmasligi; asl nusxaning lug'ati va tuzilishini va tarjiman ni semantik parafrazlash yoki sintaktik o'zgartirish munosabatlari bilan bog'lay olmaslik;

tarjimada aloqa maqsadini saqlab qolish, chunki biz allaqachon o'rnatganimizdek, gapning ustun funksiyasini saqlab qolish ekvivalentlik uchun zaruriy shartdir;

ko'p tilli xabarlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri haqiqiy yoki mantiqiy aloqaning mavjudligi bilan isbotlangan bir xil vaziyat ko'rsatkichini tarjimada saqlab qolish, bu ikkala holatda ham «bir xil xabar berilgan» deb ta'kidlashga imkon beradi.

Ikkinci turdag'i ekvivalentlikning tarjimalarda keng qo'llanilishi har bir tilda muayyan holatlarni tavsiflashning boshqa tillar uchun mutlaqo nomaqbul bo'lib chiqadigan usullari mavjudligi bilan izohlanadi.

Quyidagi satrlar orqali tahsil qilamiz:

Then as in equal balance weigh my deeds, ammo o'zbek tilida bu holatni shunday ta'riflash kulgili bo'lib tuyuladi: "Meni ishlarmi (aslida, mening ishlarmi bo'lishi kerak yedi) ham har miyerdan teng. O'zi uchun har qanday xatti-harakatlarning mumkin emasligini ta'kidlab, ingliz aytadi: I am the lats man to do it. O'zbek tilida bunday xabarni ko'paytirish mumkin emas balki, kimmadir biron bir narsani oxirgi qilgan odam deb atash mumkin.

Ushbu holatni biz tarjimada boshqa yul bilan tasvirlashimiz kerak bo'ladi, masalan: men, har holda, buni qilmayman. Tarjimada vaziyat darajasida ekvivalentlikni o'rnatish zarurati, ko'p holatlarda til hamjamiyati a'zolari doimiy ravishda muayyan vaziyatni tavsiflashning faqat bitta usulidan foydalanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu, odatda, nutqning standart formulalarida, ogohlantirish xabarnomalarida, umumiy qabul qilingan itsaklarda, ta'ziya izhorlarida va boshqalarda tez-tez uchraydi.

Agar asl nusxada tasvirlangan vaziyatni faqat bitta aniq belgilangan shaklda ona tiliga o'girish kerak bo'lsa, tarjima variantini tanlash, xuddi ushbu holat asl matnda qanday ta'riflanganligidan qat'iy nazar, va tarjimadagi xabar oldindan belgilangan bo'lib chiqadi. Tabiiyki, bu holda asl nusxdagini va tarjimadagi tegishli xabarlar bir xil tuzilishga ega bo'lishi mumkin, faqat istisno holatlarda, har ikkala tilda ham ushbu vaziyatni tavsiflashning majburiy usullari mos keladi. Ko'pgina hollarda, ona tiliga tarjima qilish vaziyatni tavsiflashning ma'lum bir usuli majburiyati yoki afzalligi uni asl nusxada tasvirlash usulini almashtirish bilan, tarjimada ekvivalentlikning ikkinchi turini o'rnatish bilan bog'liq. Ingliz va amerikalik mualliflarning

kitoblari tarjimasidan bunday almashtirishning ba'zi bir misollar [13]:

Whence can proceed so wonderful a change? – Qachondan beri o'zgarib qoldingiz?

How look the people in this turn of state? - Odamlar o'zini qanday tutmoqda?

Asl nusxada tasvirlangan vaziyatni tarjimada ko'paytirishdan bosh tortish ya'ni, ekvivalentlikdan foydalanish, ikinchisining emas, balki bиринчи турининг таржима пайдида tasvirlangan vaziyat tarjima retseptorlari tarkibidagi zaruriy uyushmalar bilan bog'liq bo'limgan hollarda, aloqa maqsadini saqlab qolish zarurati bilan shartlanadi. Jon Draydenning «Avrangzeb» tragediyasida qahramon «pastdan» bir yigitning ko'rinishini beparvolik bilan tasvirlab berar ekan, xususan, kuchlar sevimlilaridagi so'rovlar ortida uning yuzi borligini aytadi, ya'ni. harbiy xizmatchilar uchun konsertda yoki radioda ijro etish uchun so'rovlar yuborgan kishining yuzi. Bunday holatni o'zbek tilidagi tarjimani o'quvchi kamsituvchi xususiyat sifatida qabul qilishi ehtimoldan yiroq emas. Shuning uchun tarjimonlar mutlaqo boshqacha vaziyat bilan ekvivalentlikni o'rnatishni afzal ko'rishdi. Muayyan vaziyatning bitta tilshunoslik retseptorlari tarkibida ba'zi bir qo'shimcha uyushmalar paydo bo'lishi, buning asosida ular qat'iy aniq xulosalar va xulosalarga kelish qobiliyati juda muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, turli xil vaziyatlar ma'lum bir jamoa madaniyati doirasida ushbu vaziyatlarning boshqa lingistik jamoalar a'zolari uchun ma'nolaridan farq qiluvchi maxsus ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ma'lumki, ba'zi xalqlarda bosh irg'ash tasdiqni, boshqalarda esa inkor qilishni anglatadi. Bunday kelib chiqadiki, bu imoshoraning tavsifini turli xalqlar vakillari har xil tushunishlari mumkin.

Xulosa. Ingliz tilidagi asl nusxaning aniqligi nisbatan kamroq kuzatiladi. Odatda, tarjimada ba'zi tafsilotlarning o'tkazib yuborilishi ixtiyoridir va tarjimon taqdirmotni yanada qisqartirishga intilishi bilan izohlanishi mumkin:

Tarjimonlar asl nusxada aniq g'oyani ifodalaydigan qismini tarjima qilmaslik mumkin deb topdilar (qutidan biron bir narsa olish uchun uni ochish kerak).

Xabarda tasvirlangan xususiyatlarni birlashtirish usuli. Vaziyatning tanlangan belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalar xabarda uni qurish uchun ma'lum qoidalarga muvofiq birlashtiriladi. Barcha tillarga xos bo'lgan hodisalar bilan bir qatorda, har bir til xabar tarkibida individual tushunchalarini birlashtirish imkoniyatiga o'z cheklolvarini qo'yadi.

ADABIYOTLAR

1. Jon Drayden. Avrangzeb. Tragediya. / Ingлизчадан Dilafruz Ochilova tarjimasi. – Toshkent: Navro'z, 2014 – 276 bet.
2. Aurangzeb. A tragedy. John Dryden, –P. 211
3. Avrangzeb. Tragediya. Ingliz tilidan Ochilova Dilafruz tarjimasi -B 212
4. Jek London. White fang. 1906. – P. 124.
5. Jek London. Oq so'yloq. Olim Otaxon tarjimasi. G'ofur G'ulom, 2010. –B. 120.1988. – 318 c.
6. Aurangzeb. A tragedy. John Dryden, –P. 73
7. Avrangzeb. Tragediya. Ingliz tilidan Ochilova Dilafruz tarjimasi -B 74
8. John Dryden. Aurengzebe. A tragedy. London, 1670. (Электрон манзил: <https://www.britannica.com/topic/Aureng-Zebe> (мурожаат санаси: 25.10.2022)
9. Jo'rayev K. Tarjima san'ati. – T.: Fan, 1982. – 60 b.
10. Jo'rayev K., Jo'rayev E. va boshqalar. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –Andijon, 2008. – 116 byu
11. Aurangzeb. A tragedy. John Dryden, –P. 37
12. Avrangzeb. Tragediya. Ingliz tilidan Ochilova Dilafruz tarjimasi –B 38
13. Javbo'riyev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish (O.Yoqubovning Ulug'bek xazinasi tarixiy romanining nemischa tarjimasi misolida): Filol. fan. nomz. diss. – T., 1991. – 202 b.
14. Isaqova Sh. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning Navoiy romanining fransuzcha tarjimasi misolida). Filol. fan. nom. diss. Toshkent, 2004. – B.94.
15. Karimov N. Adabiy aloqa va badiiy tarjimaning yangi ufqlari. // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2015. № 3. 4-b.



Dildora TO'RAYEVA,

ToshDO'TAU doktoranti (DSc)

E-mail: dildoratorayeva9@gmail.com

[https://orcid.org/0000-0002-2595 3516](https://orcid.org/0000-0002-2595-3516)

Renessans ta'lim universiteti Renessans ta'lim universiteti v.b.dotsenti, PhD F.Saidova taqrizi asosida

MUAMMOLI VA ANONIM YOZISHMALAR LINGVISTIK TAHLILI VA BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada sud-huquq tizimida muammoli deb topilgan yozishmalar, anonim xatlarning lingvistik tahlili va bosqichlari xususida nazariy hamda amaliy xulosalar keltirilgan. Yozishmalar turlari, ularning tahlilida lingvistik bilimlarning ahamiyati, o'mni, tadqiq metodlari, metodologik asoslari xususida mulohaza yuritilgan. Og'zaki va yozma nutqqa aloqador lingvistik tahlilda tadqiq metodologiyasining o'ziga xosliklari hamda farqli jihatlari o'chib berilgan.

Kalit so'zlar: yozishma, mummoli, anonim, lingvistik ekspertiza, metodologiya, nominalistik, dialektik, lingvistik ekspertiza, idorikiy bilish, fahmiy bilish.

LINGUISTIC ANALYSIS AND STAGES OF PROBLEMATIC AND ANONYMOUS CORRESPONDENCE

Annotation

The article provides theoretical and practical conclusions on correspondence, linguistic analysis and stages of anonymous letters, which are found to be problematic in the judicial system. The types of correspondence, the importance, place of linguistic knowledge in their analysis, methods of research, methodological foundations are discussed. The linguistic analysis related to oral and written speech reveals the peculiarities and different aspects of the research methodology.

Key words: correspondence, mummoli, anonymous, linguistic examination, methodology, nominalistic, dialectical, linguistic examination, departmental knowledge, understanding.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ЭТАПЫ ПРОБЛЕМНОЙ И АНОНИМНОЙ ПЕРЕПИСКИ

Аннотация

В статье представлены теоретические и практические выводы о лингвистическом анализе и этапах переписки, анонимных писем, которые считаются проблематичными в судебно-правовой системе. Рассматривались виды корреспонденции, значение, место языковых знаний в их анализе, методы исследования, методологические основы. В лингвистическом анализе, относящемся к устной и письменной речи, выявлены особенности и отличительные черты методики исследования.

Ключевые слова: переписка, муммоли, анонимный, лингвистическая экспертиза, методология, номиналистическая, диалектическая, лингвистическая экспертиза, идорическое знание, научное знание.

Kirish. Hozirgi davrda matn tilshunosligi va aloqa nazariysi, qolaversa, sud-huquq tizimidagi lingvistik ekspertizaneng eng asosiy obyektlaridan biri shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shaxsiy yozuv – biror narsani o'ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko'rish zarurati tug'ilganda foydalananligidagan vosita[10]. Shaxsiy yozishmalar tushunchasi qay mavzu va yo'nalishda bo'lismidan qat'i nazar insonsoing individual yondashib amalga oshirgan harakatidir. Shaxsiy yozishmalar bir tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda bo'lishi mumkin. Xabar yo'llovchi va qabul qiluvchisi aniq bo'lgan shaxsiy yozishmalar – ikki tomonlama yozishmalar sanaladi. Shuningdek, xabar yo'llovchi aniq-u, qabul qiluvchi noaniq yoki xabar yo'llovchi noaniq-u, qabul qiluvchi aniq bo'lgan bir tomonlama munosabatdagi shaxsiy yozishmalar ham mavjud. Masalan, biror shaxs boshqa birovning o'limiga sababchi bo'lib qolishi va uning nomidan marhumning o'zi aybdorligi xususida ma'lumot goldirishi mumkin. Bunda yozishma ijrochisi aniq, ammo qabul qiluvchilar marhumming oilasi, qolaversa, fuqarolar huquqini himoya qiluvchi davlat tashkilotlaridir. Demak, shaxsiy yozishmaning ijro xususiyati bir tomonlama va ikki tomonlama shaxslar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi K.Dolinning so'zlariga ko'ra, "shaxsiy yozishma – yozuvchi tomonidan oldindan o'ylangan, qayta semantik jihatdan sintez qilingan va aytmoqchi bo'lgan fikrining eng yaxshi variantlaridan birini bayon etadigan matni". Yozma nutq tilning qayta ishlangan shakli bo'lib, uning eng kichik tafsilotlarigacha qayta tahrir qilish va qayta yaratish undan keyingina aniq bir xulosaga kelish mumkin bo'lgan jarayon mahsulidir. Shuning uchun ham yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan aniq va tushunarliroqdir.

Lingvistik ekspertizaneng an'anaviy sud ekspertizaneng taraqqiy topgan varianti sanaladi. Ularning o'zaro farqi shundaki, nazariy tilshunoslik bilimlarini amalda tatbiq etish asosida matndagi so'zdan tortib tinish belgilaringacha, xoh dalil matni yozma, xoh og'zaki bo'lsin, tubdan, izchil tahlil qilinadi. Bu matn muallifini aniqlashning eng yaqin taxminlarini berishga yo'l ochadi.

Shaxsiy yozishmalarning qo'lyozma, elektron, audio va video shakldagi turlarining o'ziga xos jihatlariga ko'ra lingvistik ekspertizani fanlar integratsiyalashuvni tarzida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shaxsiy yozishmalarning shakliy turini aniqlash uning mazmuniy guruhlarini ham o'rganish va tahlilga tortishda asos vazifasini o'taydi. Bu lingvistik ekspertizaneng to'laqonli bajarilishiga zamin hozirlaydi.

Shu o'rinda lingvistik ekspertiza xatshunoslik ekspertizasining taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Ya'ni xatshunoslik ekspertizasida muammoli hamda anonim yozishmalarning shakliy xususiyatlari: yozuvning dinamikasi, harflarning katta-kichikligi, shakli (burchaksimon, ovalsimon, yotiq, to'g'ri kabi), yozuv vositasining turi, yozuv uslubi, bosim kuchi (yozuv vositasini kuchli bosimda, kuchsiz bosimda amalga oshirilishi) kabilari o'rganiladi[1]. Lingvistik ekspertizada esa muallifi noma'lum bo'lgan, muammoli deb topilgan yozishmalarning mazmuniy xususiyatlarga ko'proq ahamiyat beriladi. Yozishmadagi so'zlarning ma'no darajalari, inson qadr-qimmatiga ta'sir kuchi kabi xususiyatlari o'rganiladi. Bunda matn tarkibiy qismlarini, avvalo, komponentlarga ajratib leksik, grammatic, sintaktik, punktuatsion tomonlari butun-qism munosabati asosida tahlil qilinadi[4]. Yozishma butun holatda o'rganiladi, ya'ni umumiy mazmuni, nutq yo'nalishi, tahlid, tahqir bor-yo'qligi kabi qabul qiluvchiga nisbatan munosabatlardir.

umumiylar tarzda aniqlab olinadi. So'ng matn qurilishidagi asosiy birliklar farqlanadi, avalo, ko'zga tashlanadigan jihatlari ajratib olinadi. Masalan, noadabiy leksik, grammatik va fonetik unsurlar bunda muhim belgi vazifasini bajaradi. Saralab olingen birliklarning uslubiy, hududiy, shaxs yoshi va jinsiga ko'ra jihatlari atroficha tahlil qilinadi. Har ikkala ekspertizaning umumiylar tomoni shundan iboratki, tahlil jarayonida dalil sifatida olingen materiallar o'zaro qiyoslash, taqqoslash asosida yakuniy xulosalar hosil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Muammoli yozishmalar esa anonim xatlardan tubdan farqlanadi. Muammoli yozishmalarda asosiy e'tibor yuqorida keltirilganidek nutqiy hosilalarning semantik, sintaktik, grammatic xususiyatlari qaratiladi. Ya'ni bunday matnlarda so'zning ma'noviy darajalari muhim rol o'yaydi. Muammoli yozishma – nutqiy hosilalarning semantik ifodasida haqorat, tazyiq, tahdid, tahqir, tuhmat, kamitsish, obro'sizlantirish kabi inson sha'ni va manfaatlariga putur yetkazuvchi birliklar ask etgan yozuvdir. Bu masalada Kemerovo instituti olimi L.G.Kim xolistik usuldagagi lingvistik ekspertizani taklif qildi. Bu usul matnning butun holati, ya'ni umumiylar mazmuni, nutq yo'naliishi, da'vat yoki tahqirning mavjudligi kabilalar bilan bir qatorda matnning tarkibini tashkil etuvchi eng kichik qismlarigacha o'rganishdir. Bunda matnning umumiylar holatidan matndagi elementlar va ularning chastotasini taqqoslash orqali muallif haqida xulosa chiqariladi [5].

Rus olimi A.N.Baranov esa kvazissinonimik tahlil usulini taklif qildi. Unda butun va qismlarning sinomimligi yuzasidan leksemalarni tahlil qilish orqali matn muallifi aniqlanadi. Masalan, juda oz, to'satdan, bexosdan, kutilmaganda kabi so'zlar mazmunan boshqa-boshqa tushunchani ifodalasa-da, ular matn tarkibida kontekstual sinonimlikni hosil qiladi[6]. Shaxsiy yozishmalarning tili turli yo'naliishi bo'lishi mumkin. B.Najua matnlarning umumiy tasnifiga asoslanib, xat ko'rinishidagi matnlarning quyidagi subtipalarini ta'kidlaydi:

- 1) informatsion ruhdagi xatlar;
- 2) da'vat ruhdagi xatlar;
- 3) kommunikativ ruhdagi xatlar.

Yuqorida muammoli va anonim yozishmalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirildi. Bevosita hududga aloqador birliklarning lingvistik ekspertizasini amalga oshirishda anonim yozishmalar muhim obyekt sanaladi. Bunda tadqiqotchi olim

S.N.Zeitlin "Nutqiy xatolar va ularning oldini olish" mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me'yoriy buzilishlarni quyidagicha farqlaydi:

a) so'z shakllanishi – so'zlashuv jarayonida tasodify, inson bilmagan holda noadabiy shakllangan so'zlarini qo'llashdan iborat;

b) morfologik – so'z tarkibining g'ayritabiyy shakllanishi va nutq qismlarini ishlatishtadan iborat;

c) sintaktik – so'z birikmalarini, oddiy va murakkab jumlalarni noto'g'ri tuzishdan iborat;

d) leksik – noadabiy leksik unsurlar, kanselyarizm, parazit so'zlardan iborat;

e) frazeologik – frazeologik biriklarni noadabiy me'yorda qo'llashdan iborat;

g) uslubiy – so'zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat [8].

Masalan, har bir inson so'zlayotganda adabiy me'yordan chetga chiqishi mumkin. Ya'ni nutqiy hosilalarning areal va sotsial chegaralangan bo'lishi mumkin. Nutqning areal chegaralani – adabiy tilga oid birliklarning leksik, semantik, grammatic va sintaktik jihatdan ma'lum bir hududga xoslanishdir. Areal lingvistika terminini XIX asrning 1-yarmida italyan olimi K.Bartol o'z tadqiqotida qo'llagan va, keyinchalik, bu soha Yevropa olimlari e'tiboriga tushgan. Uning fikricha, areal lingvistika til, dialect, shevalarni hudud doirasiga muvofiq tarzda o'rganuvchi tilshunoslik tarmog' idir. Lingvistik geografiya, areal lingvistika sohalarining huquq tizimi bilan integratsiyalashuvi shaxsiy yozishmalarda til birliklarning hududiy xoslanishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahhil va natijalar. Anonim shaxsiy yozishma tahlilida ikki: sifatlari va miqdoriy yondashuv mavjud. Sifatlari yondashuvda matnni tahlil qilish va izohlash uchun, dastavval, matnning tili, uslubini tavsiflash kerak. Shu orqali matnning xususiyatini aniqlab olish, so'ng ma'lum yozuvchiga xosligini aniqlashdan iborat. Ikkinchi yondashuvda esa matndagi so'zlar, adabiy me'yordan chekinish holatlari va punktuatsion belgilari chastotasini hisoblash orqali miqdoriy yondashuv amalga oshiriladi[10]. Olim A.N.Baranovning fikricha, konsetstual tahlil usuli asosida hududiy xoslangan leksik birliklarni aniqlash samarali natija beradi. Quyida Telegram tarmog'idan olingen yozishma misol qilib olindi:

A: Karochchi o'wa kungi tadbir bo'midi g'irt
Qur 102 guruhdan chiqdi
B: Anuvi qiz vashe daxshat o'ynarkanmi
A: hayla ssenariyni yo'qtomaganidza bizzi qizla ham o'ynardi, shuni desam ham ko'nmadizze
B: Eee osha kurtoy o'ziga bino qoygan qizlarizga osha ssenariy hm hayf

Dastavval, yozishmaning umumiylar va xususiy jihatlari farqlanadi. Yozishmaning shakliy, ma'noviy turi va til xususiyatlari umumiylar jihatni sanaladi. Yozishmaning xususiy belgilariga quyidagilar kiradi: uning mazmuniylar xususiyatlari, mavzu yo'naliishi hamda nutqiy birliklarning o'ziga xos ifoda xarakteri kabilalar. Bevosita xususiy belgilarning tahlili lingvistik ekspertizanining aosi bo'la oladi. Bunda matndagi so'zlar adabiy va

noadabiy turlarga ajratiladi. Matnda noadabiy leksik unsurlardan: karochchi, takoy, uje, vapshe, malades, chotaa, tembole kabi parazit so'zlar qo'llanilgan. Shevaga oid so'zlardan: qur, bo'midi, hayla, anuvi kabilalar matnda aks ettirilgan.

Munosabat turini aniqlash uchun har bir birlikning semantik-mohiyati, kontekstual vaziyati tubdan o'rganiladi:[4]

1.2-jadval

Misolilar	Noadabiy leksik, garmmatik, fonetik birliklar	Semantik ifodasi	Kontekstual ifodasi
Karochchi o'wa kungi tadbir bo'midi g'irt	Karochchi so'zining qo'llanishi; -ay shakli -iy tarzida berilgan	Karochchi – varvarizm	xullas so'zining ekvivalenti sifatida
Qur 102 guruhdan chiqdi	Qur so'zining ifodasi	Qur – davra, marta, faqat ma'nosida	Davra 102 guruhdan chiqdi; Marta 102 guruhdan chiqdi; Faqat 102 guruhdan chiqdi
Anuvi qiz vashe daxshat o'ynarkanmi	Vashe so'zining ifodasi; a tovushi u tovushi tarzida ifodalangan	Vashe- varvarizm	umuman so'zining ekvivalenti sifatida
hayla ssenariyni yo'qtomaganidza bizzi qizla ham o'ynardi, shuni desam ham ko'nmadizze	Hayla so'zining qo'llanishi; -ingiz II shaxs ko'plikdagi shaxs-son shakli -iz tarzida ifodalangan; ko'plik shaklida r tovushi tushgan; -ni tushum kelishigi -zi tarzida ifodalangan.	Hayla – ana u, o'sha ma'nosida	O'sha ssenariyni yo'qtomaganidza bizzi qizla ham o'ynardi, shuni desam ham ko'nmadizze
Eee osha kurtoy o'ziga bino qoygan qizlarizga osha ssenariy hm hayf	Kurtoy so'zining ifodasi; -ingiz II shaxs egalik shakli -iz tarzida ifodalangan;	Kurtoy –varvarizm	O'ziga bino qo'ygan so'zining ekvivalenti sifatida

Shevaga oid qur so'zi Surxondaryoning ayrim hududlarida davra ma'nosini anglatsa, Namanganda marta mazmunini ifodalaydi: Bir qur o'qidim. Qashqadaryoning Kitob tumani, Samarqandning Bulung'ur tumanida, Navoiyning Xatirchi tumanlarida bu so'z faqat ma'nosida ishlataladi. Yozishma

mazmunidan ayon bo'ladi, bu so'z yozishmada leksik ma'noga ega mustaqil so'z sifatida qo'llanilmayapti. Aynan qur so'zi davra ma'nosida emas, balki yuklama mazmunida qo'llanilgan. Bundan tashqari hayla so'zi Qashqadaryo, Buxoro shevalarida haylo so'zi uzoqdagi narsani ko'rsatish mazmunida ishlataladi. Aynan hayla

talaffuzi bilan Navoiyning Xatirchi tumanida, heyla yoki hayla shaklida Samarqandning Bulung'ur tumanida qo'llaniladi.

Xulosa va tahliflar. Yuqoridaq tahlildan ayon bo'ladiki, A ismli shaxs (ismilar sharli ravishda harflar bilan berildi) O'zbekistonning janubiy hududlariga tegishli sheva vakilidir. To'g'ri, tahlil jarayonida Andijon, Namangan, Surxondaryo hududlarining shevaga oid so'zlarini uchratish mumkin, ammo qur so'zining kontekstual tahlil asosidagi ma'nosи o'zaro farqli

xarakter kasb etadi. Zero, qur davra (Surxondaryo), marta (Namangan) ma'nosida, ayiruv-chejaralov yuklamasi hisoblangan faqt ma'nosida esa Qashqadaryo va Navoiy hududlarida qo'llaniladi. Hayla va qur so'zlarining semantik ifodasi so'zlovchining Qashqadaryo, Navoiy hududiga mansub shaxs ekanligi haqida taxminiy xulosa beradi. Bunday xulosalar sud jarayonida matn avtorizatsiyasi masalasiga aniqlik kiritish uchun, albatta, zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Kolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // – Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.
2. Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5-11.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 656.
4. Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – С. 507-509.
5. Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. – М., 2002. – С. 356–363.
6. Яроцук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие / – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 16 с.
7. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва: Просвещение, 1982. – 21 с.
8. Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages, 2019. – 2 p.
9. Michell C.S. Investigating the use of forensic stylistic and stylometric techniques in the analyses of authorship on a publicly accessible social networking site (FACEBOOK). submitted in accordance with the requirements for the degree of MASTER OF ARTS. University of South Africa, 2013. – 64 pp.
10. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: Учеб. пособие / А. Н. Баранов. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.
11. <https://koreajob.ru/uz/sekrety-interesnyh-istoricheskikh-pisem-istoriya-pisem-interesnye-fakty/>



Oysulton TURAQULOVA,
Lecturer of Denau Institute of Entrepreneurship And Pedagogy
E-mail:turaqulovaoysslton@gmail.com

On based review DSc, associate professor of T.Kuchkarov

SOCIOLINGUISTIC ASPECTS OF MEDICAL LANGUAGE: NAVIGATING COMMUNICATION IN HEALTHCARE

Annotation

Tahsil va natijalar. Mustaqillik davri ijtimoiy-siyosiy asarlari leksikasi zamон bilan hamnafas bo'lgan holda o'z taraqqiyotiga erishdi. Bu sohaga ko'plab yangi atamalar kirib keldi. Bu o'z-o'zidan bo'lmasdi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning bu qadar rivojlanishida shu davrning siyosatshunos-olimlari, sharhlovchilar, yozuvchilar, ijodkorlarining xizmatlari beqiyos, albatta. “O'zbekiston XXI asr bo'sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ifoda-tasvir vositalaridan biri bo'lmiss kinoyadan ham o'rinali foydalilanigan. Shu o'rinda asarda qo'llanilgan kinoyalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning har biri biron bir masalani yoritishga, muallif fikrlarini yanada tushunarliroq qilib ifodalashga xizmat qilgan. Jumladan, diniy masalalarda “din uchun kurashuvchilar”, “yaxshi niyatli kishilar” kabi kinoyaviy birikmalardan foydalangan. Shu o'rinda bir misol:

“Biroq shu o'rinda bir gapni aytilib o'tmaslik mumkin emas. Aftidan, ana shunday “yaxshi niyatli kishilar”ning ko'pchiligi tinchlik va tartibni ta'minlash, mojarolar va ular keltirib chiqaradigan salbiy jarayonlar bizning ona zaminimizga ko'chib o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlatimiz nechog'li katta kuch-g'ayrat sarflayotganligi haqida o'ylab ko'rmayotganga o'xshaydi” [7].

Yuqorida keltirilgan matnda g'araz niyatli kishilarni kinoya bilan “yaxshi niyatli kishilar” deb aytildi. Bu ham ifoda usulining o'ziga hos bir jihat bo'lib, fikrni yanada ta'sirchan qilib ifodalashga xizmat qiladi. Bularni, bir qaraganda, oddiy so'zlar yordamida “niyati yomon”, “o'z manfaati uchun vatanini, qarindosh-urug'lari, aka-ukalarini ham sotib yuboradigan” kimsalar, deya ifodalash ham mumkin edi. Ammo unda jozibadorlikka, ta'sirchanlikka erishib bo'imas edi. “Yaxshi niyatli kishilar” qo'shtirnoq ichida qo'llanilib, o'z ma'nosiga

qarama-qarshi ma'noni ifodalamoqda. Shu bilan muallif o'z ifoda uslubiga xos bo'lgan tarzda maqsadiga erishgan.

Fikrni bayon qilishda kinoyadan foydalanish hissiy-ekspresivlikni yuzaga keltiradi, ifodalananayotgan fikrning ta'sirchanligini oshiradi, timsoliy va jozibador ifoda uslubiga erishiladi. Ushbu hissiy-ekspresivlikni o'z holicha, ta'sir kuchini yo'qtmag'an holda ikkinchi bir tilda ifodalash mumkinmikan? Muallifning uslubi, uning ifoda usullari tarjima ishida ham saqlanadimi? Ya'ni, so'z ta'sirchanligini, timsoliyligini tarjima tilida ham saqlab qolish imkonli bormi? Asardan olingen matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

“In this context, however, I can but insert one remark that most probably few of such “optimists” can not imagine what huge efforts ...” [8].

Matnda keltirilgan kinoya – “yaxshi niyatli kishilar” ingliz tilidagi tarjimasida ham kinoya bilan “optimists” tarzida berilgan. Yuqorida biz “yaxshi niyatli kishilar” iborasining kinoya bilan aytilgani va qanday ma'no aks ettirib, qanday vazifalarni bajarganligi haqida gapirib o'tdik. Shu bilan bir qatorda, unga muqobil qilib olingen ikkinchi bir tilida “optimists” so'zi qanday ma'noni anglatgan, asliyatda berilgan kinoyaga teng ma'no va ta'sirchanligini ifodalay olganmi? Ingliz tilidagi “optimists” so'zi o'zbek tiliga “har qanday boshlangan ishni yaxshilik bilan yakunlanishiga ishonuvchi kishilar, yaxshi niyatli kishilar” degan ma'nolarni anglatadi[9]. Demak, ingliz tilidagi “optimist” so'zi asarda kinoya bilan qo'shtirnoq ichida o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'noni ifodalayapti. Asliyat matnidagi kinoya tarjima matnida ham unga teng bo'lgan so'z yordamida kinoya bilan berilgan. Kinoya – kinoya orqali tarjima qilingan va shu tariqa tarjimada muallif uslubi, asarning ta'sirchanligi, matning ifodaliligi, so'zning jozibadorligi o'z aksini topa olgan. Tarjimada asliyatdag'i “ana shunday “yaxshi niyatli kishilar”ning ko'pchiligi (tasavvur qila olmaydi)” iborasi ingliz tiliga “few of such “optimists”, ya'ni “kam sonli “yaxshi niyatli kishilar” (biladilar) tarzida o'girilgan. To'g'ri, bu yerda so'zlarni alohida holda oлganimizda bir-biriga antonim, ya'ni asliyatda “ko'pchilik” tarjimada “few” – “ozchilik” deb berilgan. Lekin bu so'zlar matn ichida kelganda asliyatdag'i ma'no tarjimada to'la saqlangan. Faqatgina tarjimon quyidagicha antonimik tarjima tamoyilidan foydalanganini ta'kidlash joiz:

ko'pchilik ----- ozchilik
tasavvur qila olmaydi ----- biladi.

Muallif tomonidan qo'llanilgan ushbu kinoyaviy ifoda asarning rus tilidagi nashrida quyidagicha aks etgan:

“Однако в этом контексте не могу не вставить одну ремарку, что, по всей вероятности, мало из такого рода «оптимистов» догадывается о том, каких колоссальных усилий стоит государству обеспечение мира и порядка, недопущение переноса конфликта и сопутствующих ему негативных процессов на нашу землю” [10].

Bu yerda o'zbek tilidagi “yaxshi niyatli kishilar” iborasi rus tiliga “оптимисты” so'zi bilan ifodalangan. “Оптимисты” o'zbek tiliga “yaxshilikni ko'zlovchi, yaxshi niyatli nekbin kishilar” degan ma'noni anglatadi[11]. Asarni rus tilidagi nashrida ham “yaxshi niyatli kishilar” kinoyasi shunga teng bo'lgan kinoya yordamida ifodalangan. Chunki, asarning rus tilidagi matnida ham “оптимисты” so'zi kinoya bilan qo'shtirnoq ichida ishlatalgan. O'zbek tilidagi “ana shunday “yaxshi niyatli kishilar”ning ko'pchiligi (...) davlatning qanchalik katta kuch sarflayotganligini o'ylab ko'rmayotganga o'xshaydilar” so'zleri rus tiliga “мало из такого рода «оптимистов» догадывается о том”, ya'ni “бундай кам sonli “yaxshi niyatli kishilar” (...) biladilar” tarzida berilgan. Asliyatda ko'pchilik tasavvur qila olmayotganligi aytilsa, tarjimada «ozchilik biladi» deyilgan.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo xilma-xil dinlar, madaniyatlar bilan tinch-totuvlikka erishgan mintaqadir. Nafaqat barqaror turmush tarziga erishgan, balki mavjud madaniyatlar bir-birini to'ldirgan, boyitgan. Ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar kuchaygan bir paytda qo'shni mamlakatlarda notinchliklar yuzaga kelganda ham O'zbekiston tinchlik elchisi sifatida o'zini namoyon eta oldi. Lekin shunday bo'lsa-da, tinchligimizga, xavfsizligimizga bo'layotgan tahdidlar mavjudligini tan olish kerak.

Nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo xavfsizligiga bo'layotgan asosiy tahdidlardan biri – bu diniy ekstremizm va fundamentalizmdir. Islom dini muqaddas dindir. U hech qachon hech kimni yomon ishlar qilishga undamaydi. Nopok yo'lidan qaytaradi. O'zini chin musulmon hisoblagan har bir kishi haqiqiy islom yo'lini tutsa, hech qachon qing'ir ishlarga qo'l urmaysdi, hech qachon boshqalar hisobiga o'zini boyitishga harakat qilmaydi. Dinni niqob qilib olgan g'araz niyatli kishilarga va ularning qilmishlariga munosabat bildirib asar muallifi quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

"Ana shunday sharoitda turli-tuman "din uchun kurashuvchilar" o'z xatti-harakatlari va niyatlarini oqlash uchun diniy shiorlardan foydalanmoqdalar" [7].

Bu matndan ko'rinish turibdiki, asarda ana shunday dinni niqob qilib olgan, diniy shiorlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalangan g'araz niyatli kishilarni kinoya bilan qo'shtirnoq ichida "din uchun kurashuvchilar" deya nomlanadi. Muallif shunday ifoda usulini tanlaganki, kinoya bilan aytilgan birligina "din uchun kurashuvchilar" iborasi orqali din va diniy shiorlar orqasiga berkinib olib, qora ishlarini amalga oshirayotgan kishilarni va ularga bo'lgan nafratini bayon qilmoqda.

Bunday ifoda usuli qaysi tomonlari bilan ajralib turadi? Bu borada so'z borganda, avvalo, ijtimoiy-siyosiy asar muallifi uslubi publisistik uslub ekanini qayd etib o'tish kerak. Publisistik uslub o'ziga xos jihatlari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Aslida, tasviriy ifoda vositalari badiiy asarlarga xos. Badiiy asar muallifi voqe'a-hodisalarni tasvirlashda tasviriy vositalardan erkinroq foydalaniadi. Lekin bu bilan ijtimoiy-siyosiy asarlarda timsoliylik, tasviriylik va bo'yodqorlikka xizmat qiladigan vositalar qo'llanilmaydi, degan xulosaga kelish – noto'g'ri. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda ham hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalar ishlatalidi va shu yo'l bilan muallif aytmoqchi bo'lgan fikrining ta'sirchanligi oshadi. Tahlil etilayotgan asar muallifi ham o'z fikrlarini oddiy ifoda usulidan ko'ra samaraliroq tarzda bayon etish uchun ana shunday bo'yodqr so'zlarga murojaat qilgan. Ushbu bayon tarzi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha o'girilgan:

"In such conditions heterogeneous "fighters for faith", to justify their actions and intentions use religious slogans,..." [8].

Asar muallifi kinoya bilan qo'llagan "din uchun kurashuvchilar" iborasi ingliz tiliga "fighters for faith" tarzida o'girilgan. Bu yerda asarni ingliz tiliga o'girgan tarjimon nafaqat har ikki tilni o'zlashtirganini, balki asar predmetini ham mukammal darajada o'rganganini namoyish eta olgan, ya'ni asliyatda kinoya orqali ifodalangan "din uchun kurashuvchilar" iborasi tarjima tilida ham o'z jozibasini saqlab qolgan holda, kinoya tarzida o'girilgan. Ingliz tilidagi "faith" so'zi o'zbek tiliga «ishonch», ya'ni Ollohga ishonch, iymon, e'tiqod, din» ma'nolarini

ifodalaydi[12]. Bu yerda asar tarjimon so'zma-so'z tarjima yo'lidan borganda «fighters for religion» tarzida berishi ham mumkin edi, chunki inglez tilidagi «religion» so'zi o'zbek tilida «din, ishonch» degan ma'nolarni anglatadi [13]. Lekin asarning asliyat matnida «din uchun kurashuvchilar» iborasidan din, ya'ni diniy ishonch, Ollohga e'tiqod ma'nolari kuchaytirilgan tarzda anglashilmoxda. Bu ifoda usuli matn ichida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Buni to'g'ri anglay olgan tarjimon matn ichida ochilgan ma'noni tarjimada ham ta'sirchan qilib, ma'noni kuchaytirgan holda religion emas, balki faith so'zidan foydalangan. Shu tariqa tarjimon o'z ishida asliyatda qo'llanilgan iboraga tarjima tilida teng so'z topa olgan va shu yo'l orqali muallif uslubini, asar ta'sirchanligi va jozibasini bir vaqtning o'zida saqlab qolishga erishgan.

Muallif uslubi, matnning kinoya yordamida yuzaga keltilgan ta'sirchanligi asarning rus tilidagi nashrida quyidagicha berilgan:

"В этих условиях разномастные "борцы за веру" для оправдания своих действий и намерений используют религиозные лозунги" [10].

Bu yerda o'zbek tilida berilgan "din uchun kurashuvchilar" kinoyasi rus tiliga "борцы за веру" tarzida berilgan. Rus tilidagi vera so'zi o'zbek tiliga ishonch, ishoni, Ollohga e'tiqod, iymon ma'nolarini kuchaytirgan shaklda anglatadi[11]. Shu so'zga sinonim bo'lgan религия so'zi esa nisbatan kuchsizroq ma'no, ya'ni din degan oddiy ma'noni ifodalaydi[13]. Demak, bu yerda birinchi o'rinda ma'no ustuvorligi qo'yilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridaqilardan asliyatdagি kinoyalarni ingliz tiliga o'girilish borasida quyidagi xulosalarни chiqarish mumkin:

kinoyalar ijtimoiy-siyosiy asarlar tilining jozibadorligi, muallif ilgari surgan g'oyani keng kitobxonlarga yetkazish uchun muhim tasvir vositalaridan hisoblanadi;

o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy asarlar qo'llanilgan kinoyalarni ingliz tiliga muqobil tarjima qilish asliyatda ifodalangan voqe'likdan to'la-to'kis xabardor bo'lishlikni talab qiladi;

kinoyalar obrazli vositalar bo'lganligi bois ularni xorijiy tillarga o'girish muayyan tayyorgarlikni talab qiladi, ya'ni ularni o'zga tilga shundayligicha o'tkazib qo'yaverish bilan ish bitavermaydi;

o'zbekcha matndagi kinoyalarni xorijiy tillarga o'girishda ingliz tarjimonlari qo'llagan: so'zma-so'z tarjima, asliyatdagи kinoyaviy iboraning bir qismini o'zgartirib o'girish, tarjimada asliyatdagи kinoyaviy ibora bir qismini tushirib goldirish kabi tamoyillar tarjima adekvatligini ta'minlashda ijobiy rol o'ynagan.

ADABIYOTLAR

- Саломов Ф. Матн, таржима ва истилоҳ. Т. : 1989.
- Олимов С. Огохлик. "Тафаккур" журнали, 1997, 3-сон.
- Жабборова М. 20-30 - йилларда Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий адабиётлар таржимаси. "Таржима муаммолари", мақолалар тўплами. Т.: 1991.
- Раширова Д. "К. Маркс ва Ф. Энгельс асарларидаги фалсафий терминология" (улар асарларининг русча ва ўзбекча таржималарини немисча аслияти билан қиёсий ўрганиш асосида). Дисс. Т.: 1972.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 томли, "Рус тили" нашриёти, М.: 1981. 1-том.
- Сулаймонов Б. Ноғилологик ўқув юртларида тарабаларга ижтимоий-сиёсий атамаларни ўргатиш тажрибасидан. "Тил ва адабиёти таълими", Т.: 2000, 3-сон.
- Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
- Karimov I. Uzbekistan is on the Threshold of the Twenty-First Century: Threats to Security, Conditions of Stability and Guarantees for Progress, -T.: "Uzbekistan", 1997.
- Active Study Dictionary of English, M.: "Русский язык", 1988.
- Каримов И. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. –Москва: Дрофа, 1997.
- Усмонов О. Ижтимоий-сиёсий терминлар лугати. –Тошкент: ФАН, 1976.
- Macmillan English Dictionary, for Advanced Learners, United Kingdom, 2004.
- Сиротина Т. А. Большой современный англо-русский, русско-английский словарь, Донецк, 2003.



Jasur KHUDOYBERDIEV,
Westminster International University in Tashkent, Senior Lecturer
E-mail: jhudoiberdiev@wiu.uz

The review is from USWLU professor, DSc M.Y.Umarova

THE PRINCIPLES OF ENLIGHTENMENT IN AMERICAN AND UZBEK JADID LITERATURE

Annotation

This article deals with the role of Enlightenment in American literature and Uzbek jadid literature. Enlightenment or the development of Enlightenment acts as a socio-philosophical and mass-democratic development shaped in resistance to the arrangement of socio-political viciousness set up within the spiritual educational circles of society. Its reason is to liberate the life of a specific community from philosophical-ideological and spiritual-educational violence and obliviousness and to supply all vital fabric and otherworldly perspectives of advancement through a free considering, progressed spiritual-educational framework.

Key words: Enlightenment, educational development cultural identity, foundations, nationalism, uniqueness, individuality, Turkestan, Jadid literature, Jadid schools.

ПРИНЦИПЫ ПРОСВЕЩЕНИЯ В АМЕРИКАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В этой статье рассматривается роль Просвещения в американском литературе эпохи Просвещения и узбекской джадидской литературе. Просвещение или развитие Просвещения выступает как социально-философское и массово-демократическое развитие, сформированное в сопротивлении установлению социально-политической порочности, установленной в духовно-образовательных кругах общества. Его причина - освободить жизнь конкретного общества от философско-идеологического и духовно-образовательного насилия, забвения и предоставить всю жизненную ткань и потусторонние перспективы развития через свободное рассмотрение, прогрессивную духовно-образовательную структуру.

Ключевые слова: Просвещение, образовательное развитие культурная идентичность, основы, национализм, уникальность, индивидуальность, Туркестан, джадидская литература, джадидские школы.

AMERIKA VA O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA MA'RIFATPARVARLIK TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amerika ma'rifatparvar adabiyoti va o'zbek jadid adabiyotida ma'rifatparvarlikning o'rni haqida fikr yuritiladi. Ma'rifatparvarlik davri taraqqiyoti jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy doiralarida o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy zo'ravonlik o'rnatilishiga qarshilik ko'rsatishda shakllangan ijtimoiy-falsafiy va ommaviy-demokratik taraqqiyot vazifasini bajaradi. Uning sababi ma'lum bir jamiyat hayotini falsafiy-g'oyavi va ma'naviy-ma'rifiy zo'ravonlikdan, unutilishdan ozod qilish va hayotning butun tuzilishini va boshqa dunyoviy rivojlanish istiqbollarini erkin ko'rib chiqish, ilg'or ma'naviy-ma'rifiy tuzilma bilan ta'minlashdir.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvarlik, ma'rifiy taraqqiyot, madaniy o'zlik, asoslar, millatchilik, o'ziga xoslik, individuallik, Turkiston, jadid adabiyoti, jadid maktablari.

Introduction. The term "Enlightenment" is usually analyzed in many ways. In a broad sense, this means educating the people and introducing them to public culture, science, and art. Specifically, this term is usually applied to express the spiritual movement that arose during the struggle against feudalism and aimed at its destruction [7].

In the second half of the 19th century, the result of socio-political changes in the country brought the idea of Enlightenment to foster dramatic changes. The new culture brought to Turkestan fulfilled its mission. Enlightened by the new spiritual leaders, intellectuals became passionate promoters of Enlightenment ideals. In the West, the Enlightenment was perceived as the cultural, ideological, and philosophical movement associated with the period of social thinking in the 17th and 18th centuries, when capital was the priority[8]. The concept of Enlightenment is considered a legitimate stage of every developing country. Basically, Enlightenment has national characteristics as well as general characteristics, such as rationalism to the notion that the human mind has unlimited possibilities, democratization of society's literacy, sticking to history and Historical optimism, as a reaction to the past, has always been considered as an initial stage of development in the development of science and society.

Literature review. The current article uses a wide variety of research and scientific articles to prove the main idea of the Enlightenment and support the given discussions. The main one has been "Encyclopedia of the enlightenment" by Peter Hanns Reill (2004). It is mainly used to emphasize the main significance of the term Enlightenment and its manifestations in literature.

Also, the scientific article by Khudoyorova N "Foundations of Enlightenment Literature Formation " (2020) is a principal source to discover the main steps of Enlightenment literature development. More importantly, the experiments and observations in her article provided obvious examples for my article. Moreover, the book "Outlines of American Literature" by Kathryn Vanspanckeren. (1994) is significant in terms of the stages of the process of Enlightenment literature and the main representatives Of American Enlightenment literature. Ulugbek Saidov explained the development stages of Enlightenment and Uzbek jadid literature: jadid poetry and prose, main works and analysis of jadid dramas in his book "European Enlightenment and National Awakening". Additionally, the book "Uzbek Prose of the Period of national renaissance" by I.Yoqubov (2012) is indispensable to focus on this term and its meaning. He described the development process of jadid literature in Turkistan including formation factors and historical conditions of the new Uzbek literature. Another article, "Freedom of Individuality and Country's Independence in Byron and Chulpon's Works)" by Makhliyo Umarova (2020), is also useful in analyzing the historical novel founders of two different nations, Byron and Chulpon, and identifying the significance of freedom in the lyrics of two poets.

Research methodology. The analysis of the role of the Enlightenment literature and the development of jadid literature can be studied applying a variety of methods, such as compare-contrast, analyzing the results of experiments and surveys and making conclusions with observations. The Enlightenment period

is of great importance in world literature. Enlightenment people put great significance on learning and emphasize that it is possible to change the world with intelligence and thinking. American and Uzbek literature of enlightenment also follows these principles, so in both countries, acquiring knowledge and educating the nation enlightened is considered the main concept.

First of all, the literature of the American Enlightenment corresponds to the period when the country achieved independence, the declaration of independence was announced and the country was fighting for its national liberty, while the literature of the Enlightenment period of Turkestan is called "national awakening" literature, mainly, the focus is driven to the trends of modernization and all the changes that took place in the society found their literary and artistic expression in literature. So, the method of comparing and contrasting is implemented by making reasonable comparisons between studied information that assists to find major issues in learning the American Enlightenment literature and Uzbek jadid literature are suggested as solutions. The Age of Enlightenment in America was not only a time of intelligence but also of self-awareness. People thought more about their feelings, social position, rights and duties, religious status and everything that affected them to a greater extent. Proponents and propagandists of the novel took a great responsibility to renew the literary thinking of the nation as well as to develop the existing literary forms and methods.

Benjamin Franklin is one of the representatives whose advanced ideas of the Enlightenment can be traced as a vivid sample. Moreover, intellectuals such as Thomas Jefferson, James Madison, John Adams, and Thomas Paine made significant contributions to American independence. In the literature of Jadids, we can observe the spiritualist Makhmudhoja Behbudi, Munavarqori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, Abdulla Qadiri and many other selfless Jadids who worked for the nation.

There are many common aspects of American and modern enlightenment literature, and the works of both countries for the sake of the nation's will and nobility have taken a worthy place in the science of literature.

Analyzing these two sources is helpful to see the certain benefits of this literature and jaded representatives. In this article, reasonable conclusions are made based on observing the statistics, facts and results of experiments.

Analysis and results. As in the period of the American Enlightenment, the process of ideological and educational growth can be observed in all genres of modern Uzbek Enlightenment literature. National literary traditions were one of the factors that motivated the improvement of the direction, topics, and content of the literature of the Enlightenment, as well as the system of literary types and genres. These traditions conveyed a new meaning in the literature of the beginning of the 20th century.

A new spirit, a new idea, entered the literature of the early 20th century. The subject range of fiction has expanded, the content has changed, and that is, a unique side of humor has appeared and developed in fiction. The writers of the period not only raised the nation's grief and its problems but also found a solution; in other words, they explained the necessity of reforming the nation's consciousness and thinking and writing works on this topic.

European Enlighteners imagined national customs and traditions as obstacles to true knowledge reflecting the universal laws of nature. The main solution to this situation was deism, or an understanding of the existence of God apart from scriptures, divine grace, revealed religion, prophecy, and miracles. Instead, religious belief was based on reason and natural world observations. Deists valued God as a rational deity. Another idea central to American Enlightenment thought was liberalism, the idea that people have rights and that state power is not absolute but based on the will and consent of the governed. Rather than a radical or revolutionary doctrine, liberalism was a concept based on commercial harmony and tolerant Protestantism adopted by merchants in Northern Europe, particularly Holland and England.

Eighteenth-century America's most memorable writers led the Revolution of 1775-1783, and the founding fathers of

American literature created the Constitution of 1789. None of these creators were fiction writers. On the contrary, they were true philosophers, and their best works were political treatises, whose authors had an Enlightenment belief that they could understand the human mind and human nature. Unlike the Puritans, who saw man as a sinful failure, Enlightenment thinkers believed that man could improve himself. They aim to create a happy society based on justice and freedom. Benjamin Franklin is one of the leading scholars of the Enlightenment period. Thus, the most advanced ideas of the American Enlightenment can be traced in Franklin's work.

The writings of Benjamin Franklin (1706- 1790) show the Enlightenment spirit in America at its best and most optimistic manner. His style is quite modern, and even today, his works enjoy great popularity. Although he strongly disagreed with the opinions of the Puritans, his works show a return to their "plain style". At the same time, there is something "anti-literary" about Franklin. He had no liking for poetry and felt that writing should always have a practical purpose [3]. Due to the geographical position of Central Asia, the possibility of establishing contact with European countries was quite limited, which in turn encouraged Asian countries to act as mediators in Russia, the Near and Middle East regions. In addition, Central Asian intellectuals who went on Hajj and various trips had the opportunity to exchange expertise with intellectuals from Turkey, Afghanistan and other Arab countries. In this way, Uzbek intellectuals got acquainted with European culture indirectly. In Turkestan, the modernist movements, first the founders of Turkey and Arab countries, then the Russian, Tatar, and Azerbaijani modernists, and finally, the Central Asian modernists, began to reform the field of education, to open new schools that teach modern, secular sciences, and foreign languages [5].

As we mentioned above, Jadids were creators of culture and literature as well as imparting enlightenment to the people of Turkestan. In 1914, in the first season of the first Tashkent folk theater in Turkestan, Munavarqori Abdurashidkhanov, in his introduction, recognized the theater artists as "doctors" of the society of the time: "Those who appeared on the stage with flour on their faces or dressed as masqueraders are skilled doctors. "They are similar," he says. So, Abdurashidkhanov emphasizes that the word "theatre" means "place of education", "school of greats".

In the literature of the European Enlightenment, attention is paid to the issues of education. One of the reasons why the 18th century was called the "Age of Enlightenment" in Europe is due to the fact that special attention was paid to the issues of education during this period.

In America, the Enlightenment became a societal achievement or project that never seemed to achieve full success. It was natural for this process to question the past or predict the future. However, people had different views about the past and the future.

Conclusion. This article mainly focuses on the significance of American Enlightenment and Uzbek jadid literature and the main representatives of that period. The main feature of the article is the study of the process of the American Enlightenment movement and Enlightenment in Turkistan at the end of the 19th and the beginning of the 20th century. This article also shows the benefits of this period and ideas which were proposed in this period. Enlightenment people usually raise ideas that are important for a particular period of time, for the present and the future of society, and they consistently fight to realize these ideas.

It can be concluded that the scope of topics and ideas in the literature of the Enlightenment remain very relevant today. The Enlightenment's emphasis on reason, logic, and empiricism is central to scientific research, academic discourse, and decision-making today. At the same time, debate continues about the limits of pure rationality and the need to balance it with other ways of knowing, such as intuition, emotion, and lived experience.

REFERENCES

1. Kathryn Vanspanckeren. Outlines of American literature. United States Department Of State,1994.-P.17
2. Peter Hanns Reill. "Encyclopedia of the enlightenment" (2004).
3. Peter B.High. An outline of American literature. -New York: Longman Inc, 2000. -P.15
4. Umarova, M.Y. "Freedom of individuality and country's independence in Byron and Chulpon's works)". Филология масалалари. Илмий методик журнал. –Т.: 2020. №1. Б. 34-42.
5. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. –Т.: Академия, 2004. -Б.9
6. Ёкубов И.Миллий уйғониш даври ўзбек насри. –Т.:Фан ва технология, 2012.-Б.12
7. Khudoyorova N. Foundations of Enlightenment Literature Formation. Foundations+of+Enlightenment+Literature file:///C:/Users/HP%20ELITEBOOK/Downloads/13-15+Foundations+of+Enlightenment+Literature+Formation.pdf
8. <http://forum.oyina.uz/uz/teahause/1942> [Murojaat sanasi: 19.05.2024].



Zumrat XUDOYBERDIYEVA,

Nizomiy nomidagi TDPU Yevropa tillari kafedrasи dotsenti v.b.

E-mail: xudoyberdiyevazumrat@gmail.com

PhD, dotsent F.Ibragimova taqrizi asosida

FRAZEOLOGIK BIRLIKLER VA ULARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Annotatsiya

Turg'un birkmalar hisoblanadigan frazeologizmlar har bir tilni bo'yodqorligini oshirib, o'sha tilni sermazmun qilishga xizmat qiladi. Bunday birkmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish har doim qiyinchiliklар bilan kechadi. Buning uchun mutarjimalardan ikki tilni mukammal bilish talab etiladi. Frazeologizmlar muhim birliklar hisoblanar ekan, ularning tarjima muammolari tarjimashunoslik va tilshunoslik aspektida doimo dolzarblik kasb etadi. Ushbu tadqiqotimizning maqsadi frazeologizmlarning xususiyatlari va ularning nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima muammolari tahlil qilishdir. Buning uchun oldimizga quyidagicha vazifalarni qo'yidik: 1)Frazeologizmlarning umumiy xususiyatlari tavsiflash; 2) nemis tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlarning tarjima muammolarini tahlil qilish. Ushbu tadqiqotimizda tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlari orqali o'rghanilayotgan mavzu tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, tarjima, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, turg'un birlik, sinonim, ifoda, tarjima imkoniyatlari.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПЕРЕВОДА

Annotatsiya

Фразеологизмы, считающиеся устойчивыми соединениями, увеличивают колорит любого языка и служат его обогащению. Перевод таких сочетаний с одного языка на другой всегда затруднен. Для этого от переводчиков требуется отличное знание двух языков. Поскольку фразеологизмы считаются важными единицами, проблемы их перевода всегда актуальны в аспекте переводоведения и лингвистики. Целью данного исследования является анализ особенностей фразеологии и проблем их перевода с немецкого языка на узбекский язык. Для этого мы поставили перед собой следующие задачи: 1) описать общие черты фразеологизмов; 2) анализ проблем перевода фразеологии с немецкого на узбекский язык. В данном исследовании изучаемая тема анализируется с помощью методов описательного и сравнительного анализа.

Ключевые слова: Фразеологизм, перевод, литературоведение, переводоведение, устойчивая единица, синоним, выражение, возможности перевода.

PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROBLEMS OF THEIR TRANSLATION

Annotation

Phraseologisms, considered stable compounds, increase the color of any language and serve to enrich it. Translation of such combinations from one language to another is always difficult. This requires translators to have excellent knowledge of two languages. Since phraseologisms are considered important units, the problems of their translation are always relevant in the aspect of translation studies and linguistics. The purpose of this study is to analyze the features of phraseology and the problems of their translation from German into Uzbek. To do this, we set ourselves the following tasks: 1) to describe the common features of phraseologisms; 2) analysis of the problems of translating phraseology from German into Uzbek. In this study, the topic under study is analyzed using descriptive and comparative analysis methods.

Key words: Phraseological unit, translation, literary studies, translation studies, stable unit, synonym, expression, translation possibilities.

Kirish. Tilshunoslikda lug'at zahirasining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Tilning lug'at boyligi asosan so'zlardan iborat. Leksik birliklar deganda, nafaqat alohida so'zlarni tushunamiz, balki turg'un so'z birkimlarini (fraz, turg'un ibora, frazeologizmlar) ham tushunamiz. Frazeologiya (yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui. Frazeologiyani kengroq ta'riflash uchun uning nazariyi va amaliy jihatlariga e'tibor berish kerak.

Frazeologiya – bu til hodisalarining frazeologik jihatdan ifodalani uchun bugungi kunda turli xil baxs-munozalaralarga sabab bo'lmoqda[8].

Frazeologik birlklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga – ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu xol xam tarjimonlar oldiga qator amaliy kiyinchiliklarni kundalang qilib qo'yadi. Asl nusxa va tarjima tillari frazeologizmlarning tabiatini qiyosiy o'rgangan holda, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo'l va imkoniyatlarini belgilash to'laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarda rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birkimlarini alohida tilshunoslik bo'limi — frazeologiyada o'rghanish masalasi 20-40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillardan boshlangan. Sh. kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rGANILGAN (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, Sh.Imyaminova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70-80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

M. Xusainov frazeologizmlar tasnifiga to'rtinchi guruhni – ideomalarni kiritdi. O'zbek frazeologiyasining ilmiy asosda chuqur o'rGANILISHI va takomllashuvida Sh. Raxmatullaevning

hizmati beqiyos bo'ldi. U o'zining qator tadqiqotlari bilan o'zbek frazeologiyasiga asos soldi. Olim o'zbek frazeologizmlar doirasini ancha toraytirdi va faqat ko'chma ma'noga asoslangan barqoror birliklarnigina frazeologizmlar tarkibiga kiritdi.

O'zbek tilshunos olimlari ham frazeologizmlarni keng talqin qilishda V.V.Vinogradovning qarashlaridan ancha chetga chiqa boshlandi. Natijada frazeologizmlar tarkibiga faqat ko'chma ma'noli barqaror birikmalarini gina emas, balki tilda oldindan birikma holda mavjud bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladigan barcha barqaror birikmalar kiritila boshlandi. Natijada maqol, matal, hikmatli so'zlar ham frazeologizmlar sifatida qarala boshlandi. Shu tariqa frazeologizmlarni tor hamda keng ma'noda tushunish yuzaga keldi. Shu va shunga o'xshash barcha muammoli masalalar bo'yicha yagona bir fikr mavjud emas. Frazeologiya sohasi ham turli xil qarashlarga ega.

Tilshunoslining bu sohasida avvaldan ushbu yuqoridaqgi "tor" va "keng" tushunchalarini mavjud bo'lib, "tor" tushunchasi ma'lum darajada izohli lug'atlarga leksik birlilik bilan barovar kirgan. Shubhasiz, eng avvalo, lug'atga frazeologizmlar, so'z ekvivalentlari kiritilgan. Gap modeliga teng turg'un iboralar esa kiritilmagan.

O'zbek frazeologiyasining yanada rivojlanishida va muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yo'ldoshev, A. Mamatov va M.Vafoevalarning hizmatlari ham taxsinga loyiq bo'ldi. Bu tilshunos olimlar o'zbek frazeologiyasini o'ziga xos qirralarini turli xil yondashuvlar asosida yoritib bergenlar.

Tahlil va natijalar: Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxdagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jixatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyatni katta.

Obrazliligi ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlarning muqobil lisoniy vositalar yordamida o'girilishi asl nusxa mazmuniy-uslubiy xususiyatining tarjimada qayta yaratilishini ta'minlaydi. Ammo ba'zan obrazliligi ma'lum darajada xiralashib qolgan frazeologizmlarning o'zidek xususiyatga ega lisoniy vositalar orqali emas, balki obrazliligi to'la barxayot barqaror birikmalar yordamida yoki, aksincha, obrazliligi ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlarning ushbu xususiyati so'nibroq qolgan lisoniy vositalar orqali adekvat talqin etilishining guvohi bo'lamicki, bunday hollarda ikki til birliklari o'rtaqidagi pragmatik muvoqiqlik moslashtiruvchi vositalar qo'shish yo'li bilan vujudga keltiriladi.

So'z birikmalarini chuhur tahlil qilishdan avval, so'z birikmasi tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. So'zlar tilda odatda alohida tarzda emas, balki erkin sintaktik birikma tarzida mavjud bo'ladi. Erkin sintaktik birikmalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatick birlashuvidir. Bunday sintaktik so'z birikmalar semantik nuqtai nazardan ham analiz qilinishi mumkin. Chunki bunday so'z birikmasining har bir komponenti o'zining asl ma'nosida va ko'chma ma'noda bo'lishi mumkin. Barcha so'z birikmalarining umumiyligi ma'nosini ularning komponentlari ma'nolarining birlashuvidan yuzaga keladi[9].

Masalan, eine kluge Studentin, ein faule Studentin, ein gehorsame Studentin yoki in die Schule gehen, in den Zoo gehen, ins Theater gehen va boshqalar. Bunday so'z birikmalar so'zlashuv jarayonida yaratiladi. Erkin so'z birikmasi qo'llanish

jarayonida o'z ma'nosini yo'qotishi va ko'chma ma'no hisobiga turg'un birikmaga aylanishi mumkin.

Masalan, Jemandem das Gesicht, die Hände, den Kopf, waschen birikmaları o'zining asl ma'nosida erkin sintaktik so'z birikmasi sifatida uchraydi va kimnidir yuzini, qo'llarini, boshini yuvmoq deb tarjima qilinadi. Lekin Jemandem den Kopfwaschen birikmasi esa, ko'chma ma'noda ibora sifatida ishlataladi va kimnidir koyimoq, tanbeh bermoq tarzida tarjima qilinadi. Yana bir misol: Etwas (jemanden) in der Hand haben yoki halten birikmasi o'zining asl ma'nosida erkin sintaktik so'z birikmasidir [8].

Masalan, ein Buch in der Hand halten. Ushbu jumla qo 'lida kitob ushlab turmoq deb tarjima qilinadi. Ko'chma ma'noda esa u turg'un so'z birikmasi hisoblanadi va kuchga ega bo'lmox ma'nosini anglatadi. Ushbu turg'un birikmani misol tarkibida ko'rib chiqsak. Er hielt ihm in der Hand, er konnte ihn vernichten! (H. Mann). Bu gapni Uning taqdiri hozir uning qo'lida, hoxlasa yo'q qilib tashlashi mumkin, xoxlasa tirik qoldirishi mumkin, xoxlasa unga yordam qo'lini cho'zishi mumkin deb tarjima qilinadi. Quyidagi so'z birikmasiga Ein Faden ein Band um den Finger wickeln ham alohida tarzda qaralganda, o'zining asl ma'nosida, ya'ni ipni yoki bantikni barmog'iga o'ramoq tarzida tarjima qilinadi. Lekin ushbu birikmalar jumlalar tarkibida o'z ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'no kasb etadi. Va turg'un ibora sifatida qo'llanadi.

Masalan, jemanden um den Finger wickeln birikmasi ko'chma ma'noda kelgan bo'lib, kinnidir boshqarmoq, ba'zan esa, aldamoq ma'nosini anglatadi. „Erkin so'z birikmasining rivojlanish jarayoni turg'unlikda tadrijiy usulda amalga oshadi. Ba'zan uning turg'un birikma yoki erkin so'z birikmasi ekanligini aniq aytilish qiyin. Turg'un so'z birikmaları tilda nutq jarayonida mustaqil ravishda so'z tarkibining leksik elementi sifatida mavjud bo'ladi va qo'llanilishida alohida so'zlar ma'nosiga yaqin turadi. Ular nutq jarayonida yaratilmaydi, balki tasvirlanadi“. Masalan, Das Schwarze Meer, in Bewegung bringen, dicke Luft va boshqalar. So'z birikmaları ham so'zlar kabi lug'at boyligiga kiritilgan va tilning boyishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Hozirda butun dunyoda fan- texnika rivojlanib borar ekan, tillar taraqqiyoti ham bundan mustasno emas. Hatto ayrim tillar kompyuter tili ostida ixchamlashtirilmoqda.Bu jarayonda til xam, lug'at tarkibi ham, uning qismiga kiruvchi juft so'zlar ham boyib, kengayib bormoqda. Tilning lug'at tarkibining boyish manbalaridan biri bo'lmish frazeologizmlar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinmaydi, balki o'sha tildagi muqobili topiladi. Frazeologizmlar tarjimasida ularning xususiyatlari e'tibor berish kerak:

Komponentlarning ikki yoki undan ko'p so'zdan iborat bo'lishi. Albatta bu nomidan ham ma'lumki, frazeologizmlarda komponentlar soni 2 ta yoki ba'zi hollarda 3 ta bo'ladi. Frazeologizmlarda ham xuddi shu holatni ko'rishimiz mumkin.

Turg'unlik. Frazeologizmlarning komponentlarini bir-biridan ayirib bo'lmaydi. Yoki ularning o'rnini almashtirib yoki komponentlardan birining o'rniga boshqa so'z qo'llash imkoniyati mavjud emas. Idomalilik. Ba'zi frazeologizmlar ko'chma ma'noda ham ishlataladi. Masalan, alte Hase so'zini aqlli odam deb tushunishimiz mumkin.

Yuqoridaqgi xususiyatlarni inobatga olgan holda, frazeologizmlar tarjimasida ularning muqobil variantlari topiladi.

ADABIYOTLAR

- Abdullayev A. (1976) Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati//O'zbek tili va adabiyoti 5-son.
- Abdurahmonov S. (2015) Nemis tilida frazeologizmlarning ifoda jihatni xususida ba'zi mulohazalar. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Samarcand.
- Allayorova R.R. (2008) Tarjima nazariysi va amaliyoti. Urganch.
- Dolimov Z. (2009) Tarjima san'ati va muammolari. Toshkent: O'qituvchi.
- Федоров, А.В. (1968) Основы общей теории перевода. - М.: Высшая школа.
- Fleischer W. (1982) Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig.
- Хожиев А. (1963) Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва тақорий сўзлар. Ташкент. Фанлар Академияси.
- Имаминова Ш. С. (2011) Немис тили фразеологияси. - Т.: Мумтоз сўз.
- Iskos A., Lenkova A. (1975) Lesestoffe zur deutschen Lexikologie. Leningrad, Prosvishchinia.



Sherzod SHAVKATOV,

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: sherzodek.shavkatov.uzb@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori J. Ibragimov taqrizi asosida

INGLIZ TILIDA FE'LNI FE'LGA BOG'LOVCHI VOSITA SIFATIDA INFINITIVE VA GERUNDIYNING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ingliz tilida ikki fe'l o'zaro birikishi uchun ulardan biri muayyan shaklida bo'lishi talab etiladi. Chunki fe'l boshqa so'zlarini o'z atrofida uyuştirishga xoslangan turkum hisoblanadi. Fe'l+fe'l birikuvida tobe maqomdagagi fe'l shunday xususiyatga ega turkumlarga yaqinlashadi. Ammo bunday so'zlarda fe'l turkumiga xos xususiyatlar ham saqlanib qoladi. Ingliz tilida fe'lning bunday shakllari o'r ganilishi uzoq tarixga ega.

Kalit so'zlar: Gerundiy, infinitive, fe'l, bog'lovchi vosita, gibrild shakl.

ИЗУЧЕНИЕ ИНФИНТИВА И ГЕРУНДА КАК СРЕДСТВ СВЯЗИ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В английском языке, чтобы спрятаться два глагола, один из них должен быть в определенной форме. Потому что глагол — это группа, которая организует вокруг себя другие слова. В сочетании [глагол + глагол] глагол в подчинительной позиции приближается к категориям с такими характеристиками. Но в таких словах сохраняются и характеристики глагольной группы. Изучение таких глагольных форм в английском языке имеет долгую историю.

Ключевые слова: Герундий, инфинитив, глагол, союз, гибридная форма.

STUDYING THE INFINITIVE AND GERUND AS MEANS OF CONNECTING VERBS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

In English, in order to conjugate two verbs, one of them must be in a certain form. Because a verb is a group that organizes other words around itself. In the combination [verb + verb], the verb in subordinating position approaches categories with such characteristics. But in such words the characteristics of the verb group are also preserved. The study of such verb forms in English has a long history.

Key words: Gerund, infinitive, verb, conjunction, hybrid form.

Kirish. So'zlarining o'zaro birikishini o'r ganish bevosita so'z ma'nosini o'r ganish bilan bog'liq hodisa bo'lganligi tufayli ham tilshunoslarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan masalalardandir. Birn necha yuz yilliklar davomida sintagmatikaga oid to'plangan ma'lumotlar o'tgan asrning boshlarida nazariy sintagmatika, birikuvchanlik va valentlik nazariyasi kabi fan tarmoqlarining shakllanishi va taraqqiy etishi uchun asos vazifasini bajardi. Sanalgan fan tarmoqlariga qiziqish kuchaygandan kuchayib bordi. Chunki tilshunoslikning eng muhim obyekti bo'lgan so'z tadqiqi uning birikuvchanlik xususiyatlarini o'r ganmasdan amalga oshmasligi aniq. Masalan, ingliz tilidagi to catch fe'lining "jalb qilmoq" ma'nosi mavjud ekanligi someone's eye so'zlar bilan birikkandagina yuzaga chiqadi. Zero, to catch someone's eye birikmasida fe'l "jalb qilmoq" ma'nosini ifodalaydi. Anglashiladiki, so'z birikmalardagini o'zining barcha leksik-grammatik xususiyatlarini namoyon etadi. Bu esa tilshunoslikda so'zlarining o'zaro birikish usullari, ularni biriktiruvchi vositalarning va birikmaning xususiyatlarini o'r ganish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. "Jahon tilshunosligida ilmiy qarashlar yo'naliishi va aniq maqsadlar oqimining o'zgarishi, zamonaviy tilshunoslikda inson omili yetakchilik qiladigan antroposentrik yo'naliishing shakllanishi va rivojlanishi kognitiv tarmoqlarning taraqqiy etishi sintagmatikaga, so'zlar birikivi, shuningdek, valentlik nazariyasiga e'tibor yanada kuchayishi lozimligini ko'rsatmoqda" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida so'zlarini biriktiruvchi vositalarning o'r ganilishi bevosita so'zlar birikuvining tadqiqi bilan bog'liq holda amalga oshirilganligi tabiiy holdir. Chunki biriktiruvchi vositalar birikmalarni hosil qilgandagina o'z mohiyatini namoyon qiladi. Ingliz tilidagi so'zlarining birikuvni masalasi bilan amerikalik olim L.Bluemfeld birinchilardan bo'lib shug'ullangan edi. Olim so'zlar birikivi tushunchasini muayyan so'zlar guruhi bilan chegaralamaslikni taklif etadi. L.Bluemfeldning fikriga ko'ra birdan ortiq so'zdan iborat sintaktik birliklarni ikki guruhg'a ajratish mumkin: 1)

endotsentrik birikmalar; 2) ekzotsentrik birikmalar [2]. Bunda endotsenrik birikma sifatida tarkibidagi istalgan so'z boshqa birikmada butun birikmaning o'mida qo'llana oladigan birikmalar baholanadi. Boshqacha aytganda, birikmadagi istalgan so'z keyingi gap yoki birikma tarkibida endotsentrik birikmaning ma'nosini anglatadi. Masalan, go swimming (suzishga bormoq), enjoy dancing (raqs tushishdan zavqlanmoq) fe'l+fe'l birikmasi endotsentrik birikmalar hisoblanadi. Chunki birinchi birikmadagi go so'zi keyingi gaplarda aynan suzishga borishni anglatsa, ikkinchi gapdagi enjoy so'zi keyingi birikmalarda raqs tushushdan zavqlanishni anglatadi. Ekzotsentrik birikmalarda esa tarkibidagi so'zlardan biri matndagi boshqa birikmalarda butun birikma o'rnida qo'llana olmaydi. Umuman olganda, L.Bluemfeldning so'z va uning birikuvchanligi tadqiqiga qo'shgan hissasi va erishgan natijalarini keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajardi. Olimming so'zlar birikvi haqidagi fikrlari, misollarda ko'rib o'tilganidek, fe'l+fe'l shaklidagi birikuvlarga ham taalluqli edi. So'zlarining, xususan fe'larning o'zaro birikvini L.Bluemfelddan keyin G.Suit, Ch.Xokket kabi olimlar tomonidan taqiq qilindi [3]. Jumladan, G.Suit o'tgan asrning boshida so'z birikmasi ma'nosini beruvchi, ammo ko'p ma'noli atamaga aylangan phrase atamasi o'rniga word group, wourd cluster atamalarini qo'llashni taklif etadi. Ch.Xokket esa L.Bluemfeldning endotsentrik birikmasi sifatida ajratgan birikmalarini yana ichki guruhlarga ajratdi.

Ingliz tilida fe'+fel ko'rinishidagi birikmalarni hosil qilishda bir qancha vositalardan foydalanan mumkin. Masalan: 1) fe'lning bosh shakli (infinitiv); 2) gerundiy (harakat nomi); 3) iboraviy fe'llar; 4) modal fe'llar. Bu vositalarni o'r ganish bosqichlarini tahlil qilish fe'l+fe'l shaklidagi birikmalarning mohiyatini chucherroq anglash imkonini beradi. Sanalgan ingliz tilidagi fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning har biri chucher o'r ganilgan. Masalan, ingliz tilida infinitiv fe'lning shaxs va son ko'rsatmaydigan, ya'ni shaxssiz shakli sifatida o'r ganiladi. Shuningdek, infinitiv fe'lning noaniq shakli sifatida lug'atlarda keltiriladi. Ba'zi tillarda fe'lning bu shakli bosh shakl sifatida talqin qilinadi. Infinitiv fe'lni boshqa bir fe'lga biriktirishda zarur

bo‘ladigan fe‘l shakli hisoblanadi. Infinitivning bizning tadqiqotimiz uchun zarur bo‘lgan sintaktik xususiyatlari O.Yespersen, J.Nesfield, E.Sonnenshayn, A.Eshton, D.Bolinger, E.Anderson, P.Dafley kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan [5]. Hatto ingliz tilidagi infinitiv shaklining boshqa tillarga tarjimasi bo‘yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan [10]. Infinitivning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan va uning boshqa fe‘l shakllaridan farqli xususiyatlari yoritilgan [12]. Infinitivning tashqi belgisi sifatida mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan va urg‘u qabul qilmaydigan to birligi keltiriladi. Masalan, like to swim birikmasida swim so‘zining infinitiv ekanligini to birligi bilan qo‘llanganligi orqali bilib olish mumkin. Fe‘lning infinitiv shaklining leksik va grammatick xususiyatlari ot turkumiga o‘xshash bo‘lishi tabiiy. Aks holda fe‘lning bu shakli boshqa bir fe‘lga birikmagan bo‘lardi. Masalan, “infinitiv har qanday ot singari gapda to‘ldiruvchi (He teaches her to sing), ega (To skate is pleasant), ot kesim (Your duty was to inform me of it immediately) vazifalarini bajara oladi” [13]. Keltirilgan misollar otga xos sintaktik xususiyatlarga, shu jumladan, boshqa fe‘lga birikish xususiyatiga fe‘l infinitiv shakliga kirgandan keyingina ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda infinitiv shakli ingliz tilida to birligisiz ham qo‘llanishi mumkinligini ta‘kidlab o‘tish lozim bo‘ladi. Infinitivning bu xususiyati ham ingliz tilshunosligida atroflicha tadqiq qilingan. Masalan, can (could), may (might), must kabi modal fellar, to make, to help, to let kabi fe‘llar bilan qo‘llanganda infinitiv shakli to birligisiz qo‘llanishi bir qancha tadqiqotlarda qayd etilgan. Shuningdek infinitiv shaklining muayyan munosabat ifodalovchi fe‘llar bilan (masalan, hissiy va irodali munosabatlarni ifodalovchi fe‘llar) birikkandagi sintaktik, struktur va uslubiy xususiyatlari alohida o‘rganilgan [14]. Ammo o‘zbek tilshunosligida infinitivning fe‘lni fe‘lga birikiruvchi vosita sifatidagi tipologik tadqiqotlar nisbatan kamliji bu borada bajarilishi zarur bo‘lgan ishlarning dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fe‘lning gerundiyl (the Gerund) shakli ham ingliz tilida fe‘lni fe‘lga bog‘lashda xizmat qilishi mumkin. Gerundiyl ham infinitiv singari fe‘lning shaxssiz shakli hisoblanadi. Bu shakldagi fe‘l o‘z xususiyatlari ko‘ra ot so‘z turkumiga o‘xshaydi. Buni gerundiyning gap tarkibidagi sintaktik vazifalarida ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni gerundiyning gapda ega (Swimming is my favorite activity), ot kesim (A beneficial activity for health is walking), to‘ldiruvchi (I remember reading this book) vazifasida kelishi uning otga xos sintaktik xususiyati hisoblanadi. Shuni ta‘kidlash lozimki, gerundiyl infinitivga nisbatan otga yaqinroq fe‘l shakli hisoblanadi. Gerundiyl shakldagi fe‘lning predloglar bilan birikishi (I am interested in learning new languages), ba‘zi olmoshlarni tobe qilib kelishi (Their taking part in the charity event is greatly appreciated) infinitivda mavjud bo‘lmagan ot turkumiga xos xususiyatlar ekanligi fikrimizni dalillaydi. Gerundiyning o‘rganilishi uning ham ot, ham fe‘l turkumi xususiyatlari egaligi bilan bog‘liq. Ingliz tilidagi gerundiyl birikmalar tadqiqi qarama-qarshi fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi [1]. Jahon tilshunosligida gerundiyni o‘rganish uning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini qamrab oladi. Tilshunoslari

gerundiyning kelib chiqishi, turli tillarda qo‘llanishi, gapdag'i vazifasini qiyoslaydilar. Shuningdek, dunyo tilshunoligida gerundiyning tarixiy taraqqiyoti, diaxronik o‘zgarishi ham tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlarda fe‘lning gerundiyl shakli vaqt o‘tishi bilan qanday taraqqiy etganligi, unga boshqa lingvistik omillar ta‘siri tekshirildi [1]. Umuman olganda, gerundiyl amaliy grammatikada ham gapning struktur va semantik qismi sifatida faol o‘rganildi.

Tahvil va natijalar. Gerundiyl fe‘lning otga xoslangan shakli sifatida fe‘lni fe‘lga bog‘lash xususiyati uning tilshunoslari diqqat markazida bo‘lishiga asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Masalan, She started laughing after reading the joke gapida reading fe‘li boshqa bir fe‘l – started ga birikishi uchun u‘ing shaklini, ya‘ni gerundiyl hosil qiluvchi shaklini qabul qilishi lozim bo‘ladi. Anglashiladiki, gerundiyl shakli fe‘lning boshqa bir harakat bilan bog‘liq belgisini bildirish uchun matnlarda qo‘llanadi.

Ingliz tilida gerundiyl shakli aksariyat o‘rinlarda predloglar bilan birga qo‘llanadi. Ma‘lumki, predloglar, odatda, ot turkumiga oid so‘zlar bilan birikmalarda ishtirok etadi. Shu sababli har qanday fe‘l predlog bilan birikishi uchun avval gerundiyl shakliga kirishi talab etiladi. Gerundiyning predloglar bilan birga qo‘llanishi tadqiqi shuni ko‘rsatadi, bunday fe‘l shakli gapda vositali to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol va ot kesim vazifasini bajaradi. Predloglar bilan birikmagan fe‘lning gerundiyl shakli esa gapda fe‘l kesim, ot kesim, vositasiz to‘ldiruvchi va ega vazifalarini bajarishi mumkin. Anglashiladiki, predloglarning gerundiya birikishi fe‘lning otga xoslangan shakli sintaktik xususiyatlarini boyitadi. Shuningdek, uning semantik xususiyatlarini ham rang-barang qilishga ko‘maklashadi. Masalan, There are several beneficial aspects of reading (O‘qishning bir qancha foydali jihatlari bor) gapida gerundiyl shaklidagi fe‘lning qaratqich aniqlovchi vazifasida kelganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Fe‘lning gerundiyl shakli aniqlovchi vazifasida kelish uchun predlogi bilan birikishi talab etildi. Xuddi shunday on, before, after, in kabi predloglar yordamida gerundiyl shaklidagi fe‘l gapda hol vazifasini bajarishi ham mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, gerundiyl shaklidagi fe‘lning predloglar bilan qo‘llanishi uning sintaktik va semantik jihatlariga ta’sir qilishi tilshunoslarning nazaridan chetda qolgan emas. Gerundiyl hosil qiluvchi shakl (-ing) ni boshqa morfologik shakllardan farqlash, ularning grammatick va semantik xususiyatlarini qiyoslash ham tilshunoslarni doimiy qiziqtrib kelgan masalalardan hisoblanadi. Masalan, -ing shakli yordamida gerundiyydan tashqari davomiylikni ifodalovchi fe‘l (She is singing), hozirgi zamonni ifodalovchi ravish (The running man), harakat tarzi (They left the house, laughing and talking) kabilarni ifodalashi mumkin. Boshqacha aytganda, -ing muayyan harakat nomini (gerundiyl) ifodalashdan tashqari payt (zamon), harakat tarzu, holat kabilarni ham ifodalashi mumkin. ularning grammatick maqomini belgilash, ya‘ni shaklining harakat nomi, ravish, sifat, otning fe‘lga xoslangan, yoki aksincha, fe‘lning otga xoslangan shakli ekanligini aniqlash ham tilshunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- Ibragimov J. O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari. Filol. fanl. dokt. (DSc) diss. – Qarshi. 2023. – 237 b.
- Bloomfield L. Language. – Chicago: The University of Chicago Press, 1984. – 565 p.
- Sweet H. A New English Grammar, Logical and Historical, p.II, Oxford, 1930, – P.18-19.
- Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics, N-Y.: Macmillan, 1958, – P.186.
- Jespersen O. Essentials of English Grammar. – London: Routledge, 1933. – 387 p.
- Nesfield J. Outline of English Grammar. – London: Macmillan and Co Limited, 1927. – 168 p.
- Sonnenschein E. New English Grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1945. – 483 p.
- Ashton A. Mason’s New English Grammar. Intermediate. – London: Bell, 1921. – 218 p.
- Anderson E. On Verb Complementation in Written English // Lund Studies in English. – Lund: CWK Gleeruo, 1985. Vol 71. – 293 p.
- Рахимов А. Инфинитив в современном таджикском и английском языках. Дисс. канд. филол. наук. – Душанбе. 2013. – 122 с.
- Гиясова С., Усмонов К. Субстантивные признаки инфинитива в английском и таджикском языках // Вестник ТГУПБИ. 2014. №5. – С.237-247.
- Ефремова О. Модальная семантика инфинитива в английском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2005. – 134 с.
- Качалова К., Израилевич Е. Практическая грамматика английского языка. – Киев: Методика, 2003. – 364 с.

14. Лебедева А. Синтаксическая функция инфинитива в сочетаниях с глаголами, выражающими волевые и эмоциональные отношения // Исследования по синтаксису английского языка. МГУ. Ученые записки. – Москва: 1961. – С.13-14.
15. Куклина А. Синтаксические функции инфинитива в составе глагольных инфинитивных конструкций // Вестник Самарского государственного университета. № 10. 2006. – С. 148-153.
16. The Old English Version of Bede's Ecclesiastical History of the English People // edited by Th.Miller, Oxford: EETS, 2003. – 312 p.
17. Bernard A. The Gerund with an Object and Its Equivalent Gerundive in Preparatory Latin // The Classical Journal, 1910. Vol 5, №5, – P.214-219.



Iroda EGAMBERDIYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi
E-mail: irodaegamberdiyeva@mail.ru

DSc, dotsent F.Jumayeva taqrizi asosida

NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF WOMEN'S SPEECH IN FAMILY COMMUNICATION

Annotation

This article is devoted to the analysis of national-cultural characteristics of women's speech in family communication. The role of national identities, traditions and cultural values manifested in women's speech is highlighted in the research. The article also examines the peculiarities of women's communication strategies and styles within different nationalities and cultures. The results of the research highlight the importance of taking national-cultural factors into account in family communication and clarify the role and influence of women's speech in society.

Key words: Women's speech, national-cultural characteristics, speech culture, traditions and values, communication strategies, women's role in society.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ РЕЧИ В СЕМЕЙНОМ ОБЩЕНИИ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу национально-культурных особенностей женской речи в семейном общении. В исследовании подчеркивается роль национального самосознания, традиций и культурных ценностей, проявляющихся в женской речи. В статье также рассматриваются особенности коммуникативных стратегий и стилей женщин внутри разных национальностей и культур. Результаты исследования подчеркивают важность учета национально-культурных факторов в семейном общении и уточняют роль и влияние женской речи в обществе.

Ключевые слова: Женская речь, национально-культурные особенности, речевая культура, традиции и ценности, коммуникативные стратегии, роль женщины в обществе.

OILA MULOQOTIDA AYOLLAR NUTQINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy-madaniy belgilarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ayollar nutqida namoyon bo'ladigan milliy o'ziga xosliklar, an'analar va madaniy qadriyatlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada turli millat va madaniyatlar doirasida ayollarning muloqot strategiyalari va uslublaridagi o'ziga xosliklar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy muloqotda milliy-madaniy omillarni inobatga olishning ahamiyatini ta'kidlab, ayollar nutqining jamiyatdagi o'rni va ta'sirini oydinlashtiradi.

Kalit so 'zlar: Ayollar nutqi, milliy-madaniy xususiyatlar, nutq madaniyati, an'ana va qadriyatlar, muloqot strategiyalari, jamiyatdagi ayollar roli.

Kirish. XX-XXI asrlarda jinsni erkak va ayollarning faqat biologik hamda fiziologik xususiyatlari sifatida an'anavy tushunish sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ushbu cheklangan talqin gender – rol xatti-harakatlarning murakkabligini tushunish uchun etarli emasligini isbotladi.

"Gender" tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi erkak va ayollar bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Bu ijtimoiy modellashtirish nazariyasining paydo bo'lishini va ijtimoiy-madaniy amaliyotlar orqali jinsni qurishni belgilab berdi. Genderologiya sohasi paydo bo'ldi, bu erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlarni kulturologiya nuqtai nazaridan har tomonlama o'rganishni talab qildi[1].

Tilshunoslar shaxsnинг yoshi, tug'ilgan joyi, ma'lumoti va kasbi kabi turli xil ijtimoiy omillarni hisobga olinishiga qaramay, zamonaviy rus tilini tadtqiq qilishda jinsga e'tibor berilmaydi. Gender tilshunosligi nisbatan yangi soha bo'lib, jinsning tildan foydalananish va erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi muloqot shakllariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi[2]. Tarixiy jihatdan ayollar nutqi erkaklarnikidan boshqacha qabul qilingan va ayollar nutqini erkaklarning go'yoki "to'g'ri" nutqi bilan taqqoslaysidigan maqol va matallarda salbiy stereotiplar saqlanib qolgan[1].

Erkak va ayol nutqini idrok etishdagi farqlar erkak mafkurasining inson ongiga keng tarqalgan ta'siridan kelib chiqadi, bu ayollarning mantiqiyligi, ratsionalligi va ob'ektivligiga qaratilgan [4].

Ijtimoiy stereotip erkak va ayollarga xos xulq-atvor hamda nutqning muayyan shakllarini belgilaydi. Erkaklar harbiy va siyosiy tadbirlarda qatnashib, oilasini ta'minlaydi, ayollar esa

uy ishlari, bolalarni parvarish qilish va ta'lim olish uchun javobgardir.

O'z vazifasini bajarayotganda erkak va ayol o'zining gender roliga mos keladigan turli xil xatti-harakatlarni namoyish etadi. Erkaklar amaliy yechimlarga e'tibor qaratib, instrumental rol o'ynashga moyildirlar, ayollar esa ekspressiv rolni qabul qilib, hissiy o'zini namoyon qilish va hamdardlikni afzal ko'rishadi[5].

O'tgan asrda jamiyatda ro'y bergan muhim o'zgarishlarga, jumladan, ayollarning oila va jamiyat hayotidagi roli ortib borayotganiga qaramay, bu tilda to'liq o'z aksini topmayapti. Tadqiqotchi L.G.Smirnovaning ta'kidlashicha, "gender rollarining lingvistik namoyishi, asosan, statik bo'lib, an'anavy stereotiplarni aks ettiradi"[6].

Bu erkak va ayollar o'rtasidagi an'anavy mehnat taqsimotini kuchaytiradigan va tildagi gender farqlaridan doimiy foydalanishda aks etadi. Til zamonaviy jamiyatdagi ayollarning o'zgaruvchan ijtimoiy rol va hissasini to'liq aks ettirmaydi. Erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlar tilning fonetik, leksik, sintaktik hamda stilistik sathlarida namoyon bo'лади. Talaffuzda ayol erkakdan ovozining tembri, nutq sur'ati, pauzalarning tabiatini va unlilarning davomiyligi bilan farq qiladi. Ayollarda ko'proq ekspressivlik va his-tuyg'ularini ifoda etish ustuvorlik qiladi. Ular vokal intonatsiyalarining kengroq diapazonidan foydalanilar, masalan, xohlagan paytda ovoz balandligini o'zgartira oladilar. Yuqori ohang ko'pincha ijobiy, past ohang esa salbiy kayfiyatni bildiradi. Ayollar nutqlarida nafas olish, labializatsiya (lablar ishtirokida tovushlarni talaffuz qilish) va nazalizatsiya (og'iz va burun bilan nafas chiqarishda tovushlarni talaffuz qilish) kabi usullardan ham foydalanadilar. Aksincha, erkaklar o'zlarining his-

tuyg'ularini baland ovozda ifoda etishda qiynaladilar. Ularda balandlik o'zgarishini idrok etish qobiliyati kam rivojlangan, bu ularga ayol intonatsiyasining nozik tomonlarini idrok etishni qiyinlashtiradi. Ayol nutqi, odatda, ko'proq ohangdor va tovush jihatidan xilma-xildir. Bundan tashqari, ayollarning nutqida erkaklarnikiga qaraganda kamroq pauza bo'ladi.

E.A.Zemskaya "ayollar ko'pincha turli xil ma'nolarni yetkazish uchun intonatsiyaga tayanadilar, erkaklar esa shunga o'xshash vaziyatlarda leksika va grammaticadan foydalanadilar", deb ta'kidlaydi. Erkak va ayollar turli tematik guruhlarning lug'atidan foydalanadilar. Jumladan, ayollar bolalar, moda, kulinariya (oshpazlik) haqida, erkaklar esa siyosat, texnologiya, sport, armiya va ish haqida ko'proq gapirishadi.

Ayollar nutqi odatda an'anaviyroq bo'ladi, chunki ular ko'pincha bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishadi. Ularning nutqiga ko'proq e'tibor beradi va muloqotda to'g'rilikka intiladi. Aksincha, erkaklar muloqotda oddiyroq so'z birikmalaridan ko'proq foydalanadilar. Erkaklar his-tuyg'ularni ifoda etishda vazminlikni namoyon etishadi va qattiq yoki haddan tashqari hissify ifodalardan qo'shishadi.

Ayollar muloqotda yumshoqroq bo'lib, boshqalarning his-tuyg'ularini ko'proq tinglashadi va o'z xatti-harakatlарини erkaklarnikiga qaraganda samaraliroq boshqaradilar. Boshqa tomondan, erkaklar suhbatlarda qat'iyatliroq bo'lishadi, ko'pincha munozaralarda ustunlik qilishadi va o'z niyatlarini to'g'ridan-to'g'ri, ba'zan tajovuzkor tarzda ifoda etishadi, shu bilan birga, xatti-harakatlарини kamroq nazorat qilishadi. Shuning uchun erkak va ayollarni turli xil aloqa uslublarining vakillari deb hisoblash mumkin[4].

Erkak va ayol nutqining sintaktik xususiyatlaridan biri erkakning ko'proq ishonchga ega bo'lgan kirish so'zlarni qo'llashi, ayol esa bu konstruktivlardan ishonchszizlik bilan foydalaniши sanaladi. Nutqdag'i gender farqlanishlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar erkaklar kommunikativ harakati o'z shaxsini tasdiqlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishga va bir maqsadga yo'naltirilgan, degan xulosaga kelishgan. Ayollar kommunikativ xulq-atvori, aksincha, ichki dunyo, aloqa qulayligi, beparvolik va o'z his-tuyg'ularini ifodalashga qaratilgan. Ayollar nutqiy vaziyatga moslashishga intilishsa, erkaklar atrof-muhitiga faol ta'sir o'tkazib, rejalarini o'zgartirishga harakat qilishadi[8].

Til va kommunikatsiyaning gender jihatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'naliшlaridan biridir. Oilaviy muloqot sharoitida ayollar nutqini tahlil qilish alohida qiziqish uyg'otadi, chunki aynan shu o'rinda ma'lum bir jamiyatning an'ana, qadriyat va ijtimoiy me'yorlarini aks ettiruvchi milliy hamda madaniy xususiyatlar aniq namoyon bo'ladi[9].

Genderga xos nutq bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga ega. Ushbu sohadagi birinchi ishlardan biri R.Lakoffning "Язык и место женщины" [10] ("Ayolning tili va joyi") asari hisoblanadi, unda ayol nutqining ba'zi xarakterli xususiyatlari ta'kidlangan. O'shandan beri turli madaniyatlarda olib borilgan ko'plab tadqiqotlar bu masala haqidagi tushunchani ancha kengaytirdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlari statik emas, u o'zgarishi mumkin. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

a) globallashuvning ta'siri: globallashuv va madaniy almashinuv jarayonlari ayollar nutqidagi ba'zi an'anaviy farqlarni umushatishga olib keladi[11];

б) ijtimoiy o'zgarishlar: ayollarning ijtimoiy rollaridagi o'zgarishlar, ta'lim va kasbiy bandlik darajasining oshishi ularning oilaviy kontekstdagi nutq xususiyatlariga ta'sir qiladi [12].

Oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganish turli jamiyatlarda madaniy me'yor, gender rollari va ijtimoiy o'zgarishlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Biroq bu mavzuga ehtiyyotkorlik bilan yondashish, stereotiplardan qo'shish va individual farqlarni hisobga olish muhimdir. Zamonaviy tadqiqotlar ma'ruzachilarning ma'lumoti, ijtimoiy mavqeい, yoshi va individual xususiyatlari kabi omillarni hisobga oлgan holda jinsiga xos nutqni keng ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganish fanlararo yondashuvni talab qiladigan murakkab hamda ko'p qirralidir. Tadqiqotchilar lingvistik, sotsiologik, antropologik va psixologik jihatlarni hisobga olishlari kerak. Muayyan umumiy qoidalarni aniqlash mumkin bo'lsa-da, mavjud bo'lgan muhim individual farqlarni hisobga olish muhimdir.

Til amaliyoti davom etayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va globallashuv tufayli doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, bu esa ushbu tadqiqot sohasini dinamik va dolzarb qiladi. Tadqiqotchilar oilaviy sharoitda ayol nutqining murakkabligini aniqlash uchun ushbu o'zgaruvchan modellarga e'tibor berishlari kerak.

Ayollarning oilaviy muloqotdag'i nutqi nafaqat so'zlashuvchilarining individual xususiyatlarini, balki ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan madaniy me'yornarni, ijtimoiy va gender rollarini ham aks ettiradi. Ushbu mavzuni o'rganish muloqotning ijtimoiy-madaniy jihatlari va lingvistik xulq-atvorning gender xususiyatlarini chuqurroq tushunisha imkon beradi. Oila muloqotda ayollar nutqiga xos xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- Hissiy ekspressivlik. Ko'pgina madaniyatlarda ayollarning oilaviy kommunikatsiyadagi nutqi erkaklarnikiga qaraganda hissiy-ekspressivligi bilan ajralib turadi. Bu hissiy-emotsional bo'yqli leksikadan, yuklama va undovlardan, kichraytirish-erkakash qo'shimchalaridan faol foydalanilganda namoyon bo'ladi.

- Nutqning "yumshoqligi". Ayollar ko'pincha muloyim nutq shakllaridan foydalanadilar va potensial ziddiyatlari vaziyatlarni yumshatishga intilishadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin: a) muloyim so'zlarni tez-tez ishlashit (iltimos, rahmat); b) bevosita ko'rsatmalar o'rniga bilvosita so'rovlardan foydalish; c) noaniqlik yoki taxminni ifodalovchi kirish konstruktiviyalaridan foydalish (menimcha, balki).

- Tematik yo'naliш. Oilaviy muloqotda ayollar ko'proq quyidagi mavzularda gaplashishadi: a) bolalar tarbiyasi va ta'lim; b) oila a'zolarining salomatligi; c) maishiy masalalar va uy xo'jaligini tashkil etish; d) oila a'zolarining shaxslararo munosabatlari va hissiy holati.

- So'roq konstruktiviyalaridan foydalish. Ayollar savollardan nafaqat ma'lumot olish uchun, balki suhbati davom ettirish, g'amxo'rlik va e'tiborni ko'rsatish, so'rov yoki istaklarning bilvosita ifodasi sifatida foydalishadi.

- Tafsilot va xususiyatlar. Voqea yoki vaziyatlarni tavsiflashda ayollar shaxslararo munosabatlarning kichik tafsilotlariga e'tibor berib, batafsilroq hamda aniqroq tavsif berishga moyildirlar.

- Taqqoslash va metaforalardan foydalish. Ma'joziy taqqoslash va metafora ayollar nutqida hissiy holat yoki shaxslararo munosabatlarni tasvirlashda uchraydi.

- O'zaro tushunishga yo'naltirish. Oilaviy muloqotda ayollar ko'pincha o'zaro tushunish va uyg'unlikka erishishga intilishadi. Bu o'zini quyidagi holatlarda namoyon qiladi: a) tilning fatik funktsiyasidan faol foydalishda; b) ziddiyatlari vaziyatlarda murosaga intilishda; c) suhbadoshni yaxshiroq tushunish uchun aniqlovchi savollardan tez-tez foydalishda.

- Til va noverbal muloqot. Garchi bu og'zaki nutq bilan bevosita bog'liq bo'limsada, ayollar ko'pincha noverbal muloqot vositalari (yuz ifodalari, jestikulyatsiya (mimika), taktik aloqa (teginish: qo'l berib so'rash, elkasiga yoki orqasiga qoqib qo'yish) dan foydalishadi.

- Bilvosita nutq harakatlardan foydalish. Ayollar o'z fikr va istaklarni ifoda etishning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi. Chunki ko'pehilik hollarda fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifoda etish qo'pollik sifatida qabul qilinishi mumkin.

- Nutqni suhbadoshga moslashtirish. Ayollar ko'pincha o'z nutqlarini oiladagi suhbadoshning yoshi va holatiga moslashtirishadi, turli xil aloqa registrlarini osongina almashtiradilar.

- "Biz" olmoshidan foydalish. Oilaviy masalalarni muhokama qilishda ayollar ko'pincha birlikda "men" o'mida "biz" olmoshini ishlatis, oila va manfaatlar birligini ta'kidlaydilar.

- O'zaro munosabatlarni muhokama qilish. Ayollarda oila ichidagi va tashqarisidagi shaxslararo munosabatlarni haqida suhbati boshlash hamda davom ettirish ehtimoli ko'proq.

Ko'rindik, oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlari gender rollari, madaniy me'yor va so'zlovchilarning individual xususiyatlari o'tasidagi murakkab o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu xususiyatlar universal emas va ayollarning madaniy kontekstiga, ijtimoiy mayqeiga va shaxsiy xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatda nutqdagi gender farqlarini yumshatish tendentsiyasi mavjud.

Ushbu xususiyatlarni o'rganish turli jamiyatlarda oilaviy munosabatlar dinamikasini, muloqotning madaniy me'yordagi va muloqotning gender jihatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu bilim nafaqat lingvistik va sotsiologik tadqiqotlarda, balki oilaviy psixologiya, madaniyatlararo aloqa va

gender tadqiqotlari kabi amaliy sohalarda ham foydali bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolada oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy-madaniy belgilarini tahlil qilish natijasida ayollar nutqida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlar va ular orqali ifodalanadigan milliy an'analar, qadriyatlar hamda madaniy omillar o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, ayollar nutqi oilaviy muloqotda milliy o'ziga xosliklarni saqlab qolishda muhim rol o'yaydi. Shuningdek, turli madaniy muhitlarda ayollar muloqot strategiyalari farqlanishi bilan birga, umumiy madaniy merosni uzatish va avlodlar o'tasida bog'lanishni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun oilaviy muloqotda milliy-madaniy belgilarni inobatga olish va rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Николаева Г.А. Национально-культурная специфика гендерных отношений: на материалах Республики Бурятия: Автореферат дисс. на соиск. учен. степ. канд. Культурологии. – Санкт-Петербург, 2013. – 24 с.
2. Новикова И.Н., Хамидуллина Л. Ю. К вопросу об особенностях мужской и женской речи // Наука и современность. – 2013. – № 25. – С. 78-83.
3. Новикова И.Н., Хамидуллина Л.Ю. К вопросу об особенностях мужской и женской речи // Наука и современность. – 2013. – № 25. – С. 78-83.
4. Попова Е.А. Об особенностях речи мужчин и женщин // Русская речь. – 2007. – № 3. – С. 40-49.
5. Серова И.Г. Роль гендерной интерпретанты в высказывании: параметризация события // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2003. – Вып. 2. – С. 210-227.
6. Смирнова Л.Г. «Ветреная кокетка» и «прожженный делец». Гендерная специфика // Русская речь. – 2012. – № 2. – С. 59-67.
7. Попова Е.А. Об особенностях речи мужчин и женщин // Русская речь. – 2007. – № 3. – С. 40-49.
8. [электрон ресурс]// <https://novainfo.ru/article/2155>
9. Tannen D. You just do not understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990. – 330 p.
10. Lakoff R. Language and Woman's Place. New York: Harper & Row. – 1975. – 37 p.
11. Cameron D. Language, gender, and sexuality: Current issues and new directions. Applied Linguistics, - 2005. 26(4), 482-502.
12. Labov W. Principles of Linguistic Change, Volume 2: Social Factors. Blackwell. – 2001. – 592 p.



Sohiba YANGIBOYEVA,

Urganch davlat universiteti Yoshlar bilan ishlash masalalari bo'yicha dekan muovini, mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sohibayangibayeva@gmail.uz

PhD. Sarvar Atajonov (UrDU) taqrizi asosida

TOHIR MALIKNING "NOMUS" HIKOYASIDA QUR'ONI KARIM OYATLARI VA HADISLARNING BADIY TAQINI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbek adabiyotining o'chmas va yirik vakili hisoblangan Thir malikning "Nomus" hikoyasi chuqur tahlil qilinadi. Bu tahlilda diniy tushunchalar, jumladan, Qur'oni karim oyatlari va hadislarining badiyi talqinlari bo'yicha mulohazalarga katta ahamiyat qaratiladi. Maqola mazmunida mustaqillik davrida yaratilgan diniy-ma'rifiy mavzu takomili, umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan ijod namunalarini o'rganish, bugungi adabiyotshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biri ekanligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: turli janrlar, Tohir Malikdir, muslimmon adabiyoti, Mustaqillik davri, ijobiy va salbiy xislatlar, Qur'on oyatlari, badiiyat, nomus.

SOME VIEWS ON THE ARTISTIC APPEARANCE OF QUR'AN VERSES AND HADITHS IN TAHIR MALIK'S STORY "NOMUS (DIGNITY)"

Annotation

In this article, the story "Nomus (dignity)" by Tohir Malik, who is considered an indelible and great representative of Uzbek literature, is deeply analyzed. In this analysis, great importance is attached to religious concepts, including artistic interpretations of verses and hadiths of the Quran. In the content of the article, it is proved that the study of examples of creations that embody perfect, universal ideas of the religious and educational theme created in the period of independence is one of the urgent issues of today's field of literary studies. **Key words:** different genres, Tahir Malik, Muslim literature, Independence period, positive and negative qualities, verses of the Quran, art, honor.

НЕКОТОРЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОБЛИК КОРАНСКИХ СТИХОВ И ХАДИСОВ В РАССКАЗЕ ТАХИРА МАЛИКА «НОМУС (ДОСТОИНСТВО)»

Аннотация

В данной статье глубоко анализируется рассказ «Номус (Достоинство)» Тохира Малика, который считается неизгладимым и великим представителем узбекской литературы. В этом анализе большое значение придается религиозным концепциям, в том числе художественным интерпретациям аятов и хадисов Корана. В содержании статьи доказывается, что изучение примеров творений, воплощающих совершенные, общечеловеческие идеи религиозно-просветительской тематики, созданных в период независимости, является одним из актуальных вопросов сегодняшней области литературоведения.

Ключевые слова: разные жанры, Тахир Малик, мусульманская литература, период независимости, положительные и отрицательные качества, аяты Корана, искусство, честь.

Kirish. Adabiy hayotimizda yangi-yangi asarlar paydo bo'lmoqda. Shunday ekan, ushbu asarlar tahlil qilish ehtiyojini keltirib chiqarishi tabiiyidir. Keyingi davr o'zbek narsasi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shib kelgan ijodkorlardan biri Tohir Malikdir. Adib asarlarda xarakter yaratish an'anasi, hayot voqeligini aks ettirishdagi o'ziga xos tasvir usuli mayjud. XX asrning 70-80-yillarda kelib adabiyotda yangi bir to'lqin shakllandi. Bu davr yozuvchilari ijodida mumtoz adabiyot an'analariga va milliylikka intilish bilan bir qatorda, yangicha adabiy tafakkur shakllanib, badiiy obrazlar silsilasida turmushni tubdan o'zgartirishga harakat qilgan zamonaviy qahramonlar badiiyatda o'z aksini topa boshladi.

Uzoq vaqt taqiqlanib kelingan diniy-tasavvufiy mavzularning adabiyotga qayta yuz ko'rsata borishi masalalari bugungi adabiyotda sifat jihatidan o'zgarishlar qildi. Badiiy adabiyotdag'i bunday sifat o'zgarishlarning tug'ilishiga sabab sho'rolar siyosati davrida zararli deb topilgan asarlarining qayta nashr etilishi bo'ldi.

Qur'oni Karimning o'zbek tiliga tarjima qilinishi, Payg'ambarimiz hadislarining chop etilishi, dini islomning at-Termiziyy, Ismoil Buxoriy kabi buyuk nazariyotchilari, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi tasavvuf shoirlari asarlarining chop etilishi so'z san'atiga yangi, toza, qadimiy mavzular shabadasini olib kirdi.

Mustaqillik davrida yaratilgan diniy-ma'rifiy mavzu takomili, umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan ijod namunalarini o'rganish, bugungi adabiyotshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biridir. Istiqlol davri o'zbek narsi g'oyaviy-

badiiy yangilanishlar, o'zgarishlar bilan harakterlanadi. Ayniqsa badiiy adabiyotda diniy-ma'rifiy motivlarning badiiy sintezi orta bordi.

Jumladan, Tohir Malik asarlarida diniy g'oyalari, tasavvufiy aqidalarga moyillikning ortishi, falsafiylikning kuchayib borayotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Diniy-ma'rifiy mavzu mohiyatiga Qur'oni karim oyatlari va hadisi sharif mazmuni singdirilgani Tohir Malikning ko'plab asarlarida o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin. Xusan, adibning "Nomus" hikoyasida keltirilgan Qur'oni karim oyatlari, hadislar va islomiy g'oyalarni aks ettiruvchi rivoyatlar asar mohiyatini yanada teranroq anglash uchun zamin yaratgan.

"Poklikka intilganlar ko'ngillarini xayrli niyatlar ila boyituvchi, pok yo'ldan adashib yurganlarning so'qir ko'zlarini ochg'uvchi Al-Hodiy, Zul Jalolli val Ikrom, Al-Botin, As-Sabur, Mehrionva rahmli Alloh taborak va taolonling pok nomini dilga jo qilib so'z boshladik [2]." Darhaqiat, turkiy xalqlar islam dinini qabul qilganidan so'ng, shuningdek, istiqlol bergan imkoniyatlar natijasida ko'plab asarlar basmala bilan boshlangan. Tohir Malik ham "Bismillahsiz boshlangan ishning oxiri kesikdir" degan hadisga amal qilgan holda "Nomus" hikoyasini Alloh nomi ila boshlagan. Asar mohiyatiga kelsak, hikoyani o'qir ekansiz, bu voqealar qachon va qayerda sodir bo'lganini o'yashning o'zi noto'g'ri.

Ehtimol, ming yil oldin roviylar naql qilishgandir, balki undan yaqinroqda bo'lgandir. Muhimi bu emas. Muhimi – odamlar orasida nomus atalmish bebafo fazilat borligida. Qayerda nomus bo'lsa, uning muqobilida nomussizlik ham mavjud. Fazilat

va illat orasida mangu jang bor ekan, fazilat tarbiyasiga muhtojlik sezildi. Asrlar shamolini yengib o'tib, bizlarga qadar yetib kelgan rivoyatlar asosida yozilgan mazkur hikoyatdan yozuvchining maqsadi ham aynan shu nazaramizda.

Asar qahramoni Ma'suma obrazida yozuvchi butun bir ayollarga nisbatan, umuman jamiyatga nisbatan har qanday holatda nomus atalmish bebaho ne'matni asrash, xirs va nafs yo'lida ikki dunyosini kuydirmaslik kerakligini uqtirgandek go'yo.

Asar qahramoni Ma'suma har qanday holatida Allohdan umidini uzmaydi. Farzandlari uchun bir burda non izlashga chiqqanida ham butun bir islom olamiga ibrat bo'lgan ayol – Robia Adaviyya haqida eslaydi [5]: "...Robianing otasi va onasi o'ldi. Opalari ham tarqalib ketishdi. Basra shahrida qahatchilik bo'ldi. Bir zolim Robiani olti pulga sotdi. Sotib olgan kishi yetim qiziga ish buyuradi. Robia ishga borar ekan, yiqildi.

Qo'llarini yerga tirab yuzini tuproqqa bosdi: - Yo Rabbim, Yo Alloh, Yo Rahmon, Yo Rahim! Otam yo'q, onam yo'q, men asira bo'ldim. Xo'jayinimning zulmiga da'vom yo'q. Men yolg'iz Sening rizoligingni istarman. Tilagim uldurki, Sen mendan rozi bo'lgil! – Azobli kunlар o'taverdi, og'ir mehnatdan toliqsa-da, ul ojiza munajotdan charchamadi va bir kuni eshitdiki: - Yo Robia! Sen shunday martabaga yetgaysankim, barcha senga hafas qilgay [2]..."

Asar davomida Robia-ul Adaviyya bilan bog'liq rivoyatlar va uning nomi bir necha bor zikr qilingan. "Yo Alloh, bu ojizangni o'z hifzi-himoyangga ol. Ul mahdumai mahzurai xos, ul masturai ixlos, ul so'xtai ishqo ishtiyoq, ul oshiftai qurbu ixtirok, maryami soniyi maqbul Robiat ul-Adaviyya, rahmatullohi alayho martabasini bu ojizangha ham ber [2]..."

Darhaqiqat, vaqt kelganda ba'zi narsalar uchun jonni fido qilish mumkin. Ammo nomusni hech narsaga fido qilish mumkin emas. Chunki nomus jondan ham qimmatlidir. Suvning sofligi unga qiymat bergani kabi, insonning nomusi ham unga qadr keltiradi.

Tohir Malikning "Nomus" asarida ham odamiylik husnining gultoji hisoblangan nomus va hayo fazilati barobarda eng xunuk illatlardan bo'lmish nomussizlik va behayolik illatlari haqida tarixiy rivoyat asosida hayotiy bir haqiqat o'z aksini topgan. Bu asar tarixiy voqealar haqida hikoya qilsada, muallif asar davomida diniy-ma'rifiy motivlarni asar qahramonlariga niyoyatda go'zal tarzda sintez qila olgan. Shuningdek, asarda duo qilish, Allohning yagonaligi haqida, inson hayotida neki sodir bo'lsa behikmat bo'lmasligi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Asarda keltirilgan Mo'mina va Abdulloh suhbatida ham "Yerda o'rmalagan narsa borki, barchasining rizqi Allohning zimmasidadir"(Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi, Hud surasidan) oyatinining asar badiiyatida siztezlashgani asardagi islomiy g'oyalar asosida shakllangan ibratomuz holatni aks ettirgan [1]: " – Onasining janozasidan so'ng Abdulloh Haj ibodatiga bormoq tadorigini boshladi. Tayyorgalik niyoyasiga yetgach, safar kuni arafasida xotinining istagi bilan qiziqdidi:

Men to'rt oylik safarni niyat qildim. Shu to'rt oylik muddatga qancha nafaqa istaysan? Tirik qolishimga yetgulik nafaqa qoldiring, - dedi Mo'mina. Tirikliging va o'liming mening qo'limda emas, Haq taoloning izmidadir. Uday bo'lsa, mening

ADABIYOTLAR

1. Qur'oni Karim oyatlaringin tarjima va tafsiri (Abdulaziz Mansur tarjiması) – T; "Toshkent Islom universiteti nashriyoti", 2009
2. Tohir Malik "Falak" to'plami, "Nomus" hikoyasi, - T., "Hilol nashr", 2017
3. Tohir Malik "Azaliv nasiba" T., "Sano-standart" nashriyoti, 2018
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Sunnyi aqidalar". – T., "Hilol nashr" 2017
5. Robia al-Adaviya(713/714-801) – Zohidlikning ilk vakiilasi.
6. Jean-Pierre Colson, "Cross-linguistic phraseological studies: An overview", Phraseology: An Interdisciplinary Perspective, Amsterdam – Philadelphia 2008, 191-206.
7. Anthony Paul Cowie, "Phraseology", The Encyclopedia of Language and Linguistics, Oxford 1994, 3168-3171
8. Elisabeth Piiranien, "Figurative phraseology and culture", Phraseology: An Interdisciplinary Perspective, Amsterdam – Philadelphia 2008, 207-228
9. Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М., 1977.
10. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка.-М.:1972
11. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999. – 3306.
12. Sabirova S., Ismailova A. FRAZEOLOGIZMLAR VA IDIOMALAR, ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI VA FARQLARI //Science and innovation in the education system. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-100.

rizqim ham sizning qo'lingizda emas, janobi Haqning izmidadir [2]"...

Oliy Imron surasining 185-oyatida "Har bir jon o'limni totguvchidir. Va qiyomat kunida, hech shak-shubhasiz, ajr savoblarining komil suratda olursiz. Bas, kim do'zaxdan chetlatilib, jannatga kiritilsa, muhaqqaq (baxt-saodatga) erishgay. Bu hayoti dunyo esa aldaguvchi matodir" deyiladi [3]. "Nomus"da ham aynan shu narsa insonlarni turli yo'llarda, turli holatlarda sinovdan o'tirib, aldamchi dunyoda o'z nafsiga qul bo'lganlarning ayanchli holati bilan yakun topadi.

"Nomus"da boshdan oxirigacha to'g'rilik, to'g'ri so'zlash va fikr yuritish, duo qilish, nafsga kishanda bo'lmaslik g'oyalari bir qato r ilgari suruladiki, ularning mazmuni diniy manbalarda keltirilgan bir qancha talablar bilan yaqin muofiqlik kasb etadi. Shuningdek, yolg'on, chaqimchilik, tuhmat, inson sha'nini toptash kabi illatlar bilan bir qatorda bu dunyo adolatli ekani, kimga ne qilsang, albatta, qaytishi haqida ham bayon qilingan.

Asarda diniy-ma'rifiy, ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga oid Qur'on oyatlaringin mazmuni o'ziga singdirgan voqealar salmoqli topiladi. Yozuvchining "Nomus" hikoyasida diniy-ma'rifiy yondashuvlar doirasida ilohiyot aqidasining Qur'onda o'z aksini topgan bir qator tavsiflari mazmunini ifodalovchi voqealarga duch kelish mumkin. Asardagi Alloh taolo madhida keltirilgan hamdu sanolar, Allohning 99 ta go'zal ismlaridan namunalarning barchasi Qur'oni Karimning muayyan oyatlari mazmunini o'zida aks ettiradi: "- Alloh as-Sami, Al-Basir, Al-Hakam, Al-Adl, Al-Karim, At-Tavvob, Al-Muntaqim va Ar-Raufdir [2]".

Qur'oni Karimning Hadid surasi uchinchi oyatida : "U (Alloh taolo) Avval va Oxirdir [4]..." yoki Ar-Rahmon surasi 26-27 oyatlardira "Yer yuzidagi barcha jonzot fonyidir. Ulug'lik va ikrom egasi Robbingning o'zigina boqiyidir...", Qasas surasining 88-oyatida "Undan o'zga har bir narsa halok bo'luchidir", Fotir surasining 44-oyatida "U o'ta biluvchidir, o'ta qodirdir..." deyiladi. Adibning "Nomus" hikoyasida ham mana shu oyatlarning mazmuni o'z aksini topgan.

Asar haqiqiy ma'noda diniy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hadislari va go'zal oyatlar bilan birga, insonning iymon va nafsi o'rtasidagi avyosiz jang holatini o'zida aks ettirgan. Asarda inson ijtimoiy hayotining ma'naviy, tarbiyaviy asoslari, tartib-qoidalari, turmush tarzi, an'ana va urflari bilan bog'liq ko'plab holatlarga duch kelish mumkin. Mazkur holatlarda yaxshilik, sahovat, halimlik, poklik, sadoqat, hayo, mehr-muhabbat kabi qator ezzuliklar sodda tilda, turli tashbehtar orqali qo'llanib, yuksak mahorat bilan ifodalangan.

Yurish-turish, turli insonlar bilan muomala, munosabat va gunohlardan tiyilish masalalariga xos ijobjiy va salbiy xislatlar badiiy ta'riflangan. Ta'kidlash kerakki, mazkur xususiyatlari tavsifida adib ularga diniy tomordan berilgan sharh, izoh,ta'rif va tavsiflarga katta e'tibor qaratgan.

Hikoyadagi Qur'on va hadislarda bayon etilgan diniy-ma'rifiy tamoyillar, matnlardagi syujetlar, nafaqat musulmon ilohiyoti va islom huquqining rivojlanishidan, balki, turli jamrlardagi musulmon adabiyotida diniy motivlarning niyoyatda xilma-xil ifodalanan imkoniyatini ham yuzaga keltirgan.